



B. Rasulov, N. Farmanov

DAVLAT VETERINARIYA NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA
CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**DAVLAT VETERINARIYA NAZORATINI
TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI**

**Toshkent – 2023
“Fan ziyosi” nashriyoti**

UDK: 408.314.28

KBK: 48.(Ў36)2

619(083.75)
R 25

B. Rasulov., N. Farmanov

**DAVLAT VETERINARIYA NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH
TAMOYILLARI: o'quv qo'llanma/ Burxon Rasulov, Nizam Farmanov. –
Toshkent: "Fan ziyosi" nashriyoti, 2023. – 276 b.**

*O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish
qo'mitasi xuzuridagi, Ilmiy-texnik kengashning 2023 yil 27 apreldagi 5 - sonli
majlis bayoni bilan nashrga tavsiya etilgan.*

Mualliflar:

B.Rasulov – veterinariya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining Davlat chegarasi va transportda davlat veterinariya nazorati boshqarmasi yetakchi mutaxassisi.

Farmanov Nizam – Samarqand DVMChBU veterinariya farmasevtikasi kafedrası mudiri, veterinariya fanlari nomzodi, dotsent.


Taqrizchilar:

Sh.A.Jabborov – veterinariya fanlari doktori, professor, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari.

X.A.Hamdamov – veterinariya fanlari doktori, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi hayvonlar sog'lig'ini himoya qilish boshqarmasi boshlig'i.

Ushbu o'quv qo'llanma barcha veterinariya meditsinasi oliy ta'lim muassasalari, veterinariya meditsinasi texnikumlari talabalari hamda veterinariya mutaxassislari va chorvadorlar uchun mo'ljallangan. Unda veterinariya sohasida keng tarqalgan atamalar va terminologik birikmalar, shuningdek veterinariya va chorvachilik bo'yicha me'yoriy hujjatlarning loyihalari keltirilgan. Ushbu me'yoriy hujjatlarning yuritishlar bo'yicha loyihalarida hayvonlarning sog'ligi va ulardan olingan mahsulotlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha belgilangan xalqaro standartlar kiritilgan

ISBN: 978-9943-9608-6-2



© Burxon Rasulov, Nizom Farmonov, 2023
© "Fan ziyosi" nashriyoti. 2023

MUNDARIJA

Kirish.....	4
1-bob. Veterinariya inspektorlarining faoliyati haqida	11
2-bob. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda veterinariya xizmatining o'rni	34
3-bob. O'zbekiston Respublikasida davlat veterinariya inspeksiyasi to'g'risida va Nizom Loyixasi.....	49
4-bob. Davlat veterinariya nazorati ostidagi ob'ektlar to'g'risida va Ob'ektlarga ro'yxatga olish raqamlarini berish to'g'risida Qo'llanma loyihasi	86
5-bob. Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirilishi va shu to'g'risida Nizom loyihasi	107
Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlari topshirish to'g'risida shartnoma namunasi	121
Davlat veterinariya inspektorlari uchun forma va farqlovchi belgilarni kiyish qoidalari	130
I-qismga xulosalar	137
II-qism. Kirish	139
I- bo'lim. Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ularni va ulardan olingan mahsulotlarni kuzatib borish	142
Hayvonlarni va ulardan olingan mahsulotlarini identifikatsiya qilish va kuzatib borish tartibi" to'g'risida Nizom loyihasi.....	151
II-bo'lim. Ma'lumotlar bazasi....	211
Veterinariya sohasida davlat ma'lumotlar bazasini shakllantirish va undan foydalanish to'g'risida Nizom loyihasi.....	214
III- bo'lim. Veterinariya monitoringi to'g'risida	248
Davlat veterinariya monitoringini o'tkazish va uning ma'lumotlaridan foydalanish Qoidalari loyihasi	251
Veterinariya tadbirlari iqtisodiyoti to'g'risida	264
II-qismga xulosalar	268
Foydalanilgan adabiyotlar	271

*"Har qanday qat'iyatsizlik faoliyat
bankrotlikka olib keladi."*

I. Gyote

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisini kelib chiqishi hayvonotga mansub oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va eksport salohiyatini kengaytirish dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi chorvadorlari baliq, go'sht va sut, asal tarmoqlarining ekologik toza mahsulotlari eksport mavqeini rivojlantirish uchun yaxshi istiqbolga ega, asal, tuxum va ayrim turdagi xom ashyolari bo'yicha esa allaqachon dunyodagi doimiy eksport qiluvchi davlatlardan biriga aylandi. Mamlakatimiz Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqiga va Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar yaratib, ayni paytda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikka yuqori talablar qo'yish mumkin.

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish, shu bilan ularning tannarxini pasaytirish davlatimizning asosiy iqtisodiy vazifalaridan biridir. Ushbu vazifani amalga oshirishda chorvachilik tarmoqlarini jadallashtirish va ixtisoslashtirish, butun texnologik jarayonni takomillashtirish bilan bir qatorda mamlakat veterinariya xizmati tomonidan amalga oshiriladigan veterinariya tadbirlariga ham muhim o'rin beriladi. Veterinariya xizmatining ahamiyati hayvonlarning yuqori konsentratsiyali va chuqur ixtisoslashuv hamda chorvachilik mahsulotlar ishlab chiqarishini qayta ishlash qishloq va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari bilan birlashtirish imkoniyati yanada oshadi.

Bunday sharoitda veterinariya mutaxassislarining faoliyati chorvachilikning iqtisodiy samaradorligini har tomonlama oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Veterinariya tadbirlarining samaradorligi hayvonlarning kasallanishi va o'limini kamaytirish, mahsuldorligini oshirish, davolash vaqtini qisqartirish, hayvon mahsulotlari sifatini yaxshilashda namoyon bo'ladi. Biroq, bugungi kunda hayvonlarning asosiy qismi xususiy xo'jaliklarda, mamlakatda chorvachilik xo'jaliklarni yiriklashtirish bo'yicha muayyan chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Shu bilan bir qatorda veterinariya ishi hayvon mahsulotlari yoki hayvonlar bilan aloqa orqali turli kasalliklarni yuqishining oldini olish va

atrof-muhitni muhofaza qilish orqali odamlar sog'ligini muhofaza qilishga qaratilgan. Aholini hayvonlar va odam uchun umumiy bo'lgan kasalliklardan muhofaza qilish hayvonlar orasida bunday kasalliklarning mavjudligi yoki yo'qligiga bog'liq. Hayvonlarning kasalliklarini bartaraf etish orqali veterinariya vrachlari odamlarni yuqumli kasalliklardan himoya qiladi.

Go'sht, sut va boshqa nazorat ostidagi mahsulotlarni veterinariya-sanitariya ko'rigidan o'tkazib, yaroqsiz mahsulotlarni muomaladan chiqarib, veterinariya mutaxassislari mamlakatimiz aholisi sog'ligini saqlaydi. Bu veterinariya mutaxassislarning ishini katta ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi.

Mamlakatimizda veterinariya va chorvachilik sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida respublikamiz chorvachilik mahsulotlarining asosiy turlari bilan o'zini-o'zi ta'minlashi hamda ushbu mahsulotlar eksportini oshirish imkoni katta.

Oziq-ovqat xom ashyosi va mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlash – bu mamlakat rahbariyati tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalardan biri deb ta'kidlanadi. Lekin, bu nafaqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoati tizimida ilmiy va texnologik taraqqiyot natijalaridan foydalanishiga, balki xom ashyo va mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va sotish bo'yicha ilmiy asoslangan xamda xalqaro standartlarga mos bo'lgan davlat veterinariya nazoratini tashkil qilishiga ko'p jihatdan bog'liq.

Ushbu o'quv qo'llanmaning maqsadi veterinariya ishini rejalashtirish, xavflarni identifikatsiya qilish va boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini bo'yicha davlat veterinariya nazoratini normalari va qoidalari loyihasini tavsiflashdir. Bunda oziq-ovqat xom ashyosi va mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste'mol qilishning bugungi kunning sharoitlarida veterinariya nazorati mexanizmining namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlari ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan.

Qonunchilik, umuman aytganda – bu samarali boshqaruvga erishish uchun asosiy tarkibiy qismidir. Veterinariya qonunchiligi esa – veterinariya va chorvachilik mutaxassislarning tirik hayvonlar hamda kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlar va xom ashyoni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish va sotish bilan bog'liq ishlarini qamrab oluvchi huquqiy qoida va normalar majmui bo'lib, unga O'zbekiston

Respublikasining "Veterinariya to'g'risida" qonuni va mamlakatda veterinariya faoliyatini tartibga soluvchi tegishli qonun osti hujjatlar kiradi.

O'zbekiston veterinariyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega, bular:

1) mamlakatimizda veterinariya sohasida ishlarini ijro etuvchi, davlat veterinariya muassasalari tarmog'ini tashkil qiluvchi va yangiliklarni yaratuvchi boshqaruv davlat qo'lida to'plangan. Davlat veterinariya xizmati asosiy veterinariya tadbirlarini amalga oshirish va davlat veterinariya nazorati uchun mas'ul hisoblanadi. Veterinariya mutaxassislarini tayyorlash va veterinariyadagi ilmiy tadqiqotlar davlat tomonidan tashkil etiladi va moliyalashtiriladi. Davlat budjetida har yili veterinariya xizmati tuzilmasini saqlash va epizootiyaga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun xarajatlar ko'zda tutilgan;

2) veterinariya xizmatining birligiga veterinariya ishlarini boshqaruvchi yagona tashkilot – Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi tomonidan erishiladi. O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida" qonuni, davlat, idoraviy, ishlab chiqarish va xususiy veterinariya faoliyatini tartibga soluvchi bu birlik yagona veterinariya qonunchiligi bilan ta'minlanadi;

3) veterinariya faoliyatining profilaktik yo'nalishi – O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida"gi qonuniga muvofiq veterinariya faoliyatining asosiy yo'nalishi hayvonlarning yuqumli va yuqumsiz kasalliklarini oldini olish. Veterinariya tadbirlarining umumiy hajmida profilaktik tadbirlar taxminan 90%-ni tashkil qiladi. Veterinariya faoliyatining profilaktik yo'nalishi hayvonlarning kasallanishini kamaytirish, qishloq xo'jalik hayvonlar va parrandalarning o'ta xavfli kasalliklarini oldini olishni ta'minlaydi;

4) chorvachilik xodimlari va ijro hokimiyati organlarining veterinariya ishlarida keng ishtiroki. O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida"gi qonunida hayvonlarning ommaviy yuqumli va yuqumsiz kasalliklari paydo bo'lishi holatlarida Markaziy va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalarini, hayvonlar egalari va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar, tashkilotlar va fuqarolarning majburiyatlari – chorvachilikning veterinariya osoyishtaligini ta'minlash va ijro etuvchi hokimiyat organlarining hududlarda veterinariya ishlarini tashkil etish vazifalari va boshqalar belgilangan;

5) inson va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklarga qarshi kurashish bo'yicha sog'liqni saqlash organlari bilan faol hamkorlikni ta'minlaydi;

6) mamlakat veterinariya xizmati boshqa davlatlar bilan tashqi savdoning mustahkamlanishi, hayvonlar va kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlarini mamlakatga olib kirishning ko'payishi munosabati bilan xorijiy mamlakatlar veterinariya xizmatlari bilan hamkorligini chuqurlashtiradi. Bundan tashqari, mamlakat veterinariya xizmati va xalqaro veterinariya tashkilotlari o'rtasida yanada yaqin aloqalar o'rnatiladi.

Ijtimoiy o'zgarishlarga olib kelgan yangi iqtisodiy sharoitlar veterinariya fanlarini o'qitishda, jumladan, "zamonaviy sharoitlarda davlat veterinariya nazorati" kursiga ma'lum o'zgartirishlar kiritishni talab qiladi. Ushbu qo'llanma bu muammoni qisman bo'lsa ham hal etishga veterinariya inspektorlariga amaliy va uslubiy yordam beradi.

O'quv dasturlari mamlakatdagi amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni va yangi qonunchilik hujjatlarni hisobga olgan holda yangi mazmun bilan to'ldirilishi kerak. Idoraviy va ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlari hamda xususiy veterinariya faoliyatini ilmiy qo'llab-quvvatlashni tashkil etish, chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda Hazard Analysis Critical Control Point (HACCP) tizimini tatbiq etishni o'rganish kabi predmetlar esa veterinariya vrachlarining bilim-tajribasini boyitadi.

Veterinariya inspektorlari uchun o'ta xavfli yuqumli kasalliklar bo'yicha uzoq muddatli davlat yoki nodavlat dasturlari ishlab chiqilgan bo'ladi. Ularning tarkibiy va mantiqiy tuzilishiga quyidagilar kiradi: tashkiliy-iqtisodiy, veterinariya-sanitariya va maxsus veterinariya tadbirlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, moliyaviy harajatlar va hayvon kasalliklarini oldini olish choralari. Boshqacha aytganda, veterinariya inspektori bozor islohotlari sharoitida ishlash va veterinariya bo'yicha normativ hujjatlarni ishlab chiqarishda qo'llashga qodir mutaxassis bo'lishi lozim. Jismoniy va yuridik shaxslar, davlat korxonalari, firmalar va boshqalarning chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish faoliyati ko'lamiga qarab davlat manfaatlariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Minglab va ba'zan o'n yoki yuz minglab odamlar hayoti chorvachilik mahsulotini ishlab chiqarish va sotish bilan shug'ullanuvchilarga bog'liq va bizlar shunday tizim yaratishimiz kerakki,

ulardan birontasi ham o'z biznesini o'zining faqat ichki nazoratsiz biznesi deb hisoblamasin.

Shuning uchun nafaqat veterinarlar, balki barcha darajadagi mansabdor shaxslar ushbu sohadagi faoliyati uchun o'zlarini javobgarlikdan ozod deb o'ylamasligi kerak. O'zbekiston Respublikasi "Veterinariya to'g'risida"gi qonunining 2-bobida bu vazifalar belgilangan, faqat ularni to'liq hajmda hal qilish uchun ularni bajarilishi bo'yicha aniq mexanizm ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq etish kerak.

2019 yil 28 martda qabul qilingan "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentning № PF-5696 sonli farmoni va davlat rahbarining keyingi qarorlari chorva mollari va parrandalar bosh sonini barqaror oshirishini ta'minlash, veterinariya nazoratini kuchaytirish va veterinariya servis sifatini oshirish, hayvonlarning sog'ligini himoya qilish bo'yicha samarali ishlarni tashkil etish, epizootik osoyishtalik va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

Chorvachilik bilan shug'ullanadigan yirik fermer va xususiy xo'jaliklari samarali faoliyat yuritishi uchun zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalar bilan ta'minlashi oson bo'ldi. Hozirgi kunda ular qishloq xo'jaligi mahsulotlari nafaqat yetishtirish, balki bu mahsulotlarni chuqur qayta ishlashda samarali faoliyat ko'rsatish mumkin. Chorva mollar va parrandalar mahsuldorligini yaxshilashda zamonaviy veterinariya va seleksiya yutuqlaridan keng foydalanish, yetishtirilgan xom ashyo va mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va sotishni tashkil qilish uchun yaxshi bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislar kerak.

O'zbekiston chorvachiligi o'ziga xos xususiyatlarga ega, misol uchun qoramollarning 94% noma'lum zotli va mahsuldorligi past turlaridan iborat bo'lib, ozuqaning o'tkir yetishmasligi sharoitida shaxsiy mulkchilikda, ya'ni xususiy xo'jaliklarda to'plangan. Qoramollarning atigi 4,9% fermer xo'jaliklarda saqlanadi, shuning uchun chorvachilik mahsulotlarining asosiy qismi (90%-gacha) kichik oilaviy xo'jaliklarida yetishtiriladi va sotuvga chiqariladi. 2019 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra qoramollarning umumiy soni 12726,6 ming boshdan, qo'y va echkilarning soni 21 mln boshdan oshdi.

O'rtacha bitta shaxsiy xo'jalikda 2,8 bosh qoramol, shu jumladan 1,3 bosh sut sog'iladigan sigir mavjud – bu xayvonlar oilaviy jamg'armalarni yig'ish va ko'paytirish vazifasini bajaradi. Bu shakli, aholi hali ham foydali bank depozitlari va qimmatli qog'ozlariga mablag' qo'yish kabi xizmatlardan keng foydalanishga o'rganmagan yoki, ehtimol, ular hozirgi vaqtda bunday tuzilmalarga ishonmaydi.

Qoramolchilik yo'nalishida 2021 yilning 1-iyulga mavjud ma'lumotlarga ko'ra respublikada ishga tushirilgan yirik loyihalar natijasida quvvati 100 boshdan 300 boshgacha bo'lgan xo'jaliklar – 1 ming 124 tani, 300 boshdan 500 boshgacha bo'lgan xo'jaliklar soni – 460 tani, 500 boshdan 1000 boshgacha bo'lgan xo'jaliklar soni – 256 tani, 1000 bosh va undan yuqori bo'lgan hayvon xo'jaliklar soni - 136 tani tashkil etmoqda.

Bu statistika ma'lumotlari chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar sonining keskin oshganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ularning soni chorvachilik mahsulotlarining narxlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatish yoki hayvonlarning naslini yaxshilash va mahsuldorlikni oshirishga ta'sir ko'rsatish uchun yetarli emas.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni birlashtirishning asosiy afzalligi qishloq xo'jalik ekinlarini va hayvonlarni yetishtirishda tizimli yondashishdir. Chunki ular mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilishga qaratilgan, chorva mollarining mahsuldorlik darajasini oshirish orqali sut va go'sht ishlab chiqarishni ko'paytirish ularning asosiy vazifasiga aylangan. Qishloq xo'jalik birlashmada har bir mutaxassis faqat o'z professional vazifalarini bajarish bilan shug'ullanadi. Fermerni esa yirik kompaniya bilan taqqoslab bo'lmaydi – darhol yorqin farq ko'rinadi, axir fermer boshliqdan tortib, yuk tashuvchigacha bo'lgan barcha kasblarni egallagan shaxs.

Go'sht narxini barqarorlashtirish uchun mamlakatga tirik hayvonlar hamda, yangi sovutilgan va muzlatilgan go'shtlar – mol go'shti va cho'chqa go'shti, tovuq go'shti va boshqalar olib kiriladi. Masalan, 2019 yilning yanvar – iyun oylarida Qozog'iston, Germaniya, Avstriya, Niderlandiya, Ukraina, Estoniya va boshqa mamlakatlardan 59,3 mln. AQSh dollarga 75,2 ming bosh qoramol, 159,3 ming bosh qo'y va echkilar 13,2 mln. AQSh dollar miqdorida olib kelindi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari va oziq-ovqat bozorini rivojlantirish va tartibga solishning ustuvor yo'nalishi – bu ixtisoslashtirilgan go'sht va sut chorvachiligini jadal rivojlantirish tufayli chorvachilik mahsulotlari importini bosqichma-bosqich kamaytirish. Ichki bozorda import o'rnini bosish orqali mamlakat aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish va raqobatbardoshligini oshirish keyingi yillarda mahalliy chorvachilikning asosiy maqsadi bo'lishi kerak.

Davlatimiz ko'plab mamlakatlar bilan tashqi savdo va boshqa aloqalarga ega, chorvachilikning xilma-xil tovarlari chet eldan olib keltiriladi – naslli mollar, uy, hayvonot bog'i hayvonlari, oziq-ovqat mahsulot va qo'shimchalar, biologik preparatlar va boshqa narsalar. XEBga a'zo barcha mamlakatlarning yakuniy maqsadi – butun hudud uchun ma'lum kasalliklar bo'yicha farovonlik maqomini olish va saqlab qolishdir.

Shunday qilib, davlat chegarasida chorva mollari va boshqa tovarlarning eksport-import oqimlari faol ravishda kesib o'tilmoqda, bu uni filtrga aylantiradi. Shu orqali xavfli yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchilarining, barcha turdagi toksinlarning, shu jumladan odamlarga tasir etuvchi moddalarning kirib kelishi xavfi bor. Shuning uchun qo'shni davlatlar bilan chegarada davlat veterinariya nazorati ayniqsa muhim rol o'ynaydi.

Ushbu o'quv qo'llanmada barcha turdagi chorvachilik, transport, qayta ishlash sanoati, oziq-ovqat bozorlari, davlat chegaralari, korxonalar va tashkilotlarda veterinariya-sanitariya tadbirlarini tashkil etish, hayvonlar va kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlar bilan bog'liq davlat veterinariya nazorati tartibi bo'yicha mulohaza bayon etiladi.

Ushbu qo'llanmada ishlatiladigan nomuvofiqliklarni oldini olish uchun asosiy atamalar beriladi. Hamda har bir bobning boshida qisqa lug'at keltirilgan.

1- bob. Veterinariya inspektorlarining faoliyati haqida

Bugun biron bir mamlakat intensiv xalqaro qarindoshlik, turizm va savdo aloqalari bilan bog'liq bo'lgan sharoitda xorijiy davlatlardan patogenlarning umuman kiritilmasligiga kafolat berolmaydi. Epizootiyalarni oldini olish va ksenobiotiklar (ayniqsa pestitsidlar va antibiotiklar) keltirib chiqaradigan kasalliklardan samarali himoya qilish uchun ishonchli diagnostika usullari va o'ziga xos profilaktikasini kuchaytirish kerak, joylarda inspeksiya ishlarini tashkil etish, kerak bo'lganda chegara veterinariya xizmati tomonidan karantin va veterinariya-sanitariya chora-tadbirlarini o'tkazish zarur.

Yuqumli va invazion kasalliklarning oldini olish veterinariya fani va amaliyoti vakillarining ishlariga, ayniqsa, oddiy ijrochilar – "yer"da ishlaydigan veterinariya mutaxassislarining faoliyatiga bog'liq. Bir tomondan o'ziga xos diagnostik preparatlar, vaksinalar, dorivor zardoblar, kasalliklarni oldini olishning biologik usullarini yaratish yoki sotib olish va tadbir qilish, boshqa tomondan esa – yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish zoogigienik va veterinariya-sanitariya tadbirlari, hayvonlarni doimiy tekshirish va emlashdir.

Hozirgi kunda respublikamiz veterinariya xizmati faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida" Qonuni va unga muvofiq hayvonlar sog'ligini muhofaza qilish, aholini hayvonlar va odamlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklardan himoya qilish, veterinariya sanitariya jihatidan xavfsiz bo'lgan chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan veterinariya qonunchiligi bilan tartibga solinmoqda.

Qonun veterinariya sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi, veterinariya ishlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini va veterinariya xizmatlarining asosiy vazifalarini, ularning tashkiliy tuzilmasini belgilaydi, veterinariya sohasida yetakchilik tizimini, davlat, idoraviy va ishlab chiqarish hamda xususiy amaliyoti funksiyalarini belgilaydi, davlat veterinariya xodimlari, veterinariya mutaxassislari, idoraviy va ishlab chiqarish xizmatlari, shuningdek, xususiy amaliyotda davlat veterinariya nazorati mutaxassislarining huquqiy himoyasini aks ettiradi, hayvonlar

kasalliklarini oldini olish va yo'qotish bo'yicha asosiy choralarni belgilaydi.

Qonunda davlat veterinariya xizmatini yuritish va moliyalashtirish tartibi, shuningdek veterinariya qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikka tortish asoslari belgilangan. Binobarin, ushbu normativ-huquqiy hujjatning amalga oshirilishi xayvonlarning hayoti va sog'ligi muhofaza qilinishi, xavfsiz va sifatli chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishi, aholi sog'ligini inson va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklardan himoya qilish hamda mamlakat xududlarini chetdan xavfli hayvon kasalliklarini kirishidan himoya qilishga qaratilgan.

Qonun O'zbekiston Respublikasida veterinariya tibbiyotining huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilovchi hujjat sifatida 6-ta bob va 32-ta moddadan iborat.

Tashkiliy jihatdan O'zbekiston Respublikasi veterinariya xizmati tizimi sifatida davlat, idoraviy va ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlaridan iborat bo'lib, umumiy vazifalar bilan bog'langan va maxsus vazifalarni bajaruvchi tashkilotlar hamda boshqaruv organlarning huquqiy jihatdan asoslangan tizimlarini qamrab oladi. Ulardan tashqari tizimdan ajratilgan holda yuridik va jismoniy shaxslar xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshiradi.

Hozirgi vaqtda respublikada Qonunga muvofiq to'rt turdagi veterinariya faoliyati tashkil etilgan:

- a) davlat veterinariya xizmati;
- b) idoraviy veterinariya xizmati;
- v) ishlab chiqarish veterinariya xizmati;
- d) xususiy veterinariya amaliyoti.

Davlat veterinariya xizmati mamlakatning ma'muriy taqsimotiga muvofiq ma'muriy-hududiy asosda qurilgan bo'lib, davlat veterinariya tashkilotlarida jami 7 mingdan ortiq veterinariya mutaxassislari mavjud. Ular asosan tumanlar (shaharlar) va viloyatlarda faoliyat yuritmoqda.

Biroq, idoraviy va ishlab chiqarish veterinariya xizmatlari, shuningdek, xususiy veterinariya amaliyotida mutaxassislar soni aniq ma'lum emas, chunki ularning soni veterinariya xizmati bozorining ehtiyojlariga qarab o'zgarib turadi.

Mavjud tuzilma respublikada hayvonlarning sog'ligi holati va xavfsiz chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish ustidan nazoratni ta'minlashi hamda hayvonlarning yuqumli kasalliklarini oldini olish va yo'q qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun tuzilgan.

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi o'z organlari bilan veterinariya sohasidagi davlat dasturlari va barcha turdagi veterinariya tadbirlarini ishlab chiqish, tashkil etish va amalga oshirishda yetakchi rol o'ynashi kerak. Davlat veterinariya xizmatiga veterinariya sohasida ko'plab vazifalarni bajarish yuklatilgan, shuning uchun u maxsus tashkiliy va nazorat vakolatlariga ega.

Hozirgi kunda veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining (bundan buyon matnda – Qo'mita) barcha mutaxassislari pullik xizmatlar ko'rsatish bilan bir vaqtning o'zida davlat veterinariya nazoratini amalga oshirishib kelmoqda. Veterinariya nazorati mustaqilligi va veterinariya inspektorlarining xolisligi to'g'risidagi Butunjahon hayvonlar sog'ligini saqlash tashkiloti, yoki World Organisation for Animal Health (WOAH yoki XEB) tamoyillariga to'g'ri kelmaydi.

Hozirgi sharoitda boshqaruv va nazorat o'rtasida jiddiy nomuvofiqliklar mavjud bo'lib, manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin. Qonunning 2-moddasining 2- xat boshida "Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi" deb ko'rsatilgan. 1992 yil 24noyabrda O'zbekiston WOAH (XEB) ning to'laqonli a'zosi bo'lgan.

Tarkibiy islohotlar zarur, ular belgilangan hududda va umuman respublikada veterinariya nazoratining ayrim jihatlarini takomillashtirishga qaratilgan aniq islohotlar guruhidan iborat bo'lgani yaxshi. Uning maqsadi zamonaviy veterinariya tizimiga hozirgi va kelajakda mamlakat veterinariya tibbiyoti va chorvachiligi uchun noxush holatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan nomutanosibliklarsiz erta o'tishni ta'minlashdir. Ular xalqaro standartlarga ham javob berishi lozim.

Davlat veterinariya nazoratining asosiy mazmuni – O'zbekiston Respublikasi veterinariya qonunchiligi buzilishini o'z vaqtida aniqlash, to'xtatish va oldini olish yo'li bilan hayvonlarning yuqumli va ommaviy

yuqumsiz kasalliklarining profilaktikasini hamda veterinariya nuqtai nazaridan chorvachilik mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashdir.

Kasalliklar uchun farovonlik holatini rasmiy tan olish tartib-qoidalarini amalga oshirishni boshlash va quyidagi kasalliklar uchun hujjatlarni tayyorlash kerak, bular: jo'ftoyqlik xayvonlar oqsili, YShM yuqumli plevropnevmoniyasi, MShM vabosi, otlarning Afrika vabosi, cho'chqalarning klassik vabosi, YShM gubkasimon ensefalopatiyasi.

Bu kasalliklar bo'yicha farovonlik holatini olish barcha davlatning ustuvor maqsadi deb tan olingan. Farovonlik holati xalqaro savdoning asosiy elementi bo'lib, ushbu maqomlarni olmasdan turib hayvonot mahsuloti yoki xom ashyosini eksport qilish mumkin emas. Ushbu protseduralarni bajarish uchun 3-5 yil kerak bo'ladi, shuning uchun imkon qadar tezroq boshlash kerak.

Shuning uchun davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmlari, shuningdek, hayvonlarni identifikatsiya va ro'yxatga olish tizimini ishlab chiqish va tatbiq etishda ularni inobatga olish kerak bo'ladi.

Bu muammoni hal etish uchun Davlat veterinariya inspeksiyasini Qo'mitaning tarkibida alohida Bosh boshqarma ko'rinishida ajratib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar) inspeksiya bo'limlarini tashkil etish kerak bo'ladi. Bunda ba'zi bir veterinariya muassasalari (veterinariya referent markazi, bir nechta laboratoriyalar va h.k.) to'g'ridan-to'g'ri Bosh davlat veterinariya inspeksiyasiga bo'ysunadigan bo'ladi. Davlat veterinariya inspeksiyasining vazifalariga quyidagilar kiradi:

veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash;

veterinariya va chorvachilik sohalaridagi normativ-huquqiy xujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishida davlat nazoratini amalga oshirish;

davlat veterinariya nazoratini amalga oshirish;

respublika hududiga hayvonlarning yuqumli kasalliklari qo'zg'atuvchilarini olib kirilishidan muhofaza qilish, shuningdek, hayvonlar, ushbu sohaga mansub mahsulot va xom ashyo, veterinariya dori

vositalari, oзуqalar va oзуqabop qo'shimchalarni tayyorlash, olib o'tish (tashish), eksport va import qilishi ustidan davlat veterinariya nazoratini amalga oshirishi;

davlat veterinariya inspeksiyasi nazorati ostidagi tovarlarning O'zbekiston Respublikasiga olib kirilishi, O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzitida veterinariya hujjatlari rasmiylashtirilishini nazorat qilish;

davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni olib kirishidan oldin yuridik va jismoniy shaxslarga eksport va tranzit qiluvchi mamlakatlardagi epizootik vaziyat to'g'risida axborot berish;

boshqa davlatlardan hayvonlarning o'ta xavfli yuqumli kasalliklari, hayvonlarning kelib chiqishi sabablari noma'lum bo'lgan yalpi kasalliklari va hayvonlarning ilgari qayd etilmagan yuqumli kasalliklari paydo bo'lgan taqdirda davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni olib o'tishga taqiq, cheklov joriy etish hamda ularni olib o'tishni tiklash to'g'risida qaror Bosh davlat veterinariya inspektori tomonidan qabul qilish;

davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq ishlab chiqarilishi ustidan davlat veterinariya nazoratini olib borish;

xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshirish uchun tadbirkorlik sub'ektlariga belgilangan tartibda litsenziya berish, shuningdek litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan davlat veterinariya nazoratini amalga oshirish;

davlat va idoraviy veterinariya xizmatlari, ichki ishlar organlarining karantin tadbirlarini ta'minlash bo'linmalarining veterinariya sohasiga oid faoliyatini belgilangan tartibda nazorat qilish;

veterinariya sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish ishlarini o'z vaqtida va tizimli ravishda tashkil etish bo'yicha tegishli davlat boshqaruv organlari bilan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

jismoniy va yuridik shaxslardan epizootiyaga qarshi tadbirlar, davolash, veterinariya-sanitariya tadbirlarining bajarilishini talab qilish;

veterinariya inspeksiyasiga taaluqli jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan taqdim etiladigan hisobotlar shakllarini tasdiqlash va uning muddatlarini belgilash;

veterinariya dori vositalari, ozuqa va ozuqabop qo'shimchalarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, ularning veterinariya ekspertizasi va sinovi natijalariga ko'ra davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda ularga ro'yxatdan o'tkazilganlik guvoohnomalarini berish;

veterinariya dori vositalari, ozuqalar va ozuqabop qo'shimchalarning veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq ishlab chiqarilishi, tayyorlanishi va qadoqlanishi ustidan nazorat qilish;

veterinariya dori vositalarini, ozuqalar va ozuqabop qo'shimchalarning sifati hamda muomalasi yuzasidan nazoratni amalga oshirish;

jismoniy va yuridik shaxslarni tekshirishlar orqali veterinariya sohasidagi veterinariya qonunchiligining bajarilishini nazorat qilish;

xalqaro epizootik vaziyatni nazorat qilishda davlatlar o'rtasida hamkorlikni amalga oshirish;

veterinariya dori-darmonlarining chakana va ulgurji savdosini, veterinariya dori-darmonlarini ishlab chiqarishni bugungi kunda litsenziyalash, veterinariya dori-darmonlarini hamda ozuqalarni va ozuqa qo'shimchalarini ro'yxatga olish orqali veterinariya farmasevtikasi faoliyatini nazorat qilish;

bozorlarda, savdo tashkilotlarida va boshqa savdo ob'ektlarda (barcha turdagi marketlar, savdo nuqtalar, yarmarka va boshqalar) kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni, shuningdek bozorlarda realizatsiya qilinadigan o'simlik maxsulotlarini qabul qilish, saqlash hamda realizatsiya qilish veterinariya-sanitariya ekspertiza xulosasi berilishi ustidan nazorat qilish.

Davlat veterinariya inspeksiyasiga berilgan huquqlardan foydalanib, idoralararo milliy xizmat vazifalarini bajarishi, veterinariya ishlarining tashkilotchisi bo'lishi, nafaqat tuman, viloyat, Respublikada veterinariya xizmatini boshqarishi, balki korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklarida hamda shaxsiy uy xo'jaliklarida veterinariya chora-tadbirlarni o'tkazishi ustidan nazorat qilishi ham yuklatilgan bo'ladi.

Davlat chegarasida davlat veterinariya inspektorlari quyidagi vazifalarni bajaradi:

barcha turdagi transport vositalarida hayvonlar va odamlarning sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan kasalliklarga chalingan hayvonlar

aniqlangan hollarda ushbu hayvonlarni yo'q qilib tashlash to'g'risida, shuningdek iste'molga yaroqsiz deb topilgan, ushbu sohadagi mahsulot va xom ashyoni utilizatsiya yoki yo'q qilib tashlash haqida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi va bajarilishini nazorat qiladi;

o'z vakolati doirasida davlat veterinariya xizmati nazoratidagi ob'ektlarga moneliksiz kirib, nazoratni o'tkazadi va veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi;

temir yo'l vagonlari, kemalar, havo kemalari va boshqa transport vositalari holatining veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga nomuvofiqligi aniqlangan taqdirda konunchilikka asoslanib, ulardan foydalanishni to'xtatadi va taqiqlaydi;

veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarining buzilishlari aniqlangan taqdirda, chorvachilik mahsuloti va xom ashyoni ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi hamda saqlovchi korxonalarda sodir etilgan hollar to'g'risida Davlat chegarasida davlat veterinariya nazorati boshqarmasiga (bo'limiga) xabar beradi;

chegara oldi tumanlarda, qo'shni davlatlarda yuzaga kelgan epizootik holat to'g'risida tizimli ravishda Davlat chegarasida davlat veterinariya nazorati boshqarmasiga (bo'limiga) xabar beradi;


Davlat chegarasida davlat veterinariya inspektorlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Tuman (shahar) davlat veterinariya inspektorining vazifalariga quyidagilar kiradi:

epizootik monitoringni amalga oshirishda bevosita qatnashish va nazoratini amalga oshirish, hamda natijalarni tahlil qilish;

hayvonlar kasalliklarining paydo bo'lishi va ularning nobud bo'lishi sabablarini tahlil qilish, ushbu kasalliklar profilaktikasi hamda ularni davolash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda qatnashish;

ayaylovlarning veterinariya-sanitariya holatini, sug'orish joylari, hayvonlar yo'llarini, shuningdek, inkubatorlar, baliqchilik suv omborlari, qushxonalar va boshqa ob'ektlar holati va faoliyati ustidan tizimli ravishda veterinariya nazoratini o'rnatish;



hayvonlar jasadlarini utilizatsiya qilish yoki yo'q qilishda veterinariya nazoratini amalga oshirish;

chorvachilik fermalari va kelib chiqishi xayvonotga mansub mahsulotlari va xom ashyosini saqlash va qayta ishlash ixtisoslashtirilgan korxonalarda dezinfeksiya, desinseksiya va deratizatsiya tadbirlarini tashkil etilganligi va o'tkazilishi ustidan nazorat qilish;

veterinariya kuzatib borish hujjatlarni rasmiylashtirish va hayvonlar o'limi yoki majburiy suyilishining sabablari to'g'risida so'ralgan joylarga (sug'urta tashkilotlari, sud, tergov organlari va h.k.) xulosa va boshqa rasmiy xujjatlarni taqdim etish;

veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirish va uning ustidan tizimli ravishda nazorat qilish;

Qonunga muvofiq veterinariya uchastkalarining va bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyalarining mudirlari tegishli uchastkalar va bozorlardagi davlat veterinariya inspektorlari hisoblanadi. Ular davlat veterinariya inspeksiyasi Bosh boshqarmasi boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda egallab turgan lavozimidan ozod etiladi.

Veterinariya uchastkalari mudirlariga o'zlariga tegishli mintaqani osoyishtaligini, davlat veterinariya nazorati ostidagi tovarlarning veterinariya, veterinariya-sanitariya xavfsizligini ta'minlash uchun quydagi asosiy vazifalar yuklatilgan:

O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektori tomonidan tasdiqlangan veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni, shuningdek chiqindilarni, ishlab chiqarish, saqlash va sotish uchun mo'ljallangan binolar va boshqa inshootlarda veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini bajarilishi ustidan nazorat qilish;

jismoniy va yuridik shaxslarga qarashli hayvonlarni identifikatsiya qilish, ularni hisobga olish, hisobdan chiqarish va saqlash ishlarini hamda hayvonlar va ularning egalarini, xo'jaliklarni ro'yxatga olish bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish va yuritishda veterinariya, veterinariya-

sanitariya talablariga rioya qilinishi ustidan tizimli ravishda davlat veterinariya nazoratini o'rnatish;

nazorat ostidagi mahsulotlarini idoraviy va ishlab chiqarish veterinariya nazoratidan o'tkazishda ISO xalqaro standartlarini mukammal bilish, oziq-ovqat xavfsizligi (NASSR yoki shunga o'xshash tizim) uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan xavflarni aniqlash, baholash va boshqarishni nazorat qilish;

identifikatsiya qilingan hayvonlarning hamda kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlarning joyini o'zgartirilishini kuzatib borishni ta'minlashning ustidan nazorat qilish;

Veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyasining asosiy vazifasi – bozorga yetkazib beriladigan go'sht, go'sht mahsulotlari, sut, sut mahsulotlari, tuxum, baliq, qo'ziqorin va o'simlik oziq-ovqat mahsulotlarini veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazish, shuningdek, tekshiriladigan mahsulotlar va xom ashyo orqali yuqumli hayvon kasalliklari tarqalishining oldini olish chora-tadbirlarini tashkil etishni nazorat qilish;

Oziq-ovqat mahsulotlarini veterinariya-sanitariya ekspertizasi amaldagi standartlar, usullar, qoidalar va ko'rsatmalarga muvofiq amalga oshirilishini nazorat qilish.

Laboratoriya mudiri – davlat veterinariya inspektori sifatida o'tkazilgan ekspertizaning to'g'riligi, bozorda sotish uchun ruxsat etilgan oziq-ovqat mahsulotlarining sanitariya jihatidan xavfsizligi va sifati yaxshiligi, shuningdek, ularni sotish vaqtida sanitariya sharoitlariga rioya qilinishi ustidan nazorat samaradorligi uchun javobgar.

Bu ishlarni amalga oshirish uchun laboratoriya mudiri quyidagilarni bajaradi:

barcha turdagi xo'jalik hayvonlaridan olingan go'sht va go'sht mahsulotlari, parranda go'shti va go'sht mahsulotlari, hayvon yog'lari, tuxum, baliq, sut va sut mahsulotlari, asal va boshqalar, shu jumladan o'simlik mahsulotlari vizual va organoleptik hamda veterinariya-sanitariya ekspertizasi tekshirishlaridan to'g'ri o'tkazilganligi ustidan nazorat qiladi;

mahsulotlardan olingan namunalarda kerakli tadqiqotlar o'tkazilgandan so'ng ularning qoldiqlari qanday qilib yo'q qilinayotganligi o'stidan nazorat qiladi va tegishli dalolatnoma tuzadi;

oziq-ovqat uchun yaroqsiz deb topilgan go'sht-sut va boshqa mahsulotlarni utilizatsiyasi yoki yo'q qilinishini nazorat qiladi;

yaroqli deb topilgan yoki zararsizlantirilishi kerak bo'lgan mahsulotlarning rasmiylashgan tamg'alar (shtamplar) bilan belgilashni amalga oshiradi va ularni bozorda sotish uchun ruxsat berishni nazorat qiladi;

bozorda go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, parranda go'shti, tuxum, hayvon yog'lari, baliq, hamda o'simlik mahsulotlari bilan savdo qilish joylarida sanitariya holatini nazorat qiladi;

bozordagi veterinariya-sanitariya ekspertizasi bo'yicha ishlar natijalarini tahlil qiladi va zarur bo'lganda tuman (shahar) bosh veterinariya inspektoriga hamda yuqorida turgan inspektorga mavjud kamchiliklarni bartaraf etishi bo'yicha takliflar kiritadi;

go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini sotish uchun mo'ljallangan bozorda qurilgan ob'ektlarni qabul qilish komissiyalarida qatnashadi;

yuqumli kasalliklar, sistitserkoz (finnoz), trixinellyoz va boshqa gelmintozlar bilan kasallangan mollardan olingan mahsulotlarni bozorga kirganligi to'g'risida ushbu mahsulotlar egalarining manzili ko'rsatilib, darhol tuman (shahar) veterinariya inspektorga ma'lum qiladi;

zararsizlantirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni sotishini tuxtatadi va ularni savdoga chiqarishni taqiqlaydi;

yaroqsiz deb topilgan oziq-ovqat mahsulotlarga tegishli hujjatlarni tayyorlab, yaroqsizlikka (brakka) chiqarib, utilizatsiya qilishni yoki denaturatsiyasini ta'minlaydi;

omborlar, bazalar, muzlatgichlar, pavilonlar, savdo rastalari, turli market va boshqa bozor hududida joylashgan binolarga moneliksiz kiradi va tegishli tekshirishni o'tkazadi;

veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazilmagan, sifati past deb topilgan mahsulotlarni sotishni taqiqlaydi;

sanitariya talablariga javob bermaydigan joylarda asbob-uskunalar va inventarlarni, g'amlab qo'yilgan mahsulotlarni saqlash va sotishni taqiqlaydi;

o'z vakolati doirasida bozorlarda savdo qiluvchi mansabdor va jismoniy shaxslarga belgilangan tartibda ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ishlarni ko'rib chiqadi va ularga jarimalar soladi.

Savdo hajmi kichik bo'lgan bozorlarda VSE laboratoriya odatda yo'q, ammo bunday hollarda bozorda sotiladigan oziq-ovqat mahsulotlar va xom ashyoni veterinariya ekspertizasi mahalliy tuman davlat veterinariya bo'limlarning mutaxassisleri tomonidan bozor egasi va tuman (shahar) bosh veterinariya inspektori o'rtasidagi kelishuvga binoan amalga oshiriladi.

Aynan veterinariya vrachlari veterinariya-sanitariya ekspertizasini o'tkazishga qodir hamda ular ishlab chiqarish korxonalarida va qayta ishlash texnologiyasining barcha bosqichlarida kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni tashish, saqlash paytida, shuningdek sotish joylarda veterinariya-sanitariya xavfsizligi masalalarini hal qiladi. Ular vazifalariga qo'shimcha ravishda o'simlik mahsulotlari va asalni veterinariya-sanitariya ekspertizasi kiradi.

Faqat dam olish kunlari ishlaydigan tuman markazlaridagi bozorlarda veterinariya-sanitariya ekspertizasini tuman (shahar) Bosh veterinariya inspektorining buyrug'i bilan tayinlangan davlat tuman (shahar) veterinariya inspeksiyaning eng tajribali mutaxassisleri o'tkazishi lozim.

Ulgurji bozorlarda davlat veterinariya nazorati qabul qilingan mahsulotlarning kelib chiqishi, sifati va xavfsizligini tasdiqlovchi veterinariya va boshqa qo'shimcha hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazishning muvofiqligini tekshirish, qadoqlash, sotish shartlari va sotish muddatlarini nazorat qilish bilan cheklanadi.

Bosh davlat veterinariya inspeksiya boshqarmasi (yoki boshqacha nomlangan bo'lishi mumkin) Qo'mita markaziy apparatining tarkibidagi alohida bo'linmasi bo'lib, 1-2 boshqarma va 3-4 bo'lim, unga bo'ysunuvchi viloyat boshqarma yoki bo'limlari va tuman (shahar) veterinariya bo'limlari hamda tadqiqot va referent laboratoriyalardan iborat bo'ladi. Ular, quyidagi ishlarni nazoratini ta'minlaydi:

- yuqumli va boshqa kasalliklarning oldini olish va yo'q qilishi;
- veterinariya nuqtai nazaridan kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlarning xavfsizligini ta'minlashi;

- aholini antroponoz kasalliklardan muhofaza qilish va mamlakatga tashqaridan yuqumli kasalliklarni kirib kelishidan himoya qilish;

- veterinariya sohasidagi faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi hamda tadbirlar va dasturlarni ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning o'zaro hamkorligini muvofiqlashtirib borish;

- veterinariya dori-darmonlarining aylanmasi nazoratini, shuningdek, kimyoviy va biologik xavfsizligini ta'minlash;

- veterinariya tibbiyotida biologik va kimyoviy preparatlardan ularning ko'rsatmalariga muvofiq foydalanishni nazorat qilish;

- genetik modifikatsiyalangan organizmlarga ega bo'lgan ozuqa va ozuqa qo'shimchalari ro'yxatini yuritish;

- boshqalar.

Tuman (shahar) veterinariya bo'limi quyidagilardan iborat:

- tuman veterinariya shifoxonasi (bor joylarda);

- hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat yoki nodavlat markazlari, ya'ni veterinariya laboratoriyalari;

- veterinariya uchastkalari;

- bozor veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyasi;

- boshqa muassasalar.

Tuman (shahar) veterinariya bo'limining vazifalari:

a) hududda hayvon kasalliklarini oldini olish va yo'q qilish bo'yicha veterinariya tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish;

b) O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida" Qonuni, veterinariya-sanitariya qoidalari hamda hayvon kasalliklariga qarshi kurash bo'yicha ko'rsatmalar talablarini bajarishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

v) chorvachilik xo'jaliklarda sanitariya-gigiena rejimini to'g'ri joriy etishni tashkillashtirish, hayvonlarni to'laqonli boqishni nazorat qilish va chorvachilikda veterinariya-sanitariya madaniyatini yuqori darajada ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

g) tumandagi boshqa muassasalar va xo'jaliklarning veterinariya mutaxassislari bilan birgalikda yakka tartibdagi nochor xo'jaliklar va posyolkalar uchun uzoq muddatli va yillik sog'lomlashtirish tadbirlari rejalarini ishlab chiqish;

d) o'z mutaxassislari tomonidan va zarur hollarda tuman veterinariya laboratoriyasi xodimlari ishtirokida hayvonlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, turli diagnostik, shu jumladan klinik, allergik va patologik tekshirishlarni tashkil etish va amalga oshirishda ko'maklashish;

e) hayvonlarning yuqumli kasalliklari yuzaga kelgan taqdirda infeksiya o'choqlarini tezda lokalizatsiya qilish va yo'q qilish maqsadida karantin va boshqa veterinariya-sanitariya tadbirlarini tashkillashtirish va amalga oshirish;

j) aholini odamlar va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklardan muhofaza qilish bo'yicha tibbiy-sanitariya muassasalari bilan hamkorlikda chora-tadbirlarni amalga oshirish;

z) kasal hayvonlarni ambulator yoki statsionarda davolash ishlarini olib borish, shuningdek bevosita xo'jaliklarda tibbiy ishlarni tashkil etish va o'tkazish, xo'jalikda hayvonlarning kasalligi va o'limi sabablarini bartaraf etish choralarini ko'rish;

i) veterinariya uchastkalarining veterinariya mutaxassislari ishini boshqarish, ularga hayvon kasalliklariga qarshi kurash choralarini tashkil etish va o'tkazishda yordam berish, hayvonlar, parranda, baliq va asalari kasalliklarini oldini olish, hayvonlarni davolash, shuningdek, veterinariya xizmatlarida eng yaxshi zamonaviy amaliyotlarni joriy etish;

k) xo'jalik ichida veterinariya-sanitariya qoidalarining bajarilishini nazorat qilish xamda chorvachilik mahsulotlarining sanitariya sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

l) go'sht va sutni veterinariya-sanitariya ekspertizasini tashkil etish va zarur hollarda o'tkazish;

m) urg'ochi hayvonlarni qisir qolishining oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan veterinariya tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish;

n) aholi va xo'jalik xodimlari o'rtasida veterinariya bilimlarini rag'batlantirish tadbirlarini amalga oshirish;

o) mahalliy sharoitga qarab boshqa veterinariya tadbirlarini amalga oshirishni tashkil qilish va qatnashish.

Veterinariya uchastkasi – bu ma'muriy jihatdan tumanning o'zlariga birlashtirilgan qismida joylashgan barcha turdagi xo'jaliklari va boshqa tashkilotlarga xizmat ko'rsatuvchi davlat veterinariya tarmog'ining davolash-profilaktika muassasasidir. Bu muassasalarning shtatlarida

veterinariya texnik va feldsherlari mavjud bo'lib, ular xayvonlarni klinik tekshiruvdan o'tkazadi, kasal hayvonlarni davolaydi, xo'jalik hayvonlarining infeksiyon kasalliklariga qarshi emlashni o'tkazib, oldini oladi. Hayvon turadigan joylar, chorvachilik mahsulotlari saqlanadigan omborlar va boshqa ob'ektlarda dezinfeksiya, deratizatsiya, dezinseksiya, dezinvasiyalarni amalga oshiradi.

Veterinariya uchastkasining asosiy vazifalari:

biriktirilgan hududda veterinariyani ishini tashkil etish va amalga oshirish, profilaktik va davolash chora-tadbirlari bilan veterinariya osoyishtaligini ta'minlash;

amaldagi qoidalarga muvofiq veterinariya uchastkasi mutaxassislari biriktirilgan ob'ektlariga erkin kirib, veterinariya bo'yicha ko'rsatmalar berish va amaliy ishlarni bajarish;

tuman (shahar) bosh davlat veterinariya inspektorining zarur veterinariya, veterinariya-sanitariya va epizootiyaga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalariga rioya qilish;

patogenlar, hayvonlar kasalliklari qo'zg'atuvchilarining manbalari, ularning hayvonlar va odamlarga yuqish omillarini belgilash maqsadida diagnostik tadqiqotlar o'tkazish (zarur bo'lsa), shu jumladan, begona ixtisoslashtirilgan tashkilotlarni (laboratoriyalar, ilmiy markazlar va boshqalar) jalb qilish;

hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish va joyini o'zgartirish, hayvonlar va ularning xo'jaliklarini ro'yxatga olish bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish va yuritishda veterinariya va veterinariya-sanitariya talablariga rioya qilishi, kelib chiqishi hayvonotga mansub tovarlarni kuzatib borishini ta'minlash;

hayvonni identifikatsiya qilish va hayvonning pasportini berishni hamda hayvonlar va chorvachilik mahsulotlarini kuzatib borishni bevosita amalga oshirish;

hayvonlarni rejali va majburiy so'yish paytida veterinariya nazoratini amalga oshiradi, hamda majburiy so'yishda tekshirish o'tkazish uchun laboratoriyaga namunalar yuborilishini ta'minlaydi;

profilaktik va majburiy veterinariya-sanitariya tadbirlarini, xo'jalikning karantinini, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshiradi.

Veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyasi – bu mahsulotlarning xavfsizligini aniqlash maqsadida veterinariya-sanitariya qoidalari talablariga muvofiqligi bo'yicha kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlar va xom ashyoni, xamda o'simlik mahsulotlarini maxsus o'rganish yoki maxsus tekshirishlar kompleksini o'tkazish bo'limi.

Go'sht, sut va hayvonlarning boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini amaliy sharoitda veterinariya-sanitariya ekspertizasi bu mahsulotlarni odam oziq-ovqatida ishlatish mumkinlini aniqlash uchun o'rganish va veterinariya-sanitariya baholashdir. Veterinariya mutaxassislari birinchi navbatda odamlarga oziq-ovqat orqali yuqadigan hayvonlar kasalliklari, shuningdek, oziq-ovqat toksikoinfeksiyalari bilan kasallanish ehtimolini oldini oladi.

Mahsulotlarni laboratoriya ekspertizaga qabul qilish va ekspertiza natijalarini belgilangan shakldagi jurnallarda qayd etadi va belgilangan tartibda o'z faoliyati to'g'risidagi hisobotni yuritadi. Laboratoriyada o'z nomi ko'rsatilgan shtamp, shuningdek sinovdan o'tgan mahsulotlarga qo'llash uchun zarur bo'lgan tamg'a va shtampning belgilangan shakli mavjud.

O'z vazifalarini bajarish uchun laboratoriya xodimlari:

barcha turdagi qishloq xo'jalik hayvonlarining go'shti va go'sht mahsulotlarini, sut va sut mahsulotlari, parranda go'shtlari va go'sht mahsulotlari, hayvon yog'i, baliq, asal va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan o'simlik mahsulotlarini organoleptik tadqiqot usuli bilan tekshiradi va kerakli veterinariya-sanitariya ekspertizasini o'tkazadi;

go'sht va go'sht mahsulotlari, baliq, sut va sut mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini biokimyoviy, bakteriologik va boshqa tadqiqotlar, cho'chqa go'shtni majburiy trixinelloskopiya o'tkazish uchun, shuningdek, ularning mahsulotlari bozorga chiqarilishidan oldin o'tkazilgan tadqiqotlardan qat'i nazar, ularning tana go'shti qismlari tekshirish uchun namuna olinadi. Kerakli tadqiqotlar o'tkazilgandan so'ng tanlangan mahsulot namunalarining qoldiqlari yo'q qilinadi;

oziq-ovqatga yaroqsiz deb topilgan go'sht va boshqa mahsulotlarni utilizatsiya yoki yo'q qilishni tashkil etadi va qatnashadi. Bu ishni ta'minlash uchun bozor ma'muriyati zarur shart-sharoitlar yaratib berishi

majbur hamda go'sht va boshqa mahsulotlarni saqlash va zararsizlantirishga mas'ul;

yaroqli deb tan olingan yoki zararsizlantirilishi kerak bo'lgan mahsulotlarning o'rnatilgan tartibda tang'alahni amalga oshiradi va bozorda ularni sotish uchun ruxsat beradi;

bozorda go'sht, go'sht mahsulotlari, parranda go'shti, tuxum, baliq, sut, sut mahsulotlari va o'simlik mahsulotlarini sotish joylarining sanitariya holatini ko'rib chiqadi, shuningdek ushbu mahsulot egalari bilan veterinariya-sanitariya va manaviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etadi va olib boradi;

zarur hollarda laboratoriya mudirining nomidan ular omborlar, muzlatgichlar, pavilonlar, savdo rastalari va boshqa bozor binolarni ko'rib chiqishi mumkin, veterinariya va sanitariya ekspertiza duchor bo'lmagan yoki sifatsiz deb e'tirof etilgan mahsulotlarni sotishni taqiqlaydi, bozorga qabul qilishni taqiqlaydi.

Viloyat va tuman (shahar) veterinariya laboratoriyalari veterinariya xizmatining diagnostika muassasalari bo'lib, ularning asosiy vazifalari:

a) hayvonlar (parrandalar, baliqlar va asalarilar) kasalliklarini aniqlash uchun laboratoriya tadqiqotlar o'tkazish va tashxis qo'ish;

b) yuqumli kasalliklar yoki yuqumsiz kasalliklar, tananing hayotiy faoliyatida boshqa og'ishlar bilan bog'liq kasalliklar bilan og'rigan hayvonlarni aniqlash;

v) ommaviy hayvon kasalliklarining sabablarini aniqlash;

g) go'sht, sut va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini chuqur tekshirish.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun veterinariya laboratoriyasi shartnomaviy munosabatlar asosida:

bevosita xo'jaliklar va shaxslar yoki veterinariya muassasalaridan kelayotgan materiallar bakteriologik, mikroskopik, serologik, patanatomik, biokimyoviy, toksikologik, koprologik va boshqa laboratoriya tekshirish ishlarini olib boradi;

hayvonlar uchun zararsizligini aniqlash maqsadida ozuqa, ozuqa ko'shimchalari va iste'mol suvni tekshiradi;

ilmiy-tadqiqot materiallari, tadqiqot natijalari va ular bo'yicha tegishli tavsiyalar bilan talabnoma yuborgan yuridik va jismoniy shaxslar,

muassasalar, xo'jaliklar va boshqa korxonalar va tashkilotlarni belgilangan tartibda xabardor qiladi;

tumanda o'tkazilgan tadqiqotlar va diagnostik tekshirishlar natijalarini tahlil qiladi va tuman bosh veterinari vrachiga hamda yuqori turgan organlarga zarur bo'lgan takliflarni kiritadi;

aholi o'rtasida hayvonlar kasalliklarini nazorat qilish va veterinariya bilimlari bo'yicha eng yaxshi amaliyotlarni targ'ib qiladi;

yuqori turgan organi topshirig'iga binoan boshqa ishlarni bajaradi.

Veterinariya laboratoriyasi belgilangan tartibda tasdiqlangan namunaviy shtat bo'yicha tashkil etiladi va unga direktor – oliy ma'lumotli veterinariya vrachi rahbarlik qiladi.

Veterinariya tibbiyotida veterinariya atamaları va tushunchalarining izohli lug'ati yetishmasligi juda jiddiy bo'shliq. Qonunning matnida bir qator atamalar berilgan, lekin yo'riqnomalar va boshqa me'yoriy hujjatlarda atamalar o'rniga ko'pincha noaniq va noto'g'ri "tushunchalar" qo'llanilib, ko'plab chalkashliklarga olib keladi. Veterinariya qoidalarida faqat xalqaro standartlarga mos keladigan va o'zboshimchalik bilan yoki ikki tomonlama talqin qilishga yo'l qo'yilmaydigan atamalardan foydalanish majburiy bo'lishi kerak.

Veterinariya terminologiyasi (sohaga oid terminlar majmui) – bu bir vaqtning o'zida ham bilim vositasi, ham tashviqot quroli bo'lganligi uchun veterinariya terminologiyasi to'plamida veterinariya bilan bog'liq asosiy atama va tushunchalar aniqlanib, xar qanday jarayon terminlarni o'rganishdan boshlanishi kerak. Terminologiya va tushunchalar to'g'risida yagona kelishuvga erishilsa ishlab chiqarishdagi ko'plab tushunmovchilik va noaniqliklarga barham beriladi. Shu jumladan, veterinariya predmeti, veterinariya vazifalari va faoliyati, uning turlari: tibbiy-veterinariya, veterinariya-sanitariya, farmakologik-veterinariya, veterinariya nazorati, veterinariya fanlari va ta'limi, va boshqalar.

Veterinariya qonunchiligi bilan bog'liq turli xil qoidalarni kompleks tarzda tizimlashtirish, shuningdek veterinariya normalari va qoidalarini ta'riflab berish va tartibga solish Qo'mitaga yuklatilgan. Qonunchilikni bunday tizimlashtirish va terminlarni aniq ifoda qilish veterinariya sohasidagi davlat huquqiy siyosatining asosiy yo'nalishlarini kelajagini belgilab beradi.

Davlat veterinariya nazorati iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining o'tkazuvchilaridan biri sifatida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish texnologik zanjirining butun yo'li bo'ylab ko'p bosqichli (ko'p etapli) nazorat qilishni amalga oshiradi. Bugungi kunda hayvonlar kasalliklari tashxisi, veterinariya preparatlari sifatini tekshirish va veterinariya-sanitariya ekspertizasi bo'yicha yaxshi bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislariga ehtiyoj yuqori. Xalqaro standartlarga va O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlariga muvofiq inson hayoti va sog'ligini muhofaza qilish, binobarin, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash davlatning oldida turgan ustvor vazifalaridan biridir.

Normativ hujjat – bu turli xil faoliyat yoki uning natijalariga oid qoidalar, umumiy prinsiplar yoki xususiyatlarni belgilaydigan hujjat. Normativ hujjat standartlar va standartlashtirish bo'yicha boshqa me'yoriy hujjatlar, normalar, qoidalar, reglamanlar va asosiy ta'rifga mos keladigan boshqa hujjatlar kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Davlat veterinariya inspeksiyasi – bu davlat veterinariya nazoratini kuchaytirish, veterinariya dori-darmonlarining aylanmasini va aholini odamlar va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklardan himoya qilish vazifalarini bajaruvchi alohida ijro organi hisoblanadi.

Davlat veterinariya nazoratning o'ziga xos xususiyati shundaki, u nazorat qiluvchi tashkilotning e'tiborini faqat xatosiga qaratishi va hatto uning faoliyatini to'xtatishi mumkin, ammo nazorat qiluvchi organning o'zi ushbu xatolarni tuzatmaydi, lekin tuzatish bo'yicha aktini bekor qilishi yoki unga o'zgarishlar kiritishi kerak.

Idoraviy veterinariya xizmati – bu tegishli vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idorasiga bo'ysunadigan, davlat veterinariya tarmog'iga kirmaydigan veterinariya tashkilotlari va muassasalar majmui.

Idoraviy veterinariya xizmati organlari va xodimlari idoralararo huquqlardan foydalanmaydilar, ularning vazifalari va huquqlari mazkur vazirlik, davlat qo'mitasi yoki departament doirasi bilan cheklangan. Shu bilan birga, idoraviy veterinariya xizmati faoliyatini uslubiy ta'minlash va nazorati veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Xo'jaliklar, korxonalar va tashkilotlarning veterinariya mutaxassislari ma'muriy va moliyaviy jihatdan ular a'zo bo'lgan ushbu xo'jaliklar, korxonalar va tashkilotlarning rahbarlariga bog'liqdir. Yirik qishloq xo'jalik korxonalarini, chorvachilik majmualari, parrandachilik xo'jaliklari o'zlarining veterinariya xizmati va bevosita ushbu korxonada veterinariya xizmati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarni boshqaradi.

Ularning vazifasi har qanday sharoitda veterinariya sohasidagi qonun hujjatlariga rioya qilish bilan bir vaqtda, ishlab chiqarish rejalarining bajarilishini to'liq qo'llab-quvvatlashdan iborat. Shuningdek, ular xo'jalik rahbari bilan birga, xo'jalikning veterinariya-sanitariya holati va hayvonlar sog'ligini muhofaza qilish, aholining zoonozlardan xavfsizligini ta'minlash uchun javobgar.

Xo'jalik veterinariya vrachining asosiy vazifalariga belgilangan veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya qilish, veterinariya dori-darmonlari, pestitsidlar va gerbitsidlardan xavfsiz foydalanish hamda har xil chiqindilarni xavfsiz olib tashlash, ularni utilizatsiya yoki yo'q qilish kiradi. Bundan tashqari, ular zimmasiga zoonozlarni va oziq-ovqat patogenlarini kuzatish, hayvonlarning sog'ligi va osoyishtaligi uchun javobgarlik, hayvonlarni identifikatsiya qilish va ularni kuzatish, shuningdek chorvachilik mahsulotlari sifatining nazorati yuklatilgan.

Har qanday xo'jalikda veterinariya mutaxassisining mavjudligi chorvachilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda kompleks yondashuvning asosidir. Aynan u qishxonalariga yuborilgan hayvonlarni turli kasalliklaridan holi ekanligi va qayta ishlash korxonalaridan jo'natilgan chorvachilik mahsulotlarining xavfsizligiga kafolat beradi.

Ishlab chiqarish veterinariya xizmat xodimlari kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo, shuningdek, veterinariya dori-darmonlarini ishlab chiqarish, saqlash, tashish va sotishni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan o'z mablag'lari hisobidan yaratiladi. Ushbu turdagi veterinariya xizmati xodimlarining vazifalari va huquqlari faqat ko'rsatilgan korxonalar bilan cheklanadi va ularning ko'rsatmalari faqat shu korxonalar xodimlari uchun majburiydir.

Korxonalar rahbariga bo'ysunuvchi ishlab chiqarish veterinariya mutaxassislari o'z vazifalarini to'liq bajarishlari hamda ishlab chiqarishda

veterinariya qoida va normalariga qat'iy rioya qilishni talab qilishlarida ayrim qiyinchiliklar mavjud. Ularning tashkiliy va moliyaviy faoliyati doim ishlab chiqarish ko'rsatkichlari va ma'muriyat munosabatiga bog'liq. Shuning uchun bu mutaxassislar korxonalar tomonidan rejalarini amalga oshirilishidan doimo manfaatdor, chunki bu ularning maoshi va mukofotlar miqdoriga ta'sir etadi.

Bunda veterinariya mutaxassislarining qarorlarini e'tiborsiz qoldirish, veterinariya xizmatiga ma'muriy bosim va moliyaviy ta'sir ko'rsatish xavfi mavjud va natijada konditsiyasiz hayvonlarni, sifati yomon go'sht xom ashyosini qayta ishlanishi va veterinariya talablariga javob bermaydigan mahsulotlarni korxonalar rahbarlarining bevosita topshirig'iga binoan sotilishi ko'p uchraydi.

Qonunning 11-moddasida davlat veterinariya xizmati veterinariya va veterinariya-sanitariya qoida va normalariga muvofiq kelib chiqishi hayvonga mansub mahsulot va xom ashyoni ishlab chiqarish ustidan davlat veterinariya nazoratini amalga oshiradi, deb belgilab qo'yilgan. Boshqacha aytganda, go'sht va sutni qayta ishlash korxonalari, chorvachilik mahsulotlarini ulgurji savdosi bilan shug'ullanuvchi korxonalar va ixtisoslashtirilgan qushxonalar umumiy veterinariya nazorati tumanlar (shaharlar) davlat veterinariya inspektorlari tomonidan amalga oshirilishi shart.

Shu bilan birga, ushbu korxonalarda faoliyat davomida veterinariya mutaxassislari o'zlarining xizmat instruktsiyalari asosida xavflarni tahlil qilish va muayyan nazorat funksiyalarini amalga oshirishi kerak. Shuningdek, HACCP tamoyillariga asoslangan sifat va xavfsizlikni nazorat qilish tizimlarini joriy qilish ularning qo'lidan keladi va ular bu ishlarni amalga oshirish kerak. Haqiqatda esa unday emas.

Chunki, bu sohada hech qanday maxsus o'quv adabiyoti hamda kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyodan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda HACCP tizimini amalga oshirish paytida veterinariya mutaxassislari ishtirok etishi bo'yicha hech qanday normativ-huquqiy hujjatlar yo'q. Shu bilan birga, ular ushbu mahsulotlarni veterinariya sertifikatini orqali bozorga kirish huquqini berishda asosiy bo'g'in hisoblanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish juda mas'uliyatli jarayon bo'lib, bugungi kunda mamlakatimizning tegishli korxonalarida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlar, go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlarining sifati faqat oxirgi bosqichda, ya'ni, realizatsiyaga yuborilishidan oldin tekshiriladi, ammo bu yetarli emas.

Afsuski, sut va sut mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha 2017 yil 7 iyulda¹ hamda go'sht va go'sht mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha 2018 yil 22 yanvarda² qabul qilingan umumiy texnik reglamentlarda HACCP nazorat tizimini joriy etish ko'zda tutilmagan. Masalan, hayvonlarni so'yish tekshiruvini (so'yishdan oldin tekshirish) va ularning tanasi va ichki organlarini (so'yishdan keyingi) tekshirish hayvonlar kasalliklari va zoonozlarni nazorati tarmog'ida muhim ahamiyatga ega bo'lib, go'sht va go'sht mahsulotlarining xavfsizligi va sifati kafolatlash uchun amalga oshiriladi.

So'yishdan oldin va so'yishdan keyingi tekshirishlar orqali hayvon va insonlar sog'ligiga ta'sir qiluvchi biologik va boshqa xavflarni nazorat qilish va ularni kamaytirish veterinariya xizmatining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, veterinariya sohasidagi mutaxassislar tegishli dasturlarni joylarda amalga oshirilishini ta'minlashlari shart.

Davlat veterinariya xizmati go'shtni tekshirish sohasida muayyan erkinlikga ega bo'lishi kerak. Davlat veterinariya organlari nazorati va homiyligi ostida faoliyat yuritadigan rasmiy veterinariya tashkilotlariga hamda xususiy veterinariya amaliyotiga funksiyalarni topshirish darajasi har xil bo'lgan bir qator boshqaruv modellarini tanlash imkoniyati mavjud.

Ammo so'yishdan oldin va so'yishdan keyingi tekshiruvlarni o'tkazishga xususiy veterinariya vrachlarini jalb qilish uchun ular har bir aniq holatda vakolatlar to'plamini belgilab, qo'yilgan vazifalarning to'g'ri bajarilishi ustidan nazorat qilishi talab etiladi.

Veterinariya organlari so'yilgan hayvonlarning kelib chiqishini aniqlashga imkon beradigan hayvonlarni identifikatsiya qilish va ularni kuzatib borish tizimlarini birlashtirishi va korxonalarining qaysi biri so'yish mahsulotlarini qayta ishlash yoki go'sht zanjiri bo'ylab sotish uchun qabul qilishlarini aniqlash talab qilinadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.07.2017 yildagi 474-son

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.01.2018 yildagi 36-son

Respublikamizda kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotishning hozirgi tizimi inson sog'ligiga noma'lum xavf tug'dirishi mumkin. Hali ham mamlakatimizning ko'p xududlarida hayvonlarni hovlilarda veterinariya vrachlari nazoratisiz so'yish va sotish, yo'l bo'ylarida go'sht va go'sht mahsulotlarini nomaqbul sharoitda sotish holatlari kuzatilmoqda.

Veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tmagan mahsulotlarni iste'mol qilish toksikoinfeksiyalar, kuydirgi, brusellyoz va boshqa infeksiyon kasalliklarning, shuningdek, turli invazion kasalliklar kelib chiqishi va tarqalishi bilan aholi o'rtasida epidemiologik vaziyatning yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Go'sht xom ashyosi va uning mahsulotlarini iste'molchilarga sotiladigan xavfsizlik kafolatlarining mavjud emasligining asosiy sabablaridan biri ixtisoslashtirilgan qushxonalari va go'shtni qayta ishlash korxonalar egalarining veterinariya mutaxassislari sonini veterinariya-sanitariya ekspertizasini kerakli hajmda o'tkazishga imkon bermaydigan darajada kamaytirishga qaratilgan asossiz harakatlaridir.

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish bilan asosan xususiy tadbirkorlar shug'ullanadi. Bozor munosabatlarida erkin savdo qonunlari katta foyda olish uchun ko'pincha xom ashyo xarid qilishdan tortib tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha texnologik jarayonlarning buzilishi bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun go'sht va sut yetishtiruvchi hamda ularning mahsulotini ishlab chiqaruvchi barcha xo'jaliklar veterinariya-sanitariya pasportiga – go'sht va sut xavfsizligini hamda yuqori sifatini kafolatlaydigan hujjatga ega bo'lishini talab qiladi.

Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga mahalliy xokimiyat va o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan ularning shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida yetishtirilgan chorvachilik va boshqa mahsulotlarni chakana savdo qilish uchun shart-sharoitlar yaratilgan maxsus joylar ajratilsa hamda Qo'mita ushbu joylarda veterinariya-sanitariya talablari bajarilishi ustidan davlat veterinariya nazoratini zarur bo'lgan darajada ta'minlasa mahsulotlarni arzon narxlarda sotib olib, yuqori narxlarda sotish bilan shug'ullanadigan sotuvchilar o'z-o'zidan kamayadi.

Xususiy veterinariya amaliyoti – bu veterinariya xizmatlarini ko‘rsatadigan, daromad va foyda muntazam ravishda o‘shishga qaratilgan, xavf bilan bog‘liq mustaqil veterinariya faoliyati bo‘lib, tegishli ravishda berilgan litsenziyaga ega bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Assotsiatsiya yoki veterinariya palatasi o‘z a‘zolariga ma‘muriy xizmat ko‘rsatish, ro‘yxatdan o‘tkazish, asbob-uskunalar va dori-darmonlarni sotib olish bo‘yicha xizmatlarni taklif etadi, ularning manfaatlarini veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi va boshqa tashkilotlarda ifodalaydi. Shuningdek, professional ichki nazorat mexanizmi orqali veterinarlarning ishlari sifatini ta‘minlashda asosiy rol o‘ynashi, davlat-xususiy shartnoma dasturida vositachi, tartibga soluvchi organ sifatida qatnashishi va xususiy veterinariya vrachlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlarni davlat tekshiruvida ishtirok etishdir.

Ko‘p idoraviy va ishlab chiqarish veterinariya xizmatlarining, hamda xususiy veterinariya amaliyoti veterinariya mutaxassislari epizootiyaning tarqalishiga sabab bo‘lgan veterinariya qoidalarini qo‘pol ravishda buzganlik yoki boshqa jiddiy oqibatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilanganligini bilmasligi mumkin. Ammo qonunni bilmaslik jinoiy javobgarlikdan ozod qilmaydi.³ Assotsiatsiya bu borada yuridik savodsizlikni bartaraf qilishga o‘z hissasini qo‘shadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.03.2019 y. № PF-5696 “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi tashkil etildi. Mazkur farmonni amalga oshirish uchun Qo‘mita, ilova qilinayotgan “O‘zbekiston Respublikasida davlat veterinariya inspeksiyasi to‘g‘risida”gi Nizomi, ilovalari bilan va shunga tegishli veterinariya-sanitariya qoida va normalarini tayyorlash va qabul qilishi lozim.

³ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 15 modda

2- bob. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda veterinariya xizmatining o'rni

Veterinariya qonunchiligi tarixidan. Hayvonlarni davolash elementlarining paydo bo'lishi ularni xonakilashtirish davriga to'g'ri keladi va birinchi chorvadorlar hayvonlarga g'amxo'rlik qilib, ularga yordam ko'rsatar edi. Yozuv yaratilishi bilan veterinariyaga oid maxsus matnlar paydo bo'ldi va hayvonlarni davolash haqidagi eng qadimgi ma'lumotlar miloddan avvalgi 4-ming yillikka to'g'ri keladi. 1889 yil Misrda topilgan papyrus uy hayvonlarining ayrim kasalliklarining tavsifini o'z ichiga oladi. Qadimgi Misrda boshqa fanlar bilan bir qatorda veterinariya fani ham o'rganilgan va o'rgatilgan.

Xonakilashtirish yoki domestikasiya (lotin tilida domestikus - "uy") – bu yovvoyi hayvonlar yoki o'simliklarni o'zgartirish jarayoni bo'lib, unda odamlar tomonidan ko'p asrlar davomida chatishtirish yullari bilan ular yovvoyi shaklidan genetik jihatdan ajratiladi va sun'iy tanlov o'tkazilib, saqlanadi.

Veterinariya tibbiyotining qadimiy rivojlanishining yana bir yo'nalishi Tigr va Yevfrat daryolar vodiylaridagi davlatlar edi – bu joylarning qadimgi shifokorlari ko'plab hayvon kasalliklarni aniqlash, davolash, hatto oldini olish usullaridan xabardor edilar. Hayvonlarni davolash bilan professional darajada shug'ullanadigan shaxslar Hindiston va Xitoyda ham ko'p bo'lgan.

Veterinariya qonunchiligini ishlab chiqish bir tekisda amalga oshirilmagan. Veterinariya faoliyatini tartibga soluvchi dastlabki normalar miloddan avvalgi 18-asrdayoq paydo bo'lgan. Vavilon podsholigi qonunlarida bajarilgan operatsiya va hayvonning sog'ayishi uchun ish haqi to'g'risidagi qoidalar, shuningdek, "veterinariya xizmati"ni ko'rsatishda zarar yetkazganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi qoidalar mavjud edi.

Hamda veterinariya xizmatlari haqida qoidalar Eronning "Avesto" kitobida topilgan. Keyingi davrlarda, hozirgi zamonga qadar ko'pgina mamlakatlar qonunchiligida ko'tarilgan veterinariya masalalari asosan ma'muriy masalalarga tegishli: bu epizootiyaga qarshi kurashish, chorvachilik va chorvachilik mahsulotlari savdosi qoidalari va boshqalar.

Veterinariya tarixi veterinariya faoliyati va veterinariya bilimlarining rivojlanishini ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning rivojlanishi va o'zgarishi hamda xalqlar madaniyatining umumiy tarixi bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasining 03.09.1993 y. 935-XII-son "Veterinariya to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Bu mamlakat oliy qonun chiqaruvchi organi tomonidan qabul qilingan va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan davlatimiz veterinariyada oliy yuridik kuchga ega bo'lgan birinchi Akt edi. Tabiiyki, so'nggi yillarda mamlakatimizda ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar davlat veterinariya xizmati va har bir veterinariya mutaxassisining faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Veterinariyaning shakllanishi va rivojlanishiga xalqaro veterinariya tashkilotlarining ishi katta ta'sir ko'rsatdi. Ana shunday nodavlat tashkilotlardan biri – shtab-kvartirasi Jenevada joylashgan Jahon veterinariya uyushmasi (JVU)dir. JVUning birinchi xalqaro Kongressi 1863 yil 14 – 18 iyul kunlari Gamburg shahrida bo'lib o'tgan. Ushbu Kongressda davriy xalqaro uchrashuvlar o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilindi, shu maqsadda doimiy Qo'mita tuzilgan.

Keyingi yillarda xalqaro kongresslar muntazam ravishda o'tkazilmoqda (birinchi va ikkinchi Jahon urushlari davrlari bundan mustasno). Dolzarb veterinariya muammolari bo'yicha chora-tadbirlarni muhokama qilingan va tegishli tavsiyalar berilgan. Ammo hayvonlarning yuqumli kasalliklari keng tarqaganligi muammo bo'lib qolmoqda. Shuning uchun veterinariya ilmiy-texnik tashkiloti – xalqaro epizootik xizmatni tashkil etish to'g'risida 1924 yil yanvar oyida 28 davlat vakillari Parijda joylashgan xalqaro epizootik byuro (XEB) tuzish bo'yicha bitim imzoladilar.

XEBning asosiy vazifalari quyidagilar:

* Xalqaro hamkorlik zarur bo'lgan hayvonlarning yuqumli kasalliklarini patologiyasi va oldini olish bo'yicha ilmiy hamkorlik.

* Hukumatlar va ularning veterinariya muassasalariga umumiy yuqumli kasalliklarning tarqalishi va alohida kasalliklarning epizootiyasi va ularga qarshi kurashish uchun ishlatiladigan vositalar haqida ma'lumot to'plash va tarqatish.

* Hayvonlarni veterinariya-sanitariya nazorati bilan bog'liq bitim loyihalarini o'rganish va ushbu bitimlarni imzolagan hukumatlarga taqdim etish, ularning bajarilishini nazorat qilish imkonini berish.

XEBning yer usti hayvonlarning sog'ligi Kodeksi (bundan buyon matnda Kodeks deb yuritiladi) hayvonlarning sog'ligi va farovonligini hamda dunyo aholisining veterinariya sog'ligini yaxshilash bo'yicha standartlarni belgilaydi.

Import, eksport va tranzit mamlakatlar veterinariya organlari kasalliklar, shu jumladan, zoonoz kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash, tirik hayvonlar va ulardan olingan mahsulotlari xalqaro savdo davomida patogen moddalarni nazorat qilish, ularning tarqalishini oldini olish uchun hamda asossiz to'siqlarni yaratmasdan Kodeksda belgilangan veterinariya-sanitariya chora va tadbirlarni qo'llashi to'g'risida ma'lumotlar taqdim etiladi.

Jahon savdo tashkiloti (JST) Sanitariya va fitosanitariya chora-tadbirlarini qo'llash to'g'risidagi kelishuvi bilan (bundan buyon matnda SFS kelishuvi deb yuritiladi) rasmiy ravishda hayvonlar va antropozoonozlardan sog'liqni saqlash sohasidagi xalqaro referent standartlar va tavsiyalarini ishlab chiqish Xalqaro epizootik byuroning (XEB) zimmasiga yuklatgan.

SFS kelishuviga ko'ra, JST a'zolari o'zlarining milliy import talablarini XEB standartlarida keltirilgan tavsiyalarga moslashtirishlari talab etiladi. Agar tegishli tavsiyalar mavjud bo'lmasa yoki mamlakat yanada qat'iy talablarni quyish xohishi bo'lsa, import paytdagi xavflarni ilmiy baholash bilan asoslashi kerak.

Hayvonlar va chorvachilik mahsulotlarini import qilish har doim import qiluvchi mamlakat uchun ma'lum bir kasallik bo'yicha xavf olib keladi va bu xavfning darajasi ko'plab sharoit va omillarga bog'liq. Xavfli omillar ichida eng ko'p va har tomonlama ziyon-zahmat yetkazadigan – bu biologik omillardir.

Shuning uchun tirik hayvonlar va chorvachilik mahsulotlarini import qilishda xavf bir yoki bir nechta kasallik yoki yuqumli kasalliklarga bog'liq bo'lishi mumkinligini e'tiborga olish kerak. Import jarayonidagi xavfni tahlil qilishda eng muhimi tirik hayvonlar, chorvachilik mahsulotlari va xom ashyosi, genetik materiallar, ozuqa, biologik

mahsulotlar va patologik materiallarning importi bilan bog'liq kasallik xavfini baholash ob'ektiv va asosli bo'lishi shart.

Agar tegishli tavsiyalar bo'lmasa yoki mamlakat qattiqroq talablarni o'rnatasa, ularni XEBning yerdagi hayvonlar sog'ligi kodeksning 2.1-bobda aytib o'tilganidek, import xavflarini ilmiy baholash bilan asoslashi kerak. Shunday qilib, XEBning kodeksi JST xalqaro savdoni tartibga soluvchi qoidalar to'plamining tarkibiy qismlaridan biridir.

Xalqaro standart – xalqaro tashkilot tomonidan qabul qilingan standart. Standart – bu mahsulot, ekspluatatsiya, saqlash, tashish, sotish va yo'q qilish ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish xususiyatlarini belgilaydigan hujjat. Standartda terminologiya, belgilar, qadoqlash, etiketkalash va ularni qo'llash qoidalariga qo'yiladigan talablar ham bo'lishi mumkin. Amalda, xalqaro standartlar dunyoning turli mamlakatlari tomonidan ko'pincha norma sifatida qabul qilingan mintaqaviy standartlar va ilmiy-texnik jamiyatlar tomonidan ishlab chiqilgan standartlarni ham anglatadi.

SFS bitimida soxani tartibga soluvchi mamlakatlar milliy talablarni xalqaro Codex Alimentarius standartlari qoidalariga asoslashi kerakligi ko'rsatilgan. Codex Alimentarius xalqaro oziq-ovqat savdosi bilan bevosita bog'liq. Uyg'unlik, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va xalqaro savdoni osonlashtirishni birlashtirgan ushbu Kodeks falsafasi global darajada tan olingan. Biroq, amalda, ko'plab mamlakatlar uchun qonunchilikda Codex Alimentarius standartlarini qabul qilish oson emas.

Turli xil huquqiy asoslar, ma'muriy va siyosiy tizimlar, milliy munosabat va suveren huquqlar tushunchalarining ta'siri uyg'unlashtirish yo'lidagi taraqqiyotga xalaqit beradi va standartlarni qabul qilishga to'sqinlik qiladi. Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, mamlakatlarning aksariyati o'zlarining milliy oziq-ovqat standartlarini (ayniqsa, xavfsizlik qoidalarini) Codex Alimentarius standartlariga muvofiqlashtirmoqdalar. Avvalo, bu oziq-ovqat qo'shimchalari, ifloslantiruvchi moddalar va qoldiqlarga tegishli.

XEBning ro'yxatiga kiritilgan kasalliklar bo'yicha (jufttuyoqlilar yamuri, mayda shoxli mollarning vabosi va boshqalar) regional muvofiqlashtirish bo'linmalari mavjud. Bunday bo'linmalar regiondagi hukumatlar va veterinariya xizmatlarini turli mamlakatlardagi epizootik

vaziyat haqida xabardor qiladi, bu esa zarur profilaktik tadbirlarni o'z vaqtida tashkil etish va amalga oshirish imkonini beradi.

So'nggi ma'lumotlarni to'plash va almashish uchun XEB o'zining mintaqaviy va subregional idoralari, a'zo mamlakatlarning XEB delegatlari, yovvoyi hayvonlar bo'yicha XEB ishchi guruhi, shuningdek FAO va JST bilan doimiy aloqada. XEB ushbu kasallikning manbasini aniqlash bo'yicha olib borilayotgan tekshiruvlarda ishtirok etadigan mutaxassislar tarmog'i bilan yaqin hamkorlikni davom ettiradi. Mish-mishlar va norasmiy ma'lumotlarning kunlik monitoringi ham amalga oshiriladi. Ma'lumot uchun, XEB Markaziy Osiyo mintaqaviy vakolatxonasi Qozog'iston Respublikasining poytaxti Ostona shahrida joylashgan.

Asosiy vazifa – Kodeks tomonidan foydalanish uchun tavsiya etilgan hayvonlarning sog'lig'ini himoya qilish va odamlarning zoonoz kasalliklarini oldini olish, shu bilan birga asossiz savdo cheklovlaridan qochish harakatlarini belgilash. Buning uchun tirik hayvonlar va chorvachilik mahsulotlarini xavfsiz olib kirish qoidalarini o'rnatish kerak.

Suv hayvonlari va yer usti hayvonlar sog'ligi veterinariya-sanitariya Kodekslarning ikkalasi ham quruqlik va suv hayvonlari yoki zoonozlar kasalliklari bo'yicha darsliklar emas.

Yer usti hayvonlarning sog'ligi kodeksining tarkibi:

1-qism – umumiy qoidalar: glossariy (lug'at)

1-bo'lim – hayvonlar kasalliklarini diagnostika qilish, nazorat qilish va xabar berish (notifikatsiya)

2-bo'lim – xavflarni tahlil qilish

3-bo'lim – veterinariya xizmatlari sifati

4-bo'lim – umumiy tavsiyalar: kasalliklarning oldini olish va nazorat qilish

5-bo'lim – savdoga taalluqli choralar, import-eksport protseduralari va veterinariya sertifikatlari

6-bo'lim – insonning veterinariya salomatligi

7-bo'lim – hayvonlarning farovonligi

2-qism: kasalliklar bo'yicha maxsus boblar

- Jonli hayvonlar

- Genetik materiallar (sperma, embrionlar, ootsitlar va boshqalar.)

- Hayvonotga mansub mahsulotlari (go'sht, sut, teri):

Ovqatlanish

Hayvonlarni boqish

Qishloq xo'jaligi va sanoatda foydalanish

Farmasevtika maqsadlari

Ovlangan o'ljalari uchun

Import va eksport qiluvchi mamlakatlarning veterinariya organlari yerdagi hayvonlarning (sutemizuvchilar, sudralib yuruvchilar, qushlar va asalarilar) kasalliklarini o'z vaqtida aniqlash, bildirish (notifikatsiya) va patogen agentlarni nazorat qilish uchun o'z faoliyatida Kodeksda belgilangan veterinariya-sanitariya tadbirlarini qo'llashlari shart va chorvachilik mahsulotlari bilan xalqaro savdo-sotiq vaqtida ularga asossiz to'siqlar bo'lmasligini ta'minlash. Kodeks 1968 yildan buyon muntazam ravishda chop etilib kelinadi.

O'zbekiston Respublikasi 1992 yildan boshlab XEB (OIE)ga a'zo va mamlakatimiz veterinariya qonunchiligini ushbu Kodeksning standartlariga moslashtirish kerak. XEBning Kodeksi JSTning xalqaro savdo bo'yicha amaliyot kodeksining tarkibiy qismlaridan biridir. Kodeksning yillik nashrlari XEBning uchta rasmiy tilida (ingliz, fransuz, ispan) chop etiladi, rus tilida esa norasmiy tarjima so'rov talabiga binoan mavjud.

Albatta, XEBning tavsiyalari har bir aniq mamlakatda, shu jumladan, bizning mamlakatimizda asrlar davomida keng maydonlarda, yaylovlardagi chorvadorlikga qo'llanish vaziyatini to'liq hisobga olmaydi. Ushbu tuproqda hamda yovvoyi fauna orasida ko'plab patogen mikroorganizmlar saqlanib qolgan va tarqalgan. Masalan, brusellalar – sayg'oq, bo'ri, sug'ur va boshqalarda uchraydi va chorva mollarini boqish paytida ularga brusellezni yuqtirib olish xavfi yuqori.

Bu kabi misollarni ko'p keltirish mumkin. Shuning uchun davlat veterinariya nazorati xizmati idoralararo umumdavlat xizmat vazifalarini bajarish, ularga berilgan huquqlardan foydalangan holda bir vaqtning o'zida veterinariya ishini tashkilotchisi bo'lish va nazorat ostidagi ob'ektlarida veterinariya tadbirlarini nazorat qilish bilan ularning manfaatlarini himoya qilish uchun mo'ljallangan. Buning uchun davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish

organlari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmlarini, hayvonlarni identifikatsiya va ro'yxatga olishning takomillashtirilgan tizimini ishlab chiqarilishi va amalga oshirilishi lozim.

XEB har bir mamlakatda o'zining madaniy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqib, hayvonlar va jamiyat sog'ligini asrash bo'yicha o'zlarining ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishni tavsiya etadi, bu albatta milliy qonunchilikda o'z aksini topishi kerakligini bildiradi.

Dastlab xo'jaliklarda hayvon kasalliklariga qarshi kurashish uchun veterinariya xizmati tashkil etilgan va ularning e'tibori hayvonlarning asosiy epizootik kasalliklari va hayvonlardan odamlarga (zoonozlarga) yuqadigan kasalliklarning oldini olishga qaratilgan edi. Chorvachilik rivojlangan davlatlarda eng xavfli epizootiyalar nazorat ostiga olingandan keyin, veterinariya xizmatlarining vakolat doirasi mahsuldorlikni oshirish va hayvon mahsulotlarining sifatini yaxshilashga ta'sir etuvchi sabablarga kengaytirildi.

Veterinariya xizmati oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda asosiy mas'ul organ bo'lganligi uchun xavfga asoslangan yondashuvni qo'llash jarayonida asosiy rol o'ynaydi. Veterinariya xizmatlarining faoliyat doirasi "daladan – dasturxongacha" butun oziq-ovqat zanjiriga qadar kengaytirildi, bu yerda veterinariya vrachlari ikki tomonlama funksiyani bajaradilar, birinchisi, hayvonlar kasalliklarini nazorat qilish, ikkinchisi – veterinariya-sanitariya xavfsizligini va iste'mol uchun chorvachilik mahsulotlarining sifat mezonlariga rioya etilishini ta'minlash.

Hayvon kasalliklari (shu jumladan zoonozlar) masalalari xamda oziq-ovqat gigienasi sohalarida professional tayyorgarlikka ega bo'lgan veterinariya vrachlari oziq-ovqat, avvalo, kelib chiqishi hayvonotga mansub oziq-ovqatning sanitariya xavfsizligi nuqtai nazaridan hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Xavflarni tahlil qilish protseduralarini amaliy qo'llash va tavsiyalarni reglamentlaydigan xujjatlar darajasida amalga oshirish veterinariya vrachlarini ishlab chiqarish zanjiri bo'ylab oziq-ovqat xavfsizligi masalalarini hal qilishga jalb qilish orqali amalga oshirish mumkin.

O'zbekiston YeOIIning so'nggi kuzatuvchisi bo'lib, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish niyatidan kelib chiqib, ishtirok etishning eng

muhim shartlaridan biri chorvachilik mahsulotlarining raqobatbardoshligi va ularning xalqaro veterinariya standartlari va me'yorlariga muvofiqligi hisoblanadi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi hududini hayvonlarning kasalliklaridan muhofaza qilish va veterinariya xavfsizligini ta'minlash davlat veterinariya xizmatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Hayvonlar va chorvachilik mahsulotlarini import qilish har doim import qiluvchi mamlakat uchun ma'lum bir kasallik bo'yicha xavf olib keladi va bu xavfning darajasi ko'plab sharoit va omillarga bog'liq. Shuning uchun import xavfini tahlil qilish, chora-tadbirlarning ekvivalentligi, tovarlarning veterinariya-sanitariya xavfsizligini baholash me'yorlari va hokazolarning tahliliga batafsil to'xtalamiz.

Hayvonlar va chorvachilik mahsulotlarini import qilishda xavf bir yoki bir nechta kasallik yoki infeksiyalarga bog'liq bo'lishi mumkin. Import jarayonidagi xavfini tahlil qilishda eng muhimi hayvonlar, chorvachilik mahsulotlari, genetik materiallar, ozuqa, biologik mahsulotlar va patologik materiallarning importi bilan bog'liq kasallik xavfini baholashning ob'ektiv va asosli metodologiyasi bo'lishi shart.

Tahlil shaffof bo'lishi kerak, ya'ni u batafsil hujjatlashtirilishi va xavf tahlilida ishlatiladigan barcha xabarlar, ma'lumotlar, taxminlar, usullar, natijalar, munozaralar va xulosalar oydin bo'lishi kerak. Bu eksport qiluvchi mamlakat importga qo'yiladigan talablarning sabablarini va uni rad etish asoslarini aniq tushunishi uchun zarur.

Xavf-xatarlarni tahlil qilishning xalqaro talablari quyidagi aktlarda keltirilgan:

1. XEB (WOAH) Kodeksi

2. Sanitariya va fitosanitariya (SFS) chora-tadbirlar bo'yicha kelishuv

3. Kodeks Alimentarius qoidalari.

XEB (WOAH) Kodeksi bo'yicha xavflarni tahlil qilishning tarkibiy qismlari: xavflarni identifikatsiya qilish, xavfni aniqlash, xavfni boshqarish va xavf to'g'risida xabar berish.

Xavf-xatar – shaxs, jamiyat va davlatning muhofaza etiladigan hayotiy manfaatlariga zarar yetkazish salohiyati. Xavf-xatar har doim mavjud, chunki mutloq xavfsizlik holatiga erishib bo'lmaydi. Tahdid maqsadga yo'naltirilmagan va bir vaqtning o'zida bir nechta ob'ektlarga

tahdid solishi mumkin. Shu bilan birga, mavjud xavf har doim ham tahdidlarni keltirib chiqarmaydi, balki faqat potensial qobillik borligini, va "xavf"ning mag'zi – bu xavf-xatarning bir shaklidir.

Xavf – bu Kodeksning lug'atida biologik yoki iqtisodiy nuqtai nazardan hayvon yoki insonlarning sog'lig'iga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan hodisa oqibatlari ehtimoli va potensial ko'lami deb keltirilgan.

Region yoki zona – bu davlat veterinariya organi tomonidan belgilangan mamlakat hududining hayvon populyatsiyasi yoki subpopulyatsiyasi mavjud bo'lib, u xalqaro savdo maqsadlarida yoki kasallikning oldini olish va infeksiyani nazorat qilish uchun maxsus veterinariya maqomiga ega bir qismi.

Hududni regionlashtirish (zonalashtirish) – O'zbekiston Respublikasi hududining yoki uning viloyatlar va tumanlar (shaharlar) hududlarining tabiiy yoki sun'iy to'siqlari yoki chegaralari bilan chegaralangan qismining hayvon yuqumli kasalligi statusini aniqlash.

Xavfni identifikatsiya qilish – bu xavf-xatarning ehtimoli yoki mumkin emasligiga qarab, biologik qo'zg'atuvchilar ikkiga bo'linadi va tarqalishiga qarab, tasniflash bosqichlaridan biridir. Xavf-xatarni identifikatsiya qilish – hayvonlar va chorvachilik mahsulotlarini import qilish tufayli noqulay oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan patogenlarni identifikatsiya qilishni anglatadi.

Agar xavf-xatarni identifikatsiya qilinishi paytida rejalashtirilgan import tufayli xavf aniqlanmagan bo'lsa, ushbu bosqichning o'zida xavfni aniqlashni kerak bo'lmasligi uchun yakunlash mumkin. Bu tahlilning hal qiluvchi bosqichidir, chunki bu bosqichda aniqlanmagan xavflar kelgusida ko'rib chiqilmaydi va ko'rish doirasidan yo'qoladi.

Xavfni aniqlash – bu xavf-xatarning bosqichi bo'lib, unda xavf bilan bog'liq xavf-xatarni tavsiflashga urinish amalga oshiriladi, u sifat va miqdoriy jihatdan bo'linadi. Xalqaro tan olingan me'yorlarga asoslangan ko'plab kasalliklar uchun potensial xavflarning tabiati bo'yicha umumiy kelishuv mavjud. Bunday holda odatda xavfning sifatli ta'rifi yetarli bo'ladi. Sifatli usullar matematik modellarga murojaat qilishni talab qilmaydi, bu joriy qarorlarni qabul qilishda ulardan foydalanishni osonlashtiradi.

Import paytidagi xavfni aniqlash usullarining hech biri universal emas – barchasi sharoitga bog‘liq. Import paytida xavfni tahlil qilishda odatda veterinariya xizmatini baholash natijalarini, zonalashtirish va kompartmentlash (chorvachilik xo‘jaliklarini biologik himoya qilish darajasiga ko‘ra bo‘linishi), shuningdek, eksport qiluvchi mamlakatni hayvonlarning kasalliklarini kuzatib borish salohiyati hisobga olinadi. Bu jihatlar Kodeksning alohida boblarida bayon etilgan.

Masalan, veterinariya xizmatini baholash natijalarini ko‘rib chiqish, zonalashtirish, kompartmentlashtirish, eksport qiluvchi tomonning hayvonlar sog‘lig‘ini kuzatish ma‘lumotlari va boshqalar Kodeksning turli boblarida tavsirlangan. Yoki Kodeksning 2.1.2.- moddasida⁴ biologik tahdidlarni aniqlash haqida yozilgan.

Xavflarni tahlil qilishni rejalashtirish va ishlarni tashkil etishdan boshlab, qoida va normalar talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak, lekin xavflar har xil bo‘lgani uchun ularni tahlil qilishning vosita va usullarini tartibga solinishining imkoni yo‘q, hamda vazifalarni aniq tanlab bo‘lmaydi. Shu bilan birga, to‘liq, aniq va metodik jihatdan ta‘minlanmagan murakkabroq usullarga nisbatan tahlilning oddiyroq va tushunarliroq usullari afzal. Shuning uchun birinchi bosqichda quyidagilar bajarilishi zarur:

xavfni tahlil qilish zaruratini tug‘dirgan sabablar va muammolarni belgilash;

tahlil qilinayotgan tizimni aniqlash va uning tavsifini berish;

tahlil o‘tkazish uchun tegishli guruhni tanlash;

tizim xavfsizligi to‘g‘risida ma‘lumot manbalarini tayinlash;

xavf tahlili chegaralarini belgilaydigan kirish ma‘lumotlari va cheklovlarni ko‘rsatish;

xavfni tahlil qilish maqsadlari va qabul qilinadigan xavf mezonlarini aniq belgilash.

Birinchi qarashda bu murakkab jarayon bo‘lib tuyuladi, lekin aslida, veterinariya vrachi tajriba orttirib, keyinchalik xavf darajasini va xavfning boshqa tarkibiy qismlarini osongina hal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining faoliyat yo‘nalishlaridan biri veterinariya-

⁴ Yer ustidagi hayvonlar sog‘ligi Kodeksining 28- nashr-2019 yil, 2.1.2.-moddasi.

sanitariya xavfsizligi sohasida milliy xavflarni boshqarish tizimlarini ishlab chiqish va joriy etishdir. Tizimlarda xavflarni aniqlash, tahlil qilish va minimallashtirish, xavflarni monitoring va samaradorlikni baholash elementlarini, xavflarni boshqarish tizimini takomillashtirishni qamrab olishi talab etiladi.

Ayniqsa hayvonlarning o'ta xavfli kasalliklarining paydo bo'lishi va tarqalishi bo'yicha xavflarni boshqarish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, xavflarni aniqlash va tavsiflash, xavflar reestrini yaratish, xavflarga javob berish yo'llarini tanlash, xavflarni boshqarishni kalendar rejaga bog'lab, tadbirlar rejasini ishlab chiqish, aniqlangan xavflarni muntazam monitoring qilish va muntazam xavf hisobotini yaratish imkonini beradi.

Xavfning ta'sirni aniqlash, import qiluvchi mamlakatda hayvonlar va odamlar uchun xavfli bo'lgan (masalan, o'ta xavfli kasallik qo'zg'atuvchilar tomonidan kelib chiqadigan) xavfga duchor bo'lish uchun zarur bo'lgan biologik mexanizmlarni tavsiflashdan iborat, shuningdek, sifat jihatidan (ya'ni, og'zaki ta'riflar) yoki miqdoriy (ya'ni, raqamli qiymatlar) ta'siri sodir bo'lish ehtimolini baholashdir.

Aniqlangan xavfga ta'sir qilish ehtimoli miqdori, vaqti, qaytalanish tezligi, davomiyligi, ta'sir qilish yo'llarining aniq parametrlari (oziq-ovqat, nafas olish yo'llari yoki hasharotlar chaqishi orqali) yordamida xamda hayvon populyatsiyalarining va odamlar soni, hayvon turi va boshqa xususiyatlarini hisobga olib, hisoblanadi.

Ta'sirni baholashda foydalanish mumkin bo'lgan dastlabki ma'lumotlar qatoriga quyidagilar kiradi:

a) biologik omillar – qo'zg'atuvchining xususiyatlari;

b) mamlakat omillari:

– potensial tarqatuvchilarning mavjudligi

– odam va hayvonlar demografiyasi;

– an'analar va urf-odatlar;

– geografik parametrlar va ekologik omillar;

v) tovar omillari:

– import qilinadigan tovarlar miqdori;

– import qilinadigan hayvonlar va mahsulotlarning maqsadligi;

– utilizatsiya va yo'q qilish usullari.

Agar ta'sirni aniqlashda sezilarli xavf aniqlanmagan bo'lsa, ushbu bosqichda xavfni aniqlash tadbirlari tugaydi.

Tekshirishlarda xavfga yo'naltirilgan (риск-ориентированный) yondashuv davlat nazorati maqsadlarida xavflarning uchta yoki to'rt-beshta kategoriyasini joriy etish mumkin. Ularning har biri rejali nazorat tadbirlarining o'ziga xos davriylikka ega bo'lishadi. Masalan, xavf darajasi o'ta yuqori bo'lgan ob'ektlar uchun doimiy tekshirish rejimi o'rnatiladi. Yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatini muayyan xavf toifasiga kiritish mezonlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'zini qarori bilan tegishli qoidalarni tasdiqlab, belgilagani maqsadga muvofiq.

Albatta, tekshirishlarni o'tkazishda xavfga yo'naltirilgan (риск-ориентированный) yondashuvni hisobga olgan holda, nazorat qilinadigan ob'ektlarning respublika reestrini barpo etish kerak bo'ladi. Bugungi kunda nazorat qilinadigan ob'ektlarni ro'yxatga olishning bunday tizimi mavjud emas, garchi soliq xizmatida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni ro'yxatga olish tizimi mavjud bo'lsada. Lekin ular bir-biridan farq qiladi. (Bu haqda ikkinchi qismda batafsil aytib o'tiladi).

Xavflarni tahlil qilish va ekvivalentlikni tuzish to'g'risida xulosalar, boshqa veterinariya kelishuvlari bo'yicha veterinariya inspektorlarini o'qitish albatta yaqin orada tashkil etilishi juda kerak, ushbu ehtiyojlar uchun mablag'lar ajratilishi rejalashtirilgan bo'lishi kerak.

Shu bilan birga xalqaro savdo bilan bog'liq veterinariya-sanitariya tadbirlari XEB standartlari va SFS qoidalarga asoslanishi kerak. Import qiluvchi mamlakat hayvonlar va chorvachilik mahsulotlarini o'z hududiga Kodeksda tavsiya etilgandan farqli ravishda olib kirishda qo'shimcha talab bilan ruxsat berish huquqiga ega. Faqat ilmiy jihatdan asoslanib, yanada qat'iy talablarni isbotlash uchun, import qiluvchi mamlakat XEB standartlariga muvofiq xavf tahlilini o'tkazishi mumkin.

Hayvonlar va kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlarni olib kirishi har doim hayvonlar va import qiluvchi mamlakat aholisining sog'ligiga ma'lum darajada xavf tug'diradi. Xavfni baholash va undan ham yaxshirog'i xavflarni boshqarish chora-tadbirlarini tanlash, hayvon sog'ligini saqlashni boshqarish tizimlari va chorvachilik ishlab chiqarish va qayta ishlash tizimlari farqlari tufayli qiyin kechadi.

Xamda, tizimlar va chora-tadbirlar aniq farq qilganda hayvonlar va aholining sog'ligi uchun teng darajadagi (ekvivalentlik) himoyani ta'minlashi kerak. Turli xil tizimlarda qo'llaniladigan veterinariya-sanitariya tadbirlarining hayvonlar va aholi sog'ligini muhofaza qilishning teng darajada bo'lishini ta'minlash uchun ekvivalentlikni aniqlashda ma'lum prinsiplarga amal qilinadi.

Hayvonlar va chorvachilik mahsulotlari xalqaro savdosida import qiluvchi mamlakat o'z hududidagi hayvonlar va aholi sog'ligi ishonchli himoya qilinishi kafolatlariga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun xavflarni boshqarish tadbirlari eksport qiluvchi mamlakatning hayvonlar sog'ligi va chorvachilikni boshqarish tizimi hamda veterinariya-sanitariya tadbirlari samaradorligini baholashga asoslanadi. Shu bilan birga, eksport qiluvchi mamlakatning veterinariya tizimlari import qiluvchi mamlakat tizimlaridan shubhasiz farq qiladi.

Infratuzilma, veterinariya-sanitariya siyosati yoki uni amalga oshirish usullari, laboratoriya tadqiqotlarini tashkil etish, mavjud yuqumli va yuqumsiz kasalliklarni nazorat qilish, chegara nazorati va ichki tashish ustidan nazorati bo'yicha farqlar bo'lishi turgan gap. Agar mavjud chora-tadbirlar sog'likni muhofaza qilishning teng darajasini ta'minlashga kelishib olinsa, ular ekvivalent hisoblanadi.

Ekvivalentlik o'z ichiga veterinariya-sanitariya chora-tadbirlarining teng darajasi asosini aniqlash xavf ta'rifi kiradi. Ekvivalentlikni aniqlashda ushbu xavf yoki xavflar guruhiga nisbatan veterinariya-sanitariya tadbirlarining samaradorligi yoki ularning oldini olishga qaratilgan tadbirlar hisoblab chiqiladi.

Ekvivalentlik takliflarini yagona tarkibiy qism sifatida ifodalash mumkin (izolyatsiya yoki diagnostik tekshirish tartibi, muayyan nazorat yoki qayta ishlash uchun talab, sertifikatlash tartibi va boshqalar), yoki ular bir o'lchovning bir nechta tarkibiy qismiga (muayyan mahsulot uchun ishlab chiqarish tizimiga) ega bo'lishi mumkin yoki ular bir nechta chora-tadbirlarning kombinatsiyasi sifatida ifodalanishi mumkin. Ushbu kasallik yoki infeksiyadan kelib chiqadigan xavflarni boshqarish uchun choralar muayyan kasallik uchun ketma-ket yoki bir vaqtning o'zida qo'llanilishi mumkin.

Ekvivalentlikni aniqlash maqsadida Kodeksga muvofiq veterinariya-sanitariya tadbirlari quyidagicha tavsiflanadi:

a) infratuzilmaga quyidagilar kiradi: normativ-huquqiy baza (veterinariya qoidalar, ko'rsatmalar va boshqalar) va boshqaruv tizimlari – veterinariya xizmatini tashkil etish va boshqalar;

b) dastur tushunchasi va uni amalga oshirilishi quyidagilarni o'z ichiga oladi: tizimlar bo'yicha hujjatlar, samaradorlik, qarorlar va mezonlarni, laboratoriyalar quvvati va sertifikatlash imkoniyati, audit bilan bog'liq va amalga oshirish qoidalar;

v) maxsus texnik talablarga quyidagilar kiradi: ishonchli jihozlardan foydalanish, qayta ishlash (masalan, uzoq vaqt qaynatish va boshqa talablar), diagnostik testlar (masalan, IFA) va protseduralar (eksport qilishdan oldin tekshirish va boshqalar).

Ba'zi hollarda alohida texnik talablarni oddiy taqqoslash (masalan, patogen agentning kuydirib, yo'q qilish usuli) yetarli bo'lishi mumkin. Ammo, ko'p hollarda, eksport qiluvchi mamlakatning hayvonlarning sog'ligini boshqarish va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tizimlarining barcha tarkibiy qismlarini baholash orqali teng darajada himoyalanihga erishish mumkinligini aniqlash kerak bo'ladi.

Yer ustidagi hayvonlar sog'ligi kodeksining⁵ foydalanuvchi qo'llanmasida aytilishicha, import qiluvchi mamlakat veterinariya holatini hisobga olgan holda o'z hududini himoya qilishga intilayotgan yuqumli kasalliklarni aniq belgilashi kerak. Uning hududida mavjud bo'lgan kasalliklar bo'lganda yoki ular uchun rasmiy nazorat dasturlari mavjud bo'lmasa bu kasalliklarga nisbatan talablar qo'yilmaydi.

Import va eksport qiluvchi mamlakatlar ekvivalentligini aniqlashga ta'sir qilishuvchi omillarga infratuzilmalar, veterinariya sanitariya holati va hayvonlarning sog'ligini saqlash dasturlaridagi muhim o'zgarishlar to'g'risida bir-birlarini xabardor qilishlari kerak, faqat shunda mamlakatlar ekvivalentlikni qayta belgilashlari zarur ekanini bilishi mumkin.

Geografik sharoitlar bilan belgilanadigan kasallik qo'zg'atuvchidan xoli hududlarni regionlashtirish yoki tan olish tizimini hisobga olish lozim. Bunday hududlar ma'lum bir kasallik qo'zg'atuvchi uchramaydigan butun mamlakat yoki mamlakatning bir qismi bo'lishi mumkin. Amalda,

⁵ Yer ustidagi hayvonlari sog'ligi kodeksi, yigirma sakkizinchi nashr - 2019 yil

bu shuni anglatadiki, import qiluvchi mamlakat eksport qiluvchi mamlakatning boshqa hududlarida ushbu kasallik yuzaga kelganida kasallik qo'zg'atuvchidan xoli hududlardan tovarlar olish imkoniyatini cheklamasligi yaxshi. Eksportchi mamlakat, yoki viloyat, yoki mintaqa kasallikdan xoli maqomini isbotlashi va import qiluvchi mamlakat mutaxassislariga bunday hududlarni tekshirish va inspeksiya qilishga ruxsat berishi kerak.

Kelajakda xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli raqobat uchun mahalliy va import qilinadigan hayvonot mahsulotlari o'rtasidagi diskriminatsiyani, ya'ni kamsitishni kamaytirish jarayonini tezlashtirish uchun Qo'mita barcha sharoitni yaratish shart.

Xavf tahlilini ketma-ket va shaffof qo'llashi iste'molchilarni himoya qilishni yaxshilaydi va chorvachilik mahsulotlarining xavfsizligi va savdo hamkorlari orasida nazorat tizimlariga bo'lgan ishonchni oshirish orqali xalqaro savdoga yordam beradi.

3- Bob. O'zbekiston Respublikasida davlat veterinariya inspeksiyasi to'g'risida

Veterinariya sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida"gi qonunining asosiy qismi davlat veterinariya xizmati bilan uzviy bog'liq bo'lib, davlat veterinariya nazoratiga bag'ishlangan. Prezidentning veterinariya to'g'risidagi Farmon va qarorlarida hamda Vazirlar Mahkamasining shunga tegishli qarorlarida ham davlat veterinariya nazoratiga, boshqacha aytganda davlat veterinariya inspeksiyasiga yetakchi o'rin berilgan. Bu halqaro standartlarga mos keladi.

Davlat veterinariya inspeksiyasi – bu davlat boshqaruvining alohida turi bo'lib, veterinariya sohasidagi belgilangan qoida va normalarning bajarilishi ustidan nazorat qilishni amalga oshiradigan organ. Shu bilan birga, u nazorat funksiyalarini muayyan huquqlar bilan birlashtiradi: jarima solish, nazorat ostidagi tovarlarni kuzatuvchi hujjatlarni (veterinariya sertifikat va ma'lumotnoma) berish va boshqalar.

Bu yerda tushuntirishlar kerak. Davlat veterinariya nazorati – bu davlat nazoratining o'ziga xos turidir, u nazorat qilinadigan ob'ekt tomonidan veterinariya qonunchiligiga muvofiqligini tekshirishning davlat funksiyasi bo'lib, uni keyinchalik qonun hujjatlarida belgilangan buzilish uchun javobgarlikka tortish tartibi bilan amalga oshiriladi. Qo'mita va uning joylardagi vakolatli organlari tomonidan davlat hokimiyati, mahalla o'z-o'zini boshqarish, Qo'mitaga bo'ysunmaydigan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan amalga oshiriladi.

Aniqrog'i, davlat veterinariya nazorati davlat veterinariya inspektorlarining veterinariya sohasidagi qonun va qoidalarga aniq va izchil rioya etilishini nazorat qilish vazifasidir. Ya'ni, davlat veterinariya boshqaruvi sohasidagi huquqiy normalarning yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'g'ri va bir xilda bajarilishi va qo'llanilishining tizimli monitoringini olib borish faoliyat turi hisoblanadi.

Davlat veterinariya inspeksiyasining maqsadlari quyidagilar: veterinariya sohasidagi qonunchilikni, veterinariya sohasidagi xalqaro shartnomalar, veterinariya qoida va normalarining buzilishini oldini olish va ularga yo'l qo'ymaslik, kelib chiqishi hayvonotga mansub xavfsiz va

zararsiz mahsulotlarini ishlab chiqarishni ta'minlash, hayvonlar kasalliklari paydo bo'lishi va tarqalishini oldini olish, shuningdek, aholi sog'ligini zooantroponozlardan himoya qilishdagi ishlarni ustidan davlat nazoratini o'tkazish.

Quyidagi Nizom O'zbekiston Respublikasi "Veterinariya to'g'risida" qonunining⁶ 4, 7, 10, 11, 12, 13, 22, 24, 25, 26,27, 28, 29 va 30 moddalariga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qilishi kerak, chunki u jismoniy va yuridik shaxslar, nodavlat organlari va muassasalari davlat veterinariya nazorati ostidagi tovarlarga ta'aluqli sohada faoliyatni amalga oshiruvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, mamlakat xududida majburiydir. Albatta, ushbu qarorni amalga oshirish uchun 2-3 yil ichida bosqichma-bosqich yondashuv nazarda tutiladi.

Keltirilgan me'yoriy hujjatlar turli manbalardan olingan ma'lumotlarni, jumladan, yer ustidagi hayvonlar sog'ligi Kodeksi, YeOII mamlakatlari, Yel va boshqalar standartlarni umumlashtirishga urinishdir. Biz bir faktni keltiramiz: dunyodagi ma'lumotlarning 90% oxirgi 3 yil ichida paydo bo'ldi, lekin ko'p ma'lumot bo'lganda, u bilan to'g'ri ishlashni o'rganish kerak.

Axir, ma'lumotlarning ko'pligi – bu illyuziya, chunki Internet pulli maqolalarga to'la ("kontent marketing" so'zi bilan ataladi) va foydali ma'lumotlar har doim ham tafsilotlarga kirmaydi. Kontent marketing mazmuni kontent orqali biznesni tezlashtirish, kontent esa maqolalar, xabarlar, harflar, hikoyalar, o'quv materiallari va hokazo shaklida ma'lumot.

Shuning uchun ham bugungi kunda ta'limga bo'lgan ehtiyoj har qachongidan ham kattadir. Yaqinda ham odamlar oddiy yashaganlar: o'qish, ishlash, nafaqaga chiqish edi. Bugun esa bu tizim ishlamaydi. Hozir butun hayotda o'qish va nimadir o'rganish kerak. Lekin bu 3 yoki 4 oliy ma'lumot to'g'risida diplomga ega bo'lish degani emas.

1990-2000 yillarda tug'ilgan insonlar tajribachilar avlodi. Ular jamiyatda bo'lgan narsalarga boshqacha qarashadi va shunday bo'lishi tabiiy hol. Yoshlar harakat qilmasa, dunyo oldinga siljmaydi. Barcha insonlar bir xil yo'ldan yurishi kerak degan qonun yo'q. Hayot yo'llari

⁶ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, "Veterinariya to'g'risida" 03.09.1993 yildagi 935-XII-son (yangi taxriri)

juda ko'p va qaysi birini tanlashni har bir yosh inson o'zi hal qilish kerak. Eng muhimi, bu yo'l o'ziniki bo'lishi kerak.

Yaxshi ishlab chiqilgan normativ hujjat veterinariya va chorvachilik faoliyatlari sohalarini boshqarishida eng kuchli dastakdir, shuning uchun veterinariya qoidalar va normalarni ishlab chiqarishda "Zarur ishni ortig'ini ham, kuzda tutilgandan kamini ham qilmang" prinsipini qo'llab, ushbu Nizom bilan tanishtirmoqchimiz. Muhim bo'lgan joylarda e'tiborni qaratish uchun kursiv orqali izoh berilgan.

Albatta, mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 9 oktabrdagi 469-son "Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar me'yoriy hujjatlarining qonuniyligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014 yil 28 fevralda 2565-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2014 yil 28 fevraldagi 53-mh-son buyrug'ining 1-ilovasida ko'rsatilgan Qoidalarga muvofiq ishlab chiqilib, qabul qilinadi va amaliyotga tatbiq etiladi.

Davlat veterinariya inspeksiyasi to'g'risida Nizom loyihasi

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Qo'mita va uning hududiy organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida "Veterinariya to'g'risida" gi Qonunining 7 va 6-moddalariga muvofiq faoliyatni amalga oshirish bo'yicha davlat veterinariya nazoratini tashkil etish va amalga oshirish tartibini belgilaydi, ulardan hayvonlarni ko'paytirish, boqish, saqlash, hayvonlarni joyini o'zgartirish (shu jumladan tashish va haydash), hayvonlarni aylanmasi va so'yishi, mamlakat hududida veterinariya nazorati ostidagi tovarlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, sotish ustidan nazoratini o'rnatadi.

Davlat veterinariya inspeksiyasi – bu veterinariya sohasida nazorat funksiyalarini amalga oshiradigan ijro etuvchi hokimiyat organidir. Veterinariya davlat nazoratining maqsadi – veterinariya va chorvachilik sohalarida faoliyat bilan shug'ullanuvchi barcha sub'ektlarning veterinariya qonunchiligi talablariga amal qilish tartibini o'rnatish.

2. "Veterinariya to'g'risida" gi Qonunining 13-moddasiga muvofiq bosh davlat veterinariya inspektorlari, ularning o'rinbosarlari va davlat veterinariya inspektorlari o'z vakolatlari doirasida:

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga zarur veterinariya, veterinariya-sanitariya tadbirlari va epizootiyaga qarshi tadbirlar o'tkazish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi;

hayvonlarning sog'lig'i va odamning salomatligi uchun xavf tug'diradigan kasalliklarga chalingan hayvonlar aniqlangan hollarda, ushbu hayvonlarni so'yish yoki yo'q qilib tashlash to'g'risida, shuningdek iste'molga yaroqsiz deb topilgan, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni yo'q qilib tashlash, qayta ishlash yoki ushbu mahsulot va xom ashyodan o'zgacha tarzda foydalanish haqida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi;

davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi ob'ektlarga moneliksiz kiradi va veterinariya to'g'risidagi qonunchilikning aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi;

temir yo'l vagonlarining, kemalarning, samolyotlarning va boshqa transport vositalarining holati veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga nomuvofiqligi aniqlangan taqdirda ulardan foydalanishni taqiqlaydi;

veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarining buzilishlari aniqlangan taqdirda chorvachilik ob'ektlaridan, go'sht va sut sanoati korxonalaridan, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni qayta ishlovchi hamda saqlovchi korxonalardan foydalanishni taqiqlaydi;

veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarining buzilishlari aniqlangan taqdirda chorvachilik fermalarida, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni qayta ishlovchi hamda saqlovchi korxonalarda yangi qurilgan, tiklangan va rekonstruksiya qilingan ob'ektlarni ishga tushirishni to'xtatib turadi;

hayvonlarning egalari tomonidan, shuningdek kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni qayta ishlash, saqlash hamda ularning savdosi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar tomonidan veterinariya to'g'risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

chegaraoldi tumanlarda, qo'shni davlatlarda yuzaga kelgan epizootik vaziyat to'g'risida tegishli organlar va tashkilotlarni xabardor qiladi, tegishli veterinariya tadbirlarini amalga oshiradi hamda zarur tavsiyalar beradi;

veterinariya dori vositalari, ozuqabop qo'shimchalar ishlab chiqarilishini hamda ulardan chorvachilikda va veterinariyada foydalanilishini nazorat qiladi, ularning hayvonlar sog'lig'iga va kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot hamda xom ashyo sifatiga ta'sirini baholaydi;

hayvonlarning yuqumli kasalliklari o'choqlari aniqlangan taqdirda tegishli hududlarni nobop punktlar deb e'lon qilish va ularda cheklovchi tadbirlar (karantin) joriy etish to'g'risida, shuningdek hayvonlarning yuqumli kasalliklari o'choqlari tugatilganidan keyin cheklovchi tadbirlarni (karantinni) bekor qilish haqida tegishli davlat organlariga taqdimnoma kiritadi;

veterinariya to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun mansabdor shaxslarga va boshqa shaxslarga nisbatan belgilangan tartibda ma'muriy jazo choralarini ko'radi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini o'n ish kunidan ko'p bo'lgan muddatga cheklash, to'xtatib turish va taqiqlash sud tartibida amalga oshiriladi.

Bosh davlat veterinariya inspektorlari, ularning o'rinbosarlari va davlat veterinariya inspektorlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Izoh. "Veterinariya to'g'risida" gi qonunga o'zgarishlar kiritib, zamonaviylashtirish vaqti keldi – uning ayrim moddalari 2015 yildan beri eskirdi, axir mamlakat undan keyin tubdan o'zgardi, ochiq davlatga aylandi, ko'p eski muammolar hal etildi, korrupsiyaga qarshi qat'iy kurash olib borilayapti. Veterinariya nazoratining sifat darajasini ko'tarish kerak – bu bir guruh omillarga, shu jumladan axloqiy, tashkiliy, qonunchilik, me'yoriy va texnik tamoyillariga bog'liq.

Veterinariya nazorati organlari tomonidan XEBning asosiy prinsiplarga rioya qilish XEBga a'zo boshqa mamlakatlarning veterinariya xizmatlarining ishonchini qozonish va saqlash uchun muhim. Hayvonlarning sog'lig'i va ulardan olingan mahsulotlarning xavfsizligi bilan bog'liq choralarni tayyorlash va amalga oshirish hamda xalqaro veterinariya guvohnomalarini rasmiylashtirish veterinariya nazorati organiga yuklatiladi.

3. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

Veterinariya inspeksiyasini o'tkazish takrorligi – rejali, doimiy va navbatdan tashqari (favqulodda) inspeksiya o'tkazishlari.

Rejali veterinariya tekshiruvini o'tkazish nazorat tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishda xavfga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etish bilan bog'liq, tekshirishlar takrorlanishi esa nazorat osti ob'ektdagi potensial xavf darajasiga bog'liq, ya'ni xavflar qanchalik yuqori bo'lsa, tekshirishlar shunchalik tez-tez o'tkaziladi.

Nazorat ostidagi ob'ektlarning doimiy veterinariya inspeksiyasi veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyalarining davlat veterinariya inspektorlari, uchastkovoy veterinariya inspektorlari va rasmiy veterinariya vrachlari tomonidan ayrim davlat vakolatlarini topshirgan doirasida amalga oshiriladi.

Quyidagi nazorat osti ob'ektlarda navbatdan tashqari veterinariya inspeksiyasi o'tkaziladi:

a) oldin o'tkazilgan rejali tekshirish natijalari qoniqarsiz bo'lganda;

b) oldindan ma'lum bo'lgan veterinariya-sanitariya jihatidan noqulay holat:

v) davlat veterinariya nazorati organlarining tahlili, veterinariya hisobi va hisobotidan olingan ma'lumotlarni taqqoslash, boshqa davlatlarning veterinariya organlarining notifikatsiya va xabarnomalari nazorat osti ob'ektiga bormasdan ochiq ommaviy axborot manbalaridan olingan veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini buzganlikda gumon qilinganda;

Izoh. Veterinariya xavflarga yo'naltirilgan yondashuv nazorat faoliyatini isloh qilishning asosiy tamoyillaridan biriga aylanishi lozim. Faqat shu yondashuvga tayanib tekshirishlar sonini kamaytirish va sifatini yaxshilash mumkin.

Shuning uchun bizga yuridik va jismoniy shaxslar yoki ular foydalanadigan ishlab chiqarish ob'ektlari faoliyatini ma'lum bir xavf toifasiga tasniflash tartibini belgilaydigan qoidalar kerak. Davlat veterinariya nazorati ostidagi ob'ektlarini muayyan xavf toifasini berish mezonlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli normativ-huquqiy hujjat bilan o'rnatiladi.

Xavf toifalari ro'yxati va ularga davlat veterinariya nazorati ostidagi ob'ektlarni tayinlash mezonlari jismoniy va yuridik shaxslarlarning rejali tekshiruvlarining belgilangan takrorligiga rioya qilgan holda davlat veterinariya inspeksiyasining moddiy, moliyaviy va inson resurslaridan maqbul foydalangan holda qonun bilan muhofaza qilinadigan veterinariya nazorati ostidagi tovarlarga yetkazilgan zararni minimallashtirishga erishiladi.

Davlat veterinariya nazorati ostidagi ob'ektlarini xavf toifalari berishi mezonlari jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan belgilangan talablarga rioya qilmaslikning mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining og'irligini, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan majburiy talablarga rioya qilmaslik ehtimolini hisobga olishi kerak.

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan majburiy talablarga rioya qilmaslikning mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining og'irligini baholash quyidagilar hisobga olingan holda amalga oshiriladi:

yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishi va tarqalishining mumkin bo'lgan salbiy holatlarining mumkin bo'lgan og'irligi;

sifatsiz yoki yaroqsiz veterinariya dori vositalaridan foydalanish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar;

kelib chiqishi hayvonotga mansub yaroqsiz mahsulot yoki xom ashyodan tayyorlangan oziq-ovqatni iste'mol qilish natijasida odamlarda toksik infeksiyalarning tarqalishining mumkin bo'lgan chastotasi va darajasi;

zarar yetkazish holatlarining boshqa mumkin bo'lgan salbiy oqibatlari yoki jismoniy va yuridik shaxs tomonidan majburiy talablarga rioya qilmaslik natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlarni bartaraf etish qiyinligini hisobga olish.

Veterinariya-sanitariya chorasi – bu qonunlar, qarorlar, qoidalar va boshqa normativ – huquqiy hujjatlar, talablar va protseduralar, davolash va ishlov berish usullari, ya'ni hayvonlarning hayotini yoki sog'lig'ini xavfga qo'yadigan kasallik qo'zg'atuvchilar yoki zararli organizmlar hamda ksenobiotiklardan himoya qilish chora-tadbirlar;

Izoh. Iste'molchining ishonchini qazonish uchun oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini nazorat qiluvchi veterinariya vrachlari mavjud normalar va qoidalarni huquqiy va ilmiy ekspertizadan o'tkazish, yetmaganlarini ishlab chiqish kerak. Masalan, barcha sut ishlab chiqaruvchilarda veterinariya-sanitariya pasporti – sut xavfsizligi va uning yuqori sifatini kafolatlaydigan hujjat bo'lishi shart.

Davlat veterinariya inspeksiyasi (keyingi matnda – Inspeksiya) – davlat boshqaruvining maxsus turi bo'lib, veterinariya sohasida belgilangan qoidalar va normalarning bajarilishini nazorat qiladi, shu bilan birga u nazorat funksiyalarini ayrim operativ huquqlar bilan birlashtiradi (jarimalar solish, tovarlarni kuzatib borish xujjatlarni berish va boshqalar);

Davlat veterinariya nazorati – veterinariya sohasidagi qonunchilikda belgilangan tartibda tirik hayvonlarga, nazorat ostidagi tovarlarni ishlab chiqarish va aylanishi jarayonida, ularning veterinariya jihatidan sifati va xavfsizligini ta'minlashga, aholini hayvonlar va odam uchun umumiy bo'lgan kasalliklari, toksikoinfeksiyalar va oziq-ovqat zaharlanishining oldini olishga qaratilgan muntazam kundalik doimiy faoliyatidir;

davlat veterinariya nazoratining natijasi amaldagi qonun hujjatlari buzilishini oldini olish choralari bo'lishi mumkin;

sohada aniq ob'ektlar va nazorat ostidagi mahsulotlarni nazorat qilish faoliyatini rasmiy veterinar vrachlar berilgan vakolat doirasida amalga oshirishlari mumkin.

Izoh. Mamlakat hududi aylanmasidagi dori-darmonlar davlat veterinariya inspeksiyasi tomonidan klinik tekshirishlar, sifati, dori-darmonlarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish, reklama qilish, tarqatish, sotish, foydalanish va yo'q qilishni ustidan nazorat qilishi shart.

Veterinariya dori-darmonlardan foydalanish bo'yicha ko'llanmada ko'rsatilmagan nojuyta ta'sirlar haqida, ulardan foydalanganda kutilmagan reaksiyalar, hayvonlarning hayoti yoki sog'ligiga tahdid solishi mumkin bo'lgan boshqa dori-darmonlar bilan o'zaro ta'sirining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, mavjud ma'lumotlar dori vositasini ishlatish yo'riqnomasidagi ma'lumotlarga mos kelmaydigan ma'lumot olgandan so'ng davlat veterinariya inspektori foydalanishning to'xtatilishi, preparatni aylanmadan olish yoki undan foydalanishni qayta tiklash bosh veterinariya inspektori tomonidan belgilanishi kerak.

Davlat veterinariya nazorati – veterinariya qonunchiligining qat'iy bajarilishi darajasini uzliksiz monitoring qilish va tekshirish:

yuqumli va boshqa hayvon kasalliklari o'choqlarining tarqalishi va bartaraf etilishini oldini olishga qaratilgan mamlakat hududida profilaktik, diagnostik, terapevtik, cheklovchi va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishda, karantin va boshqa cheklovlarni o'rnatishda va olib tashlashda;

veterinariya kuzatuv hujjatlarini rasmiylashtirishda;

veterinariya-sanitariya ekspertizasini tayinlash va o'tkazishda;

suv hayvonlari va ulardan tayyorlangan mahsulotlariga nisbatan veterinariya xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirishda;

hayvonlarni identifikatsiya qilish va hisobga olish paytida;

regionalizatsiya (zonalashtirish)ni o'tkazishda va zoosanitariya statusini ta'riflashda;

hayvonlarni urchitish, yetishtirish, saqlash, joyini o'zgartirish (shu jumladan tashish va boshqa joyga haydash), poda aylanmasini amalga oshirganda va so'yishda;

nazorat ostidagi tovarlarni ishlab chiqarish, joyini o'zgartirish, qayta ishlash, saqlash, sotish yoki oborot paytida;

biologik chiqindilarni joyini o'zgartirish, saqlash, qayta ishlash, utilitatsiya qilish yoki yo'q qilishda;

veterinariya nazorati ostida bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Quyidagi talablarga rioya etilishi:

O'zbekiston Respublikasining 30.08.1997 yildagi "Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi to'g'risida" qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 7-iyuldagi 474-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Sut va sut mahsulotlari xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglament";

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 yanvardagi 36-sonli qarori bilan "Go'sht va go'sht mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglament";

Qo'mita raisining o'rinbosari – Bosh davlat veterinariya inspektorining veterinariya nazorati bo'yicha qabul qilingan qarorlari;

Izoh. Hozirgi vaqtda davlat veterinariya xizmatining vakolatlar doirasi juda katta, markazlashish darajasi esa juda keng va ayrim davlat vakolatlarini topshirilishi veterinariya inspektorlarning ishini yengillashtiradi. Shu orqali tuman (shahar) veterinariya bo'limlarining veterinariya inspeksiyasini, ya'ni nazorat ostidagi ob'ektlarda o'z vazifalarini bajarish imkoniyatlarini yaxshilash uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdir.

Davlat veterinariya nazorati ostidagi ob'ekt (bundan buyon ob'ekt) – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi 139-son qarori bilan tasdiqlangan davlat veterinariya xizmati tomonidan nazorat ostidagi tovarlar ro'yxatiga kiritilgan tovarlar (keyingi matnda – nazorat ostidagi tovarlar);

har qanday birlik, korxonalar, inshoot va ochiq-havodagi fermalar, hayvonlar boqish yoki manipulyatsiya qilish uchun jihozlangan yoki jihozlanmagan har qanday joy, saqlab yoki o'zgartirilgan, yig'ilish punktlari (masalan, qishloq xo'jaligi ko'rgazmalar va yarmarkalar, sport tadbirlari, tranzit markazlari, chorvachilik markazlari), bozorlar, hayvonlarning murdalarini yig'ish markazlari, nekropsiya (o'lik hayvonni yorish) va diagnostika markazlari, ilmiy markazlar, zoologik bog'lar, chegara punktlari, karantin o'tkazish uchun joylar;

xayvonlarni ko'paytirish, yetishtirish, saqlash, joyini o'zgartirish (shu jumladan tashish va boshqa joyga haydash), oborot, so'yish, nazorat ostidagi tovarlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, sotish yoki oboroti mavjud korxonalar va yoki muassasalar;

tuzilma, bino yoki yer uchastkasi (masalan, hayvonlar uchun qo'riqxonona), ya'ni xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z faoliyatini amalga oshiradigan joy;

ob'ekt (masalan, u bir xo'jalik, hayvonlar qabristoni va boshqalar) statik bo'lib, u bir foydalanuvchidan boshqasiga o'tishi mumkin, uning egasi o'zgarishi mumkin. Bir necha xil xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bitta ob'ektda joylashgan bo'lishi mumkin, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tugatilishi yoki qayta shakllantirilishi mumkin. Lekin ob'ekt joyida qoladi va atrof-muhitga o'z ta'sirini ko'rsatishda davom etadi;

Izoh. Hayvonlar yopiq, yarim yopiq xonalarda va ochiq havoda bo'paytirilib, boqiladi. Alohida xo'jalik – bitta egasiga tegishli bo'lgan va bitta manzilda ro'yxatdan o'tgan bir yoki bir nechta hayvonlardan iborat bo'lgan xo'jalik. Bitta egaga tegishli, ammo har xil joylarda joylashgan hayvonlar har xil xo'jaliklarga tegishli bo'ladi.

Sub'ekt – xo'jalik faoliyatining ishtirokchisi: yuridik yoki jismoniy shaxs;

Ozuqaning xavfsizligi – bu moddalar almashuvi, intoksikatsiya (zaxarlanish), toksikoinfeksiya, allergiya kasalliklar, gormonal disfunktsiya, organizmning immunobiologik holatining zaiflashishi, deformatsiyalar va boshqa kasalliklarni olib kelishi mumkin bo'lgan zararli moddalarning yo'qligi.

Ob'ektning veterinariya inspeksiyasini o'tkazish – bu davlat veterinariya nazorati ostida bo'lgan ob'ektning vakolatli tekshiruvi;

Izoh. Davlat veterinariya inspektori faqat nazorat qilinadigan muassasaning e'tiborini uning xatosiga qaratishi va hatto uning faoliyatini to'xtatishi mumkin, ammo nazorat ostidagi muassasaning o'zi o'zining xatolarini tuzatishi kerak.

Xavflarni tahlil qilish – xavflarni identifikatsiya qilish, xavfni baholash, xavfni boshqarish va xavf to'g'risida xabar berish jarayoni.

Izoh: hayvonlarning o'ta xavfli kasalliklarining paydo bo'lishi, kirib kelishi va tarqalish xavfini boshqarish uchun xavflarni aniqlash va tavsiflash, ularni miqdor va sifatini baholash, xavflarga javob berish usullarini ishlab chiqish, xavflarni boshqarish chora-tadbirlari rejasini tuzish, boshqaruv tadbirlarini bajarilishini nazorat qilish uchun doimiy monitoringni tashkil etish va xavflar bo'yicha muntazam hisobotlarni tayyorlash kerak.

Xavf to'g'risida xabardor qilish – veterinariya sohasidagi ma'lumotlarni Qo'mita yoki uning hududiy organlarining Internetning rasmiy

veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida, boshqa davlat axborot tizimlarida yoki boshqa shakllarda joylashtirish orqali amalga oshirish. Joylashtirilgan ma'lumotlar yangilangan va ular o'zgartirilgan kundan boshlab 5 ish kunidan kechiktirmay yangilanishi shart.

Xavf – odamlar va hayvonlar sog'lig'iga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday hodisa oqibatlarining ma'lum vaqt ichida yuzaga kelish ehtimoli va mumkin bo'lgan oqibatlarining potensial hajmi;

Izoh: Eng katta xato bu noaniqlikni xavf sifatida qabul qilish. Noaniqlik noma'lum mumkin bo'lgan natijalarni va shuning uchun noma'lum ehtimollarni nazarda tutadi. Xavf esa taxmin qilinishi mumkin bo'lgan ma'lum natijalar va ehtimollarni o'z ichiga oladi. Xavfni boshqarish mumkin shuning uchun u qo'rqinchli emas.

Havfli omillarning 3- ta toifasi bor, ular:

<i>Xavfli omillar</i>	<i>Tiplar</i>	<i>Ta'siri</i>	<i>Agenti</i>
<i>Biologik</i>	<i>Mikroorga-nizmlar</i>	<i>Infeksion, shu jumladan oziq-ovqat kasalliklariga olib kelishi</i>	<i>Salmonellalar, stafillokoklar, klostridiylar, viruslar, zamburug'lar (bakteriya) va boshqalar</i>
	<i>Parazitlar</i>	<i>Hayvonlarning zaharlanishi, bezovta qilishi</i>	<i>Gemosporidiyalar, ektoparazitlar (kana, bit, chivinlar), gelmintlar va boshqalar</i>
<i>Kimyoviy</i>	<i>Qoldiqlar</i>	<i>Yaqin, o'rta va uzoq muddatli zaharlilik (toksinlik)</i>	<i>Pestitsidlar, og'ir metallar, antibiotiklar, gormonlar, dezinfeksiya, dezinseksiya vositalari va boshqalar</i>
<i>Fizik</i>	<i>Yot, begona zarrachalar</i>	<i>Jarohlanish (travma)</i>	<i>Shisha, metallar, plastik, karton va boshqalar</i>

Kimyoviy va fizik agentlar o'zidan-o'zi ko'paymaydi, shuning uchun ular bilan ifloslanishni oldini olish oson. Biologik agentlar yuqishi, o'zidan-o'zi ko'payishi va rivojlanishi mumkin. Yuqumli kasallik patogenlardan eng ko'p va keng tarqalgani bu gelmintlar, viruslar, bakteriyalar, mog'or zamburug'lari va bir xujayrali parazitlar. Aksariyat hollarda yuqumli kasallik agentlari mavjudligi oziq-ovqat kasalliklari keltirib chiqarish uchun yetarli emas – buning uchun tegishli shart-sharoitlar bo'lishi kerak.

Oziq-ovqat mahsulotlari orqali yuqadigan kasalliklarning aksariyati biologik agentlarning rivojlanishi natijasida sodir bo'ladi.

II. Inspeksiyaning tuzilishi

4. Inspeksiya hayvonlar va suv biologik resurslarni, naslchilik yutuqlarini muhofaza qilish hamda ularning yashash joylaridan foydalanish, ko'paytirish, aholini odam va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklardan (zoonozlar) himoya qilish veterinariya nazorat vazifalarini bajaruvchi respublika ijro etuvchi organi hisoblanadi.

4.1. Inspeksiya veterinariya dori vositalarini foydalanish uchun muomalaga chiqarish, ozuqa va ularni ishlab chiqarish uchun tarkibiy qismlar, shu jumladan ozuqa qo'shimchalarining sifati va xavfsizligini ta'minlashda nazoratni amalga oshiradi.

4.2. Inspeksiya Qo'mitaning tarkibida alohida bo'linma bo'lib, yuridik shaxs hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhr, belgilangan namunadagi shtamplar va shakllar, shuningdek, qonunchilikka muvofiq ochilgan hisobvaraqlar mavjud bank hisob raqamlariga, shu jumladan, xorijiy valyutasidagi hisobraqamlariga hamda veterinariya ramziga egadir.

4.3. Inspeksiya o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Nizomga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4.4. Ushbu Nizom veterinariya inspektorlarining davlat xizmatlari va ish tavsiflarini ko'rsatish qoidalarini belgilaydi va birgalikda davlat Inspeksiyasi vazifalarini bajarish uchun majburiy standartlarni kasb etadi. Davlat funksiyalarini bajarish, davlat xizmatlarini ko'rsatish, davlat inspektorlarning funksiyalarini bajarish bo'yicha harakatlar ketma-ketligi va muddatlarini o'z ichiga olgan qoidalar belgilangan tartibda Inspeksiya tomonidan ishlab chiqiladi va amaliyotga tadbiiq etiladi.

4.5. Inspeksiya apparatining tuzilishi va shtatlar jadvalini O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektori Inspeksiya bo'linmasi xodimlarning belgilangan umumiy shtatdagi soni doirasida tasdiqlaydi.

5. Davlat veterinariya inspeksiyasining Bosh boshqarmasi hamda uning hududiy organlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tumanlar (shaharlar)da, Davlat chegarasidagi va transportdagi davlat veterinariya Inspeksiya boshqarmasi amalga oshiradi (keyingi matnda – davlat veterinariya nazorati organlari).

6. Davlat veterinariya nazoratini amalga oshiradigan vakolatli mansabdor shaxslar:

a) veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi raisining o'rinbosari bir vaqtning o'zida inspeksiya Bosh boshqarmasi boshlig'i O'zbekiston Respublikasi Bosh Davlat veterinariya inspektori;

Izoh. Albatta, davlat veterinariya inspeksiya Bosh boshqarmasi yaratilishi munosabati bilan veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi rasi O'zbekiston Respublikasi Bosh Davlat veterinariya inspektori, uning boshqa o'rinbosarlari esa Bosh Davlat veterinariya inspektorining o'rinbosari bo'lmasligi shart.

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tumanlar (shaharlar) ning bosh davlat veterinariya inspektorlari, ularning o'rinbosarlari – o'z navbatida, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tumanlar (shaharlar) bosh davlat veterinariya inspektorlarining o'rinbosarlari hisoblanadilar;

v) davlat veterinariya inspeksiyasining Bosh boshqarmasi mutaxassislari, ularning ish tavsiflariga muvofiq davlat veterinariya nazoratini amalga oshirish yuklatilgan bo'lsa, ular o'z vakolatlari doirasida davlat veterinariya inspektorlari hisoblanadi;

g) Davlat chegarasidagi davlat veterinariya inspeksiya bo'limi yoki boshqarma boshlig'i – davlat chegarasidagi bosh davlat veterinariya inspektori, uning o'rinbosari (agar mavjud bo'lsa) – davlat chegarasidagi bosh davlat veterinariya inspektorining o'rinbosari hisoblanadi;

d) veterinariya uchastkalarining va bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyalarining mudirlari o'zlariga tegishli uchastkalardagi va bozorlardagi davlat veterinariya inspektorlari hisoblanadi;

e) ixtisoslashtirilgan so'yish korxonalarida veterinariya sanitariya ko'rigidan o'tgan va davlat veterinariya xizmatining tegishli muhri va hujjatlariga ega bo'lgan go'sht va go'sht mahsulotlari veterinariya-sanitariya laboratoriyada nazoratdan o'tkazilmaydi. Bunday hollarda davlat veterinariya nazorati hujjatlar, tovar belgilari va savdo gigienasi shartlarini nazorat qilish bilan cheklanadi;

j) chegara veterinariya punktlarining (uchastkalarining) boshliqlari hamda tegishli vakolatlar berilgan veterinar vrachlari chegara veterinariya punktlarining (uchastkalarining) davlat veterinariya inspektorlari hisoblanadi;

Izoh. VSE laboratoriyasining rahbari va xodimlari o'z ishlarida bozor ma'muriyatidan (egasidan), savdo qiluvchi shaxslar va xaridorlardan mustaqil bo'lishlari shart. Ular o'z xizmat vazifalarini bajarishda Davlat tomonidan himoya qilinadi.

6.1. Davlat veterinariya inspeksiya Bosh boshqarmasining boshlig'i - Qo'mita raisi o'rinbosari Inspeksiya ishlarini tashkillashtiradi va Inspeksiyaga berilgan vazifalarni bajarilish uchun shaxsan mas'uldir.

6.1.1. Davlat veterinariya Inspeksiya organlari rahbarlari bilan uchrashuvlar o'tkazadi, unda u Qo'mita raisi qarorlari asosida Bosh boshqarma oldida turgan vazifalarni belgilaydi;

6.1.2. Tezkor masalalar bo'yicha ko'rsatmalar beradi;

6.1.3. Qo'mita dasturlari va rejaları bajarilishini ko'rib chiqadi, baholaydi va qilingan ishlar bo'yicha Qo'mita raisi hamda boshqa tegishli davlat organlariga hisobot va axborot beradi.

III. Inspeksiyaning asosiy vazifalari

6.2. Inspeksiya quyidagilarni amalga oshiradi:

6.2.1. O'z vakolatlari doirasida davlat veterinariya nazorati, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasidagi nazorat punktlarida veterinariya nazorati va to'liq bojxona rasmiylashtirish joylarida texnik qoidalar, veterinariya qoidalari va normalari, ozuqa qo'shimchalari va ozuqa uchun xavfsizlik talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini;

6.2.2. Veterinariya dori vositalarini muomalaga chiqarish sohasidagi davlat veterinariya nazoratini;

6.2.3. O'z vakolati doirasida oziq-ovqat mahsulotlari, materiallar va mahsulotlarning sifati va xavfsizligini ta'minlash, shu jumladan don, yorma, omuxta yem va ularning aralashmasini ishlab chiqarish va tashish uchun butlovchi qismlar sifati va xavfsizligi talablariga rioya etilishi sohasida davlat veterinariya nazorati;

6.2.4. O'zbekiston Respublikasi hududini xorijiy mamlakatlardan hayvonlar yuqumli kasalliklarining kirib kelishi va tarqalishidan muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarini nazorati;

6.2.5. Hayvonlarni madaniy-ko'ngilochar maqsadlarda saqlash va ulardan foydalanishda (sirk, hayvonot bog'i va boshqalar) veterinariya talablarga rioya etilishini nazorati;

6.2.6. Veterinariya dori-darmonlarni ishlab chiqarishdagi klinik tadqiqotlar, veterinariya dori-darmonlarini ishlab chiqarish, sifatini tekshirish, saqlash, tashish, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, dori-darmonlarni reklama qilish, sotish, utilizatsiya yoki yo'q qilish, dori-darmonlardan foydalanishni nazoratini;

6.2.7. Veterinariya dori-darmonlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va veterinariya dorivor vositalari davlat reestrini shakllantirish va yuritish nazorati;

6.2.8. Hayvonlarni identifikatsiya qilish va ularni kuzatib borishni, shuningdek, hayvonlarni ko'paytirish, yetishtirish, so'yish, chorvachilik mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va sotish uchun fermalar va korxonalarni aniqlash va ro'yxatga olishni nazorat qilishni;

6.2.9. Idoraviy va ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlari hamda xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi tomonlaridan samaradorligi va sifati ustidan nazoratni rejali va rejadan tashqari tekshiruvlar o'tkazishda buzilishlar aniqlangan bo'lsa, ularni bartaraf etish bo'yicha majburiy ko'rsatmalar berish, o'z huquqi bilan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tumanlar (shaharlar) davlat veterinariya nazorati organlarining rahbarlarini intizomiy javobgarlikka tortish, shu jumladan, lavozimidan ozod etish bo'yicha mahaliy xokimiyatga murojaat qilishni;

6.2.10. Veterinariya sohasida berilgan vakolatlarni bajarmagan yoki kerak bo'lgan darajada bajarmagan taqdirda, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda ulardan berilgan vakolatlarni olib Quyishni va ularni tiklashni;

6.2.11. Veterinariya dori vositalarini muomalasiga oid ob'ektlarda veterinariyada foydalanish uchun dori-darmonlarning saqlanishi va tashish veterinariya qoidalari, shu jumladan veterinariya dorixonalarida veterinariya qoidalari talablariga rioya etilishini nazorat qilishni;

6.2.12. Veterinariya dori vositalarini tanlab sifat nazoratini amalga oshirish tartibini belgilashni;

6.2.13. Xorijiy mamlakatlarning O'zbekiston Respublikasi xududiga eksport qiluvchi korxonalarini inspeksiya (tekshirishlar), shuningdek tasdiqlangan qoidalarga muvofiq xorijiy rasmiy veterinariya nazorat tizimlarini audit o'tkazishni;

6.2.14. O'zbekiston Respublikasining belgilangan faoliyat sohasidagi OIE (XEB) a'zolidan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishi ustidan nazorati;

6.2.15. O'z vakolatlari doirasida qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish, shu jumladan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomalarni tayyorlash, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo (jarima) tayinlashni;

6.2.16. 10 (o'n) kungacha bo'lgan muddatga veterinariya nazorati ostidagi tovarlar, shu jumladan, veterinariya dori-darmonlarini sotish va ulardan foydalanishni to'xtatib turish masalasini ko'rib chiqish, shu vaqt davomida hujjatlarni sudga taqdim etishga tayyorlashni;

6.2.17. O'zbekiston Respublikasida veterinariya dori-darmonlar muomalasiga qabul qilish uchun ruxsatnoma berishni;

6.2.18. Global "Internet" axborot-telekommunikatsiya tarmog'ining o'z rasmiy veb-saytida ro'yxatdan o'tgan veterinariya dori-darmonlari haqidagi ma'lumotlar, shu jumladan, o'tkazilgan ekspertiza natijalari, hayvonlarni identifikatsiya va hisobga olish bo'yicha ma'lumotlar, foydalanuvchilarga yangiliklar (shu jumladan, hududiy), uning rahbarlari va tuzilishi to'g'risida, me'yoriy hujjatlar, faoliyat sohalari va boshqalar haqida tegishli ma'lumot berishni;

6.2.19. Veterinariya-sanitariya xulosalari asosida nazorat ostidagi ob'ektlarga qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligini hisobga olib ro'yxatga olish va ro'yxat raqamlarini berishni;

6.2.20. Ishlab chiqarish va idoraviy veterinariya xizmatlari, shuningdek xususiy veterinariya amaliyotchilar bilan veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini berish bo'yicha shartnoma tuzish, uzaytirish yoki bekor qilishni;

6.2.21. Yuqumli va ommaviy yuqumsiz hayvon kasalliklari o'choqlari paydo bo'lishning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha diagnostik, profilaktik va davolash tadbirlarini amalga oshirish, shu jumladan dori-darmonlar (vaksinalar, diagnostikumlar, dezmoddalar va boshqalar) bilan ta'minlanganligi va epizootiyaga qarshi chora-tadbirlar belgilangan me'yorlar talablariga muvofiqligi ustidan nazorat qilishni;

6.2.22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan kasalliklar ro'yxati bo'yicha hayvon kasalliklari o'choqlarini bartaraf etish chog'ida hayvonlarni musodara qilish, chorvachilik mahsulotlarini iste'moldan chiqarish qoidalarining bajarilishini nazorat qilishni;

6.2.23. Kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni eksport-import va tranziti, sotishi, ularni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va sotishda veterinariya qoidalari va normalarga rioya kilinishi ustidan, shuningdek, qurilish, rekonstruksiya, modernizatsiya va hayvon mahsulotlarini ishlab chiqarish va saqlash uchun korxonalar ishga tushirish uchun yer uchastkalari taqdim etilishini nazorat qilish;

6.2.24. Epizootik va veterinariya-sanitariya osoyishtaligini ta'minlashda amalga oshirish uchun majburiy bo'lgan veterinariya

qoidalari va normalari yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilishini, hayvonlarni identifikatsiya qilish, ularni hisobga olish, hisobdan chiqarish va saqlash qoidalari, shu jumladan, hayvonlarni saqlash bilan shug'ullanishi va so'yilishi ustidan nazorat qilishni;

6.2.25. O'zbekiston Respublikasi hududida yuqumli hayvon kasalliklari o'choqlari tarqalishining oldini olish va ularni bartaraf etishga qaratilgan karantin va boshqa cheklovlarni tashkil etish hamda bekor qilish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida takliflar kiritishni;

6.2.26. Inspeksiya sohasida xorijiy davlatlar veterinariya organlari va xalqaro tashkilotlar bilan belgilangan tartibda o'zaro hamkorlikni;

6.2.27. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan Inspeksiya sohasidagi boshqa vakolatlarini amalga oshirishni.

6.2.28. Davlat veterinariya nazoratini amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi davlat veterinariya inspektorlari o'zlariga yuklatilgan vazifa va funksiyalarning bajarilmaganligi yoki noto'g'ri bajarilganligi uchun qonunda belgilangan javobgarlikni aniqlash va o'z zimmalariga olishni.

6.2.29. O'zbekiston Respublikasi davlat veterinariya inspektorlari o'z vakolatlari doirasida nazoratni o'tkazishda, tabiiy epizootik o'choqlarni tekshirishda, veterinariya-sanitariya holatini o'rganish va tahlil qilishda xavflarni baholaydilar, zarur hollarda manfaatdor tomonlar va olimlar bilan maslahatlashib, vaziyatni hisobga olgan holda hayvon kasalliklarining oldini olish va bartaraf etish bo'yicha qarorlar qabul qilishni.

IV. Inspeksiyaning huquqlari

7. Inspeksiya boshliqlari va xodimlari belgilangan tartib bo'yicha o'z vakolatlarini amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

7.1. Veterinariya nazoratini amalga oshirish bo'yicha zarur tekshiruvlar, testlar, ekspertizalar, tahlillar va baholashlar, shuningdek ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish;

7.2. Davlat veterinariya nazoratini amalga oshirish uchun majburiy bo'lgan veterinariya qoidalari, normalari va boshqa veterinariya

qonunchiligidagi aktlarni tasdiqlash hamda nazorat ostidagi Ob'ektlarni ro'yxat raqamlarining yagona reestrini yuritilishi ustidan nazorat qilish;

7.3. Mamlakat hududida va XEBning rasmiy ma'lumotlariga kura, xorijda epizootik vaziyatni baholash hamda tashiladigan tovarlarni eksport qilish, olib kirish va tranzit qilish uchun ruxsatnomalar berish, ularni ro'yxatga olish va ro'yxatdan chiqarish;

7.4. Veterinariya sohasidagi monitoring (shu jumladan epizootik monitoring) o'tkazish ustidan nazorat qilish va uning ma'lumotlaridan foydalanish;

7.5. Inspeksiya vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarga tushuntirishlar berish;

7.6. Inspeksiya bilan bog'liq masalalarni ishlab chiqish uchun ilmiy va boshqa tashkilotlar, olimlar va mutaxassislarni jalb etish;

7.7. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan veterinariya sohasidagi majburiy talablarning buzilishi natijasida kelib chiqadigan oqibatlarini oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan cheklovchi, ogohlantirish va profilaktik chora-tadbirlarni qo'llash;

7.8. Belgilangan tartibda, davlat veterinariya inspektorlarining rasmiy guvohnomalari, formali kiyim va ordenlarni kiyish tartibi, shuningdek ushbu shaxslarga forma taqdim etish normalari va tartibini ishlab chiqib, tegishli davlat organlariga taqdim etish.

V. Inspeksiya faoliyatini tashkil etish

8. Inspeksiya O'zbekiston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish Qo'mitasi huzuridagi alohida davlat veterinariya inspeksiyasi Bosh boshqarmasi tarkibiga faqat oliy ma'lumotga ega veterinariya mutaxassislaridan iborat bo'lib, quyidagilar kiradi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar) inspektorlari, veterinariya uchastkalarining va bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyalarining mudirlari – xududiy veterinariya inspektorlar;

Davlat chegarasidagi davlat veterinariya nazorati boshqarmasi (yoki bo'limi), chegara veterinariya punktlari bilan birgalikda;

davlat veterinariya inspeksiyasi Bosh boshqarmasi ijro etuvchi apparat va uning tarkibida tashkil etilgan bo'limlar veterinariya inspektorlari;

hayvonlar sog'ligi ustidan davlat veterinariya nazorati bo'limi;
veterinariya ishini ro'yxatga olish va tashkiliy-uslubiy ishlar bo'limi;
hayvon mahsulotlari xavfsizligini nazorat qilish va laboratoriya nazorati bo'limi;

xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar veterinariya xizmatlari bilan hamkorlik qilish bo'limi.

hamda:

veterinariya dori vositalari, oziqabop qo'shimchalar sifati va muomalasi nazorati bo'yicha Davlat ilmiy markazi;

veterinariya referent laboratoriyalari;

Qo'mita tomonidan Inspeksiya faoliyatini takomillashtirish maqsadida ajratib berilgan boshqa muassasalar;

Davlat veterinariya inspeksiyasi Bosh boshqarmasi Qo'mita tarkibiga yuridik shaxs bo'lib o'z buxgalteriyasi bilan kiradi, u operativ boshqaruvda alohida mol-mulkka ega va bu mol-mulk bilan o'z majburiyatlari bo'yicha javobgardir, sudda da'vogar va sudlanuvchi bo'lishi mumkin.

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tumanlar (shaharlar) veterinariya inspeksiyasi bo'limlari boshliqlari, davlat veterinariya inspeksiyasi Bosh boshqarmasi xodimlari, uning tarkibiga kiruvchi bo'limlar rahbarlari va ularning o'rinbosarlari, hududiy boshqarmalar boshliq o'rinbosarlari hamda barcha veterinariya inspektorlarini davlat veterinariya inspeksiyasi Bosh boshqarmasi boshlig'i tanlov asosida lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod etadi;

davlat veterinariya inspeksiyasi Bosh boshqarmasi faoliyatining samaradorligini Qo'mita tomonidan tasdiqlangan baholash mezonlari va ishchi indikatorlari (KPI) asosida Bosh boshqarmasi boshlig'i muntazam baholab boradi;

davlat veterinariya inspeksiyasi Bosh boshqarmasi faoliyatining samaradorligini natijalari asosida davlat veterinariya inspeksiyasi Bosh boshqarmasi rahbariyat va xodimlarni rag'batlantirish (mukofotlash) yoki intizomiy jazolash choralari ko'riladi.

10. Davlat veterinariya inspeksiyasi Bosh boshqarmasi boshlig'i – Qo'mita raisning o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Bosh vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Bosh boshqarma boshlig'i Inspeksiyaga berilgan vakolatlarni amalga oshirish uchun shaxsan javobgardir.

10.1. Veterinariya nazorati Bosh boshqarmasi boshlig'i:

10.1.1. Yakkaboshchilik asosida Inspeksiya faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi va Bosh boshqarmaga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

10.1.2. Inspeksiya tarkibiga kiruvchi bo'limlar va muassasalar boshliqlarini lavozimga tayinlaydi va ozod etadi;

10.1.3. Inspeksiyaning boshlig'i o'zining o'rinbosari va boshqaruv apparati xodimlar o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

10.1.4. Ijro intizomini mustahkamlash, topshirilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun boshqarma xodimlarining shaxsiy javobgarligini oshiradi;

10.1.5. Xodimlar malakasini oshirishni, shu jumladan chet elda, tashkillashtirish borasida Qo'mita raisiga takliflar kiritadi;

10.1.6. Barcha davlat idoralari va jamoat tashkilotlari, muassasalarida, xo'jalik organlarida alohida ishonchnomasiz Bosh boshqarma nomidan vakillik qiladi, ishonchnomalar beradi hamda Bosh boshqarma nomidan o'z vakolat doirasida shartnomalar tuzadi;

10.1.7. Mehnat qonunchiligiga muvofiq faoliyatida yuqori ko'rsatgichlarga erishgan xodimlarni belgilangan tartibda rag'batlantirish va maoshiga ustama haqlar o'rnatish hamda mehnat va ijro intizomini buzgan xodimlarga nisbatan intizomiy choralarini qo'llash masalalarini hal qiladi, xodimlar zahirasini shakllantiradi va ular bilan ishlashni tashkil etadi;

10.1.8. Amaldagi qonunchilik asosida banklarda milliy va chet el valyutasidagi xisob raqamlarini ochadi, moliyaviy xujjatlariga imzo chekadi, boshqarma mol-mulki va vositalariga qonunchilikda belgilangan tartib va asoslarda egalik qiladi;

10.1.9. Inspeksiyaning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qiladi;

10.1.10. Inspeksiya boshlig'i qonun xujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

10.2. Inspeksiya boshlig'i Qo'mita raisiga quyidagilarni taqdim etadi:

10.2.1. Davlat veterinariya inspeksiyasi Bosh boshqarmasi va hududiy organlari xodimlarining maksimal soni va haq to'lash fondi bo'yicha hisobot;

10.2.2. Davlat veterinariya inspeksiyasi Bosh boshqarmasining yillik rejasi va prognoz ko'rsatkichlari loyihasini hamda ularning bajarilishi to'g'risida hisobot;

10.2.3. Davlat veterinariya inspeksiyasi Bosh boshqarmasi ijro apparati faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika budjet loyihasini shakllantirish bo'yicha takliflar;

10.2.4. Davlat veterinariya inspeksiyasi Bosh boshqarmasi ijro apparati xodimlari, uning hududiy organlari va quyi tashkilotlari, shuningdek ushbu sohada faoliyat bilan shug'ullanuvchi boshqa shaxslarni O'zbekiston Respublikasi davlat mukofotlariga taqdim etish bo'yicha takliflar;

10.2.5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi, Qo'mita hujjatlariga asosan va muvofiq ravishda o'z vakolatlari doirasida o'z vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan topshiriqlar va buyruqlar beradi.

VI. Davlat veterinariya inspeksiyasining funksiyalari

11. Davlat veterinariya inspeksiyasi berilgan huquqlardan foydalanib, veterinariya sohasidagi idoralararo muvofiqlashtirish vazifalarini bajarishi, tuman, viloyat, Respublikaning veterinariya inspeksiyasi xizmatini boshqarishi, barcha turdagi korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklarida hamda shaxsiy uy xo'jaliklarida veterinariya choratadbirlarni o'tkazishi ustidan nazorat qilishi yuklatiladi.

11.1. Davlat chegarasi veterinariya inspektorlari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

barcha turdagi transport vositalarida hayvonlar va odamlarning sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan kasalliklarga chalingan hayvonlar aniqlangan hollarda, ushbu hayvonlarni yo'q qilib tashlash to'g'risida, shuningdek iste'molga yaroqsiz deb topilgan, ushbu sohadagi mahsulot va xom ashyoni yo'q qilib tashlash haqida yuridik va jismoniy shaxslar

tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

o'z vakolati doirasida davlat veterinariya nazorati ostidagi ob'ektlarga moneliksiz kirib, nazoratni o'tkazadi va veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi;

temir yo'l vagonlari, qayiq (kema)lar, havo kemalar, avtomobil va boshqa transport vositalari holatining veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga nomuvofiqligi aniqlangan taqdirda, ulardan foydalanishni to'xtatadi va, agar kerak bo'lsa, qonun doirasida taqiqlaydi;

veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarining buzilishlari aniqlangan taqdirda, chorvachilik mahsulot va xom ashyoni ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi hamda saqlovchi korxonalarda sodir etilgan hollar to'g'risida inspeksiya bosh boshqarmasiga va Qo'mitaning markaziy va xududiy organlariga tezkor xabar beradi;

chegara oldi tumanlarda, qo'shni davlatlarda yuzaga kelgan epizootik holat to'g'risida tizimli ravishda inspeksiya bosh boshqarmasiga va Qo'mitaning markaziy va xududiy organlariga xabar beradi;

Davlat chegarasi davlat veterinariya inspektorlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

11.2. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman (shahar) davlat veterinariya inspektorlarining funksiyalariga quyidagilar kiradi:

chorvachilikka taaluqli korxonalar hamda xo'jaliklari qurilmalarni loyihalash va qurishdan oldin texnologik loyihalash normalari ko'rib chiqishda veterinariya ekspertizasi o'tkazish, yer uchastkalarini ajratish va tayyor ob'ektlarni foydalanish uchun topshirishda xulosalar berishda qatnashish;

veterinariya dori-darmonlarning muomalasi davlat tomonidan nazorat qilish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

1) sub'ektlar tomonidan dori-darmonlarning muomalasi, laboratoriya amaliyoti va klinik tadqiqotlar, veterinariya dori-darmonlarni ishlab chiqarish va sifatini nazorat qilish qoidalari, dori-darmonlarni ulgurji savdo va tarqatish qoidalari, aptekalarda dori-darmonlarni ishlab chiqarish,

veterinariya dori-darmonlarni saqlash, sotish va yo'q qilish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish;

2) litsenziya talablari va shartlariga muvofiqligi bo'yicha tekshirishlar o'tkazish;

3) veterinariya dori-darmonlarining muomala jarayonida sifatini nazorat qilish:

a) tanlab nazorat qilish shaklida;

b) veterinariya dori-darmonlarini ishlab chiqarish va sifatini nazorat qilish shartlari, veterinariya dori-darmonlari ulgurji va chakana savdosi, veterinariya dori-darmonlarini ishlab chiqarish va saqlash qoidalarini litsenziyalash shartlari va talablarga mos kelishi yoki mos kelmasligi turli yo'llar bilan aniqlash;

4) O'zbekiston Respublikasi hududiga veterinariya dori-darmonlarini olib kirish va O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish ruxsatnomalarini tekshirish;

5) vakolatli jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan veterinariya dori-darmonlarining xavfsizligi va muomalasi o'tkazilayotgan monitoringini tekshirish va baholash;

barcha turdagi sanoat asosida go'sht, sut, tuxum, baliqni ishlab chiqaradigan korxonalar, baliqchilik va asalarichilik xo'jaliklari faoliyati ustidan nazorat qilish;

nazorat ostidagi tovarlar bilan savdo qilish korxonalari (market, mini-, super- va gipermarketlar), yarmarkalar, ko'rgazmalar va boshqa savdo joylarini nazorat qilish;

baliq ovlash kemalari, baliqni qayta ishlash sexlari, baliq va baliq mahsulotlarini saqlash joylarini nazorat qilish;

biologik preparatlar ishlab chiqarish zavodlar va sexlar, ilmiy-tadqiqot va tajriba sexlari, biologik materiallar yetkazib berish korxonalari, veterinariya aptekalari va veterinariya maqsadlarida dori-darmon va texnik vositalarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va sotish uchun mo'ljallangan korxonalarni tekshirish;

ozuqa va ozuqa qo'shimchalarini ishlab chiqaradigan korxonalarni tekshirish;

epizootik monitoringni amalga oshirishda bevosita qatnashish va uni ustidan nazorat qilish;

hayvonlar kasalliklarining paydo bo'lishi va ularning nobud bo'lishi sabablarini tahlil qilish, ushbu kasalliklar profilaktikasi hamda ularni davolash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda qatnashish;

yaylovlarning veterinariya-sanitariya holatini, sug'orish joylari, hayvonlar yo'llarini, shuningdek inkubatorlar, baliqchilik suv omborlari va havzalari, qushxonalar va boshqa ob'ektlarini ustidan tizimli ravishda veterinariya nazoratini o'rnatish;

hayvonlar jasadlarini utilizatsiya qilish va yo'q qilishda veterinariya nazoratini amalga oshirish;

chorvachilik xo'jaliklari hamda kelib chiqishi xayvonotga mansub maxsulotlari va xom ashyosini saqlash va qayta ishlash ixtisoslashtirilgan korxonalarda dezinfeksiya, desinseksiya va deratizatsiyalarni tashkil etilganligi va o'tkazilishi ustidan nazorat qilish;

veterinariya kuzatib borish hujjatlarni rasmiylashtirish va hayvonlar o'limi yoki majburiy so'yilishining sabablari to'g'risida so'ralgan joylarga (sug'urta qilish tashkilotlar, sud, tergov organlar va h.k.) xulosa berish;

veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirish va uning ustidan tizimli ravishda nazorat qilish;

Davlat veterinariya nazorati natijalariga ko'ra veterinariya inspektorlari o'z vakolatlari doirasida quyidagi rasmiy xujjatlarni rasmiylashtiradilar:

a) veterinariya ko'rsatmasi (predpisanie):

huquqbuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida;

hayvonlar kasalliklarining paydo bo'lishi, tarqalishi oldini olish va yo'q qilinishi uchun hayvonlarni majburiy emlashni, epizootik o'choqlarda joylarda chorvachilik binolarini va tutash hududlarni, punktlar va transportda dezinfeksiya, desinseksiya va deratizatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha;

tadbirkorlik sub'ektlarning faoliyatini sud qarorisiz 10 kundan oshmagan muddatga cheklash, to'xtatib turish va ta'qiqlash, ishi bo'yicha materiallarni shu vaqt mobaynida sudga taqdim etish;

hayvonlar va odamlarning sog'ligi uchun xavf tug'diradigan hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlar va xom ashyolarni, veterinariya dori-darmonlarini, ozuqa va ozuqa qo'shimchalarini yo'q qilish va utilizatsiya qilish bo'yicha;

qishloq xo'jalik hayvonlarini majburiy identifikatsiya qilishi;
sanitariya tozalash, kasal hayvonlarni veterinariya sanitariya talablariga rioya qilgan holda so'yishni amalga oshirish bo'yicha;

Izoh. Veterinariya ko'rsatmasi (predpisanie) – boshqaruvchilik, ammo mustaqil hujjat emas, balki o'tkazilgan tekshiruv natijasi to'g'risidagi rasmiy xujjatning (aktning) ilovasidir. Unda tekshirish davomida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida tashkilot rahbariyati va mas'ul xodimlarga tekshiruvchi mansabdor shaxsning talablari ko'rsatiladi. Veterinariya ko'rsatmasida barcha buzilishlarni eng kichik detallarni qayd etadi va ularni bartaraf qilish uchun asos bo'ladi.

b) epizootologik yoki boshqa tekshirish akti;

v) qaror:

davlat veterinariya xizmati xodimlariga intizomiy jazo tayinlash yoki veterinariya qonunchiligi buzilgan taqdirda jismoniy va yuridik shaxslarni ma'muriy javobgarlikka tortish to'g'risida;

hayvonlar va odamlar sog'ligi uchun alohida xavf tug'diradigan hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlar va xom ashyolarni muomaladan chiqarish to'g'risida;

g) o'tkazilgan nazorat natijasida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida tavsiyanomani pochta orqali, kurer yoki elektron pochta orqali yetkazib berilgan kundan keyingi kundan boshlab qonunchilikda belgilangan muddat ichida bajarilishini nazorat qilish.

Veterinariya ko'rsatmasi (predpisanie), qaror va tavsiyanomalar shakllari, ularni tuzishi va berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektori qarori bilan belgilanadi.

Davlat veterinariya inspektorlarining o'z vakolati doirasidagi masalalar bo'yicha qarorlar, veterinariya ko'rsatmasi (predpisanie) va talablar yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy.

Davlat veterinariya inspektorining harakatlar (harakatsizligi) ustidan yuqorida turgan davlat veterinariya inspektori yoki sudga shikoyat qilishi mumkin.

11.3. Veterinariya uchastkalari mudirlariga asosiy vazifalari o'zlariga tegishli mintaqani osoyishtaligini, davlat veterinariya nazorati ostidagi

tovarlarning veterinariya, veterinariya-sanitariya xavfsizligini ta'minlash uchun quydagi ishlar yuklatilgan:

O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektori tomonidan tasdiqlangan veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalar va normalariga manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni, shuningdek chiqindilarni, ishlab chiqarish, saqlash va sotish uchun mo'ljallangan binolar va boshqa inshootlarni veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini bajarilishi ustidan nazorat qilish;

jismoniy va yuridik shaxslarga qarashli hayvonlarni identifikatsiya qilish, ularni hisobga olish, hisobdan chiqarish va saqlash ishlarini hamda hayvonlar va ularning xo'jaliklarini ro'yxatga olish bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish va yuritishda veterinariya va veterinariya-sanitariya talablariga rioya qilishi ustidan davlat veterinariya nazoratini tizimli ravishda o'rnatish;

nazorat ostidagi mahsulotlarni idoraviy va ishlab chiqarish veterinariya nazoratini o'tkazishda ISO xalqaro standartlarini mukammal bilish, oziq-ovqat xavfsizligi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan xavflarni aniqlash (HACCP yoki shunga o'xshash tizim), baholash va xavflarni boshqarishi ustidan nazorat qilish;⁷

identifikatsiya qilingan hayvonlarning hamda kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlarni joyini o'zgartirilishini kuzatib borishini ta'minlashning ustidan nazorat qilish;

identifikatsiya raqamining quloq yorlig'ini yoki boshqa shaxsiy belgi tashuvchisini biriktirish va har bir hayvon uchun pasport berishning ustidan nazorat qilish;

Izoh. Qishloq xo'jalik hayvonlarini identifikatsiya qilish tizimini yo'lga qo'ymasdan, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlari va oziq-ovqat xavfsizligi monitoringini ta'minlash ilojisi yo'q. Hech bo'lmaganda dastlabki bosqichda davlat mablag'lari hisobidan

⁷ Xalqaro standartlashtirish tashkiloti, ISO (inglizcha: International Organization for Standardization, ISO) standartlarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan xalqaro tashkilotdir. ISO faoliyatining ko'lami elektrotexnika va elektronikadan tashqari barcha sohalarida standartlashtirishga tegishli. Standartlashtirishdan tashqari, ISO sertifikatlash masalalari bilan ham shug'ullanadi.

identifikatsiya tartibini hayvon egasi uchun xarajatsiz ta'minlash, shu bilan birga yo'qligi uchun hayvon egasining javobgarligini oshirish yaxshiroq bo'ladi deb o'ylaymiz.

11.4. Bozordagi (barcha turdagi savdo nuqtalar: mini-, super- giper- va boshqa marketlar va h.k.) veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyaning asosiy vazifasi – bozorga yetkazib beriladigan go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, baliq, qo'ziqorin va o'simlik oziq-ovqat mahsulotlarini veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazish, shuningdek, tekshiriladigan mahsulotlar orqali yuqumli hayvon kasalliklari tarqalishining oldini olish chora-tadbirlarini tashkil etishni nazorat qilish.

Oziq-ovqat mahsulotlarini veterinariya-sanitariya ekspertizasi amaldagi standartlar, usullar, qoidalar va ko'rsatmalarga muvofiq amalga oshirilishini nazorat qilish.

Laboratoriya mudiri – davlat veterinariya inspektori sifatida o'tkazilgan ekspertizaning to'g'riligi, bozorda sotish uchun ruxsat etilgan oziq-ovqat mahsulotlarining sanitariya osoyishtaligi va yaxshi sifati, shuningdek ularni sotish vaqtida sanitariya sharoitlariga rioya qilishni ustidan nazorat samaradorligi uchun javobgardir.

Bu ishlarni amalga oshirish uchun laboratoriya mudiri – veterinariya inspektori – quyidagilarni bajaradi:

barcha turdagi xo'jalik hayvonlarning go'sht va go'sht mahsulotlari, parranda go'shti va go'sht mahsulotlari, hayvon yog'larini, baliq, sut, sut mahsulotlari, asal va boshqa, shu jumladan o'simlik mahsulotlari o'tkazilgan vizual tekshirish va veterinariya-sanitariya ekspertiza to'g'riligi ustidan nazorat qiladi;

tanlangan mahsulot namunalarining qoldiqlari kerakli tadqiqotlar o'tkazilgandan so'ng qanday qilib yo'q qilinishini nazorat qiladi va tegishli dalolatnoma tuzadi;

oziq-ovqat uchun yaroqsiz deb topilgan go'sht va boshqa mahsulotlarni utilizatsiya yoki yo'q qilishni nazorat qiladi;

yaroqli deb topilgan yoki zararsizlantirishi kerak bo'lgan mahsulotlarning rasmiylashgan tamg'alari (shtamplar) bilan belgilashni amalga oshiradi va ularni bozorda sotish uchun ruxsat berishni nazorat qiladi;

bozorda go'sht, go'sht mahsulotlari, parranda go'shti, baliq, sut, sut mahsulotlari hamda o'simlik mahsulotlari savdo qilish joylarda sanitariya holatini nazorat qiladi;

bozordagi veterinariya-sanitariya ekspertizasi bo'yicha ishlar natijalarini tahlil qiladi va tuman (shahar) veterinariya inspeksiya boshlig'iga zarur bo'lgan takliflar kiritadi;

go'sht, sut va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini sotish uchun mo'ljallangan bozorda qurilgan ob'ektlarni qabul qilish komissiyalarida qatnashadi;

yuqumli kasalliklar, sistitserkoz (finnoz), trixinellyoz va boshqa gelmintozlar mavjud mahsulotlarni bozorga kirgani to'g'risida darhol ushbu mahsulotlar egalarining manzilini ko'rsatib, tuman (shahar) veterinariya bo'limiga ma'lum qiladi;

ekspertiza qilingan materialda o'ta xavfli hayvon kasalliklari mavjudligiga shubha tug'ilganda, tegishli tuman (shahar) davlat veterinariya inspektori bu haqda xabardor qiladi va birlamchi tashxisni ko'rsatuvchi ekspertiza guvohnomasi bilan material yakuniy tashxis qo'yish uchun akkreditatsiyadan o'tgan veterinariya laboratoriyasiga yuboradi;

zararsizlantirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni sotishini to'xtatadi va ularni qayta sotishga imkoniyat bermaydi;

yaroqsiz deb topilgan oziq-ovqat mahsulotlarga tegishli hujjatlarni tayyorlab, brakka chiqarib, yoki yo'q qilish, yoki utilizatsiya qilish bo'yicha protsedurasini qonun doirasida rasmiylashtirishni ta'minlaydi;

omborlar, bazalar, muzlatgichlar, pavilonlar, savdo rastalari va boshqa bozor binolariga moneleksiz kiradi va tekshiradi;

veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazilmagan yoki odamlar sog'ligiga xavfli deb topilgan mahsulotlarni sotishni taqiqlaydi;

sanitariya talablariga javob bermaydigan joylarda asbob-uskunalar va inventarlarni, g'amlab qo'yilgan mahsulotlarni sotish va saqlashni taqiqlaydi;

bozorlarda sodir etilgan xuquqbuzarlik uchun savdo qiluvchi mansabdor va jismoniy shaxslarga jarima soladi.

11.5. Quyidagilar davlat veterinariya inspeksiyasi bosh boshqarmasi ijro apparatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

veterinariya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishni ta'minlash, shu jumladan veterinariya nazorati lozim bo'lgan ob'ektlarda yagona veterinariya nazoratini o'rnatish;

davlat veterinariya inspeksiyasi Bosh boshqarmasi ijro apparatining faoliyati bilan bog'liq prognoz ko'rsatkichlar va rivojlantirish dasturlarini samarali amalga oshirishni ta'minlash;

Qo'mitaning ko'rsatmalari va topshiriqlariga muvofiq vazirliklar va idoralar bilan hamkorlik qilish, yig'ilishlarda tegishli masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

o'z faoliyatining samaradorligi va natijadorligini tanqidiy tahlil qilish, tahlil natijalariga ko'ra zarur chora-tadbirlarni ko'rish bo'yicha Qo'mitaga taklif berish;

davlat xizmatlarini ko'rsatish samaradorligi, sifati va erkinligini ta'minlash;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha ishlarni samarali ta'minlash, aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri va ochiq muloqotni olib borish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qabulxonasidan kelib tushadigan jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqilishini ta'minlash;

veterinariya nazorati bo'yicha maqsadli dasturlarni bajarilishini ta'minlash;

veterinariya nazorati sohasida xalqaro va davlatlararo hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash, xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb etish bo'yicha xalqaro xorijiy tadbirlarda faol ishtirok etish;

Qo'mita hay'ati qarorlari, Qo'mita raisining qarorlari, buyruqlari va topshiriqlarining o'z vakolatlari doirasida vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, ularning kasb mahorati, chuqur bilimga egaligi, tajribasi, ishchanlik va odob-ahloq hamda ma'naviyatining yuqori darajasini ta'minlashda kadrlar zahirasini shakllantirish uchun takliflar berish;

veterinariya nazoratidagi ilg'or xorijiy tajriba va ilmiy-texnik taraqqiyot natijalarini o'rganish va ma'qul bo'lgan tajribalarni joriy etish;

veterinariya, chorvachilik va naslchilik sohasida xalqaro seminarlar, anjumanlar, ko'rgazmalar o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish.

11.6. Davlat veterinariya inspeksiyasi Bosh boshqarmasi ijro apparati quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Qo'mita raisi o'z vakolatlari doirasida veterinariya nazorati bo'yicha faoliyatini tashkiliy va axborot-tahlil jihatidan ta'minlaydi;

davlat veterinariya inspeksiyasi hududiy organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari hamda Qo'mitaning buyruqlar va topshiriqlarini ijrosini ta'minlash bo'yicha tizimli nazoratni olib boradi;

davlat veterinariya inspeksiyasi hududiy organlari faoliyatiga belgilangan tartibda rahbarlik qiladi, muvofiqlashtiradi va nazoratni amalga oshiradi;

davlat veterinariya inspeksiyasi Bosh boshqarmasi ijro apparatining vakolatiga tegishli tashkiliy, kadrlar, moliya, ishlab chiqarish - xo'jalik masalalari va boshqa masalalarini hal etadi.

VII. Davlat veterinariya inspektorlarining huquqlari va majburiyatlari.

12. Davlat veterinariya inspektorlar quyidagi huquqlarga ega:

12.1. Davlat veterinariya nazorat ostidagi ob'ektlarga belgilangan tartibda xizmat guvoohnomasini taqdim etib moneliksiz kirishi, veterinariya qoidalari va normalariga rioya etilishini tekshirish, shuningdek, veterinariya sohasidagi jismoniy va yuridik shaxslarning faoliyati to'g'risida ma'lumot olish;

12.2. Hayvonlarning xavfli yuqumli va ommaviy yuqumsiz kasalliklarini hamda veterinariya-sanitariya jihatidan xavfsiz deb bo'lmaydigan chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning shartlarini aniqlash, veterinariya jihatidan xavfli ozuqa, dori-darmonlarni hamda veterinariya vositalarini ishlab chiqarish, tarqatish va sotish holatlarini yuzaga kelishi va tarqalishi sabablarini o'rganish;

12.3. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslarga epizootiyaga qarshi, veterinariya-sanitariya va boshqa chora-

tadbirlarni o'tkazish, veterinariya qoida va normalari buzilishini bartaraf etish to'g'risida hujjatlarga tayanib, bajarilishini nazorat qilish;

12.4. Jismoniy va yuridik shaxslar uchun kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni hamda veterinariya maqsadlari uchun texnik vositalarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish va realizatsiya qilishda veterinariya qonunchiligi buzilishi to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va belgilangan tartibda ma'muriy jazo choralarini ko'rish, shuningdek, veterinariya mutuxassislarni veterinariya faoliyati bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi hujjatlarni tayyorlash, tegishli ravishda ko'rib chiqish, jinoyat ishlarini qo'zg'atish uchun tergov organlariga va sudlarga materiallarni yetkazib berish;

12.5. Veterinariya tadqiqotlari va veterinariya-sanitariya tekshiruvlarini laboratoriyalar va ilmiy-tadqiqot markazlarga topshirish va ularning natijalari O'zbekiston Respublika Vazirliklar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimiyatlarga, yuridik va jismoniy shaxslarga veterinariya qoidalari asosida quyidagi hollarda xulosalar qabul qilish:

kelib chiqishi hayvonotga mansub yangi mahsulotlari, ozuqa, ozuqa qo'shimchalari, dori-darmonlar va veterinariyada foydalanadigan texnik vositalari uchun texnologik loyihalash, me'yoriy-texnik va texnologik hujjatlarning respublika standartlari qabul qilish va tasdiqlash;

12.6. Davlat boshqaruvi organlariga takliflar kiritish:

belgilangan tartibda favqulodda epizootiyaga qarshi komissiyalarga veterinariya inspeksiyaga ta'aluqli masalalarni hal qilish bo'yicha;

muayyan hududlarda yuqumli va ommaviy yuqumsiz hayvon kasalliklari o'choqlari tarqalishining oldini olish va yo'q qilishga qaratilgan karantin va boshqa cheklavlarni joriy etish bo'yicha;

12.7. Qaror qabul qilish:

epizootik ko'rsatkichlar, hayvonlarning yuqumli kasalliklari kelib chiqishi va tarqalishi uchun sharoit mavjud yoki saqlanib qolgan epizootik o'choqlarda va hududlarda dezinfeksiya, dezinfeksiya va deratizatsiya bo'yicha, yoki diagnostik tadqiqotlar o'tkazish haqida;

kasallik aniqlanganligi to'g'risida faqat laboratoriya tekshiruvlari asosida tasdiqlangandan so'ng yoki ilmiy asoslash natijasida hayvonlarni yuqumli kasalliklarga qarshi emlash bo'yicha;

davlat veterinariya nazorati ostidagi tovarlarni O'zbekiston Respublikasiga olib kirish imkoniyati, tartibi va ichki tashish shartlari to'g'risida;

hayvonlarning o'ta xavfli kasalliklari o'choqlarini yo'q qilish paytida hayvonlarni begonalashtirish (отчуждение) yoki chorvachilik mahsulotlarini olib qo'yish to'g'risida;

12.8. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar davlat veterinariya inspektorlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumot va hujjatlarni (veterinariya sertifikatlari, guvohnomalar, ma'lumotnomalar, xo'jaliklarni tekshirish bo'yicha aktlar, hayvon jasadlarini yorish to'g'risida hisobotlar va boshqalar) hech qanday cheklovlarsiz so'rab olish;

12.9. Veterinariya-sanitariya ekspertizasi uchun davlat veterinariya nazorati ostidagi tovarlarning belgilangan tartibda namunalarni olish.

13. Ushbu Nizomning 12.9. bandida ko'rsatilgan huquqlar chorvachilik mahsulotlarini sotiladigan barcha savdo nuqtalarida veterinariya nazoratini amalga oshirish maqsadida bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyalari xodimlariga ham beriladi.

Izoh. Bu, avvalambor, nafaqat chorvachilik mahsulotlari, balki o'simlik mahsulotlari ham deyarli veterinariya-sanitariya ekspertizasi o'tkazilmasdan super-, giper- va minimarketlar, shuningdek, chorvachilik mahsulotlari sotish boshqa katta-kichik nuqtalarga taalluqlidir.

14. Ushbu Nizomning 12.8. bandida ko'rsatilgan huquqlar davlat veterinariya inspektorlari nazorati ostidagi tovarlarni import, eksport va tranzit qilishni to'xtatib turish, ta'qiqlash qismida chegara va transport veterinariya nazorati punktlari davlat veterinariya inspektorlariga ham beriladi.

15. Davlat veterinariya inspektorlarida quyidagi majburiyatlar mavjud:

xizmat guvohnomasiga ega bo'lishi va belgilangan namunadagi forma kiyimini kiyishi;

O'zbekiston Respublikasi veterinariya qonunchiligi buzilishining oldini olish, aniqlash va ularni to'xtatish uchun berilgan vakolatlardan o'z vaqtida va to'liq foydalanishi;

nazorat jarayonida ularga ma'lum bo'lishi mumkin bo'lgan davlat, harbiy yoki tijorat sirlarini, xizmatga oid yoki boshqa shu xarakterdagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik;

davlat veterinariya nazoratini amalga oshiruvchi davlat veterinariya inspektorlari o'zlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilmaganligi yoki noto'g'ri bajarilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

16. Davlat veterinariya inspektorlari o'z rasmiy vazifalarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasi veterinariya qonunchiligiga amal qiladilar. Ularning rasmiy vazifalarini bajarishga har qanday shaklda ta'sir qilish, yoki ularning faoliyatiga to'sqinlik qilish, yoki ularning faoliyatiga aralashish ta'qiqlanadi.

Izoh. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 iyundagi 532-son qarorining 1-ilovadagi O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi to'g'risidagi Nizomida Qoraqalpog'iston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi raisi Qo'mita raisi bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi;

viloyatlar va Toshkent shahri veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalari boshliqlari tegishli viloyatlar va Toshkent shahar hokimi bilan kelishgan holda Qo'mita raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi;

tumanlar (shaharlar) bo'limlar boshliqlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalarining boshliqlari tomonidan tuman (shahar) hokimlarining taqdimotiga binoan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Qo'mita markaziy apparati xodimlari, hududiy boshqarmalar boshliq o'rinbosarlari, Qo'mita tizimiga kiruvchi respublika tashkilotlar rahbarlari va ularning o'rinbosarlari Qo'mita raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi;

Ya'ni, faqat Qo'mita markaziy apparati xodimlari, hududiy boshqarmalar boshliq o'rinbosarlari, Qo'mita tizimiga kiruvchi respublika tashkilotlar rahbarlari va ularning o'rinbosarlari Qo'mita raisi tomonidan

lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etilgani uchun ularning rasmiy vazifalarini bajarishga hech kim har qanday shaklda ta'sir ko'rsata olmaydi, ularning faoliyatiga to'sqinlik qila olmaydi va ular o'zlari faoliyatiga aralashishni ta'qiqlaydi.

Taklif qilinayotgan Qo'mita tizimidagi Inspeksiya Bosh boshqarmasi boshlig'i tomonidan davlat veterinariya inspektorlari to'g'ridan-to'g'ri ishga qabul qilinadi, haq to'lanadi va ishdan ozod etiladi. Shu sababli ularning faliyatiga chetdan ta'sir ko'rsatilishiga chek qo'yiladi.

VIII. Inspeksiya Bosh boshqarmasini moliyalashtirish, uning xodimlariga xaq to'lash va ularni rag'banlashtirish

17. Davlat veterinariya Inspeksiyasi Bosh boshqarmasi va uning tarkibidagi organlarni moddiy-texnik ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari, grantlar, davlat veterinariya xizmati va chorvachilikni rivojlantirish jamg'armasi, pullik xizmatlar ko'rsatishdan tushgan mablag'lar va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

18. Inspeksiyaning xodimlari mehnatiga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

19. Inspeksiya xodimlarining ish haqi lavozim maoshi, ish haqiga tuman (hududiy) koeffitsientlar, mukofotlar, qo'shimcha haqlar, ustamalar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa rag'batlantiruvchi to'lovlar kiradi.

20. Inspeksiya qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xodimlarini hayotini sug'urta qilish, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish hamda ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshiradi.

Inspeksiya xodimlari lavozim maoshlariga har oyda qo'shiladigan qo'shimcha haqlar, ustamalar va rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan boshqa to'lovlar belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

21. Veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini buzganlik uchun ma'muriy jarima mablag'lari Inspeksiyaning maxsus hisob raqamiga o'tkaziladi.

IX. Yakunlovchi qism

22. Davlat veterinariya nazoratini amalga oshirayotgan inspektorlar: o'zi bilan shaxsiy xizmat guvohnomasi va 2-ilovaga muvofiq belgilangan namunadagi kiyimda kiyingan bo'ladilar;

O'zbekiston Respublikasi veterinariya qonunchiligi buzilishining oldini olish, aniqlash va ularni bartaraf etish uchun berilgan vakolatlardan o'z vaqtida va to'liq darajada foydalanadilar;

ularga ma'lum bo'lishi mumkin davlat, harbiy va tijorat sirlarini, xizmat yoki boshqa xarakterdagi ma'lumotlarni oshkor qilmaydilar.

23. Davlat veterinariya nazoratini amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi davlat veterinariya inspektorlari o'z rasmiy vazifalarini bajarishda O'zbekiston Respublikasi veterinariya qonunchiligiga amal qiladilar. Ularga o'zlarining rasmiy vazifalarini bajarishlariga to'sqinlik qiladigan har qanday shaklda ta'sir ko'rsatish yoki ularning faoliyatiga aralashish taqiqlanadi.

24. Ushbu Nizomda nazarda tutilgan chora-tadbirlar tadbirkorlik sharoitlarining yomonlashuviga, xo'jalik va tijorat sub'ektlari, shuningdek fuqarolar xarajatlarining keskin oshishiga, umuman, ularning raqobatbardoshligini pasayishiga, shu jumladan, shu kabi mahsulotlarni eksport qiluvchilarga zarar olib kelmaydi.

25. Ushbu Nizomda nazarda tutilgan chora-tadbirlar biznes sharoitlarining yomonlashuviga, iqtisodiy va tijorat sub'ektlari, shuningdek fuqarolar xarajatlarining keskin o'sishiga, shu jumladan mahsulotlarni eksport qiluvchilar uchun ularning raqobatbardoshligini pasayishiga olib kelmasligi kerak.

Izoh. Bu munozarali tuyulishi mumkin, lekin tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha dastlabki qarorlar, investitsiya muhitini yaxshilash, mahalliy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va barcha sohalarda davlat dasturlarini yaratishda iqtisodiy rivojlanishning boshqa chora-tadbirlarini hisobga olish kerak.

Har qanday taqiq, jazo, jarima, xatto qamoq usullari bilan ham to'xtatib bo'lmaydigan muammoning yechimi xar doim juda oddiy bo'lib chiqadi. Bu yechimini topish uchun faqat veterinariya mutaxassisning yordami kerak. Har qanday masalani mana shunday mutaxassislar orqali,

muammolarning kelib chiqish sabablarini o'rganish va unga turtki bo'layotgan narsalarga barham berish orqali hal qilishga urinilsa, muammolar xar doim bartaraf bo'ladi.

26. Ushbu Nizom asosida qabul qilinadigan normativ-huquqiy va boshqa aktlar veterinariya sohasidagi xalqaro shartnomalar va bitimlarga zid bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

27. Inspeksiyaning qayta tashkil etish va tugatish Qo'mitaning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Izoh. "Daladan dasturxongacha" iborasi doimo bizning ommaviy axborot vositalarining leksikonida paydo bo'ldi, ammo bu ISO 22000 haqida gap, ushbu standartning barcha talablari universaldir va ularning hajmi va murakkabligidan qat'i nazar, oziq-ovqat ishlab chiqarish zanjiridagi barcha tashkilotlarda qo'llanilishi mo'ljallangan.

Ular ozuqa ishlab chiqaruvchilar, oziq-ovqat mahsulotlari va o'simlik mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalari, chakana savdo, umumiy ovqatlanish va oziq-ovqat yetkazib berish korxonalari, transport korxonalari, saqlash va ulgurji savdo korxonalari, shuningdek, uskunalar, yuvish va dezinfeksiyalash vositalari, qadoqlash materiallari va oziq-ovqat bilan aloqada bo'lish uchun boshqa materiallar yetkazib beruvchilarni o'z ichiga oladi.

4-bob. Davlat veterinariya nazorati ostidagi ob'ektlar to'g'risida

Bugungi kunda yuqorida muhokama qilingan veterinariya nazoratini ta'minlashning amaliy faoliyatiga xavflarni tahlil qilish va xavflarni boshqarish asosida xavflarni oldini olish va bartaraf etish choralarini ko'rishni kiritish zarur.

"Veterinariya to'g'risida"gi qonuniga xavfni tahlil qilish to'g'risida 4 (to'rt) komponentlarini o'z ichiga oladigan moddalarni: xavfni identifikatsiya qilish, xavfni aniqlash, boshqarish, nazorat ostidagi ob'ektlar, tovarlar va boshqalarga zarar yetkazish xavfi to'g'risida xabar berish bo'yicha kiritish kerak.

Qonun asosida davlat veterinariya nazorati ostidagi barcha ob'ektlar zarar yetkazish xavfi bo'yicha ma'lum bir toifasiga bo'linadi. Bosh davlat

veterinariya inspektori va mintaqaviy davlat inspektorlari nazorat ostidagi ob'ektga muayyan xavf toifasini berish to'g'risida qaror qabul qiladilar. Shuningdek, ular aniq mezonlarga asoslanib, xavf toifasini pastroq yoki yuqoriroq darajaga o'zgartirish to'g'risidagi qarorlarini qayta ko'rib chiqishlari mumkin.

Inspeksiya xavf toifalari berilgan davlat nazorati ostidagi ob'ektlarning ro'yxatini yuritadi. Ro'yxatdagi ma'lumotlar Internetdagi rasmiy veb-saytida joylashtirilgan, davlat nazorati ob'ektini xavf toifasini tasniflash to'g'risida qaror qabul qilingan tekshirish to'g'risidagi ma'lumotlar bundan mustasno.

Xavfni oldini olish va bartaraf etish choralarini ko'rishni kiritish – bu davlat veterinariya nazorati va veterinariya-sanitariya talablari buzilishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarning intensivligi (davomiyligi va davriyligi) jismoniy shaxs yoki yuridik shaxs faoliyatining xavf toifasidir.

Xavf kategoriyasi jismoniy yoki yuridik shaxslarning majburiy talablarga rioya qilmasligi mumkin bo'lgan taqdirda potensial salbiy oqibatlarining og'irligini hisobga olgan holda belgilanadi. Qoidalar qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlangandan so'ng ilova qilinadi.

Xavfni oldini olish va bartaraf etish choralarini ko'rishni kiritishni joriy etish tekshirishlarning maqsadi va xususiyatni o'zgartiradi, tadbirkorlarni xavfni bartaraf etishga undaydi va davlat veterinariya nazorati faqatgina usiz amalga oshmaydigan holatda aralashadi. Tekshirishlarning yagona standartini ishlab chiqilishi tekshirishlarning davriyligi va hajmi xavflar ko'lamiga bog'liq bo'ladi. Veterinariya qonunchilikni potensial buzuvchilar uchun nazoratni oshirishiga olib keladi va vijdonli shaxslar uchun – yo'qligiga qadar nazoratchilar e'tiborini kamaytiradi.

Tekshirishlar yagona standartlar asosida o'tkazilganda standart atamalardan foydalanish imkoniyati bo'ladi: hududlarga qarab xavf xaritalar, xavf turlari va xavf qabul qilish mezonlari, noxush hodisalar ehtimolini va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar miqdori baholash usullari, xavflarni aniqlash va boshqarish usullari. Barcha atamalar veterinariya xizmati va chorvachilik biznesining barcha ishtirokchilari uchun aniq va qulay bo'lishi ma'qul.

Xavfni oldini olish va bartaraf etish choralarini ko'rishni kiritish davlat veterinariya nazorati bir muncha cheklangan resurslarni maksimal darajada xavf tug'diradigan joylarda yig'ishga va vijdonli muassasalari uchun ma'muriy yukini kamaytirishga olib keladi. Buning eng muximi – bu veterinariya inspektori tekshirilayotgan ob'ektning xavfga nisbatan zaifligini tushunishini ta'minlash uchun mo'ljallangan xavfni baholashidir. Yuqorida ta'kidlanganidek, xavflarni baholash (elektron tizimlardan foydalangan holda) mutlaqo qiyin emas, lekin har qanday holatda ham baholash tekshirilayotgan ob'ektning tabiati va hajmiga mos bo'lishi kerak.

Rasmiy veb-saytidagi ro'yxatlar o'ta yuqori, yuqori va muhim xavf toifalar (kategoriyalar) sifatida tavsiflangan davlat veterinariya nazorati ostidagi ob'ektlar to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni joylashtiradi va saqlab qoladi:

- jismoniy shaxsning to'liq nomi, xavf toifasi;
- soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;
- davlat veterinariya nazorati ostidagi Ob'ektining nomi;
- Ob'ektining IFUT – 2 (Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi – ikkinchi redaksiyasi);
- Ob'ektining manzili yoki joylashgan joyi;
- xavf toifasi (kategoriyasi) va Ob'ektning xavf toifasini (kategoriyasi) tayinlash to'g'risida qaror qabul qilingan sana.

Davlat nazorati ob'ektlarini muayyan xavf toifasiga (kategoriya) tayinlash mezonlarini belgilovchi qoidalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi.

Misol uchun, ko'p tarmoqli firmada turli xil sohalar mavjud: hayvonlar uchun yaylov maydonlari, turli xil hayvonlarga ega bo'lgan fermalar, ozuqa tayyorlash sexi, hayvonlarni so'yishga muljallangan joy va kolbasa ishlab chiqaradigan sexi, lekin u bitta STIRga ega. Hamda xo'jalik faoliyatining milliy klassifikator bo'yicha (OKVED) nazorat qilinadigan ob'ektlarni farqlash qiyin. Veterinariya mutaxassislarining bunday korxonalar bilan ishlashi juda katta qiyinchilikka olib keladi.

Taklif etilayotgan Reestrda kiritish korxonalarining har bir faoliyat turi uchun ko'plab masalalarni avtomatik ravishda hal qiladi. Ro'yxatdan

o'tish bepul bo'lib, veterinariya nazorati korxonaning xavfni oldini olish va bartaraf etish choralarini ko'rishni kiritish asosida amalga oshiriladi.

Yana bir misol: qushxona bo'lmasdan, faqat kolbasa sexi mavjud bo'lsa, ya'ni nazorat ostidagi ob'ektdan faqat go'sht olib kelinadi. Tirik hayvonlar shu tumanga olib kemasligi – bu kasalliklarni keltirib chiqarish xavfi sezilarli darajada kamayishini ko'rsatadi, bu esa shu tumanning epizootik osoyishtaligi keskin tahdid kamayganini anglatadi.

Veterinariya nazorati ostidagi tovarlarni joyini o'zgartirishi bilan bog'liq bo'lgan yuqori xavflar elektron sertifikatsiyalashning barcha turdagi nazorat osti ob'ektlarga tatbiq etilishi kerakligiga sabab bo'ladi. Elektron sertifikatlashtirish bu jarayonni mutlaqo shaffof va nazoratni o'tkazishni osonlashtiradi, bundan tashqari, huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish rejimida ishlashga imkon beradigan ma'lumot manbai hisoblanadi.

Misol uchun, agar elektron sertifikatlarga ko'ra go'sht kolbasa ishlab chikaruvchi sexga ozgina keltirilsa, lekin kolbasa juda ko'p miqdorda ishlab chiqarilib, olib ketilsa, demak, bu xavotirli belgidir va bunday korxonani darhol tekshirish kerak. Bundan tashqari, ushbu erta ogohlantirish tizimi nafaqat davlat veterinariya xizmati xodimlari uchun, balki biznes uchun ham qulaydir. Vijdonsiz ishlab chikaruvchilar soni avtomatik ravishda kamayadi, chunki savdo tarmoqlarining hech biri ular bilan ishlashni istamaydi – chunki bu holda davlat surishtiruv organlari bosimi ostida qolish xavfi mavjud bo'ladi.

Elektron veterinariya sertifikatsiyasi – mahsulotlarning xavfsizligi va sifat xususiyatlari, foydalanish va iste'mol qilishga yaroqliligini tekshirish tartibi. Nazorat ostidagi xom ashyo va tayyor mahsulotlar elektron sertifikatlash dasturi mamlakat bo'ylab ularning harakatini osongina kuzatib borish imkonini beradi, soxta va kontrafakt tovarlar sotishga chek qo'yadi, natijada korrupsiyaga qarshi kurashishda ham o'z hissasini qo'shadi.

**Davlat veterinariya inspeksiyasi nazorati ostidagi ob'ektlarga
ro'yxatga olish raqamlarini berish to'g'risida
Qo'llanma loyihasi**

Umumiy qoidalar

1. Hayvonlarni ko'paytirish, hayvonlarni sotib olish (so'yish) va dastlabki qayta ishlash, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni saqlash va sotish, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyolarni sotish, shuningdek veterinariya dori-darmonlari hamda ozuqa va ozuqa qo'shimchalarini ishlab chiqarish, saqlash va sotish va sotish bo'yicha tashkilotlarga ro'yxatga olish raqamlarini (bundan buyon matnda Qo'llanma) berish 29.12.2015 yildagi "Veterinariya to'g'risida"gi qonunning 5-moddasiga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi 139-sonli "Davlat veterinariya xizmati tizimida ruxsat etish xususiyatiga ega xujjatlarni berish tartib-tamoyillaridan o'tish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi⁸ qaroriga muvofiq kiritiladi.

2. Qo'llanmada davlat veterinariya inspeksiyasi nazorat ostidagi hayvonlarni yetishtirish, hayvonlarni sotib olish (so'yish) va dastlabki qayta ishlash, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni, hayvonlarni saqlash va sotish, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyolarni, shuningdek veterinariya dori-darmonlari, ozuqa va ozuqa qo'shimchalarini ishlab chiqarish, saqlash va sotish bo'yicha tashkilotlarni (bundan buyon Ob'ektlar) ro'yxatga olish tartibini belgilaydi.

3. Ushbu Qo'llanma bilan Qo'mita ob'ektlarni ro'yxatga olish raqamlarining yagona reestrini tartibga soladi.

Qo'llanmada ishlatiladigan terminlar:

ob'ekt – har qanday birlik, korxonalar, bino va ochiq havoda ishlaydigan fermalar uchun, hayvonlarni yetishtirish, saqlash yoki manipulyatsiya qilish uchun jihozlangan yoki jihozlanmagan har qanday joy, yig'ish punktlari (masalan, qishloq xo'jaligi ko'rgazmalari va yarmarkalari, sport tadbirlari, tranzit markazlari, chorvachilik va naslchilik markazlari), bozorlar, qayta ishlash zavodlari, hayvonlar jasadlarini yig'ish markazlari,

⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.03.2017 yildagi 139-son

yaylovlar, nekropsiya va diagnostika markazlari, ilmiy tadqiqot markazlari, zoologik parklar, chegara postlari, karantin stansiyalari;

aylanish (oborot) – kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlar va xom ashyoni ishlab chiqarish, qayta ishlash, sotish (yoki yetkazib berish), shuningdek, ularning import, eksport va tranzit, shuningdek, veterinariya dori-darmonlar, ozuqa va ozuqa qo‘shimchalarning ishlab chiqarish, saqlash va sotish, shu jumladan qadoqlash, markirovkalash, saqlash va tashish bilan bog‘liq jarayonlar;

ro‘yxatga olish raqami – faoliyat turi va ob‘ekt raqamini o‘z ichiga olgan kod.

4. O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha ob‘ektlar berilgan ro‘yxat raqamlarini olishlari shart.

5. Kelib chiqishi hayvonotga mansub va o‘simlik mahsuloti hamda ularning xom ashyosining aylanishi (harakati) ob‘ektning berilgan ro‘yxat raqami kuzatib boradigan hujjatlarda yoki tovar (mahsulot) yorlig‘ida ko‘rsatilgan bo‘lsa, ruxsat etiladi.

6. Ro‘yxatdan o‘tish raqamida ushbu Qo‘llanmaning 1- ilovasiga muvofiq mamlakat kodi, viloyat kodi, tuman va ob‘ektning tartib nomeri hamda ob‘ektning faoliyati kodini o‘z ichiga oladi. Ob‘ektning tartib raqami ob‘ektga ro‘yxatga olish raqamini tayinlash to‘g‘risidagi arizaning tuman (shahar) Davlat veterinariya inspektori tomonidan ro‘yxatga olish Qo‘llanmaga ko‘ra beriladi.

Ro‘yxatga olish raqami ob‘ekt faoliyatining butun davri uchun bir marta beriladi.

7. Ob‘ektlarga ro‘yxatga olish raqamlari tuman (shahar)larning bosh davlat veterinariya inspektorlari tomonidan veterinariya-sanitariya xulosasi asosida ularning veterinariya sohasida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan talablarga muvofiqligi bo‘yicha beriladi.

8. Mahsulotlarni eksport qilishda, ushbu Ob‘ekt eksport qilinadigan mamlakatning veterinariya (veterinariya-sanitariya) talablariga javob berishi kerak. Bunday ob‘ekt qo‘shimcha "E" harfi bilan kodlanadi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi ushbu Qo‘llanmaning 2-ilovasida keltirilgan shaklda Ob‘ektlarning ro‘yxatga olish raqamlarining yagona reestrini (bundan buyon matnda Reestr) shakllantiradi.

Reestrni shakllantirishdan maqsad – bu faoliyat veterinariya nazorati ostida bo'lgan va o'z mintaqasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishiga ijobiy hissa qo'shadigan Ob'ektlar uchun yagona axborot resursini yaratishdan iborat. Ushbu reestr davlat va jamoat muassasalari, korxonalar va tashkilotlar, shuningdek, O'zbekiston va dunyodagi istalgan mamlakat fuqarolariga o'zlarini qiziqtirgan Ob'ektlar haqidagi ma'lumotlarni izlashga yordam berishga mo'ljallangan.

II. Ob'ektlarga tartib raqamlarini berish

10. Tartib raqamini berish uchun ariza beruvchi tegishli tuman (shahar) bosh davlat veterinariya inspektoriga taqdim etadi:

a) ushbu Qo'llanmaning 3-ilovasida berilgan shakldagi ariza, manzil va boshqa batafsil rekvizitlar, veterinariya-sanitariya xulosasi ko'rsatilgan holda, veterinariya talablariga muvofiqligi to'g'risida ariza taqdim etilishidan 30 kalendar kundan ortiq bo'lmagan muddatda beriladi;

b) Ob'ektning faoliyat turi, mahsulot hajmi va turi haqida istalgan shaklda tuzilgan, talabnoma beruvchi tomonidan muhrlangan va imzolangan ma'lumotlar;

v) hujjat topshirilgandan so'ng, arizaning qabul qilinganligini to'g'risida qayd jurnalida tasdiqlanadi:

- ariza nusxasida hujjatlar to'plami qabul qilingan sanasi va vaqti ko'rsatilgan holda ro'yxatga olinadi;

- elektron portalda ro'yxatga olish raqami yoki rad etish asoslarini ko'rsatgan holda ro'yxatga olish raqamini berish to'g'risidagi so'rovni qabul qilish holati aks ettiriladi.

11. Tuman (shahar) ning bosh davlat veterinariya inspektori ariza tushgan kundan boshlab ko'pi bilan besh ish kuni ichida:

a) Ob'ekt tomonidan ro'yxat raqami olishga oid taqdim etilgan hujjatlarning to'liqligini tekshiradi;

b) ro'yxatga olish raqamini berish to'g'risidagi arizani tegishli jurnalda ro'yxatdan o'tkazadi.

12. Ob'ekt tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish natijalariga ko'ra, tuman (shahar) bosh davlat veterinariya

inspektori ro'yxatga olish raqamini berish uchun hujjatlar to'plami qabul qilingan kundan boshlab uch ish kuni ichida:

- Ob'ektga ro'yxat raqamini beradi;

- ushbu Qo'llanmaning 4-ilovasiga muvofiq shaklda Ob'ektga ro'yxat raqami tasdiqlanishini (bundan buyon matnda – tasdiqnoma) rasmiylashtiradi va uni Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat veterinariya qo'mitasiga, viloyatlar va Toshkent shahar veterinariya boshqarmalariga, nusxasi esa mahalliy xokimiyatga yuboriladi.

- tasdiqnomani ariza beruvchi – Ob'ektning elektron pochta manziliga elektron hujjat shaklida yuboradi yoki chop etib, boshliq tomonidan imzolanadi va muhr bilan tasdiqlanib, pochta orqali yoki qo'lga beriladi.

13. Agar tuman (shahar) bosh veterinariya inspektori taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish natijalari bo'yicha Ob'ektning ro'yxatdan o'tkazmaslik to'g'risida qaror qilsa, u holda uch ish kuni ichida murojaat etuvchiga – Ob'ektga asosli rad javobini yuboradi.

14. Tuman (shahar) bosh veterinariya inspektori murojaat etuvchiga ro'yxat raqamini Ob'ektga berishni quyidagi hollarda rad etadi:

a) arizi beruvchi tomonidan – ushbu Qo'llanmaning 10-bandiga muvofiq Ob'ekt tomonidan to'liq bo'lmagan hujjatlar to'plami taqdim etilsa;

b) veterinariya-sanitariya xulosasi berilishi ariza topshirilishidan o'ttiz kalendar kundan ortiq muddati o'tganda;

v) Ob'ekt berilgan veterinariya-sanitariya xulosasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi veterinariya qonunchiligi talablariga javob bermasa, shuningdek ariza beruvchi Ob'ekt eksportchi bo'lib u, eksport qilish maqsadida bo'lgan yoki allaqachon eksport qilayotgan mamlakatning veterinariya, veterinariya-sanitariya talablariga javob bermasa.

15. O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi Qoraqalpog'iston Respublikasi veterinariya qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar veterinariya boshqarmalaridan olingan elektron yoki yozma shakldagi tasdiq nusxasi asosida Ob'ektning Internet-resursda joylashtirilgan Reestrga kiritadi.

16. Yozma tasdig'i yo'qotilgan yoki buzilgani taqdirda, Ob'ekt tuman (shahar) ning Bosh davlat veterinariya inspektoriga dublikat tasdig'ini

berish to'g'risidagi arizani taqdim etadi, u arizasi ro'yxatga olingan kundan boshlab uch ish kun mobaynida tasdiqlangan dublikat chiqaradi.

17. Nomi yoki tashkiliy-huquqiy shakli o'zgargan taqdirda Ob'ekt bir oy muddatda tuman (shahar) ning Bosh davlat veterinariya inspektoriga belgilangan ma'lumotlarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlar bilan Ob'ektning ro'yxatga olish raqamini qayta rasmiylashtirish uchun ariza beradi.

Ob'ektning amalga oshirilgan faoliyati o'zgarmagan taqdirda, ariza ro'yxatga olingan kundan boshlab besh ish kuni mobaynida tuman (shahar) ning bosh davlat veterinariya inspektori tasdiqni qayta rasmiylashtiradi.

Faoliyat turi o'zgargan taqdirda, Ob'ekt ushbu Qo'llanmaga muvofiq ro'yxat raqamini qayta oladi.

18. Ro'yxat raqami olish muddatlari buzilganda, shuningdek uni berishni asossiz rad etgan taqdirda, ariza beruvchi – Ob'ekt ro'yxat raqamlarini olish uchun mas'ul shaxslarning xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilishi mumkin.

**Ob'ektlarga ro'yxatga olish raqamlarni berish to'g'risidagi Qo'llanma
loyihasiga № 1- sonli ilova**

Ro'yxatga olish raqami faoliyat turi va Ob'ekt raqami, joylashuvi va
boshqalarni o'z ichiga olgan koddan iborat.

Ob'ektlarning faoliyat turlari bo'yicha kodlar

t/n №	Faoliyat turi	Kod
1.	Hayvonlarni so'yish (parrandalardan tashqari) va go'shtni birlamchi ishlov berish, saqlash va sotishni amalga oshiruvchi ishlab chiqarish Ob'ektlari;	U1
2.	Parrandalarni so'yish va birlamchi ishlov berish, saqlash va sotishni amalga oshiruvchi ishlab chiqarish ob'ektlari;	U2
	Qayta ishlashni amalga oshiradigan ishlab chiqarish Ob'ektlari:	
3.	Go'sht	G1
4.	Baliq va baliq mahsulotlari	G2

5. Asal va asal mahsulotlari	G3
6. Sut va sut mahsulotlari	G4
7. Kelib chiqishi hayvonotga mansub xom ashyo	G5
8. Veterinariya dori-darmonlarini saqlash va sotishni amalga oshiradigan Ob'ektlar	D1
9. Veterinariya dori-darmonlarining ishlab chiqarish va sotish bilan shug'ullanuvchi Ob'ektlar	D2
10. Kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlar va xom ashyoni saqlash va sotish Ob'ektlari	C
11. Ozuqa va ozuqa qo'shimchalarini ishlab chiqarish saqlash va sotish bilan shug'ullanuvchi Ob'ektlar	K
12. Bu yerda nomlanmagan boshqa Ob'ektlar	R

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining Ob'ektlarga ro'yxatga olish raqamlarini berish uchun tuman (shahar)

Tartib kodlari

v/b №	Kod	Tuman (shahar) veterinariya inspeksiyasi
1.	2.	3.
1	UZ	O'zbekiston Respublikasi
2	A	Qoraqalpog'iston Respublikasi:
3	001	Amudaryo
4	002	Beruniy
5	003	Karauzak
6	004	Kegeyli
7	005	Qo'ng'iro't
8	006	Kanliko'l
9	007	Mo'ynoq
10	008	Nukus
11	009	Taxtako'pir
12	010	To'rtko'l
13	011	Xo'jeliy
14	012	Chimbay
15	013	Shumanay
16	014	Ellikkala

17	015	Nukus shahar
18	B	Andijon viloyati:
19	016	Oltinko'l
20	017	Andijon
21	018	Asaka
22	019	Baliqchi
23	020	Bo'z
24	021	Buloqboosh
25	022	Jalolquduq
26	023	Izboskan
27	024	Qo'rg'ontepa
28	025	Marxamat
29	026	Paxtaobod
30	027	Ulug'nor
31	028	Xo'jaobod
32	029	Shaxrixon
33	030	Andijon
34	031	Xonobod
35	C	Buxoro viloyati:
36	032	Olot
37	033	Buxoro
38	034	Vobkent
39	035	Gijduvon
40	036	Jondor
41	037	Kogon
42	038	Qorako'l
43	039	Qoravulbozor
44	040	Peshku
45	041	Romiton
46	042	Shofirkon
47	043	Buxoro shahri
48	044	Kogon shahri

49	D	Jizzax viloyati:	
50	045	Arnasoy	
51	046	Baxmal	
52	047	Do'stlik	
53	048	Forish	
54	049	G'allaorol	
55	050	Mirzacho'l	
56	051	Paxtakor	
57	052	Yangiobod	
58	053	Zomin	
59	054	Zafarobod	
60	055	Zarbdor	
61	056	Sharof Rashidov	
62	057	Jizzax shahri	
63	058	Dashtobod	
64	E	Qashqadaryo viloyati:	
65	059	G'uzor	
66	060	Dexqonobod	
67	061	Qamashi	
68	062	Qarshi	
69	063	Koson	
70	064	Kasbi	
71	065	Mirishkor	
72	066	Kitob	
73	067	Muborak	
74	068	Nishon	
75	069	Chiroqchi	
76	070	Shaxrisabz	
77	071	Yakkabog'	
78	072	Qarshi shahri	
79	F	Navoiy viloyati:	
80	073	Konimex	
81	074	Qiziltepa	

82	075	Karmana
83	076	Nurota
84	077	Tomdi
85	078	Uchquduq
86	079	Xatirchi
87	080	Navbaxor
88	081	Zarafshon
89	082	Navoiy shahri
G		
90		Namangan viloyati:
91	083	Chortoq
92	084	Chust
93	085	Kosonsoy
94	086	Mingbuloq
95	087	Namangan
96	088	Norin
97	089	Pop
98	090	To'raqo'rg'on
99	091	Uchqo'rg'on
100	092	Uychi
101	093	Yangiqo'rg'on
102	094	Namangan shahri
H		
103		Samarqand viloyati:
104	095	Oqdaryo
105	096	Bulung'ur
106	097	Jomboy
107	098	Ishtixon
108	099	Kattaqo'rg'on
109	100	Qo'shrabot
110	101	Narpay
111	102	Nurobod
112	103	Payariq
113	104	Pastdarg'om
114	105	Paxtachi

115	106	Samarqand	
116	107	Tayloq	
117	108	Urgut	
118	109	Kattaqo'rg'on shahri	
119	110	Samarqand shahri	
120	K	Surxondaryo viloyati:	
121	111	Oltinsoy	
122	112	Angor	
123	113	Boysun	
124	114	Denov	
125	115	Jarqo'rg'on	
126	116	Qiziriq	
127	117	Qumqurg'on	
128	118	Muzrobod	
129	119	Sariosiyo	
130	120	Termiz	
131	121	Uzun	
132	122	Sherobod	
133	123	Sho'rchi	
134	124	Termiz shahri	
135	L	Sirdaryo viloyati:	
136	125	Oqoltin	
137	126	Boyovut	
138	127	Guliston	
139	128	Mirzaobod	
140	129	Sayxunobod	
141	130	Sardoba	
142	132	Sirdaryo	
143	133	Xovos	
144	134	Guliston	
145	135	Shirin shahri	
146	136	Yangiyer shahri	

147	M	Toshkent viloyati:
148	137	Oqqo'rg'on
149	138	Ohangaron
150	139	Bekobod
151	140	Bo'stonliq
152	141	Bo'ka
153	142	Qibray
154	143	Quyichirchiq
155	144	Parkent
156	145	Piskent
157	146	Zangiota
158	147	O'rtachirchiq
159	148	Chinoz
160	149	Yuqorichirchiq
161	150	Yangiyo'l
162	151	Olmaliq shahri
163	152	Angren shahri
164	153	Bekobod shahri
165	154	Chirchiq shahri
166	N	Farg'ona viloyati:
167	155	Oltiariq
168	156	Bog'dod
169	157	Beshariq
170	158	Buvayda
171	159	Dang'ara
172	160	Quva
173	162	Qo'shtepa
174	163	Rishton
175	164	So'x
176	165	Toshloq
177	166	O'zbekiston
178	167	Uchko'prik
179	168	Farg'ona
180	169	Furqat

181	170	Yozyovon
182	171	Qo'qon shahri
183	172	Quvasoy shahri
184	173	Marg'ilon shahri
185	174	Farg'ona shahri
186	R	Xorazm viloyati:
187	175	Bog'ot
188	176	Gurlan
189	177	Qo'shko'pir
190	178	Urganch
191	179	Xazorasp
192	180	Xonqa
193	181	Xiva
194	182	Shovot
195	183	Yangiariq
196	184	Yangibozor
197	185	Urganch shahri
198	186	Pitnak shahri
199	T	Toshkent shahri

Eslatma: bugungi kunda Toshkent shahridagi 12 ta tumanning veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlari yuridik shaxs maqomiga ega emas va ular Toshkent shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi nomidan harakat qilishadi.

Ro'yxatga olish raqami berilgandan iborat va quyidagi tuzilishga ega:

1-belgi O'zbekiston kodi O'z

2-belgi – Qoraqalpog'iston, viloyat va Toshkent shahri harf kodi

3-belgi – viloyat bo'ysunuvidagi tuman yoki shahar tartib raqami

4-belgi – Ob'ektning faoliyat turi kodi

5-belgi – Ob'ektning tartib raqami

6-belgi – eksportchilar uchun E harfi

Masalan: O'z A 003/ G4-015 / E

Ob'ektlarning tartib raqamlar reestri

t/b №	Tashkilot nomi	Egasi	Manzili	Faoliyat turi	Ro'yxat raqami va berilgan sana

Namuna

_____ ga
(Tuman (shahar) veterinariya bo'limining nomi)

_____ dan
(Familiyasi, ismi va sharifi, STIR, yuridik shaxsning nomi)

Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning raqami

Manzil

Arizaning raqami:

Ariza

Ro'yxatdan o'tish raqamini belgilash va tasdiqlashni so'rayman

_____ (ishlab chiqarish Ob'ektining nomi, faoliyat turi)

Joylashgan manzili: _____

Veterinariya-sanitariya xulosasining raqami va sanasi _____

Quyidagi hujjatlarni ilova qilaman: _____

Aloqa telefon raqamlari _____ E-mail _____

_____ 20__ yil

(ariza beruvchining familiyasi, ismi, sharifi (agar bo'lsa) imzosi)

Ilova: _____ varaq (lar) 1 nusxada _____

Namuna

Ob'ektga ro'yxat raqamini olganligini tasdiqlash

Ushbu tasdiqnoma berildi _____

(famiyasi, ismi, sharifi,_____
yuridik shaxsni nomi)_____
(faoliyatni amalga oshiryapti)_____
(faoliyat turini ko'rsatish)

ishlab chiqarish Ob'ektlariga ro'yxatga olish raqamlarini berish to'g'risidagi Nizomga muvofiq, hayvonlarni yetishtirish, tayyorlash (so'yish) bilan shug'ullanish, hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlar va xom ashyolarni saqlash, qayta ishlash va realizatsiya qilish, shuningdek, veterinariya dori-darmonlarini, ozuqa va ozuqa ko'shimchalarni ishlab chiqarish, saqlash va sotish, tashkilotlar Tuman (shahar) bosh davlat veterinariya inspektori _____

(imzo) famiyyasi, ismi, sharifi

Muxr

« ____ » _____ 20 ____ y.

Aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish haqida

№ _____ inspektorning ko'rsatmasi

« _____ » _____ 20__ y. _____ tuman (shaxar)

Tekshirish natijasi

_____ (jismoniy shaxsning F.I.Sh. yoki yuridik shaxsning nomi)

Quyidagi faoliyat amalga oshirilganda aniqlangan

_____ (amaliyot turi)

qonunbuzarlik to'g'risidagi " _____ " _____ 20__ y. № _____ dalolatnoma tuzildi

O'zR "Veterinariya to'g'risida"gi qonuni va quyidagi

_____ (veterinariya qoida yoki boshqa

_____ meyoriy xujjatni nomi)

qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga ko'rsatmani beraman:

t/b №	Talablari buzilgan normani ko'rsatgan holda aniqlangan qoidabuzarliklarning ifodasi	qoidabuzarlikni tuzatish muddati

Ushbu ko'rsatmaga rasmiy javobni _____ davlat
veterinariya bo'limi quyidagi manzilga taqdim eting:

(inspektorning lavozimi, F.I.Sh.)

M/J

- Eslatma:** 1. Ko'rsatmada belgilangan vaqt ichida qoidabuzarliklarni bartaraf etilmaganlikda veterinariya inspektori qoidalarni bajarish vaqtini uzaytirishi va uning sabablarini ko'rsatgan xolda ushbu ko'rsatmada belgi qo'yishga haqli;
2. Qoidabuzarliklar ko'rsatmada belgilangan muddatlarda bartaraf etilmagan taqdirda, veterinariya inspektori O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ma'muriy choralarni qo'llash huquqiga ega;
3. Ko'rsatmaning bajarilishini nazorat qilish ushbu ko'rsatmani tuzgan veterinariya inspektoriga yuklanadi va faqat tuman (shahar) bosh veterinariya inspektori ushbu ko'rsatmaning bajarilishi nazoratini boshqa veterinariya inspektoriga topshirishi mumkin.

5- bob. Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirilishi

Kodeksning 3.4.5. moddasidagi standartlarga muvofiq veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirilishi qo'yiladigan maqsadlarga erishishga olib keladi. Moliyalashtirish respublika budjeti hisobidan amalga oshiriladigan hayvon kasalliklariga qarshi veterinariya tadbirlarini amalga oshirishda ishtirok etish, vaksina va boshqa preparatlarning qoldiqlarini yo'q qilish, hayvonlarni va chorvachilik mahsulotlarini saqlash va joyini o'zgartirishda identifikatsiya qilish va kuzatib borish jarayonlari, shuningdek, HACCP tizimlarini joriy etish nuqtai nazardan topshirilishi favqulodda vaziyatlarda zudlik bilan ta'sir ko'rsatishda qo'shimcha imkoniyatlar beradi.

Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirilishi maxsus boshqarish iste'dodlarini talab qilmaydi, ayniqsa bu yerda rahbarlik qilishning hojati yo'q, ammo muntazam veterinariya inspeksiyasi uchun nazorat natijasi sezilarli bo'ladi. Bu xodimlarning o'zaro hamkorligi samaradorligini oshirishda, ishga yanada mas'uliyatli munosabatda bo'lishda, ularning ish unumdorligi va sifatini yaxshilashda ifodalanadi.

Kodeksning 3.4.5-moddasida veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirilishida nazorat vakolatlari va shartlari aniq belgilab qo'yilishi lozim. Bu maqsadga erishish uchun veterinariya qonunchiligi quydagilarni bajarilishini ta'minlash kerak:

a) amalga oshiradigan faoliyat doirasi va aniq vakolatlarini belgilash;

b) topshirilgan vakolatlarni bajarish uchun reglamentga solish, nazorat qilish va zarur bo'lganda mablag' ajratish;

v) vakolatlarni bajarish qoidalarini belgilash;

g) topshiriladigan vakolatlarni oluvchi nomzodning bilim darajasi va qanday ko'nikmalar hosil qilganini aniqlash;

d) har qanday vakolatlarni bajarish huquqini bekor qilish shartlarini belgilash.

Hozirgi vaqtda davlat veterinariya xizmatining vakolatlar doirasi juda katta, markazlashish darajasi esa juda keng va ayrim davlat

vakolatlarini topshirilishi markazsizlashtirishga olib kelishi aniq. Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirilishining asosiy maqsadi – bu davlat veterinariya xizmatini yengillashtirish, shu orqali tuman (shahar) veterinariya bo‘limlarining veterinariya inspeksiyasi, ya’ni ob’ektlari ustidan nazorat vazifalarini bajarish imkoniyatlarini yaxshilash uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdir.

Bundan tashqari, xususiy veterinariya amaliyoti, idoraviy va ishlab chiqarish veterinariya xizmatlari faollashadi, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda va qayta ishlashda ularning mutaxassislarining ishtiroki va mas’uliyati oshadi. Davlat vakolatlari xususiy veterinariya vrachlariga topshirilishi mumkin va kerak, lekin umumiy natija uchun faqat davlat veterinariya xizmati javobgarligini unutmaslik kerak.

Rasmiy veterinariya vrachlarning asosiy vazifalari:

hayvonlarni brusellyoz va sil kasalliklaridan himoya qilish, ya’ni ushbu kasalliklarning oldini olish va yo‘q qilish bo‘yicha ko‘rsatmalarga muvofiq davriy tadqiqotlar o‘tkazish;

hayvonlarni boshqa yuqumli kasalliklardan (kuydirgi, leptospiroz, pasterellyoz, trixofitoz, emkar, leykoz, paragripp, yuqumli rinotraxeit, virusli diareya, kolibakterioz, streptokokkoz va boshqalar) himoya qilish;

invazion kasalliklarning oldini olish;

hayvonlarning yelin, tuyuq, oldingi va keyingi oyoqlar kasalliklarining oldini olish

podalarni ko‘paytirishning yuqori darajasini ta’minlash, ya’ni sigir va boshqa urg‘ochi hayvonlarda homiladorlikni o‘z vaqtida tashxislash, bepusht hayvonlarni aniqlash, bepushtlikni bartaraf etish, faqat sun‘iy urug‘lantirishni tashkil etish;

yosh hayvonlarning bexato saqlanishini ta’minlash;

texnologik siklga muvofiq hayvonlarni tizimli umumiy, ginekologik, xirurgik tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish;

yirik chorvachilik xo‘jaliklarda hayvonlar yuqumli kasalliklari qo‘zg‘atuvchilarini kiritishdan ishonchli himoya qilish uchun qat’iy veterinariya-sanitariya rejimini o‘rnatish, texnologik jarayonning bir qismi sifatida dezinfeksiya, desinseksiya va deratizatsiya tadbirlarini puxta amalga oshirish;

dispanserizatsiya, ya'ni kasalliklarning belgilarini o'z vaqtida aniqlash, ularni davolash va oldini olish maqsadida hayvonlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish har olti oyda amalga oshiriladi. Dispanserizatsiyaga xo'jalikdagi hayvonlarni umumiy va maxsus usullar yordamida klinik tekshirish, oziqlantirish turi va darajasi, ozuqa sifati, hayvonlarni saqlash va ekspluatatsiya qilish sharoitlarini o'rganish, davolash-profilaktika tadbirlarini o'tkazish kiradi.

**Veterinariya sohasidagi ayrim
davlat vakolatlarini topshirish to'g'risidagi
Nizom loyihasi**

1. Umumiy qoidalar

1. Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirish to'g'risidagi ushbu Nizom (bundan buyon matnda – Nizom) veterinariya sohasida ayrim davlat vakolatlari xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarga, shuningdek idoraviy va ishlab chiqarish veterinariya xizmati veterinariya vrachlariga (bundan buyon matnda – rasmiy veterinariya vrachlari) topshirish masalalarini tartibga soladi

2. Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirishni tuman (shahar) bosh davlat veterinariya inspektori amalga oshiradi.

3. Vakolati tegishli guvohnoma bilan tasdiqlangan ma'muriy hududdagi litsenziyaga ega rasmiy veterinariya vrachlariga veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirish (bundan buyon matnda – vakolatlarni topshirilishi deb yuritiladi) shartnoma asosida amalga oshiriladi. Ma'muriy hududdagi veterinariya osoyishtaligi uchun to'liq javobgarlik tuman (shahar) bosh davlat veterinariya inspektori zimmasiga yuklanadi.

4. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

vakolatlar – veterinariya vrachlariga yuklangan funksiyalar, vazifalar, huquqlar, mas'uliyatlar va majburiyatlar to'plami;

veterinariya nazorati – hayvonlarni saqlash va so'yish, chorvachilik mahsulotlari qabul qilish va qayta ishlash, ularni joyini o'zgartirish jarayonlarini texnologik nazorati doirasida amalga oshiriladigan hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlar, ozuqa, ozuqa qo'shimchalari va hayvonlar uchun dori-darmonlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish;

veterinariya nazorati ostidagi tovarlar – davlat veterinariya nazorati ostida bo'lgan tovarlar, shu jumladan: hayvonlar, ozuqa, ozuqa tarkibiy qismlari, hayvonlar uchun ozuqa qo'shimchalari, hayvonlar uchun dori-darmonlar, hayvonlarning yuqumli kasalliklari patogenlarini o'z ichiga olgan yoki o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan moddalar va

materiallar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlar, sanoat sharoitida ishlab chiqilmagan oziq-ovqat maqsadlari uchun o'simlik mahsulotlari;

veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirish – davlat veterinariya xizmatining funksiyalari, huquqlari, vazifalar va majburiyatlarning bir qismini ularni bajarish majburiyatini o'z zimmasiga olgan rasmiy veterinariya vrachlariga topshirish;

veterinariya faoliyati – hayvonlar va chorvachilik tovarlari bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan, inson salomatligi va osoyishtaligini himoya qilish, ehtiyot qilish va yaxshilashga xizmat qiladigan tadbirlar, birinchi navbatda, hayvonlarning sog'ligi va osoyishtaligini muhofaza qilish, shuningdek kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlarning veterinariya-sanitariya xavfsizligini ta'minlash;

davlat veterinariya nazorati – veterinariya-sanitariya ma'lumotlarini yig'ish, umumlashtirish va tahlil qilish, shu jumladan tegishli chora-tadbirlarni tezkor qabul qilish uchun o'z vaqtida tarqatish bo'yicha tizimli va uzoq muddatli operatsiyalar majmuasi;

idoraviy veterinariya nazorati – davlat veterinariya xizmati nazorati ostida idoraviy veterinariya xizmati mutaxassisleri tomonidan kelib chiqishi hayvonotga mansub hamda o'simlik mahsulotlari va xom ashyolarini veterinariya-sanitariya nazorati, shu jumladan veterinariya-sanitariya ekspertizasini amalga oshirishi;

ishlab chiqarish veterinariya nazorati – davlat veterinariya xizmati nazorati ostida hayvonlarni so'yish, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlar, ozuqa, ozuqa qo'shimchalari va hayvonlar uchun dori-darmonlarning qabul qilish va qayta ishlash hamda ko'chirish jarayonlarini texnologik nazorat qilish doirasida amalga oshirilishi belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirishi;

monitoring – har qanday hayvon turlarining yashash muhitdagi yoki ularning sog'lig'i holatidagi o'zgarishlarni aniqlash bo'yicha chora-tadbirlarni va muntazam monitoringni doimiy ravishda amalga oshirish va tahlil qilish;

hayvonlarning osoyishtaligi – sog'lom hayvonning qoniqarli holati qoniqarli sharoitda saqlash, yaxshi oziqlantirish, kasalliklardan xoli bo'lish, shu jumladan: kasalliklarning oldini olish va davolash, to'g'ri

parvarish qilish va boqish, hayvonlarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lish va veterinariya nazorati ostida so'yish.

2. Tuman (shahar) bosh davlat veterinariya inspektorining vakolat topshirilganda vazifalari, huquqlari va majburiyatlari

5. Tuman (shahar) bosh davlat veterinariya inspektorining va u tomonidan inspektorlar orasidan tayinlangan mas'ul shaxslarning vazifalari:

a) veterinariya sohasida topshirilgan ayrim davlat vakolatlarini olgan rasmiy veterinariya vrachlari tomonidan amalga oshirilishi, shuningdek, ushbu maqsadda nazarda tutilgan moliyaviy va boshqa vositalardan (vaksinalar, zardoblar, asbob-uskunalar, identifikatsiya vositalari va boshqalar) foydalanishi ustidan davlat veterinariya nazorati o'tkazish;

b) rasmiy veterinariya vrachlardan veterinariya sohasida topshirilgan ayrim davlat vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq ma'lumotlar, materiallar va boshqa hujjatlarni talab qilish;

v) veterinariya sohasida topshirilgan ayrim davlat vakolatlarini amalga oshirish natijalari to'g'risida rasmiy veterinariya vrachlardan belgilangan shaklda hisobotlarni qabul qilish;

g) ushbu Nizomda belgilangan hollarda va tartibda veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirilishi to'g'risidagi shartnomani muddatidan oldin bekor qilish;

d) veterinariya sohasida topshirilgan ayrim davlat vakolatlarini amalga oshirishda rasmiy veterinariya vrachlari uchun zarur bo'lgan uslubiy, tashkiliy, maslahat, huquqiy va texnik yordam berish;

e) veterinariya sohasida topshirilgan ayrim davlat vakolatlarini oshirish bilan shartnoma asosida ishonib topshirilgan rasmiy veterinariya vrachlarning malakasini oshirish maqsadida uzluksiz kasbiy tayyorgarlikni tashkil etish;

j) veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirish yoki uni uzaytirish to'g'risida ushbu Nizomda belgilangan tartibda shartnoma tuzish.

3. Tuman (shahar) bosh davlat veterinariya inspektorining huquqlari.

6.1. Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirish paytidan boshlab rasmiy veterinariya vrachlari faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlash, oldini olish va ularni tuzatish hamda tizimni yanada takomillashtirish bo'yicha tajriba orttirish bo'yicha nazoratni amalga oshirish. Xususiy veterinariya vrachlari o'z vakolatlari chegarasidan chiqmasliklari shart.

6.2. Rasmiy veterinariya vrachlarining faoliyatini tekshirishni dastlabki muddatdan so'ng boshlash, uning davomiyligi shartnoma bo'yicha topshirilgan vakolatlar asosida tuman (shahar) bosh veterinariya inspektori tomonidan belgilanadi. Tekshiruvlarning maqsadi veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlari topshirilgan doirasida amalga oshirilayotgan ishlar talablarga javob berishini aniqlashdir.

6.3. Tuman (shahar) bosh davlat veterinariya inspektori tomonidan harakatsizlik, no'noq ish yoki o'zining funksional vazifalarini bajarmaslik, yoki fuqarolarning salbiy murojaatlari bo'lganda veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirish to'g'risidagi shartnomani muddatidan oldin tugatish yo'li bilan bekor qilishi mumkin.

4. Tuman (shahar) bosh davlat veterinariya inspektorining vazifalari

7.1. Veterinariya sohasidagi topshirilgan ayrim davlat vakolatlarining shartnomaga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlashga mo'ljallangan veterinariya dori-darmonlari, asbob-uskunalar, instrumentlar, identifikatsiya vositalari va boshqalarni o'z vaqtida va to'liq yetkazib berish.

7.2. Zarur bo'lganda veterinariya sohasidagi topshirilgan ayrim davlat vakolatlarini amalga oshirish doirasida rasmiy veterinarlar tomonidan amalga oshiriladigan muayyan veterinariya-sanitariya tadbirlarini moliyalashtirish.

5. Rasmiy veterinariya vrachlarining vazifalari

8. Tuman (shahar) ma'muriy hududidagi rasmiy veterinariya vrachlariga shartnoma asosida veterinariya sohasida quyidagi ayrim davlat vakolatlari topshiriladi:

a) hayvonlarning joyini o'zgartirish, chorvachilikni tashkil qilish va boshqarish, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish hamda ozuqa, ozuqa qo'shimchalarning va veterinariya dori-darmonlari xarakatini monitoring qilish;

b) jismoniy va yuridik shaxslardan kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlari va xom ashyosini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va sotishda veterinariya-sanitariya qoida va normalariga rioya qilishni talab qilish;

v) odamlar va hayvonlar sog'ligi uchun xavfsizlikni ta'minlash maqsadida ozuqa va ozuqa qo'shimchalardagi veterinariya-sanitariya ko'rsatkichlari, ularning xarakteristikallari va zararli omillar standartlariga rioya qilishni kuzatish, shu jumladan tanlangan namunalarning tegishli tadqiqotlarini o'tkazish uchun laboratoriyalarga murojaat qilish;

g) kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlar va xom ashyoni sotib olishi uchun sharoitlar, ularni ishlab chiqarish uchun tayyorlash, ishlab chiqarish jarayonlari, saqlash, tashish va yetkazib berishni veterinariya normalari va xavfsizligini veterinariya-sanitariya ekspertiza qoidalari talablariga rioya etilishini nazorat qilish (veterinariya sanitariya ekspertizasi laboratoriyalar mavjud dehqon bozorlari bundan istisno);

d) hayvonlarni saqlash, ovqatlantirish va sug'orishda veterinariya qonunchiligi buzilishlarini aniqlash, ular haqida tuman (shahar) veterinariya bo'limlari mas'ul xodimlarini xabardor qilish va aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarida ishtirok etish;

e) hayvonlarni nazoratsiz (hovlida) so'yishning oldini olish, shuningdek, bunday hayvonlarning so'yilgan mahsulotlarini erkin sotishga yo'l quymaslik;

j) hayvonlarning kasallanish sabablarini tahlil qilish, profilaktik veterinariya-sanitariya, epizootik va davolash chora-tadbirlar rejalarini tuzishda qatnashish, epizootiyaga qarshi chora-tadbirlarda ishtirok etish va tuman (shahar) davlat veterinariya inspektorining ko'rsatmasiga ko'ra ularni shaxsan o'tkazish;

z) hayvonlarni klinik ko'rikdan o'tkazib, identifikatsiya qilish va kuzatib borishni amalga oshirish, shuningdek chorvachilik mahsulotlar joyini o'zgarganini kuzatib borishni ta'minlash;

k) hayvonlarning jasadlarini ochish, patologik materiallarni laboratoriyaga yuborish, hayvonlarning o'lim sabablari haqida xulosa berish.

6. Rasmiy veterinariya vrachining huquqlari va majburiyatlari

9. Rasmiy veterinariya vrachi veterinariya sohasidagi topshirilgan ayrim davlat vakolatlarining amalga oshirish paytida quyidagi huquqlarga ega:

a) bo'limdan uslubiy, tashkiliy, maslahat va boshqa yordam, shuningdek shartnoma doirasida zarur bo'lgan hujjatlarni olish;

b) tuman (shahar) davlat veterinariya bo'limidan veterinariya sohasidagi topshirilgan ayrim davlat vakolatlarining amalga oshirish uchun shartnomaga muvofiq veterinariya dori-darmonlari, asbob-uskunalar, instrumentlar, identifikatsiya vositalari va boshqalarni o'z vaqtida va to'liq ta'minlashni talab qilish;

v) tuman (shahar) veterinariya boshqarmasidan epizootik yoki ommaviy yuqumsiz kasalliklarning, shuningdek, kelib chiqishi noma'lum kasalliklarning oldini olish bo'yicha veterinariya va veterinariya-sanitariya tadbirlarini amalga oshirishni moliyalashtirishni talab qilish;

g) epizootiyaga qarshi, parazitlar kasalliklarga qarshi va boshqa veterinariya chora-tadbirlar rejalarini yaratish, yangilash va amalga oshirish (joriy etish) da ishtirok etish;

d) olingan namunalar bo'yicha laboratoriyaning yakuniy xulosasi va ular bo'yicha tuman (shahar) davlat veterinariya inspektori qaror qabul qilinguniga qadar namunalar olish va hayvonlar yoki tovarlarning harakatini vaqtincha to'xtatib turish;

e) shartnoma doirasidagi veterinariya talablariga javob bermaydigan korxonalar, tashkilot va boshqalar faoliyatining bir yoki bir nechta turini to'liq yoki qisman to'xtatib qo'yish;

j) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar bilan birgalikda cheklovchi va karantin tadbirlarini, shuningdek, davlat budjetidan mablag'lar ajratilgan yoki ajratilmagan kasalliklarga qarshi hayvonlarni profilaktik vaksinatsiya qilish, diagnostika va davolashni tashkil etish;

z) o'zaro kelishuv asosida to'lovlar miqdori va shakllarini ko'rsatib, pullik xizmatlar ko'rsatish uchun tirik hayvonlar va boshqa nazorat ostidagi tovarlar egalari bilan shartnomalar tuzish;

k) veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirishi to'g'risidagi shartnomani, agar shartnomada nazarda tutilgan holatlar bo'lganida, muddatidan oldin bekor qilish.

10. Rasmiy veterinariya vrachining majburiyatlari:

a) O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektori tomonidan tasdiqlangan veterinariya, veterinariya-sanitariya qoida va normalariga o'zi rioya etishi va boshqalar rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

b) kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni, shuningdek chiqindilarni, ishlab chiqarish, saqlash va sotish uchun mo'ljallangan binolar va boshqa inshootlarni veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga rioya etilishini nazorat qilish;

v) tuman (shahar) bosh davlat veterinariya inspektorining zarur veterinariya, veterinariya-sanitariya va epizootiya qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalariga rioya qilish;

g) patogenlar, hayvonlar kasalliklari qo'zg'atuvchilarining manbalari, ularning hayvonlar va odamlarga yuqish omillarini belgilash maqsadida diagnostik tadqiqotlar o'tkazish (zarur bo'lsa), shu jumladan, begona ixtisoslashtirilgan tashkilotlarni (laboratoriyalar, markazlar va boshqalar) jalb qilish;

d) nazorat ostidagi mahsulotlarni idoraviy va ishlab chiqarish veterinariya nazoratini o'tkazishda ISO xalqaro standartlarini bilish, oziq-ovqat xavfsizligi (HACCP yoki shunga o'xshash tizim) uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan xavflarni aniqlash, baholash va nazorat qilish;

e) hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish va joyini o'zgartirish, hayvonlar va ularning xo'jaliklarini ro'yxatga olish bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish va yuritishda veterinariya va veterinariya-sanitariya talablariga rioya qilishi, kelib chiqishi hayvonotga mansub tovarlarni kuzatib borishini ta'minlash;

j) identifikatsiya raqamining quloq yorlig'ini yoki boshqa shaxsiy tashuvchisini birlashtirish va har bir hayvon uchun pasport berish;

i) veterinariya sohasidagi topshirilgan ayrim davlat vakolatlarini amalga oshirishda o'z ichiga to'liq ism, litsenziya raqami, viloyat va tuman kodini olgan individual muhrdan hamda o'z ichiga to'liq ism, litsenziya raqamini olgan shtampdan foydalanish;

k) muhr va shtampdan foydalanganda viloyat va sertifikatlash raqamiga muvofiqligini ta'minlash. Agar viloyat va sertifikatning raqami o'zgartirilsa, muhr va shtamp almashtirilishi kerak;

l) har oyda, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tuman (shahar) davlat veterinariya inspeksiyasiga veterinariya sohasidagi topshirilgan ayrim davlat vakolatlarini bajarish natijalari bo'yicha belgilangan shakldagi hisobotlarni taqdim etish;

m) veterinariya dori-darmonlari, asbob-uskunalari va vositalaridan, shuningdek veterinariya sohasida topshirilgan ayrim davlat vakolatlarini bajarish uchun o'tkaziladigan moliyaviy resurslardan maqsadli foydalanishni ta'minlash;

n) o'ta xavfli hayvon kasalliklari va zoonozlarga shubha qilish yoki aniqlash holatlarida zudlik bilan choralar ko'rish bilan birga zudlik bilan tuman (shahar) davlat veterinariya bo'limiga xabar berish;

o) hayvonning jismoniy va yurish-turish holatiga doimo alohida e'tibor berish;

p) doimiy ravishda o'z malakasini oshirish.

11. Rasmiy veterinariya vrachi quyidagilar uchun mas'ul bo'ladi:

a) hayvonlarning sog'ligi va osoyishtaligini tekshirishdan oldin, tekshirish davomida va undan keyin, hayvonlarning osoyishtaligini ta'minlash bo'yicha choralar, shuningdek amaliy harakatlar bo'yicha maslahat va tavsiyalar;

b) veterinariya xizmatlari va maslahatlashuvlarning doimiy mavjudligi, ayrim vaziyatlarda, xususiyl veterinariya vrachi shug'ullanishga odatlanmagan turlari haqida gap kelganda, u tegishli bilimga ega bo'lgan mutaxassis (veterinar bo'lishi shart emas) bilan maslahatlashish;

v) veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirish to'g'risidagi shartnoma muddatdan oldin bekor qilingan taqdirda foydalanilmagan veterinariya dori-darmonlari va boshqa mol-mulkni, shuningdek unga veterinariya sohasida davlat veterinariya vakolatlarini

bajarish uchun berilgan moliyaviy resurslarni tuman (shahar) inspeksiya bo'limiga qaytarish;

g) hayvonlarni o'z ehtiyojlari uchun hovlida so'yishni nazorat qilish va shaxsiy iste'molga mo'ljallangan, fuqarolar tomonidan uyda so'yilgan go'sht va uy sharoitida ishlab chiqarilgan go'sht mahsulotlarining respublika hududlarida erkin muomalaga (sotishga) chiqarilmasligini ta'minlash uchun to'liq javobgar;

d) hayvonlarni so'yishdan oldin va so'yishdan keyingi o'z vaqtida va sifatli tekshirish, shuningdek veterinariya talablariga muvofiq kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyosini veterinariya-sanitariya ekspertizasini o'tkazish;

e) ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, tozalash va sanitariyaga tegishli dasturlarini amalga oshirish hamda ishlab chiqarish jarayonida oziq-ovqat zanjiriga kiradigan xavfini minimallashtirish maqsadida zararkunandalarga qarshi kurashish tizimlarini joriy etish orqali ishlab chiqarilgan hayvon mahsulotlarining xavfsizligi ta'minlash;

j) hayvonlar osoyishtaligi va kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish davrida veterinariya-sanitariya xavfsizligi bo'yicha qabul qilingan qarorlar.

Rasmiy veterinariya vrachlari qonun xujjatlariga muvofiq va tuman (shahar) bosh davlat veterinariya inspektori bilan ayrim davlat vakolatlarini topshirish to'g'risida shartnomaga asosan boshqa huquqlarga ega bo'lishi va ularning zimmasiga o'zga majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

7. Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirish tartibi

12. Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirilishi ushbu Nizom asosida tuman (shahar) bosh davlat veterinariya inspektori tomonidan rasmiy veterinariya vrachi bilan 1 yil muddatga tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Shartnoma muddati tugashi bilan tuman (shahar) davlat veterinariya inspeksiya bo'limi boshlig'i shartnomani shu muddatga yoki uzoqroq muddatga cho'zishi mumkin.

13. Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirish to'g'risidagi shartnomada tomonlarning vazifalari, huquq va

majburiyatlari, shuningdek mas'uliyatlari va nizolarni hal etishning to'liq ro'yxati ko'rsatilishi kerak.

14. Veterinariya sohasidagi topshirilgan ayrim davlat vakolatlari doirasidagi faoliyatni amalga oshirish quyidagi hollarda tugatiladi:

a) veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirish to'g'risidagi shartnomaning amal qilish muddati o'tganda;

b) sud qarori bilan;

v) rasmiy veterinariya vrachining veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirishi to'g'risidagi shartnomada belgilangan tartibda va shartlarda bajarishdan bosh tortishida;

d) ushbu Nizomning 6.3- bandiga muvofiq.

8. Yakunlovchi qism

15. Rasmiy veterinariya vrachlariga topshirilgan vakolatlar cheklangan bo'lib, ular veterinariya qoidalari va lavozim instruksiyalar bilan belgilanadi. Agar rasmiy veterinariya vrachi bu chegaralardan tashqariga chiqsa, u o'z vakolatlaridan oshib ketgan deb hisoblanadi.

16. Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirish to'g'risidagi tuzilgan shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun tomonlar O'zbekistonning amaldagi qonunchiligiga muvofiq o'zaro javobgarlikni o'z zimmlariga oladilar.

17. Ushbu Nizomning mazmuni va talqini O'zbekiston qonunlariga muvofiq belgilanadi.

18. Mazkur Nizom talablarini buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslar qonun xujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Eslatma. Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirishning samaradorligini pasaytirishiga olib keladigan xatolar:

a) rasmiy veterinariya vrachining malaka darajasi pastligi yoki shaxsiy fazilatlarini topshirilgan vakolatlarini muvaffaqiyatli bajarishiga xalaqit beradi;

b) rasmiy veterinariya vrachi to'g'ri rag'batlantirilmaganda, ya'ni ish jarayonidagi vazifalar, funksiyalar, mas'uliyatni tushuntirmasdan, doimiy

mijozlar, doimiy ish borligi va h.k. ko'rinishidagi imtiyozlarni olishi nazarda tutmaganda;

v) rasmiy veterinariya vrachiga kerakli resurslar (pul, asbob-uskuna, materiallar va boshqalar) ajratilmaganda;

d) cheklovlar aniq belgilanmaganda;

e) rasmiy veterinariya vrachi ustidan nazorat qilish usullari va hisobot berishi ko'rsatilmagan, ishni bajarmasa yoki sifatsiz bajargan taqdirda uning javobgarligi aniq kelishmaganda;

Tuman (shahar) davlat veterinariya bo'limi boshlig'i band bo'lsa, o'zini o'zi tashkil etolmasa yoki o'zining ishbilarmonlik fazilatlarini ortiqcha baholasa, ushbu xatolar yuzaga kelishi mumkin.

**Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlari topshirish to'g'risida
Shartnoma namunasi**

sana

tuman (shahar)

Tuman (shahar) bosh davlat veterinariya inspektori shaxsida, _____, bir tomondan, veterinariya sohasida ayrim davlat vakolatlari topshirilishi to'g'risidagi "Nizom" asosida bajaruvchi, va litsenziyaga ega rasmiy veterinariya vrachi (ishlab chiqarish va idoraviy veterinariya xizmatlari yoki xususiy veterinariya vrachi) _____, boshqa tomondan quyidagi shartnomani imzoladilar

1. Shartnomaning mavzusi

1.1. Ushbu shartnomaga asosan tuman (shahar) bosh davlat veterinariya inspektori veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini rasmiy veterinariya vrachiga topshirishni o'z zimmasiga oladi, litsenziyaga va sertifikatga ega rasmiy veterinariya vrachi bu shartnomada belgilangan tartibda veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini qabul qiladi.

1.2. Muayyan davlat vakolatlarini o'tkazish _____ 202_yilda "Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirish to'g'risidagi Nizom" asosida amalga oshiriladi

2. Vakolatlarni o'tkazish tartibi, muddatlari va bekor qilinishi

2.1. Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlari ushbu shartnoma imzolangan paytdan boshlab topshiriladi.

2.2. Shartnoma 1 (bir) kalendar yil davomida amal qiladi.

2.3. Veterinariya sohasidagi topshirilgan ayrim davlat vakolatlari doirasidagi faoliyatni amalga oshirish quyidagi hollarda tugatiladi:

a) veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirishi to'g'risidagi shartnomaning amal qilish muddati tugashi;

b) sud qarori bilan;

v) rasmiy veterinariya vrachi veterinariya qoidalarini yoki lavozim ko'rsatmalarini hamda ushbu shartnomada belgilangan tartibda va shartlari

bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni buzganlik uchun tuman (shahar) bosh veterinar inspektorining qarori bilan;

d) rasmiy veterinariya vrachning veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirishi to'g'risidagi shartnomani shartnomada belgilangan tartibda va shartlarda bajarishdan bosh tortishi.

Shu bilan birga, shartnomani bajarishdan bosh tortgan tomon boshqa tomonni yozma ravishda 30 (o'ttiz) kun oldin xabardor qilishi shart.

2.4. Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlari tuman (shahar) bosh veterinariya inspektori tomonidan rasmiy veterinariya vrachining harakatsizlik, no'noq ish, yoki o'z funksional vazifalarini bajarmaslik, yoki salbiy xususiyatlarga ega bo'lgan fuqarolar tomonidan murojaatlari asosida veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirishi to'g'risidagi shartnomani muddatdan oldin bekor qilinish mumkin.

2.5. Tuman (shahar) veterinariya bo'limining mas'ul xodimlari rasmiy veterinariya vrachlar bilan hayvonlarni sotish va boshqa harakatlari uchun ruxsatnomalar berishni yozma ravishda (masalan, elektron pochta orqali) muvofiqlashtirishlari shart.

3. Nazorat qilish

3.1. Rasmiy veterinariya vrachlarining faoliyati ustidan nazorat qilish tuman (shahar) Bosh davlat veterinariya inspektori tomonidan shaxsan yoki bunga mas'ul xodimlar orqali amalga oshiriladi.

3.2. Tuman (shahar) Bosh davlat veterinariya inspektori quyidagilar ustidan tizimli nazoratni olib boradi:

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan epizootiyaga qarshi chora-tadbirlar rejalari (shu jumladan, odamlar va hayvonlar uchun umumiy kasalliklarni oldini olish va bartaraf etish chora-tadbirlari);

hayvonlarning yuqumli va ommaviy yuqumsiz kasalliklarini oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi hududini xorijiy mamlakatlardan hayvonlarning yuqumli kasalliklarini keltirishdan muhofaza qilish;

chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va sotish, O'zbekistonga olib kirish, uning hududi orqali tranzit qilish va davlat veterinariya nazorati ostidagi tovarlarni eksport qilish, veterinariya dori-darmonlari va texnik vositalarni veterinariya maqsadlarida ishlatish va

sotishda veterinariya va veterinariya-sanitariya qoidalari va normalar bajarilishi;

chorvachilik majmualari, parrandachilik xo'jaliklari, go'shtni qayta ishlash kombinalari, chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va saqlash bo'yicha boshqa korxonalarni loyihalashtirish, qurish va rekonstruksiya qilishda, dehqon xo'jaliklari va fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo'jaliklarini tashkil etishda veterinariya-sanitariya qoida va normalariga rioya qilinishi;

hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish va joyini o'zgartirish, hayvonlar pasportini berish vaqtida veterinariya va veterinariya-sanitariya talablari va normalariga rioya qilinishi;

veterinariya normalari va kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlari va xom ashyoning veterinariya xavfsizligiga rioya qilish bo'yicha veterinariya-sanitariya ekspertizasi qoidalari, ularni sotib olish, ishlab chiqarishga tayyorlash, ishlab chiqarish, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, saqlash, tashish, yetkazib berish va sotish bajarilishi;

milliy xavfsizlik xizmati, jazoni ijro etish sohasida, Mudofaa va ichki ishlar vazirliklari tasarrufidagi ob'ektlarda ishlatiladigan hamda dehqon bozorlarida sotiladigan o'simlik, ozuqa va ozuqa qo'shimchalarini veterinariya-sanitariya ekspertizasini o'tkazilishi;

ma'muriy hududdagi barcha veterinariya dori-darmonlari, ozuqa va ozuqa qo'shimchalarini ishlab chiqarish va import qilish, saqlash va tashish, reklama qilish, sotish, ulardan foydalanish va yo'q qilinishi;

hayvon mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va sotish, davlat veterinariya nazorat ostidagi tovarlarni olib kirish va eksport qilishda veterinariya va veterinariya-sanitariya qoida va normalariga rioya qilinishi;

hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish va ularning joyini o'zgartirishi bo'yicha veterinariya va veterinariya-sanitariya talablarini amalga oshirilishi.

4. Tuman (shahar) bosh davlat veterinariya inspektorining vazifalari, huquq va majburiyatlari

4.1. Tuman (shahar) davlat veterinariya inspeksiyasining vazifalari:

a) veterinariya sohasida topshirilgan ayrim davlat vakolatlarini xususiy veterinariya vrachlari tomonidan amalga oshirilishini, shuningdek

shu maqsadda taqdim etilgan mablag'lar, vaksinalar, zardoblar, asbob-uskunalar, instrumentlar, identifikatsiya vositalari va boshqalardan foydalanishi ustidan nazorat qilish;

b) rasmiy veterinariya vrachlaridan veterinariya sohasidagi topshirilgan ayrim davlat vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq ma'lumotlar, materiallar va boshqa hujjatlarni talab qilish;

v) veterinariya sohasidagi topshirilgan ayrim davlat vakolatlarining bajarilishi natijalari bo'yicha rasmiy veterinariya vrachlari uchun belgilangan shakldagi bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarni qabul qilish;

g) veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirilishi to'g'risidagi shartnomani o'rnatilgan tartib asosida muddatdan oldin bekor qilish;

d) veterinariya sohasidagi topshirilgan ayrim davlat vakolatlarini amalga oshirishini ta'minlashga mo'ljallangan veterinariya dori-darmonlari, asbob-uskunalari, instrumentlari, identifikatsiya vositalari va boshqalarni o'z vaqtida va to'liq ta'minlash;

e) veterinariya sohasidagi topshirilgan ayrim davlat vakolatlarini amalga oshirish uchun rasmiy veterinariya vrachlarni zarur bo'lgan uslubiy, tashkiliy, maslahat, huquqiy va texnik yordamlar ko'rsatish;

j) zarur hollarda veterinariya sohasidagi topshirilgan ayrim davlat vakolatlarini rasmiy veterinariya vrachlari tomonidan amalga oshirish doirasida ayrim veterinariya-sanitariya tadbirlarini moliyalashtirish;

z) veterinariya sohasidagi topshirilgan ayrim davlat vakolatlarini bajarishi uchun shartnoma asosida rasmiy veterinariya vrachlarining malakasini oshirish maqsadida uzluksiz kasbiy tayyorgarlikni tashkil etish;

k) veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirilishi to'g'risidagi shartnomani 1 yildan 3 yilgacha yoki undan ortiq muddatga uzaytirish.

5. Veterinariya sohasidagi topshirilgan ayrim vakolatlar bajarilishi

5.1. Litsenziyaga ega va sertifikati bor rasmiy veterinariya vrachi:

5.1.1. Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish, hayvonning pasportini berish, keyinchalik operator yordamida pasportdagi ma'lumotlarni axborot tizimiga (yagona ma'lumotlar bazasiga) kiritish bilan ro'yxatdan o'tkazadi. Hayvonlar quydagicha belgilanishi mumkin:

a) hayvonning bir yoki ikkala qulog'iga birka biriktirish orqali. Biriktirilgan birka hayvonning butun hayoti davomida olib tashlanmaydi. Agar birkalar hayvonning ikkala qulog'iga biriktirilgan bo'lsa – unda bir xil identifikatsiya raqami ko'rsatiladi. Bu usul yirik va mayda shoxli mol, tuyalar va cho'chqalarni belgilashda qo'llaniladi;

b) ot va eshaklarni tamg'a bosish usuli;

v) it va mushuklar bo'yinbog'iga nishon (jeton)ni biriktirish orqali;

g) chipni tananing ma'lum bir qismiga yoki qulog'iga biriktirilgan birkaga kiritish orqali barcha turdagi hayvonlarni belgilash mumkin;

d) hayvonning egasi(lari) va hayvonga oid ma'lumotlar, urug'lantirish va nasl to'g'risida ma'lumotlar, homiladorlik taqvim va amalga oshirilgan profilaktik va davolash tadbirlari, shuningdek, hayvonning harakatlanishi, so'yilishi yoki o'limi to'g'risida ma'lumotlar hayvonning pasportiga kiritiladi;

5.1.2. Tumanga (shaharga) kirgan yoki undan chiqib ketgan qoramollar, otlar va boshqa yirik hayvonlarni klinik tekshirishi va termometriyasini o'tkazadi, o'z ixtiyoriga ko'ra kichik hayvonlarning tanlab termometriyasini o'tkazadi, shuningdek, zarur bo'lganda diagnostika, shu jumladan laboratoriya tekshiruvlari, begona tashkilotlarni (laboratoriyalar, markazlar va boshqalar) jalb etadi;

5.1.3. Hayvonlarning profilaktik emlashlarini olib boradi va shu bilan birga hayvon egalariga kasalliklar va davolash, hayvonlarni sun'iy yoki tabiiy vositalar bilan urug'lantirish, shuningdek umuman veterinariya tibbiyoti va chorvachilik bilan bog'liq boshqa masalalar bo'yicha maslahat beradi.

5.1.4. Hayvonlarda yuqumli kasalliklar mavjudligiga shubha tug'ilgan taqdirda darhol tuman (shahar) davlat veterinariya bo'limi mutaxassislariga xabar beradi va ushbu kasallikni mahalliyashtirish bo'yicha zudlik bilan chora-tadbirlar ko'radi.

5.1.5. Epizootik holat yuz berganligi tasdiqlangan taqdirda tuman (shahar) davlat veterinariya bo'limi mas'ul xodimlarining ko'rsatmalari yoki bevosita nazorati ostida tegishli epizootik chora-tadbirlarni o'tkazadi.

5.1.6. O'z vaqtida tuman (shahar) davlat veterinariya bo'limi mas'ul xodimlariga ushbu shartnomaga asosan topshirilgan ish joylaridagi barcha

qonunbuzarliklar yoki g'ayritabiiy holatlar yuzasidan monitoring natijalari to'g'risida ma'lumot beradi, ya'ni:

a) kelib chiqishi hayvonotga mansub maxsulotlar va xom ashyosini hamda xayvonlarning joyi o'zgarish jarayoni;

b) kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlari va xom ashyosini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va sotishda veterinariya va veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya qilishi;

v) odamlar va hayvonlar sog'ligi xavfsizligini ta'minlash maqsadida ozuqa va ozuqa qo'shimchalaridagi normativ veterinariya-sanitariya ko'rsatkichlari, xususiyatlari va zararli omillarga rioya qilish;

g) mahsulot va xayvon xom ashyosining veterinariya xavfsizligi bo'yicha veterinariya normalari va veterinariya-sanitariya ekspertizasi qoidalari, ularni sotib olish, ishlab chiqarishga tayyorlash, ishlab chiqarish, saqlash, tashish, yetkazib berish va sotish shartlarini bajarishi;

d) hayvonlarni saqlash, oziqlantirish va sug'orishda veterinariya qonunchiligining buzilishi;

e) hayvonlarni nazoratsiz (masalan, hovlida) so'yish, bunday hayvonlarni go'sht mahsulotlarini sotish uchun yuborish;

j) zarur hollarda veterinariya-sanitariya jihatidan noqulay bo'lgan hayvonlarni, kelib chiqishi xayvonotga mansub mahsulotlarni va xom ashyoni, ozuqa va ozuqa qo'shimchalarini to'xtatish va izolyatsiya qilish, zararsizlantirish yoki yo'q qilish choralarini ko'rish.

5.2. Rasmiy veterinariya vrachi quyidagi huquqlarga ega:

a) veterinariya sohasida topshirilgan ayrim davlat vakolatlarini amalga oshirish uchun tuman (shahar) davlat veterinariya inspeksiya bo'limidan uslubiy, tashkiliy, maslahat va boshqa yordam, shuningdek zarur hujjatlarni olish;

b) veterinariya sohasidagi topshirilgan ayrim davlat vakolatlarini amalga oshirish uchun tuman (shahar) davlat veterinariya inspeksiya bo'limidan shartnomada ko'rsatilgan veterinariya dori-darmonlari, asbob-uskunalar, instrumentlar, identifikatsiya vositalari va ajratilgan mablag'larni o'z vaqtida va to'liq ta'minlashni talab qilish;

v) mahalliy fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar bilan birgalikda cheklovchi va karantin tadbirlarini, shuningdek, davlat budjetidan mablag' ko'zda tutilgan yoki

ko'zda tutilmagan kasalliklarga qarshi hayvonlarni profilaktik emlash, tashxis qo'yish va davolash;

g) tuman (shahar) veterinariya inspeksiyasi bo'limi bilan hayvonlarni, chorvachilik mahsulotlarni va xom ashyolarni sotish yoki boshqa harakatlanish uchun ruxsatnoma berishni yozma ravishda kelishish;

d) veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirish to'g'risidagi shartnomani ushbu shartnomada nazarda tutilgan hollarda muddatidan oldin bekor qilish.

5.3. Rasmiy veterinariya vrachining vazifalari:

a) har oyda, keyingi oyning 5- kunidan kechiktirmay tuman (shahar) davlat veterinariya inspeksiya bo'limiga veterinariya sohasidagi topshirilgan ayrim davlat vakolatlarini amalga oshirish natijalari to'g'risidagi hisobotlarni taqdim etish;

b) veterinariya sohasidagi topshirilgan ayrim davlat vakolatlarini bajarish uchun berilgan barcha veterinariya dori-darmonlari, asbob-uskunalar va vositalaridan maqsadli foydalanilishini ta'minlash;

v) hayvonlarning o'ta xavfli kasalliklariga shubha bo'lsa yoki aniqlanganda tuman (shahar) davlat veterinariya bo'limiga zudlik bilan xabar berish;

g) agar hayvon identifikatsiya qilanmasa yoki hayvon har qanday yuqumli kasalliklar manbai ekanligi aniqlanmagan bo'lsa, o'z ehtiyojlari uchun so'yish uchun ruxsat berishni istisno qilish;

d) chorvachilik xom ashyosi va mahsulotlarining kelib chiqishi, podalar va alohida hayvonlar uchun yuqori sifatli veterinariya xizmatlari haqidagi ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlash, shu chorvachilik mahsulotlaridan va xom ashyosidan olingan mahsulotlar va xom ashyosi ichki va jahon bozorlarida raqobatbardosh bo'lishini ta'minlash;

e) hayvonlar, shuningdek kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlari va xom ashyosini joyini o'zgartirishni nazorat qilish;

j) tegishli malaka oshirish va o'quv kurslarida, seminarlarda va hokazolarda o'qish orqali doimiy ravishda o'z malakalarini oshirish.

5.4. Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlari topshirilishi to'g'risidagi shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda xususiy veterinariya vrachi unga topshirilgan vakolatlarni bajarish uchun lekin

foydalanilmagan veterinariya dori-darmonlar va boshqa mol-mulkn tuman (shahar) davlat veterinariya bo'limiga qaytarib beradi.

5.5. Rasmiy veterinariya vrachi tegishlicha javobgar:

a) tuzilgan shartnoma doirasida unga topshirilgan mol-mulkning xavfsizligi, foydalanilgan mol-mulkn o'z vaqtida hisobdan chiqarish, veterinariya dori-darmonlarini to'g'ri ishlatish yoki yo'q qilish, oziq-ovqat uchun yaroqsiz va veterinariya-sanitariya ekspertizasi paytida rad etilgan qoldiqlar, jasadlar, buzilgan mahsulotlar va boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulknini saqlanishini nazorat qilish;

b) veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirish to'g'risidagi shartnomani muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda rasmiy veterinariya vrachi veterinariya sohasidagi topshirilgan ayrim davlat vakolatlarini ijro etish uchun unga berilgan lekin foydalanilmagan veterinariya dori-darmonlari va boshqa mol-mulkn o'z vaqtida va to'liq tuman (shahar) davlat veterinariya boshqarmasiga qaytarish uchun.

6. Tomonlarning javobgarligi

6.1. Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirish to'g'risida tuzilgan shartnomada ko'zda tuzilgan majburiyatlarning bajarmasligi yoki kerak bo'lgan darajada bajarmaganligi uchun Tomonlar O'zbekistonning amaldagi qonunchiligiga muvofiq o'zaro javobgarlikni o'z zimmalariga oladilar. Ushbu shartnomaning mazmuni va talqini O'zbekiston qonunlariga muvofiq belgilanadi.

6.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki kerak bo'lgan darajada bajarmaganlik uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining shartnoma va amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

7. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Ushbu shartnoma shartlarini bajarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizo va kelishmovchiliklari Tomonlar muzokaralar yo'li bilan hal qilishadi. Agar ularni muzokaralar yo'li bilan amalga oshirish mumkin bo'lmasa, nizolar va kelishmovchiliklar suddan oldin tartibda da'voni yuborish yo'li bilan hal etilishi kerak (majburiy da'vo qilish tartibi). Da'vo yozma ravishda tuziladi va pochta orqali tomonlardan biriga yetkazib berish to'g'risidagi bildirishnoma va ilova

inventar ro'yxati bilan qimmatli xat sifatida yuboriladi. Da'voda ko'rsatilgan talab sudga taqdim etuvchi taraf da'voni boshqa taraf tomonidan qanoatlantirishni rad etgan yoki da'vo topshirilgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kun ichida javob olmagan taqdirda sudga berilishi mumkin.

7.2. Tomonlarning ushbu shartnomaning 7.1. bandiga muvofiq hal etilmagan nizolari hal qilish uchun O'zbekiston Respublikasining tegishli sudiga o'tkaziladi.

8. Yakuniy qoidalar

8.1. Shartnoma teng yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuziladi.

8.2. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha masalalarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

Davlat veterinariya inspektorlari uchun forma va farqlovchi belgilarni kiyish qoidalari

I. Asosiy qoidalar

1. O‘zbekiston Respublikasi davlat veterinariya inspektorlari uchun forma va farqlovchi belgilarni kiyish ushbu qoidalar "O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari va tashkilotlarining formali kiyimini ishlab chiqish, standartlashtirish, tasdiqlash va tayyorlash mexanizmini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2017 yil 27 fevraldagi PQ-2800-sonli qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasi davlat veterinariya inspektorlarining yagona formasini yaratish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Davlat veterinariya inspektorlari (bundan buyon matnda Inspektorlar) forma va farqlovchi belgilarni kiyish huquqiga ega, forma va farqlovchi belgilarning barcha buyumlari belgilangan namunalar va tavsiflarga javob berishi, sinchiklab to‘g‘ri keltirilgan bo‘lishi kerak va benuqson holatda saqlanib kiyinishi kerak.

3. Inspektorlarning forma kiyimi quyidagicha bo‘ladi:

paradnaya forma kiyimi;

har kungi forma kiyimi;

dala forma kiyimi.

4. Inspektorlarning formasi kiyiladi:

4.1. Paradnaya forma kiyimi quyidagi paytlarda kiyiladi:

davlat mukofotlarini olishda;

bayramlarda;

tantanali yoki yubiley uchrashuvlarida;

rasmiy qabullarda.

Ta’tilda hamda dam olish kunlarida tantanali forma kiyimni kiyishga ruxsat beriladi. Shu bilan birga, pidjak orden va medallar, shuningdek ko‘krak va boshqa farqlovchi belgilar bilan kiyiladi.

4.2. Har kungi forma kiyim – ularning vazifalarini bajarishda, pidjak esa farqlovchi belgilar va, bo‘lsa orden yoki medal bilan kiyiladi.

4.3. Dala forma kiyim – maxsus sharoitlarda o‘z vazifalarini bajarishda.

5. Quydagilar taqiqlanadi:

norasmiy forma kiyim va noma'lum farqlovchi belgilardan foydalanish;

inspektorlar uchun mo'ljallanmagan farqlovchi belgilar, ko'krak nishoni, tugmalar va taqdim etilmagan boshqa narsalar;

nomuvofiq shaxslar tomonidan forma kiyimini kiyish;

yozgi va qishki forma kiyimlarning predmetlarini, shuningdek, forma kiyimlarini fuqarolik kiyimlar bilan aralashtirish.

II. Yozgi har kungi forma kiyimi

6. Erkaklar forma kiyimlari:

a) kokardali va uning ostida oltin o'rilgan bog'ichli to'q ko'k rangli kepi;

b) ochiq ko'k rangli, yenglari kalta, ko'ksida tugmalari va belgilari, shevron va ko'kragiga cho'ntaklari bilan, shuningdek yoqalariga tugmachalari bor ko'ylak;

v) yashil rangli yon choklarda qirrali to'q ko'k rangli shim;

g) shim kamari;

d) qora charm poyabzal.

7. Ayollar forma kiyimlari:

a) kokardali va uning ostida oltin o'rilgan bog'ichli to'q ko'k rangli ayollar shlyapasi;

b) ochiq ko'k rangli, yenglari kalta, ko'ksida tugmalari va belgilari, shevron va ko'kragiga cho'ntaklari bilan, shuningdek yoqalariga tugmachalari bor bluzka;

v) to'q ko'k rangli yubka;

g) ko'k kamar;

d) qora charm tufli.

III. Kuzgi-bahorgi har kungi forma kiyimlar

8. Erkaklar forma kiyimlari:

a) kokardali va uning ostida oltin o'rilgan bog'ichli to'q ko'k rangli kepi;

b) uzun yengli ochiq ko'k rangli, ko'ksida tugmalari va belgilari, shevron va ko'kragida cho'ntaklari bilan, shuningdek yoqalarida tugmachalari bor ko'ylak;

v) to'q ko'k regat galstuk, veterinariya gerbi bilan oltin nurli qisqich;

g) qisqartirilgan, yengil, yonlarida cho'ntaklar va ko'krak nishoni, shevron, shuningdek yoqalardagi petlitsalar bilan to'q ko'k rangli kurtka;

d) yashil rangli yon choklarda qirrali to'q ko'k rangli shim;

e) to'q rangli charm shim kamar va qo'lqoplar;

j) qora charm tufli.

9. Ayollar forma kiyimlari:

a) kokardali va uning ostida oltin o'rilgan bog'ichli to'q ko'k rangli ayollar shlyapasi;

b) uzun yengli ochiq ko'k rangli, ko'ksida tugmalari va belgilari, shevron va ko'kragida cho'ntaklari bilan, shuningdek yoqalariga tugmachalari bor bluzka;

v) to'q ko'k regat galstuk;

g) tugmalari bilan to'q ko'k rangli, yon tomonlarida cho'ntaklari va ko'krak nishoni, shevron, shuningdek yoqalarida tugmachalar bor kostyum;

d) ko'k kamar va qora rangli qo'lqop bilan to'q ko'k rangli yubka;

e) yashil rangli yon choklarda qirrali to'q ko'k rangli shim;

j) qora charm tufli.

IV. Qishki har kunli forma kiyimi

10. Erkaklar forma kiyimlari:

a) kokardali quloqchin telpak va quyuc ko'k rangli mo'ynali sharf;

b) uzun yengli ochiq ko'k rangli, ko'ksida tugmalari va belgilari, shevron va ko'kragida cho'ntaklari bilan, shuningdek yoqalarida tugmachalari bor ko'ylak;

v) to'q ko'k regat galstuk, veterinariya emblemasiga ega oltin rangli galstuk qisqichi;

g) to'q ko'k rangli, qisqartirilgan, yengil, yon tomonlarida cho'ntaklar, shevron va boshqa belgilar, shuningdek yoqalarida tugmachalari bor kurtka;

d) to'q ko'k rangli yon choklarida yashil qirrali issiq shim;

b) uzun yengli ochiq ko'k rangli, ko'ksida tugmalari va belgilari, shevron va ko'kragida cho'ntaklari bilan, shuningdek yoqalarida tugmachalari bor ko'ylak;

v) to'q ko'k regat galstuk, veterinariya gerbi bilan oltin nurli qisqich;

g) qisqartirilgan, yengil, yonlarida cho'ntaklar va ko'krak nishoni, shevron, shuningdek yoqalardagi petlitsalar bilan to'q ko'k rangli kurtka;

d) yashil rangli yon choklarda qirrali to'q ko'k rangli shim;

e) to'q rangli charm shim kamar va qo'lqoplar;

j) qora charm tufli.

9. Ayollar forma kiyimlari:

a) kokardali va uning ostida oltin o'rilgan bog'ichli to'q ko'k rangli ayollar shlyapasi;

b) uzun yengli ochiq ko'k rangli, ko'ksida tugmalari va belgilari, shevron va ko'kragida cho'ntaklari bilan, shuningdek yoqalariga tugmachalari bor bluzka;

v) to'q ko'k regat galstuk;

g) tugmalari bilan to'q ko'k rangli, yon tomonlarida cho'ntaklari va ko'krak nishoni, shevron, shuningdek yoqalarida tugmachalar bor kostyum;

d) ko'k kamar va qora rangli qo'lqop bilan to'q ko'k rangli yubka;

e) yashil rangli yon choklarda qirrali to'q ko'k rangli shim;

j) qora charm tufli.

IV. Qishki har kunli forma kiyimi

10. Erkaklar forma kiyimlari:

a) kokardali quloqchin telpak va quyuc ko'k rangli mo'ynali sharf;

b) uzun yengli ochiq ko'k rangli, ko'ksida tugmalari va belgilari, shevron va ko'kragida cho'ntaklari bilan, shuningdek yoqalarida tugmachalari bor ko'ylak;

v) to'q ko'k regat galstuk, veterinariya emblemasiga ega oltin rangli galstuk qisqichi;

g) to'q ko'k rangli, qisqartirilgan, yengil, yon tomonlarida cho'ntaklar, shevron va boshqa belgilar, shuningdek yoqalarida tugmachalari bor kurtka;

d) to'q ko'k rangli yon choklarida yashil qirrali issiq shim;

e) shim kamari va issiq qora rangli qo'lqop;

j) qora rangli issiq botinka yoki yarim etik.

11. Ayollar forma kiyimlari:

a) kokardali quloqchinli telpak va quyuq ko'k rangli muynali sharf;

b) uzun yengli ochiq ko'k rangli, ko'ksida tugmalari va belgilari, shevron va ko'kragida cho'ntaklari bilan, shuningdek yoqalarida tugmachalari bor bluzka;

v) to'q ko'k regat galstuk;

g) to'q ko'k rangli, qisqartirilgan, yengil, yon tomonlarida cho'ntaklar, shevron va boshqa belgilar, shuningdek yoqalarida tugmachalari bor kurtka;

d) to'q ko'k rangli yon choklarda yashil qirrali issiq shim;

e) qora rangli charm yarim etik.

V. Paradnaya forma kiyim

12. Erkaklar forma kiyimlar:

a) kokardali va uning ostida oltin o'rilgan bog'ichli to'q ko'k rangli furajka;

b) uzun yengli ochiq ko'k rangli, ko'ksida tugmalari va belgilari, shevron va ko'kragida cho'ntaklari bilan, shuningdek yoqalarida petlitsalar bor ko'yлак;

v) oltin rangli qisqichli to'q ko'k regat galstuk;

g) yon va ko'kragning chap tomonida cho'ntaklari bor to'q ko'k rangli, yoqasida petlitsalari bor, shevron nishonli pidjak;

d) yashil rangli yon choklarda qirrali to'q ko'k rangli shim;

e) oq rangli charm shim kamari va qo'lqoplari;

j) qora rangli charm tufli.

13. Ayollar forma kiyimlari:

a) kokardali va uning ostida oltin o'rilgan bog'ichli to'q ko'k ayollar shlyapasi;

b) uzun yengli ochiq ko'k rangli, ko'ksida tugmalari va belgilari, shevron va ko'kragida cho'ntaklari bilan, shuningdek yoqalarida petlitsalar bor bluzka;

v) to'q ko'k regata galstuk;

- g) yon va ko'kragning chap tomonida cho'ntaklari bor to'q ko'k rangli, yoqasida petlitsalari bor, shevron nishonli pidjak;
- d) ko'k kamar va oq charm qo'lqop bilan to'q ko'k yubka;
- e) qora rangli charm tufli.

VI. Dala forma kiyimi

14. Erkaklar va ayollar forma kiyimlari:

- a) erkaklar va ayollar uchun kamuflyaj kepillari;
- b) ko'krak va yon tomonlardagi cho'ntaklar bor qisqartirilgan, yengil, shevronlar bor erkaklar va ayollar kamuflyaj kurtka;
- v) erkaklar va ayollar kamuflyaj shimi;
- d) shim kamari;
- e) to'q rangli charm yarim etik yoki botinka.

VII. Forma kiyimlarning farqlash belgilari

15. Kokarda.

Bosh kiyim uchun kokarda O'zbekiston Respublikasi gerb tasviri tushirilgan oltin rangli yengil metallardan tayyorlanadi. Undagi markaziy figura qanotlari yoyilgan va ko'tarilgan kumush Humo qushidir. Yuqori qismida sakkizburchak yulduz O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida tashkil etilganidan dalolat beradi.

Pastki qismda O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i tasvirlangan.

Kompozitsion tuzilishi 3,5 sm vertikal bo'yicha 3 sm gorizontaal bo'yicha o'lchaydigan bo'rtib chiqqan tuxumsimon shaklida, eman shoxlari bilan bezatilgan – jasorat, shon-sharaf, jasorat va kuchning ramzini bildiradi.

Teskari tomonga har biri 2,5 sm li ikkita metall g'udurlar o'rnatilib, ular yordamida kokarda qepi, telpak, furajka va ayollar shlyapasining markaziga o'rnatiladi. Kokadning markazi burun ko'prigining ustida bo'lishi kerak.

16. Shevronlar.

Forma kiyimning chap yengiga (yengi chokidan 120 mm masofada) diametri 90 mm bo'lgan doira shakliga shevron tikib qo'yiladi. Doira ichida davlat ramzlari fonda bayroq shaklida va oldingi o'rinda

O'zbekiston Respublikasi gerbi ko'rinishida tasvirlangan. Bayroqning yuqori qismida oq rangdagi qora fonda aylanma shaklida gerbning ustida lotin grafikasining oq harflarida, to'g'ri shriftda "O'ZBEKISTON", pastda esa "DAVVETNAZORATI" degan yozuv bor.

Formaning o'ng yengiga (yengi chokidan 120 mm masofada) 100x80 mm o'lchaydigan kontur qalqon shakliga ega bo'lgan shevron joylashtiriladi.

Shevronning ichida qalqon, qalqon ichida sakkiz qirrali yulduz yoki oktagramma bo'lib, u tartibni, yaratishni va muvozanatni anglatadi, ko'k ilon bilan kosaning emblemasi asosiy veterinariya ramzi bo'lib, kosa tibbiyotni anglatadi va ilon kasalliklardan donolik va himoya qilish, shifo va boqiylikni anglatadi. Oq rang fikrlarning sofligini va veterinar kasbining olijanobligini ko'rsatadi va ko'k fon osmonning ko'kligini ta'kidlaydi.

Qalqonning yuqorisida lotin yozuvidagi harflarda, to'g'ri shriftida "DAVLAT VETERINARIYA NAZORATI" degan yozuv bo'ladi.

Shevronlar polotnoga tikib tayyorlanadi. Shevronlar polotnosining rangi qora.

17. Tugmalari.

Oltin rangi, jezdan qilingan, diametri 13,0 mm ga 22,0 mm bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi markazida relief tasviri tushirilgan metall tugmalar.

18. Daraja belgilari bo'lgan petlitsalar.

Teshiklar 3.5 x 9 sm o'lchamdagi zich yumshoq matolardan yasalgan bo'lib, ularga oltin rangli qirralar va bo'shliqlar o'rnatilgan bo'lib, ularga veterinariya emblemasi va oltin rangli sakkiz burchakli yulduzlar o'rnatiladi.

Bunda kattaligi 22 mm yulduzlar qizil matoga zar ip bilan kashta tikiladi va 18 mm o'lchamdagi yulduzlar metall yoki plastmassadan oltin rangda tayyorlanadi va to'q ko'k rangli matoga mahkamlanadi.

Dala forma kiyimida kamuflyajli fonli tugmachalar va qoramtir yulduzlarga ruxsat beriladi.

Daraja belgilar O'zbekiston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitaning inspektorlarini egallab turgan lavozimiga ko'ra aniqlaydi va quyidagi tavsifga mos keladi:

O‘zR Bosh davlat veterinariya inspektori;	- 22 mm bo‘lgan uch yulduz bo‘shliqlarsiz;
O‘zR Bosh davlat veterinariya inspektorining birinchi o‘rinbosari;	- 22 mm bo‘lgan ikki yulduz bo‘shliqlarsiz;
O‘zR Bosh davlat veterinariya inspektorining o‘rinbosari;	- 22 mm bo‘lgan bir yulduz bo‘shliqlarsiz;
davlat veterinariya nazorati boshqarmasining boshlig‘i va Davlat chegarasi va transportida davlat veterinariya nazorat boshqarmasi boshlig‘i	- 22 mm bo‘lgan bir yulduz bir paralel bo‘shliq bilan
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh davlat veterinariya inspektorlari, Davlat chegarasi va transportida davlat veterinariya nazorat boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari	- 18 mm bo‘lgan uch yulduz ikki paralel bo‘shliq bilan
tuman (shahar) bosh davlat veterinariya inspektorlari, chegara va transport davlat veterinariya inspektorlari;	- 18 mm bo‘lgan bir yulduz ikki paralel bo‘shliq bilan
veterinariya uchastkalarining va bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyalarining mudirlari – davlat veterinariya inspektorlari	- yulduzsiz bo‘lgan bir paralel bo‘shliq bilan

Eslatma. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.06.2018 y. PQ-3788-son "O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari va tashkilotlarining formal kiyimini ishlab chiqish, standartlashtirish, tasdiqlash va tayyorlash mexanizmini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2017 yil 27 fevraldagi PQ-2800-sonli qaroriga qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida"gi Qarori bilan O‘simliklar karantini davlat inspektorlari forma kiyimi bilan ta‘minlandilar.

I-qismga xulosalar.

Davlat veterinariya nazoratini tartibga soluvchi taklif etilgan me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi va ularni amaliyotga joriy etilishi hayvonlar kasallanishining va veterinariya qonunchiligining buzilishini kamayishiga olib keladi. Davlat veterinariya nazoratining mustahkamlanishi chorvachilik korxonalarining veterinariya-sanitariya holatini yaxshilash, shaharlarni o'ta xavfli hayvon kasalliklar bo'yicha osoyishtaligini ta'minlash, aholiga yuqori sifatli chorvachilik mahsulotlarini sotish imkonini beradi.

XEB Kodeksning 3.4.3., 3.4.4. va 3.4.5. moddalari veterinariya qonunchiligini yaratish va uni ishlashi, o'z vazifalarini bajaradigan inspektorlarning jismoniy va huquqiy himoyasi, qonunchilikka muvofiq kamida quyidagi vakolatlarni berish haqida: 1) ko'rik uchun binolar va transport vositalariga kirish huquqi; 2) hujjatlarni ko'rish huquqi; 3) namunalar olish huquqi; 4) hayvonlar yoki tovarlarni vaqtincha to'xtatish huquqi; 5) hayvonlarni, tovarlarni va oziq-ovqat mahsulotlarini ma'muriy begonalashtirish huquqi; 6) inspeksiya o'tkazilgan muassasaning bir yoki bir necha faoliyat turlarini to'liq yoki qisman to'xtatish huquqi; 7) inspeksiya o'tkazilgan muassasani yopish huquqi. Ko'rsatilgan vakolatlar tegishli qaror bilan belgilanadi, chunki ular asosiy qonunlarda fuqarolarning ayrim huquqlarini buzilishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, veterinariya qonunchiligida Qo'mitaning ayrim vakolatlarni topshirish imkoni bo'lishi kerak. Ayrim vakolatlar topshirishni amalga oshirish uchun oladigan nazorat vakolatlari va shartlari aniq bo'lishi kerak: a) faoliyat doirasini va amalga oshirish uchun topshiriladigan vakolatlarni aniq belgilash; b) tartibga solish, nazorat qilish va agar kerak bo'lsa, o'tkazilgan funksiyalarni bajarish uchun mablag' ajratishni muljallash; v) vazifalarni topshirish qoidalarini aniqlash; g) vakolat oluvchining bilim darajasini aniqlash; d) har qanday funksiyalarni amalga oshirish huquqini bekor qilish shartlarini belgilash.

Davlat veterinariya nazorati murakkab va kompleks vazifa, chunki bu sohadagi munosabatlar juda xilma-xil va ko'p faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Albatta, veterinariya nazoratining barcha jihatlarini tartibga soluvchi bitta normani qabul qilib bo'lmaydi. Bu sohada boshqarishning

yagona yo'li tizimli yondashuv. Uni amalga oshirish – asosiy normalarni (qoidalar, konsepsiyalar, strategiyalar va boshqalarni) qabul qilish orqali amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari, veterinariya sohasidagi tahdidlar transchegaraviy ekanligi tufayli veterinariya rivojlanishi faqat XEB bilan yaqin hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin.

Veterinariya inspeksiyasi davlat veterinariya nazorati (kontroli) bo'yicha vazifalarini to'liq va o'z vaqtida bajara olishi uchun ma'lum shart-sharoitlar yaratish zarur. Avvalo, veterinariya inspeksiyasini tartibga soladigan vakolatlar va mas'uliyatlar bilan O'zbekiston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi tarkibida alohida strukturaga ajratish lozim, chunki qonun hujjatlari doirasida Qo'mitadan to'liq ajratish nazarda tutilmagan. Bu masalani hal qilish uchun normativ-huquqiy hujjatlar XEBning standartlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va bu o'quv qurolida taklif etilgan.

Albatta, taklif etilayotgan normalar Qo'mitaning ilmiy-texnik Kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi, unga zarur qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritiladi.

II-qism. Kirish

2020- yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi 24,8 milliard AQSh dollarini, shu jumladan, o'simlik mahsulotlar yetishtirish – 12,3 milliard AQSh dollari va chorvachilik mahsulotlari – 12,5 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy qiymati 1,5% ga oshgan, bu asosan chorvachilik mahsulotlari tannarxining oshishi bilan bog'liq edi. Asosan o'simlik mahsulotlar eksport qilinadi, chorvachilik mahsulotlar eksportning ulushi juda oz, ya'ni uning deyarli barchasidan mamlakatda foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 martdagi PQ-5017-son qarorida ichki iste'mol bozorini go'sht, sut, tuxum va boshqa chorvachilik mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik ozuqa bazasini kengaytirish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun ilmiy asoslangan usullar va intensiv texnologiyalarni keng joriy etish topshirilgan.

Shu bilan birga, veterinariya-medsina muammolari aholi sog'lig'ini saqlashda ahamiyatli. Bugungi kunda dunyoda hayvonlar va odam uchun umumiy bo'lgan 150 dan ortiq kasalliklar keng tarqalgan. Bu kasalliklar turli tabiatga ega bo'lib, odamlar sog'lig'ini ulardan himoya qilish uchun ularni hayvonlar orasida yo'q qilish kerak. Buning uchun veterinariya va tibbiy xizmat o'rtasida yaqin aloqalarni amalga oshirish bilan bunday kasalliklarning oldini olish bo'yicha ilmiy ishlanmalar veterinariya va tibbiyot olimlarining kompleks dasturida amalga oshirilishi lozim.

Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy islohoti, jahon iqtisodiy integratsiyalashuv kursiga, JST va YeOIIga qo'shilish niyatida hayvon sog'ligi, ozuqa xavfsizligi va hayvon mahsulotlari sohasidagi me'yoriy va uslubiy bazani o'zgartirish va xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish zarurligini belgilaydi.

Afsuski, davlat veterinariya xizmati faoliyatida XEBning yer ustidagi hayvonlari sog'ligi Kodeksida belgilangan standartlar qo'llanilishi ayrim hollarda tizimsiz. Masalan, xavfni baholash va boshqarish, chorvachilik xom ashyo va mahsulotlarni daladan dasturxonga nazorat qilib borishi, hayvonlarni identifikatsiyasi xalqaro talablariga javob bermaydi. Lekin,

aholini xavfsiz chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish uchun sharoit yaratish mas'uliyati davlatdan olib tashlanmagan.

Prezidentning⁹ Farmonida Qishloq xo'jaligi hayvonlarini identifikatsiyalash, ularning harakatini kuzatish va monitoring qilish axborot tizimida qishloq xo'jaligi hayvonlarning ma'lumotlar bazasini hudud bo'yicha shakllantirish hamda Veterinariya-sanitariya jihatidan xavfsizligi kafolatlangan so'yilgan hayvon go'shtlarining yagona elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish va boshqalarni amalga oshirish Qo'mitaga yuklatilgan.

O'zbekiston uchun veterinariya sohasi katta iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, respublika aholisi farovonligini oshirish dasturlarini amalga oshirishga faol hissa qo'shmoqda. Lekin veterinariya qonunchiligida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni qayta ishlashda chorvachilik oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan zamonaviy xalqaro standartlarni qo'llash nazarda tutilmagan. Bu esa bugungi kunda ushbu standartlarni amaliyotda yetarli darajada amalga oshirishga imkon bermaydigan ayrim omillar bilan bog'liq.

Ana shu omillardan biri veterinariya xizmati mutaxassislarining xabardorligi va kasbiy tayyorgarligining pastligi hamda bu sohada o'quv adabiyotlarining yo'qligi va aniq me'yoriy hujjatlar yetishmasligi. Misol uchun, veterinariya xizmati mutaxassislari oziq-ovqat xom ashyosi va mahsulotlarini ishlab chiqarishda HACCP tizimini amalga oshirishda juda kamdan-kam hollarda ishtirok etadilar. Shu bilan birga, ular ushbu mahsulotlarni veterinariya sertifikatini orqali bozorga kirishda asosiy bo'g'in hisoblanadi. Mavjud holat nazorat vazifalarini bajaruvchi veterinariya mutaxassislari, ya'ni veterinariya inspektorlari ishining samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 yanvarda 36-son qarori bilan "Go'sht va go'sht mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha umumiy texnik reglamentlar"ni tasdiqlandi. Uning moddalarini tahlil qilganda bu korxonalarda albatta davlat veterinariya xizmati vakillari ishlashi kerakligi qayd etilmagan. Garchi faqat ular nafaqat xom ashyoni korxonaga olib kirishda, balki qayta ishlash korxonasidan yoki chorvachilik

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son

mahsulotlarining ulgurji savdo korxonasidan mahsulot jo'natishda ham identifikatsiya qilishga qodir.

Xuddi shu holat sut va sut mahsulotlari bilan ishlash korxonalarida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 iyuldagi 474-sonli qarori bilan "Sut va sut mahsulotlarining xavfsizligi bo'yicha umumiy texnik reglamenti" tasdiqlangan. Lekin, veterinariya sohasida bu jarayon veterinariya-sanitariya ko'rik va veterinariya-sanitariya ekspertizasi deb belgilanadi.

Afsuski, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqorida qayd etilgan qarorlarida oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirishda ishlab chiqaruvchi HACCP tamoyillariga asoslangan tartiblarni ishlab chiqishi, amalga oshirishi va yuritishi xavfsizlik talablarini joriy qilish shart emas. HACCP mazmuni barcha mushkul nazorat nuqtalarini aniqlash hamda doimiy va tizimli nazorat ostiga olish, ushbu tizimdan foydalanish ko'p xavflarning oldini olish yoki patogenlarning tarqalishi, kimyoviy, fizik yoki biologik ifloslanishni minimallashtirish imkonini beradi.

Faqat veterinariya mutaxassisi kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyosini ishlab chiqarish, qayta ishlash, shu jumladan chetdan olib kiritilgan, saqlash va sotuvga chiqarishni nazorat qiloladi. Chunki xavfni tahlil qilishga qodir veterinariya mutaxassisi mushkul nazorat nuqtalarini aniqlab, faoliyat jarayonida ularni nazoratga olishi mumkin.

Albatta, bu mutaxassislar veterinariya-sanitariya ekspertizasi va veterinariya tekshiruvi (ya'ni identifikatsiya qoidalari asoslari), bajarilishi shart bo'lgan chora-tadbirlarning (vaksinatsiya, dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya va h.k.) qoida-tartiblari bo'yicha tayyorlangan oliy veterinariya ma'lumoti va yuqori malakaga ega bo'lishi kerak.

Qo'mita xodimlarining ma'naviy mas'uliyati juda yuqori bo'lishi shart, chunki ularning ishi hayvonlar bilan emas, balki odamlar bilan muloqot qilish va ularning farovonligi, kayfiyati va sog'ligi ko'p jihatdan muomilaga bog'liq. Qo'mita xodimlarining ishi qat'iy rasmiylashtirilmaydi va ulardan nafaqat yuqori malakali bo'lish, balki odamlar oldidagi axloqiy burchlarini chuqur anglash talab etiladi. Bu burch axloqiy ehtiyojga aylanishi kerak, chunki veterinariya kasbida umumiy axloqiy talablardan tashqari, axloqning o'ziga xos talablari va me'yorlari mavjud.

I-bo'lim. Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ularni va ulardan olingan mahsulotlarini kuzatib borish

Mamlakat aholisini chorvachilik mahsulotlari bilan to'liq ta'minlash uchun chorva mollarini boqish va urchitish bilan shug'ullanish maqsadga muvofiq. Shunda aholini oziq-ovqat mahsulotlari va dehqonchilikni organik o'g'it bilan ta'minlash mumkin. Garchi tayyor go'sht, sut va go'sht-sut mahsulotlarini import qilish oson.

Chorvachilik mahsulotlari va chiqindilaridan ayrim ozuqalar (go'sht-suyak uni, suyak uni va boshqa mineral va oqsilli moddalar) hamda zardoblar, gormonal preparatlar va boshqa shu kabi dori-darmonlar olinadi.

Odam yovvoyi hayvonlarni ovlash va ularni xonakilashtirish maqsadida qo'lga o'rgatishni neolit davrida, ya'ni bundan 15—10 ming yil, balki undan ham avval boshlagan. Neolit yoki yangi tosh asri insoniyat tarixining bir davri bo'lib, odamlar toshlarni silliqlash (shliflash) va burg'ulash bilan ularni kam-ko'stini tuzatib vositalar sifatida foydalana boshladilar. Arxeologik dalillar odamlar aynan shu davrda hayvonlarni xonakilashtirishni boshlaganlarini ko'rsatadi.

Shuningdek, bu davrda odamlar tosh qurollarga ega bo'lib va olovni qo'lga o'rgatib, sopol idishlardan foydalanishni boshlagan. Ibtidoiy odamning birinchi xonakilashtirilgan hayvoni – it. Bu hind bo'ri eng ko'p it zotlari ajdodi ekanligini isbotlangan: iskovuch it, tozi it, terer barcha turlari. Odamlar va bo'rilar yonma-yon yashab, ular bir tarzda ov qilib ham raqib, ham hamkor bo'ldilar. Bo'ri bolalarni topib olgan ovchilar ularni uyga olib kirib, ularni “yomon kunda” yaraydi deb yashashga qoldirgan. Ammo odam tamaddi qilinadigan go'shtdan tashqari, bo'ri juda yaxshi yordamchi bo'lishi mumkinligini tez tushundi.

Keyingi xonakilashtirilgan hayvon – yovvoyi Yevropa to'ng'izi – u uy cho'chqa barcha zotlari ajdodi bo'ladi. Yovvoyi cho'chqalar ehtiyotkor hayvondir, lekin ba'zan ular bog'da, ekin maydonlarida qazish uchun odamning uyiga tashrif buyurishadi. Ehtimol, yangi tosh davrida ham bo'ri kabi yovvoyi cho'chqalar odamlarning uyiga yaqinlashdilar va ibtidoiy ovchilar yosh cho'chqalarni ham qo'lga o'rgatish mumkinligini taxmin qilishdi.

Kunlardan bir kun ibtidoiy odam echki o'z bolasini sut bilan boqadiganini ko'radi. Ehtimol, sut uchun odamlar emizikli echkini ushlab, o'z manzliga olib kelishgan. Ular echkilarni sog'ib, oziq-ovqat uchun sut yig'a boshladilar. Qo'lga o'rgatilgan echki yovvoyiga nisbatan ko'proq sut berdi, chunki uning bolasi o'sganidan keyin ham sog'ishni davom etdi. Uzoq vaqt davomida sut beradigan yagona hayvon echki bo'lib qoldi.

Uy qo'ylar ham qadimiy tarixga ega. Hozirgi qo'ylarning barcha zotlarning asl ajdodlari Osiyo va O'rta dengiz bo'ylarida yashagan va qo'lga o'rgatilgan hamda xonakilashtirilgan yovvoyi qo'y va arxarlar. Odam, qo'yni qo'lga o'rgatib, hayot uchun zarur bo'lgan barcha narsalarni oldi: yog', go'sht, sut, sut mahsulotlari, kigiz, teri, lanolin, lekin eng muhimi – jun va jun mahsulotlari. Qo'ylar tufayli odamlar cho'l va yarim cho'l hududlarini rivojlantirishga erishdi.

Buqalar va sigirlar – yirik shoxli mollar ham qadimda, lekin ancha keyin xonakilashtirilgan. Yevropa, Osiyo, Afrikada yashagan yovvoyi buqa – turlari o'z kuchi bilan odamlarni o'ziga jalb qildi. Ular barcha YShM zotlarining nasl-nasabiga aylandilar. Buqalar odamdan bir necha marta kuchli va uning yordami bilan yerni ekinlar uchun haydash mumkin edi. Biroq, sigirlar nafaqat buning uchun ishlatilgan, balki odamlarni sut bilan ta'minladi.

Birinchi it va mushuk, qo'y va echki, keyinchalik qoramollar va otlar (7—8 ming yillar ilgari) xonakilashtirilgan. Osiyo va Yevropada qoramollar, ot, qo'y, echki, cho'chqa, quyon, it, parrandalardan o'rdak va g'ozlar, tuyalar, tovuq va tovuslar xonakilashtirilgan. Amerikada o'rkachsiz tuyaning ikki turi — lama va alpaka, dengiz cho'chqasi, kurka va muskus o'rdaklar xonakilashtirilgan.

O'shandan beri odam ularning sifat va son ko'rsatkichlariga ahamiyat berib, hayvonlardan nasl olish va mahsulot yo'nalishlariga qarab yangi zotlar yaratishni boshlagan. O'rta Osiyo, shu jumladan O'zbekiston hududi, chorvachilik dastlab shakllangan hududi hisoblanadi. 1900 yillarda O'zbekistonda ko'chmanchilik bilan bog'liq bo'lgan qo'ychilik, echkichilik, tuyachilik, otchilik, shuningdek, vohalarda (oaziz) yirik shoxli mollarni parvarish ko'proq rivojlandi (masalan, Xorazm vohasida).

Tirik hayvonlarni tang'alach yoki boshqa yo'l bilan belgi qo'yish chorvachilik paydo bo'lgandan boshlandi va erta bosqichda ularni aniqlash yagona parametri: "o'ziniki – boshqaniki" bo'ldi. Bugungi kunda hayvonlarni aniqlash va ularning harakatlarini nazorat qilishi hayvonlar sog'ligi va oziq-ovqat xavfsizligini boshqarishning eng muhim vositalariga kiradi. Rivojlangan mamlakatlarda hayvonlar va hayvonot mahsulotlarini kuzatib borish qonuniy talab hisoblanadi.

Har qanday belgi axborot tizimining bir qismidir va undagi ma'lumotlar ishonchli bo'lishi shart, chunki katta ma'lumotlar qatorlarida noto'g'ri ma'lumotni qidirish va filtrlash uchun ko'p vaqt va mablag' kerak bo'ladi. Bu yo'qotishlarga keyingi bevosita yo'qotishlarni ham qo'shish kerak, chunki noto'g'ri ma'lumotlar asosida (epidemiologik tekshiruv, karantin qo'yish, realizatsiya qilish va boshqa harakatlar paytida) adekvat bo'lmagan qarorga olib kelishi mumkin.

Hayvonlarni identifikatsiya qilish va ro'yxatga olish ularni kuzatib borishini imkoniyatini beradi, bu nafaqat nazorat va xavfsizligini ta'minlash, balki samarali boshqaruv vositasi ham. Veterinariya chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlar davlat ma'lumotlar tizimiga kiritilar ekan, undan emlashni rejalashtirish, mahsulot olishni rejalashtirish va boshqalarni o'tkazishda foydalanish mumkin.

Masalan, boshqa korxonalar yoki bozorlardan chorva mollarini sotib olishda (masalan, chorvachilik podalarini butlashda) xaridor har doim sotib olingan hayvonning pasportdagi ma'lumotlari bilan tanishish, amalga oshirilgan veterinariya chora-tadbirlari va boshqa ma'lumotlardan xabardor bo'lish imkoniga ega bo'ladi.

Ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga chorvachilik mahsulot aylanishining barcha bosqichlarida kuzatib borish ochiq kommunikatsiyasini, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni talab qiladi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashni hamda tarqatish jarayonlar markazlashtirishi sodir bo'lmoqda, bu esa iste'molchiga xavfsiz mahsulot va xom ashyoni yetkazib berishning ko'pgina logistika yo'llarini qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Veterinariya nazorati ostidagi tovarlarni kuzatib borishi va xavfsizlikni ta'minlash majmuida avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini

yaratish lozim. Buning uchun zudlik bilan veterinariya kuzatib borish hujjatlarini ro'yxatga olish va berishni elektron shakliga o'tish zarur, shu jumladan ushbu tovarlarni eksport qilish, olib kirish va mamlakt hududidan tranzit o'tish uchun ruxsatnomalar ham. Veterinariya farovonligini ta'minlash uchun namuna olish ma'lumotlarini ro'yxatga olish, veterinariya-sanitariya tekshiruvi natijalari va boshqa laboratoriya tekshiruvlari ushbu ma'lumot tizimiga kiritish talab qilinadi.

Ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida mahsuldor hayvonlarning ozuqalariga qo'yilgan talablar oziq-ovqat mahsulotlari bilan bir xil darajasiga ko'tarilgan. Shuning uchun hayvonlarni ozuqalantirish muammosi, shu jumladan ozuqalar sanitariyasi ham ishlab chiqarishda, ham oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar yuqori malakali veterinariya mutaxassislari bo'lish uchun chuqur o'rganishlari kerak bo'ladi.

Sut ishlab chiqarish korxonalarida, ayniqsa sog'ish texnologiyasi, yelinga sanitariya ishlov berish, sut uskunalari va hokazolar to'g'risida nafaqat samarali veterinariya-sanitariya normalari, balki normativlarini ham ishlab chiqish zarur. Masalan, sutda somatik hujayralar ko'payib ketishi birinchi navbatda veterinariya-sanitariyasi muammosidir.

Bundan tashqari, barcha turdagi chorvachilik xo'jaliklar veterinariya-sanitariya pasportini majburiy olish kerak bo'ladi. Kelajakda sut-tovar xo'jaliklarida veterinariya-sanitariya pasporti – sut xavfsizligi va uning yuqori sifatini kafolatlaydigan hujjat bo'lib qolishi aniq.

Juda ko'p chorvachilik binolarida mikroiklimining roliga, uning chorvachilik mahsulotlari sifatiga ta'sirini va hayvonlarning yuqumli va yuqumsiz bo'lgan kasalliklar chidamliligiga yetarli darajada baho berilmaydi. Ba'zan chorvachilikda elementar veterinariya-sanitariya qoida va me'yorlariga rioya etilishini hech kim jiddiy nazorat qilmayotgandek tuyuladi. Lekin, veterinariya vrachining faoliyati muayyan qonunchilik va tashkiliy chora-tadbirlar ko'rilgandagina muvaffaqiyatli bo'ladi.

Veterinariya-sanitariya monitoringining barcha jihatlarini, xususan, hayvonlar sog'ligini veterinariya-sanitariya jihatidan baholash, binolar mikroiklimiga baho berish, chiqindilarni utilizatsiyasi yoki yo'q qilish, dezinfeksiya va deratizatsiya sifati, yaylovlar, suv manbalari va chorvachilik xo'jaliklarning veterinariya-sanitariya tekshirishi, turli

kasalliklarning sabablarini o'rganish, mahsulotlarni veterinariya-sanitariya ekspertizasi, chorvachilikka oid loyiha hujjatlarini baholash va boshqa ishlarni bajarish bo'yicha normativ hujjatlari bilan veterinariya mutaxassislarini doimo ta'minlash lozim.

Shu bilan birga, me'yoriy hujjatlar nomenklaturasini aniqlashtirish, uning huquqiy va ilmiy ekspertizasini o'tkazish hamda veterinariya qonunchiligini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish zarur, deb hisoblaymiz. Buning uchun veterinariya qonunchiligining mavjud va yangi me'yoriy hujjatlarini qayta ko'rib chiqish rejasini tuzish lozim.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi 139-son qarorining 2- ilovasini bajarish uchun veterinariya-sanitariya talablariga javob beradigan yoki javob bermaydigan chorvachilik mahsulot va xom ashyosini ishlab chiqarish, saqlash va sotish bilan shug'ullanadigan barcha ob'ektlar tuman (shahar) veterinariya bo'limlarida ro'yxatdan o'tgan bo'lishi shart.

Bu hokimiyatda yoki soliq organlarida ro'yxatdan o'tishdan farq qiladi, chunki u asosiy davlat nazorat (kontrol) organi sifatida mintaqaviy organlar tomonidan taqdim etilgan Qo'mitani nazorat (kontrol) ob'ektlarining faoliyati bilan bog'liq xavflarni aniqlash va tasniflash hamda tegishli choralar ko'rish maqsadida ma'lumot beradi.

Ikkinchidan, bunday ma'lumotlar yuridik va jismoniy shaxslar va ular tomonidan foydalaniladigan ishlab chiqarish ob'ektlari faoliyatini ma'lum bir xavf toifasiga tasniflash zarur. Kelgusida xavflarni baholash, ya'ni tadbirkorlik sub'ektlarining xavf toifalari bo'yicha taqsimlanishi, xavflarga asoslangan tekshirishlarni rejalashtirish, namuna olish darajalarini hisoblash va shu kabi ishlar veterinariya inspektorlarining asosiy faoliyati bo'ladi.

Veterinariya davlat nazorati (kontroli)ni amalga oshirishda foydalaniladigan xavf toifalari (balki 3-4 yoki 6-7 bo'lishi mumkin) ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan belgilanishi kerak. Xavf toifalarining soni yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qoida va yo'riqnomalarda belgilangan veterinariya talablariga rioya qilmaslik mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining og'irligini hisobga olgan holda belgilanadi.

Uchinchidan, tirik hayvonlarni kuzatib borish bilan birga, ularning mahsulotlarini kuzatib borish xavfsizlik tizimlari xalqaro talablariga muvofiq qonunlashtirilishi kerak. Chorvachilik mahsulotlarini kuzatib borishning asosiy maqsadi – taqsimot zanjirlarida oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq har qanday muammolar yuzaga kelganda aniq mahsulotlarning aylanishdan (oborotdan) tezda olib chiqilishini ta’minlashdan iborat.

Shu bilan bir vaqtda, kuzatib borish xavfni boshqarish vositalaridan biri bo‘lib, bu mahsulot uchun hech qanday imtiyozlarni bermaydi, oziq-ovqat xavfsiz bo‘lmaydi – lekin u keyingi chaqirib olish va muomaladan chiqarish uchun sotish joylarda mahsulot turgan o‘rnini aniqlab, iste’molchilarni xavflardan himoya qiladi.

Ushbu sohadagi faoliyat jarayonida oziq-ovqat xavfsizligi uchun barcha javobgarlik tovar egalariga yuklatilganligini hisobga olgan holda xavf tahlili oziq-ovqat xavfsizligi tizimining butun zanjiri bo‘ylab "daladan – dasturxonigacha" tamoyilning asosi bo‘ladi. Bundan tashqari, oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish uchun veterinariya mutaxassislari ishlab chiqarishning barcha ishtirokchilari uchun majburiy bo‘ladigan HACCP tamoyillarini qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

To‘rtinchidan, mavjud cheklovlar, shuningdek, xo‘jalik sub’ektlarning har qanday tekshirishlarga beriladigan taqiq, ehtimol, ularga ma’lum foyda keltiradi, lekin chorvachilik mahsulotlari xavfsizligi bilan bog‘liq bunday taqiqlar tadbirkorlar manfaatlarini iste’molchilar sog‘ligidan yuqorida qo‘yishdir. Shuning uchun veterinariya inspektorlari tomonidan nazorat qilinadigan ob’ektlarni tekshirishni tashkil qilishda imkon qadar tezroq xavfga yo‘naltirilgan yondashuvga o‘tish kerak.

Ma’lumot uchun. Hayvon mahsulotlarining xavfsizligi – bu oziq-ovqat zaharlanishi va oziq-ovqat bilan bog‘liq infeksiyalari, shuningdek, uzoq muddatli oqibatlariga olib keladigan kasalliklar: kanserogen, mutagen, inson irsiy apparatida buzilishlarga olib keladigan va uning nasliga ta’sir qiladigan hamda embrion rivojlanish kasalliklari uchun xavfning yo‘qligi. Boshqacha aytganda, hozirgi va kelajak avlodlar sog‘ligiga zararli ta’sir ko‘rsatmaydigan oziq-ovqat mahsulotlarini xavfsiz deb hisoblash mumkin.

Beshinchidan, Qo‘mita biologik xavfsizligi va hayvon sog‘ligi bo‘yicha regionning statusini muayyan saqlab qolish hamda jismoniy va

yuridik shaxslar, uy va yovvoyi hayvonlarga keltirishi mumkin zararni minimallashtirishni ta'minlash uchun qo'llaniladigan taqiqlar, cheklovlar va mintaqaviy shart-sharoitlarni regionalizatsiya va boshqa veterinariya qoidalariga muvofiq tashkillashtirish zarur.

Kasalliklarga moyil uy va yovvoyi (agar mavjud bo'lsa) hayvonlarni ko'paytirish, saqlash va joyini o'zgartirish, ulardan olingan mahsulotlar va xom ashyoni olish, ishlab chiqarish, qayta ishlash, muomalaga chiqarish va tashish uchun regionalashtirishga muvofiq belgilangan shartlar va cheklovlar hayvonlarning faqat yuqumli kasalliklarining tarqalishini oldini olishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ma'lumot tizimi faoliyat ko'rsatmayotgani sababli viloyat va tuman (shahar)lar tarkibida kelib chiqishi hayvonotga mansub nazorat ostidagi mahsulotlar xavfsizligini nazorat qilish bo'yicha ochiq ma'lumotlar mavjud emas. Tuman (shahar)lar kesimida monitoring natijalari bo'lmaganligi so'yishdan oldin tirik hayvonlar ko'rigi, so'yishdan keyingi jigar, buyrak, o'pka va boshqalarni amalga oshirilgan tekshirishlar natijalari bilan iste'molchi xabardor bo'lish huquqi buzilgan bo'ladi.

Bundan tashqari, ushbu o'quv qo'llanma talabalar va veterinariya mutaxassislariga veterinariya ishini tashkil etishning hozirgi holati haqida qo'shimcha ma'lumotlar olish imkonini beradi va amaliyotchilar taklif etilgan materiallarni o'z faoliyatlarida qo'llashlari mumkin bo'ladi. Muallif barcha fikr va takliflarni minnatdorlik bilan qabul qiladi va kelgusi ishlarida ularni hisobga oladi.

Bozor iqtisodiyotida kasbiy qonunchilik asoslarini bilish ayniqsa muhimdir. Veterinariya xizmatlari tomonidan muayyan harakatlar qonuniy ma'noda oqlanishi kerak. Veterinariya xodimlari faoliyatidagi tashkiliy jihatlarning ma'lum bir tomonini ko'rib chiqishga harakat qildik. Bugungi kunda mutaxassis uchun ba'zi maxsus bilimlarni o'zlashtirish, zarur vositalar majmuini o'rganish yetarli emas.

Hozir ishlab chiqarish sharoitida "nima qilish" ni bilish emas, balki eng samarali natijalarga erishish uchun "qanday qilish" ni bilish zarur, bu maqsadga erishishda qaysi yo'l va usullardan foydalanish kerakligini bilish muhim.

Hayotda davolash va profilaktika vositalari kam bo'lgan veterinariya mutaxassisi, dori - darmon, kimyoviy, biologik mahsulotlar va hokazo

ko'p hamkasbga nisbatan chorvachilikda yaxshi natijalarga erishgani bo'yicha misollar ko'p. Bu farq masalaning tashkiliy tomonida. Birinchisi xo'jalik rahbarining samaradorligi, chorvachilik bilan shug'ullanuvchilarning mehnatsevarligi va tirishqoqligi, zootexnik va agronomlarni bir-biriga bog'lay oladi. Ikkinchisida bunday qobiliyatlar yo'q.

Veterinariyaning ijtimoiy ahamiyati – zoonozlar bilan kasallanishning oldini olish va shuning uchun patogenlar bilan ifloslanishi natijasida hayvon mahsulotlari orqali ularni zaharlashda, shuningdek, himoyalangan qo'riqxonalar, milliy park xo'jaliklari va tomoshako'ngilochar muassasalarni veterinariya nuqtai nazarda muhofaza qilishni ta'minlashda.

Kasallanishni kamaytirish, hayvonlar saqlanishni yaxshilash, ularning mahsuldorligi va mahsulot sifatini oshirish bilan uning tannarxini kamaytirish orqali chorvachilikning samaradorligini oshirishning iqtisodiy ahamiyati katta.

Qo'llanmaning ushbu qismida hayvonlar va ulardan olingan mahsulotlarni identifikatsiya qilish hamda ularni va ularning mahsulotlarini kuzatib borish bo'yicha ishlarni tashkil etishda yordam berish uchun mo'ljallangan ayrim normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari keltirilgan.

Afsuski, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hayvonlarni identifikatsiya qilish, ularni va ulardan olingan mahsulotlarini kuzatib borishi qaroridan kutilgan natijalarga erishilmadi. Shuning uchun o'zimizning takliflarni qo'yida keltiramiz.

1. Qo'mita, mahalliy xokimiyat xamda fuqarolar o'zini o'zi boshqaruv organlari ushbu masalada uyg'unlik va hamjihatlikka erishish uchun tegishli xalqaro standartlarga tayanishi lozim;

hayvonlarni va ulardan olingan mahsulotlarni identifikatsiya qilish va kuzatish, chorvachilik xo'jaliklarni ro'yxatga olish, identifikatsiya qilingan hayvonlarning yagona Davlat reestrini yuritish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini tashkil etish va amalga oshirish qo'mita, mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolar o'zini o'zi boshqaruv organlari zimmasiga yuklatilishi maqsadga muvofiq;

mahaliy xokimiyat hamda fuqarolar o'zini o'zi boshqaruv organlari o'zlarining tumanlarida hayvonlarni va ulardan olingan mahsulotlarni identifikatsiya qilish va kuzatib borishi bo'yicha aniq dastur va chora-tadbirlar ishlab chiqib, bajarilishini ta'minlashi lozim;

respublikada jismoniy va yuridik shaxslar asrab, ko'paytiriladigan hayvonlarni, ulardan olingan mahsulotlarni identifikatsiya qilish va kuzatib borishini ta'minlashi bo'yicha ma'sul hisoblanadi;

2. Hayvonlarni va ulardan olingan mahsulotlarini identifikatsiya qilish va kuzatib borishini tashkillashtirish, shu jumladan, yagona Davlat elektron axborot tizimini joriy etish Qorakolpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri veterinariya boshqarmalari va tuman (shahar) veterinariya bo'limlarini axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlash ishlariga jalb qilinadigan xodimlarni o'qitish bilan bog'liq xarajatlar:

hayvonlarning egalaridan identifikatsiya qilish xizmatlari uchun undiriladigan to'lovlar;

qo'mitaning Veterinariya xizmatini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari;

xalqaro tashkilotlar va xorijiy hukumatlar moliya institutlarining grantlari va kredit mablag'lari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan moliyalashtirilishi mumkin.

3. Hayvonlarni va ulardan olingan mahsulotlarini identifikatsiya qilish va kuzatib borish bo'yicha, ma'lumotlar bazasini shakllantirish va undan foydalanish bo'yicha nizomlarni ishlab chiqish talab qilinadi.

4. Ushbu ishlarni tezlashtirish va samaradorlikni oshirish uchun imtiyozlar va afzalliklar (subsidiya va yoki boshqa preferensiyalar) berishi bo'yicha tegishli normalar ishlab chiqilishi kerak.

5. Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga mahalliy xokimiyat va o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan ularning shaxsiy yordamchi xo'jalikda yetishtirilgan chorvachilik va boshqa mahsulotlarni chakana savdo qilish uchun shart-sharoitlar yaratilgan maxsus joylar (rastalar) ajratilsa yaxshi bo'ladi.

Hayvonlarni va ulardan olingan mahsulotlarini identifikatsiya qilish va kuzatib borish tartibi to'g'risida

NIZOM (loyiha)

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom tirik hayvonlarini individual yoki guruh bo'yicha identifikatsiya qilish (yovvoyi hayvonlar bundan mustasno), ro'yxatdan o'tkazish, kuzatib borish, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni identifikatsiya qilish va kuzatib borishning huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilaydi hamda hayvonlar va ulardan olingan mahsuloti to'g'risida so'rov joyi bo'yicha ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish tartibini belgilaydi.

Hayvonlar yuqumli kasalliklarining tarqalishini oldini olish maqsadida individual yoki guruhli identifikatsiya qilish va ulardan olingan mahsulotlarini kuzatib borish hamda hayvonlar yuqumli kasalliklarining qo'zg'atuvchilarini tarqatish manbalari va yo'llari aniqlanadi.

Hayvonlarni identifikatsiya qilish va ulardan olingan mahsulotlarini kuzatib borishni o'z vakolatlari doirasida va ushbu qoidalarga muvofiq Qo'mita tashkil etadi.

Izoh. Ishning ko'lami juda katta, chunki bu jarayonda minglab kichik va yirik korxonalar, xususiy fermer xo'jaliklari va fuqarolarning hayvonlari bilan bog'liq deyarli barcha aholi ishtirok etishi aniq. Biroq, qishloqlarda kompyuterdan foydalanishni yaxshi biladigan kadrlar ko'p hamda Internet aloqa tarmog'lari mamlakatda hamma joyda bor.

Yangilikni kiritish har doim qiyin – buning uchun odamlar o'zgarishi va o'z vaqtlarini qo'shimcha sarflashlari kerak. Hayvonlarni identifikatsiya qilish bo'yicha ma'lumotlarni yagona bazaga kiritish, xo'jaliklarda sodir bo'layotgan voqealarni hisobga olish va nazorat qilishning jiddiy mexanizmi sodda, tushunarli va shaffof bo'lishi kerak.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

veterinariya sohasi mutaxassislari — oliy yoki o'rta veterinariya ta'limiga ega bo'lgan shaxslar;

davlat veterinariya xizmatining vakili — belgilangan tartib asosida tuman (shahar) veterinariya bo'limi tomonidan ayrim davlat vakolatlar berilgan idoraviy va ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlari hamda xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshirayotgan veterinariya sohasi mutaxassisi (keyingi matnda – rasmiy veterinariya vrachi);

identifikatsiya — birkalash, tatro bosish (tamg'alah), jeton (medalon) hayvon bo'yinbog'iga biriktirish va chip o'rnatish (elektron identifikatsiya) orqali hayvonlarni aniqlash imkonini beradigan individual raqam berish, shuningdek, hayvonlar to'g'risida ma'lumotlarni elektron axborot tizimiga kiritish va hayvonning pasportini rasmiylashtirish, shu jumladan – elektron pasportini;

identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut — quloq uchun birkalar, jeton, oyoq halqalari, elektron chip va boshqalar;

identifikatsiya vositalarini ishlab chiqaruvchi – identifikatsiya vositalarini ishlab chiqarish va sotish (muomalaga chiqarish) bilan shug'ullanadigan yuridik yoki jismoniy shaxs;

individual raqam — birkalash, tatro bosish (tamg'alah), jeton (medalon) bo'yinboqqa biriktirish va chip o'rnatish (elektron identifikatsiya) orqali hayvonlarni aniqlash imkonini beradigan 4 (to'rt) harflardan va sakkiz xonali raqamdan iborat kod identifikatsiya raqami noyob, yagona bo'lib, xayvon so'yilganda, o'lganda yoki yuqolganda 3 (uch) yil mobaynida takrorlanmaydi;

ixtisoslashgan so'yish korxonasi — hayvonlarni so'yish uchun zamonaviy mexanizatsiyalashtirilgan yoki avtomatlashtirilgan asbob-uskunalar bilan jihozlangan bino va xonalari mavjud bo'lgan korxonasi;

kuzatib borish — hayvonni hayot davri ichida, ishlab chiqarish, qayta ishlash va tarqatishning barcha bosqichlarida oziq-ovqat mahsulotlari, ozuqa, hayvonotga mansub tarkibiy qismlarining harakati, joylashuvi va kelib chiqishini veterinariya sohasi mutaxassislari tomonidan kuzatib borishi;

tadbirkorlik sub'ekti – hayvonlarga egalik qiluvchi, ularni yetishtirish, parvarish qilish, ko'paytirish, savdo qilish, tashish, hayvonlar ko'rgazmalarini o'tkazish, hayvonlarni so'yish, so'yish mahsulotlarini qayta ishlash va sotish, biologik chiqindilarini yo'q qilish bilan shug'ullanuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

xo'jalik — davlat veterinariya nazorati ostidagi hayvonlar boqiladigan, saqlanadigan, ko'paytiriladigan yoki joylashgan binolar, inshootlar va joylar, savdo, so'yish, utilizatsiya qilish joyi, ko'rgazma va hayvonlarning boshqa konsentratsiyasi joylari.

qushxona (so'yish maydoncha) — kichik turar-joy aholisini hayvonni so'yish natijasida chiqqan go'sht va boshqa mahsulotlari bilan ta'minlash uchun hayvonlarni so'yish uchun kichik statsionar, mexanizatsiyalashmagan va veterinariya sanitariya talablarga to'liq javob beradigan kam quvvatli inshoot;

Izoh. Hayvonlarni uyda so'yishning taqiqlanish sabablari quyidagilardan iborat. Uyda so'yish paytida har bir veterinariya vrachi ham yuqori sifatli veterinariya-sanitariya ekspertizasini amalga oshira olmaydi, ko'pincha veterinariya-sanitariya ekspertisasi umuman o'tkazilmaydi. Bu esa go'sht xavfsizligining kafolati yo'qligini va uning iste'molchilari zaharlanish va kasalliklardan himoyalalmaganligini ko'rsatadi.

Yana bir muammo - bu uyda so'yishda qushxona chiqindilarni to'g'ri utilizatsiya qilinmasdan, asosan, yerga ko'milgani. Ularni yo'q qilish uchun bunday yondashuv infeksiyani, gelmint tuxumlarini va boshqa patogen mikroflorani yer osti suvlari bilan, hasharotlar, yovvoyi hayvonlar va boshqalar orqali tarqalishining xavfini keltirib chiqaradi. Bu kuydirgi, brusellyoz, gelmintoz va boshqa kasalliklarning statsionar manbai paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Qushxona uzoq yoki yo'q joylarda hayvonni uyda veterinariya nazorati ostida so'yishga ro'xsat berilishi kerak. Masalan, hayvonlar uyda so'yilishini hamma biladi (ayniqsa mayda shoxli mollarni), shuning uchun rasmiy veterinariya vrachlarga ayrim davlat vakolatlarni topshirib, ular orqali bu jarayonni davlat nazorati ostiga olish maqsadga muvofiq.

elektron ma'lumotlar tizimi — identifikatsiya qilingan hayvonlarning hisobi, ularni va ulardan olingan mahsulotlarini kuzatib borishi to'g'risida mavjud ma'lumotlar elektron majmuasi;

qarovsiz yoki nazoratsiz hayvon — har qanday turdagi identifikatsiya qilinmagan nazoratsiz qolgan (yurgan) hayvon, nazoratsiz qolgan (yurgan) hayvonning egasi har doim mahalliy hokimiyat hisoblanadi;

Izoh. *Hokimiyat uy hayvonlariga ega bo'lish imkoniyatini cheklashi mumkin, masalan, ularga yuqori soliq solish, ularni suiiste'mol qilganliklari uchun qattiq jazolash yoki hayvonlar umrbod saqlanadigan boshpana qurish. Bu qimmat, ammo insonparvar va samarali.*

hayvonni ro'yxatga olish — davlat veterinariya organga foydalanish uchun hayvon haqidagi ma'lumotlarni tegishli shaklda to'plash, ro'yxatga olish, saqlash (identifikatsiya, sog'lig'i bo'yicha, joyini o'zgargani, epizootologiyasi, xo'jaliklar kesimi bo'yicha va h.k.) va topshirish;

hayvonning identifikatsiya raqami — hayvonga uning yashash davri davomida bir marta beriladigan, boshqa hayvonlarda takrorlanmaydigan harfli va raqamli kod;

hayvonning pasporti — identifikatsiya qilingan hayvonlarga rasmiylashtirilgan, hayvon egasini belgilovchi, hayvonlarning kasalliklarga qarshi profilaktikasi va ularni davolash ishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjat;

hayvonlar — jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan asrab, ko'paytiriladigan (boqiladigan) qoramollar, qo'y va echkilar, cho'chqalar, otlar, eshaklar va tuyalar, itlar va mushuklar, asalari va baliqlar, suv hayvonlari, barcha turdagi parrandalar;

kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi — hayvonot mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish (muomalaga chiqarish), shu jumladan ularni qayta ishlash va yo'q qilish bilan shug'ullanadigan yuridik yoki jismoniy shaxs;

hayvon (lar) ning egasi — hayvon (lar) ni o'z ehtiyoji yoki tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ko'paytirish, boqish va saqlashni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxs;

hayvonlarning hisobini yuritish — hayvon (hayvonlar guruhi) identifikatsiya qilishi, yashash davri davomida ularning kelib chiqishi, ko'payishi (ko'paytirilishi) va harakati, shuningdek, hayvonlarda uchraydigan kasalliklarga qarshi profilaktika, tashxis qo'yish va davolash ishlari to'g'risidagi ma'lumotlar majmuini elektron ma'lumot tizimiga kiritishi.

3. Identifikatsiya qilingan hayvonlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasi yagona elektron axborot tizimi orqali shakllantiriladi.

Quyidagi ma'lumotlar elektron axborot tizimiga kiritilishi shart:
hayvonning turi (guruh bo'lganda – guruh bo'yicha aloxida);
tamg'a surati (agar ishlatilsa);
tatuировkaning tavsifi (agar ishlatilsa);
hayvonning identifikatsiya raqami (guruhning noyob raqami);
hayvonning zoti, jinsi, tusi, yoshi, laqabi (mavjud bo'lganda);
hayvon egasining familiyasi, ismi va otasining ismi, INN, pochta manzili;

hayvon egasi bo'lgan yuridik shaxsning to'liq nomi va pochta manzili;

hayvonni saqlash maqsadi va joyi;
hayvonning egasi almashganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;
xayvon urug'langanligini va tug'ishini xisobga olish ma'lumotlar;
bug'ozlik kalendari (erkak xayvon bundan mustasno);
hayvonning tug'ilgan sanasi yoki guruhning yoshi ko'lami;
hayvonlarning so'yilgan (nobud bo'lgan, yo'q qilingan) sanasi va sababi;

hayvonning go'shtidan (jasadidan) iste'mol uchun foydalanilganligi yoki uning zararsizlantirilgan, yoki yo'qotilgan usulni ko'rsatishi to'g'risidagi ma'lumotlar;

hayvonning pasporti va identifikatsiya raqamini saqlovchi atributlar yo'q qilinganligi sanasi.

Yagona elektron axborot tizimi ma'lumotlar bazasiga hayvonning fotosurati alohida joylashtirilishi mumkin.

Belgilangan muddatdan boshlab hayvonlarni bir egasidan boshqasiga o'tkazish, go'sht va sutni sotish, hayvonlarni go'sht uchun so'yish faqat hayvonlarning birkalari, pasportlari, shuningdek veterinariya kuzatuv hujjatlari bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

4. Hayvonlarning barchasini, shu jumladan shaxsiy tomorqadagilarni identifikatsiya qilishning asosiy maqsadlari:

hayvonlarning real vaqtda hisobini yuritish, hayvonlarning joyi o'zgargani (harakati)ni istalgan vaqtda nazorat qilish mumkinligi;

hayvonlar soni to'g'risida ishonchli ma'lumotlardan foydalangan holda epizootik, terapevtik va profilaktika, veterinariya-sanitariya tadbirlarini rejalashtirish va o'tkazish;

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash;
naslchilik ishlarini takomillashtirish;
veterinariya nazorati ostidagi tovarlarni kuzatish;

hayvonlarni oziqlantirish rejimlari samaradorligini tahlil qilish, ularni saqlash va veterinariya muolajalarini o'tkazish, hayvon mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va sotish sharoitlarini osonlashtirish, veterinariya sohasida texnik reglamentlar normalarini joriy etish;

hayvonlarni saqlash, ko'paytirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq sohada qonun va tartibni saqlash tizimini takomillashtirish;

davlat veterinariya xizmati tomonidan nazorat ostidagi tovarlar harakatini kuzatish imkonini beruvchi samarali nazorat tizimini yaratish.

Izoh. Hayvonlar saqlanadigan korxonalar, muassasa va xonalar joylashgan joyi (koordinatalari yoki pochta manzili) va tipi hamda o'z ichiga olgan hayvon turlari ko'rsatilgan holda identifikatsiya qilinishi va ro'yxatga olinishi kerak. Ushbu muassasadagi hayvonlar uchun qonuniy javobgar shaxs nomi reestrda kiritiladi. Ushbu talab OIE (XEB) yer ustidagi hayvonlar sog'ligi Kodeksining 4.3.3. moddasida keltirilgan.

5. Yagona elektron ma'lumot tizimiga "Hayvonlarni identifikatsiya qilish ma'lumotlar bazasini shakllantirish va undan foydalanish" Qoidalari asosida tuman (shahar) veterinariya bo'limlari tomonidan ma'lumotlar kiritiladi.

Identifikatsiya bo'yicha ishlarni muvaffaqiyatli tashkillashtirish uchun Qo'mitada alohida boshqarma tashkil etiladi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, Toshkent sh. boshqarmalari va tuman (shahar) veterinariya bo'limlarida faqat hayvonlarni identifikatsiya qilish, ularni va ulardan olingan mahsulotlarni kuzatish bilan shug'ullanadigan va tizimni bir butunga birlashtiradigan mas'ul xodim(lar) tayinlanadi. Ular qonunchilik doirasida huquq va ma'suliyatga ega bo'lishlari shart.

Tuman (shahar) veterinariya bo'limida tizim faoliyatiga mas'ul shaxsni (keyingi matnda – operator) kompyuter, printer, xarajat materiallari va avtomobil hamda yaxshi jihozlangan ish joyi bilan ta'minlanadi. Unda internet tarmog'iga ulangan statsionar kompyuter, planshet, smartfon yoki boshqa mobil qurilma orqali davlat axborot tizimiga kirishni ta'minlangan bo'lishi shart.

Izoh. Agar ro'yxatdan o'tgan hayvon haqida ma'lumot kiritilmasa, bo'nday tizimdan foydalanishning ma'nosi yo'q – pul va mehnat shunchaki foydasiz sarflanadi. Shuning uchun har bir ro'yxatga olingan hayvon turi bo'yicha to'liq ma'lumot tizimga kiritilishi shart.

6. Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlar rasmiy veterinariya vrachlariga topshiriladi. Ular topshirilgan ayrim davlat vakolatlar doirasidan chiqmagan holda hayvonlarni emlash, so'yish, vaksina va boshqa preparatlarning qoldiqlarini yo'q qilish, hayvonlarni identifikatsiya qilish va chorvachilik mahsulotlarini saqlashni nazorat qilishadi hamda ularni joyini o'zgartirishni kuzatib borishni ta'minlaydi hamda hayvonot mahsuloti va xom ashyosini ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan bog'liq biznesning barcha turlariga HACCP tizimini joriy etishda bevosita qatnashadilar.

Operatorlar hayvonni identifikatsiya qilish va hayvonning pasportlarini berishni hamda hayvonlar va chorvachilik mahsulotlarini kuzatib borishni bevosita amalga oshiruvchi rasmiy veterinariya vrachlari tomonidan ma'lumotlar bilan ta'minlanadi. Hayvon hayoti davomida rasmiy veterinariya vrachi amalga oshirilgan veterinariya tadbirlari, olingan hayvon bolalari to'g'risida, shuningdek, hayvonning joyi o'zgarganligi, so'yilishi, o'limi yoki nobud bo'lgani to'g'risida ma'lumotlar elektron axborot tizimiga operator orqali kiritiladi.

Izoh. Ularga ushbu vakolatlar topshirilishi OIE (XEB)ning yer ustidagi hayvonlarning Kodeksning 3.4.5. moddasidagi standartlarga muvofiq. Rasmiy veterinariya vrachlarning xizmatlari faollashadi, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda va qayta ishlashda ularning ishtiroki va ma'suliyati oshadi.

Veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirilishi maxsus boshqarish iste'dodlarini talab qilmaydi, ayniqsa bu yerda rahbarlik qilishning hojati yo'q, ammo muntazam veterinariya inspeksiyasi uchun nazorat natijasi sezilarli bo'ladi.

2-bob. Hayvonlarni identifikatsiya qilish

7. Hayvonlarni identifikatsiya qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Hayvon egalarining og'zaki xabar yoki yozma arizasiga muvofiq davlat veterinariya xizmati vakili hayvonlarni hisobga olish va hisobdan chiqarish amalga oshirish;

ushbu Nizomning 9-bandida nazarda tutilgan tartib bo'yicha hayvonlarga individual raqam berish;

elektron axborot tizimiga hayvonlar identifikatsiya qilinganligi to'g'risida ma'lumot kiritish;

hayvonning pasportini rasmiylashtirish.

8. Bitta egasiga tegishli bo'lgan va bir xil manzilda ro'yxatdan o'tgan bir yoki bir nechta hayvonlardan iborat bo'lgan xo'jalik alohida xo'jalik hisoblanadi. Bir egasiga tegishli, lekin turli joylarda joylashgan hayvonlar turli xo'jaliklar hisoblanadi.

9. Hayvonlarning turlariga qarab individual raqam berish quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

a) birkalash usuli — bu usul qoramol, qo'y va echkilar, tuyalar, cho'chqalarning qulog'iga birkalarni taqish orqali amalga oshiriladi va u hayvonlarning yashash davri davomida olinmaydi;

Izoh. Elektron birka – bu mikrochipni o'z ichiga olgan va oddiy quloq birkaning kirish va ichi bo'sh qismlari orasiga joylashtirilgan disk. Ushbu diskdan foydalanish afzalligi uni qayta ishlatish mumkin.

Elektron belgilarning yana bir turi bolyuslar, ular keramika kapsulasiga o'ralgan mikrochipdir. Bolyus beruvchi moslama yordamida ular to'rt kamerali oshqozonli hayvonga joylashtiriladi. Ushbu usul qoramol, shuningdek qo'y va echkilarga mos keladi. Ushbu chiplarning katta xajmi tufayli ularda mavjud ma'lumotni katta masofada o'qish mumkin.

b) tavro bosish (tamg'alash) usuli — bu usul ot va eshaklarga nisbatan qo'llaniladi, ya'ni, ot va eshaklarning tanasining chap tomoni kurak sohasiga suyuq azot yordamida respublika, viloyat tartib kodi va bel sohasiga individual raqami qo'yiladi. Bunda tavro (tamg'a) o'lchamining balandligi 50 mm, eni 30 mm bo'lishi lozim;

v) jeton (medalon) bo'yinboqqa birlashtirish usuli — bu usul it va mushuklarga nisbatan qo'llaniladi;

g) chip o'rnatish (elektron identifikatsiya) usuli — bu usul hayvonlarning barcha turlariga qo'llaniladi.

10. Ushbu Nizomning 9-bandida nazarda tutilgan usullardagi identifikatsiya belgilari o'n ikki raqamdan iborat bo'ladi:

birinchi ikkita raqam — O'zbekiston Respublikasining harfli (liter) kodi (Standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilot (ISO) kodiga muvofiq);

uchinchi raqam — Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar harfli kodi;

to'rtinchi raqam — hayvonlar turining raqamli kodi;

beshinchida raqamdan o'n ikkinchi raqamigacha — sakkiz xonali raqamdan iborat hayvonlarning individual raqami (ot va eshaklardan tashqari). Ot va eshaklarning individual raqamlari to'rt xonali raqamdan iborat bo'ladi.

11. Hayvonlarni birlashtirish va jetonlash uchun ushbu Nizomning 2- ilovasida keltirilgan identifikatsiya raqamini saqlovchi quloq birlashtirish va jetonlardan foydalaniladi. Birka va jetonlar hamda o'rnatiladigan chiplarni Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar veterinariya inspeksiyalari bir xilligini ta'minlab, qancha zarur bo'lsa shunchasini o'rnatilgan tartibda xarid qiladilar.

12. Hayvonlarni identifikatsiya qilish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining harfli kodlari ushbu Nizomning 3- ilovasiga, hayvonlar turining raqamli kodi esa 4- ilovasiga muvofiq belgilanadi.

13. Hayvonlar identifikatsiya qilingandan so'ng rasmiy veterinariya vrachi ushbu Nizomning 5- ilovasiga muvofiq qaydnomani rasmiylashtiradi va yagona elektron axborot tizimiga kiritish uchun tuman (shahar) veterinariya bo'limiga yetkazadi.

14. So'yilgan (nobud bo'lgan, yo'q qilingan) hayvonlarning, shuningdek, ushbu Nizomning 17- bandida nazarda tutilgan holatlarda hayvonning pasporti va identifikatsiya raqamini saqlovchi atributlar tegishli tuman (shahar) davlat veterinariya xizmati tomonidan 6 oy saqlanib, belgilangan tartibda yo'q qilinadi.

15. Hayvonlar egasi almashganda, shuningdek, bir hududdan boshqa hududga ko'chirilganda identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut almashtirilmaydi va bu bo'yicha elektron axborot tizimi hamda xayvonning pasportiga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

16. Hayvonlarni olib kirishda eksport qiluvchi mamlakat qonunchiligiga muvofiq identifikatsiyasi amalga oshirilganda qayta identifikatsiya qilinmaydi. Agar hayvonlarni olib kirishda eksport qiluvchi mamlakat qonunchiligiga muvofiq identifikatsiyasi amalga oshirilmagan bo'lsa ularni identifikatsiyalash ushbu Nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Import qilingan hayvonlar belgilangan tartibda karantin tekshiruvidan o'tgandan so'ng ular to'g'risidagi tegishli ma'lumotlar ushbu Nizomga asosan elektron axborot tizimiga kiritiladi hamda veterinariya pasporti rasmiylashtiriladi.

17. So'yish maqsadida import qilingan hayvonlar identifikatsiya qilinmaydi. Ushbu hayvonlar keltirilgan vaqtdan boshlab 3 (uch) kalendar kun yoki 72 soat ichida so'yilishi shart.

18. Birka (jeton) yo'qotilganda yoki unga shikast yetganligi sababli identifikatsiya raqamini aniqlash ilojisi bo'lmaganda, hayvonlarning identifikatsiya raqamlariga elektron axborot tizimidagi boshqa hayvonlarning identifikatsiya raqamlari va hayvonning pasporti bilan solishtirish orqali besh kun muddatda aniqlik kiritiladi. Bu davrda hayvonni sotish (hadya qilish), almashtirish va so'yish (so'yishga topshirish) taqiqlanadi. Bu hayvonlarni qayta identifikatsiya qilish ushbu Nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

19. Hayvonlarning egalaridan identifikatsiya qilish xizmatlari uchun to'lov undiriladi. To'lov miqdori va shartlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Davlat veterinariya qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Izoh. Kapsuladagi mikrochipni umumiy narkozsiz implantatsiyasi oson, tez va og'riqsiz jarayondir, chunki mikrochip juda kichik va osongina teri ostiga o'tadi, ammo hayvonga chipni faqat veterinariya vrachi o'rnatishi kerak. Kapsula bir martalik aplikator (shprisning bir turi) yordamida yag'rin atrofidagi teri ostida o'rnatiladi. Hayvon oddiy teri osti in'eksiya sifatida chip o'rnatilishini his qiladi.

Kapsulani implantatsiya uchun bir martalik aplikator steril paketdagi mikrochip bilan ta'minlanadi. Mikrochipning o'zi faol bo'lmaydi, chunki u skaner tomonidan faollashtirilmasdan hech qanday to'lqinlarni uzatmaydi. Teri ostida mikrochip 5-7 kun davomida biriktiruvchi to'qima kapsulani o'rab oladi va uning joyini o'zgartirishga yo'l qo'ymaydi. Mikrochip o'rnatilgandan keyin hech qanday nojo'ya ta'sir ko'rsatmaydi.

Mikrochipni yo'qotish yoki unga zarar yetkazib bo'lmaydi – u teri osti qavati tarkibi bo'lib qoladi. Mikrochipning o'lchami juda kichik (2 mm ga 10 mm), bu o'lchamni ifodalash uchun guruch donasini olish mumkin. Mikrochipni joriy etish xavfsizligi butun dunyo bo'ylab katta amaliyot bilan tasdiqlangan. Hayvonning yoshi mikrochipning joylashuviga va tananing reaksiyasiga ta'sir qilmasligini inobatga olib, har qanday yoshdagi hayvonga chip o'rnatish mumkin.

Mikrochipdagi ma'lumotlarni o'qish uchun xalqaro standartga mos skanerlar har xil turdagi va har qanday ishlab chiqaruvchilarning chiplarini o'qish imkonini beradi. Mikrochipning skaneri kam quvvatli radio signalini hosil qiladi, signal mikrochipni qo'zg'atadi, u hayvonning identifikatsiya raqami to'g'risida ma'lumotni skanerga uzatadi. Bu eng qimmat identifikatsiya usuli ekanligini ta'kidlash lozim.

Lekin, ko'p yillar davomida identifikatsiyaning eng keng tarqalgan usuli – bu quloq birkalar bilan xo'jalik hayvonlarni belgilashdir.

3-bob. Identifikatsiya qilingan hayvonlarga pasportni rasmiylashtirish

20. Hayvonlarga identifikatsiya raqami berilganidan so'ng darhol davlat veterinariya xizmatining vakili hayvon egasiga ushbu Nizomning 6-ildovaga muvofiq shakldagi saqlanayotgan (boqilayotgan) har bir bosh hayvonga hayvon pasportini rasmiylashtiradi (guruhli identifikatsiya qilish bundan mustasno).

21. Guruhli identifikatsiya qilishda guruhdagi hayvonlar soni, ularning turi, identifikatsiya sanasi, hayvonlar yoki ular saqlanadigan xo'jalik uchun javobgar shaxs nomi qayd etiladigan hujjat (jurnal) yuritiladi. Bu jurnal maxsus maqsadli hujjat bo'lib, bitta guruh

identifikatori deb tan olinadi va o'zgarishlar ro'y bersa, unga hayvonlar haqidagi yangi ma'lumotlar kiritiladi.

Guruh usuli bilan identifikatsiya qilingan hayvonlarni unga shaxsiy raqam (birka yoki boshqa marker) bermasdan boshqa guruhga o'tkazish, sotish yoki go'shtga so'yish mumkin emas.

22. Hayvonning pasportiga hayvonlarning identifikatsiya raqami (yangi tug'ilgan hayvonlar bilan birga uni tuqqan hayvon to'g'risidagi ma'lumotlar ham kiritiladi), hayvon urug'langanligi va tug'ishni hisobga olish hamda hayvonning bo'g'ozlik kalendari to'g'risida ma'lumotlar, o'tkazilgan profilaktika va davolash tadbirlari va hisobdan chiqarish asoslari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi.

23. Tuman (shahar) veterinariya bo'limi boshlig'i vakolat berilgan rasmiy veterinariya vrachlari tomonidan identifikatsiya bo'yicha qilinayotgan ishlari ustidan shaxsan o'zi yoki uchastka veterinariya inspektorlari orqali nazorat qiladi.

24. "Hayvonning pasporti" hayvonning egasiga topshiriladi va identifikatsiya, nasldor hayvon, naslli mahsulot kabi terminlarga hamda chorvachilik ob'ektlari, hayvon va naslli mahsulot egalari nomlariga tushuncha beradi. Bu xujjat xayvonlarni, jumladan sigirlarni, qochirish va tug'ishini hisoblash kalendari hamda hayvonlar haqidagi boshqa ma'lumotlarni beradi.

25. Sigirlar uchun pasportda urug'lantirish yoki embriionni ko'chirish sanasi, bo'g'ozlik kalendari va tug'ish sanasi sahifalari mavjud. Boshqa tur urg'ochi hayvonlar uchun shu kabi ma'lumotlarga ega tegishli qo'shimcha varaqalar ishlatiladi. Bu har qanday iste'molchi o'zini qiziqtirgan barcha ma'lumotlarni yagona ma'lumotlar bazasidan identifikatsiya raqami yoki shtrix kod orqali topishni osonlashtiradi. Veterinar va zootinjenerlar uchun bu ma'lumotlar hozirgi vaqtdagi holati va kelajakda chorvachilik sohasi haqida to'liq tasavvur beradi.

26. Hayvonning pasporti yo'qolganda yoki yaroqsiz holga kelib qolganda uning dublikati beriladi. Hayvonning pasporti yo'qolganligi va yaroqsiz holga kelganligi to'g'risidagi ariza (yaroqsiz holga kelgan taqdirda hayvonning pasporti bilan birga) davlat veterinariya xizmatining vakiliga taqdim qilinadi va yo'qolgan yoki yaroqsiz holga kelgan

hayvonning pasporti hayvon egasi tomonidan ariza berilgan kundan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanadi.

27. Dublikat berish to'g'risida ariza taqdim qilingan kundan boshlab besh ish kun ichida davlat veterinariya xizmatining vakili hayvon egasiga yuqori qismining o'ng burchagiga «DUBLIKAT» so'zi yozilgan yangi veterinariya pasportini rasmiylashtirib beradi. Shu vaqtning o'zida yagona elektron axborot tizimiga ma'lumot yuboriladi.

4-bob. Hayvonlarni hisobga qo'yish va hisobdan chiqarish

28. Yirik shoxli mol, qo'y va echkilar, tuyalarning bolalari tug'ilganidan o'n to'rt kundan keyin bir oylikdan kechikmasdan, qulunlar va xo'tiklar to'rt oyligidan, cho'chqa bolalari bir oyligidan, it va mushuklar uch oyligidan hisobga olinadi. Parrandalar gruppaviy identifikatsiya qilinadi, naslli parrandalar bundan istisno.

Yuridik va jismoniy shaxsning chorvachilik xo'jaligini hisobga olish maqsadida barcha turdagi chorvachilik xo'jaliklarga 8- ilovaga muvofiq identifikatsiya qilinadi.

28.1. Yirik shoxli mollarni individual identifikatsiya qilish uchun uning ichki qismidan o'ng va chap quloqqa bir xil noyob raqamiga ega bo'lgan ikkita bir xil quloq birkalardan foydalaniladi. Birkadagi raqam kamida 1 (bir) metr masofadan o'qilishi ta'minlanadi.

28.2. Birkaning bittasi yo'qolganda ikkinchi birka va hayvonning pastportdagi ma'lumotlarga tayanib, yo'qolgan birkani tiklash mumkin.

28.3. Birkalarning ikkitasi ham yo'qolgan taqdirda, hayvonni identifikatsiya qilish va hisobini yuritish imkonini beradigan boshqa usuli yo'qligini inobatga olib, u so'yishga yuboriladi. Ushbu hayvondan go'sht va boshqa so'yish mahsulotlaridan foydalanish to'g'risidagi qaror so'yishdan oldin tekshiruv va veterinariya-sanitariya tekshiruv natijalari asosida qabul qilinadi.

29. Mayda shoxli mollar individual identifikatsiya qilinadi va hisobi yuritiladi. Mayda shoxli mollarni doimiy guruhleri (podalar, suruv, shuningdek, chorvachilik va boshqa korxonalarda muqim saqlanayotgan hayvonlar) guruhli identifikatsiya qilish va guruhli hisobga qo'yish taqozo etadi.

29.1. Mayda shoxli mollarni individual identifikatsiya qilish uchun uning ichki qismidan o'ng quloqning o'rtasiga birka qo'yiladi. Birkadagi raqam kamida 1 (bir) metr masofadan o'qilishi ta'minlanadi.

29.2. Birka yo'qolgan taqdirda, hayvonni identifikatsiya qilish va hisobini yuritish imkonini beradigan boshqa usuli yo'qligini inobatga olib, uni so'yishga yuboriladi. Ushbu hayvondan go'sht va boshqa so'yish mahsulotlaridan foydalanish to'g'risidagi qaror so'yishdan oldin tekshiruvi va veterinariya-sanitariya tekshiruvi natijalari asosida qabul qilinadi.

30. Otlar individual identifikatsiya qilinadi va har biri bo'yicha alohida hisobi yuritiladi. Otlarni individual identifikatsiya qilish uchun uning ichki qismidan o'ng quloqqa, quloq o'rtasiga birka qo'yiladi. Tavro (tamg'a) belgilash uchun chap soniga bosiladi, yoki ot yonining orqasida bo'yin o'rtasidagi mushak ichiga chip o'rnatiladi (elektron identifikatsiya), yoki ot labining ichki yuzasida tatuirovka bosiladi.

31. Tuyalar individual identifikatsiya qilinadi va hisobi yuritiladi. Tuya individual identifikatsiya qilish uchun uning ichki qismidan o'ng va chap quloqqa bir xil noyob raqamiga ega bo'lgan ikkita bir xil quloq birkalar birlashtiriladi. Birkadagi raqam kamida 1 (bir) metr masofadan o'qilishi ta'minlanadi. Tavro (tamg'a) belgilash uchun chap soniga bosiladi.

31.1. Birkaning bittasi yo'qolganda ikkinchi birka va hayvonning pastportdagi ma'lumotlarga tayanib, ikkinchi birkani tiklash mumkin.

31.2. Birkalarning ikkitasi ham yo'qolgan taqdirda, tuyani identifikatsiya qilish va hisobini yuritish imkonini beradigan boshqa usuli yo'qligini inobatga olib, u so'yishga yuboriladi. Ushbu hayvondan go'sht va boshqa so'yish mahsulotlaridan foydalanish to'g'risidagi qaror so'yishdan oldin tekshiruvi va veterinariya-sanitariya tekshiruvi natijalari asosida qabul qilinadi.

32. Cho'chqalarning doimiy guruhlaridan tashqari identifikatsiya qilish va hisobga olishni taqozo etadi. Cho'chqaning ichki qismidan o'ng quloqqa, quloq o'rtasiga birka qo'yish bilan individual identifikatsiya qilinadi. Birkadagi raqam kamida 1 (bir) metr masofadan o'qilishi ta'minlanadi.

32.1. Birka yo'qolgan taqdirda, cho'chqani identifikatsiya qilish va hisobini yuritish imkonini beradigan boshqa usuli yo'qligini inobatga olib,

u so'yishga yuboriladi. Ushbu hayvondan go'sht va boshqa so'yish mahsulotlaridan foydalanish to'g'risidagi qaror so'yishdan oldin tekshiruv va veterinariya-sanitariya tekshiruv natijalari asosida qabul qilinadi.

32.2. Cho'chqachilik korxonalarida saqlanayotgan cho'chqalarning doimiy guruhlari guruhli identifikatsiya qilinadi va hisobga qo'yiladi.

32.3. Birka orqali belgilanmagan cho'chqalarni boshqa chorvachilik korxonalariga ko'chirib yoki boshqa egasiga topshirib bo'lmaydi (ularni bir guruh sifatida so'yishga yuborish bundan mustasno).

32.4. Guruhli identifikatsiya qilingan va hisobga qo'yilgan, lekin yakka tartibda identifikatsiya qilinmagan va hisobga qo'yilmagan cho'chqalar guruhlardan aholiga, xususiy xo'jaliklarga va korxonalarga sotilishi (berilishi, topshirilishi) ta'qiqlanadi.

33. Parrandalar, naslli parrandalardan tashqari, guruxli identifikatsiya qilinadi va hisobga qo'yiladi. Dastlabki liniyalariga ega naslli parrandalar individual identifikatsiya qilinadi va hisobga olinadi.

33.1. O'zbekiston Respublikasida urchitilgan yosh parrandalarni uch kundan kechiktirmay, O'zbekiston Respublikasiga olib kirilgan parrandalarni halqalash yo'li bilan ko'pi bilan 7 (yetti) kun ichida halqa biriktirib, identifikatsiya qilinadi va hisobga qo'yiladi. Halqa noyob raqamli vizual ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

33.2. Halqalashdan tashqari, parranda egasining talabiga binoan ularning mushagi ichiga chip o'rnatiladi (elektron identifikatsiya).

34. Mo'ynali hayvonlar va quyonlar, shu jumladan nasldor hayvonlar tamg'alanmaydi va guruhli identifikatsiya qilinadi va hisobga qo'yiladi.

34.1. Mo'ynali hayvonlar va quyonlar egasining iltimosiga ko'ra, ularni guruhli va individual identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut orqali tamg'alash (mushagi ichiga chip o'rnatilish yoki o'ng quloqning ichki yuzasida noyob raqamni tatuirovka bosish), identifikatsiya qilinadi va hisobga olinadi.

35. Asalari oilalari xo'jaligi (paseka) guruhli identifikatsiya qilinadi va hisobga olishni taqozo etadi, identifikatsiya qilinadigan davrda bu asalari oilasi hayvonlar guruhi hisoblanadi. Har bir asalari oilalari xo'jaligi (paseka)ga 7- ilovaga muvofiq veterinariya-sanitariya pasporti rasmiylashtirilib, beriladi.

35.1. Asalari uyasi (uley) belgilash uchun ularning har qanday tashqi devorga identifikatsiya raqami chizib ko'rsatiladi. Shu bilan birga bu asalari uyaning (uley) identifikatsion raqami hisoblanadi. Identifikatsiya raqami kamida 5 (besh) metr masofadan o'qilishi kerak.

35.2. O'zbekiston Respublikasi hududida shakllangan asalari oilalarini identifikatsiya qilishi va hisobga qo'yish asalari oilasi shakllanganidan (bir uyaga to'plangan) so'ng ko'pi bilan 3 (uch) hafta muddat ichida amalga oshiriladi.

36. Itlar va mushuklar identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut orqali tamg'alash (mushagi ichiga chip o'rnatilish yoki o'ng quloqning ichki yuzasida noyob raqamni tatuirovka bosish, yoki jeton bo'yinboqqa birlashtirish) majburiy identifikatsiya qilishi va ro'yxatga olishi 3 (uch) oylik yoshdan kechiktirilmay amalga oshiriladi.

37. Baliq va boshqa suv hayvonlarni boqish (urchitish, parvarish qilish) uchun asosiy qismini individual tamg'alash lozim emas, ular akvakultura muassasalariga identifikatsiya raqamini berib, faqat guruhli identifikatsiya qilinadi va hisobga olinadi. Lekin, kerak bo'lganda, ularga mikrochip o'rnatib, identifikatsiya qilish mumkin.

37.1. Akvakultura ob'ektiga identifikatsiya raqami berilganda uning aniq manzili va koordinatalari elektron axborot tizimiga kiritiladi. Akvakultura ob'ekti foydalanishdan 1 (bir) oy oldin identifikatsiya qilinadi.

37.2. Mazkur akvakultura inshoati tarkibidagi baliq va suv hayvonlarning biologik turlarini identifikatsiya qilish va hisobga olish, ularni ko'paytirish va parvarish qilish uchun olib keltirilgandan keyin bir oydan kechiktirmay amalga oshiriladi.

37.3. Yetishtirilgan mahsulotlar – baliq, urug'langan ikra, qisqichbaqa va boshqa suv organizmlarini olib chiqish va sotish paytida ularni kuzatib borish veterinariya xujjatlarni berish uchun baliqchilik xo'jaligiga 9- ilovaga muvofiq pasport rasmiylashtiriladi.

37.4. Pasport baliqchilik xo'jaligida o'ta xavfli va karantin kasalliklari yo'qligi, mahsulotlar veterinariya-sanitariya ko'rigidan va barcha zarur laboratoriya sinovlaridan o'tganligi sababli aholi uchun xavfsizligini tasdiqlaydi.

38. Aholini hayvonlar va odam uchun umumiy bo'lgan kasalliklardan muhofaza qilish maqsadida xaridor (oluvchi) hayvonni sotib olganda (hadyani olganda, exson va h.k.) doimiy yashash joyi bo'yicha davlat veterinariya xizmatining vakiliga 7 (yetti) kalendar kun ichida hayvonni hisobga qo'yishini ta'minlaydi.

39. Hayvonlar hisobga qo'yishi bilan barobar egasining shaxsini tasdiqlovchi hujjatga asosan veterinariya pasporti rasmiylashtiriladi.

40. Hayvon egalari arizasiga muvofiq davlat veterinariya xizmati tomonidan hayvonlarni hisobga olish ushbu Nizomning 1- ilovasida keltirilgan sxemaga muvofiq 3 (uch) kalendar kun ichida amalga oshiriladi.

41. Hayvonlar hisobga olinishi bilan barobar egasining shaxsini tasdiqlovchi hujjatga asosan veterinariya pasporti rasmiylashtiriladi.

42. Identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut va veterinariya pasporti hayvonning yashash davri davomida saqlanishi shart.

43. Identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut yoki hayvonning pasporti bo'lmagan hayvonlar identifikatsiya qilinmagan hisoblanadi.

44. Hayvondan identifikatsiya raqamini saqlovchi atributni yechish, o'zgartirish, boshqa hayvon identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut bilan almashtirish, hayvonning pasportiga o'zboshimchalik bilan o'zgartirish va qo'shimchalar, turli yozuvlar kiritish, shuningdek, nobud bo'lgan (so'yilgan, yo'q qilingan) hayvonlarning identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut va hayvonning pasportini saqlash (ishlatish) taqiqlanadi.

45. Hayvonlar hisobga qo'yilishdan oldin hayvon egalari ushbu Nizom talablari bilan tanishtiriladi va ularga hayvonni identifikatsiya qilishni ahamiyati, bugungi kundagi talablarga javob berishda hayvon egasining ma'suliyati to'g'risida tushuncha beriladi.

46. Hayvon egalari hayvon so'yilganda (nobud bo'lganda, yo'q qilinganda) hayvonning identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut, shu jumladan, elektron identifikatsiyalashda ishlatiladigan mikrochip va hayvonning pasportini 7 (yetti) kun muddatda doimiy yashash manzili bo'yicha davlat veterinariya xizmatining vakiliga hisobdan chiqarish uchun ariza bilan birga taqdim etadi.

47. Davlat veterinariya xizmati hayvonlarning identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut va veterinariya pasportida so'yilishi, nobud

bo'lishi yoki yuqolgan to'g'risidagi ma'lumotlar asosida hayvonlarni hisobdan chiqaradi va ushbu to'g'risida ma'lumotlar elektron axborot tizimiga operator orqali kiritiladi.

48. Davlat veterinariya xizmatining vakiliga hayvon egalari hayvon sotilganligi yoki hadya qilinganligini hayvonning pasportida tasdiqlatishga majburdir, bunda hayvon egasi o'zining shaxsini tasdiqlovchi hujjatini ham taqdim etadi.

5- bob. Nazorat ostidagi tovarlarni kuzatib borish

49. Hayvonni identifikatsiyasidan keyin, uni va undan olingan mahsulotlarni kuzatub borishi bo'yicha xujjatlarni qog'oz yoki elektron formatda rasmiylashtiriladi. Kuzatib borishni elektron veterinariya sertifikatlashni (raqamlashtirish) orqali amalga oshirib, xavfsiz va yuqori sifatli chorvachilik mahsulotlarni mamlakat ichida iste'mol uchun va eksportga junatishga muljallanadi.

Identifikatsiyalash va kuzatib borish yordamida nazorat ostidagi ob'ektning tarixini, ishlatilishini yoki joylashuvi o'zgarganini kuzatish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

a) mahsulot xavfsizligi xavfiga shubha tug'lsa, mahsulotni chaqirib (qaytarib) olish;

b) butun ishlab chiqarish zanjiri bo'ylab mahsulot tarixini bilish;

v) har qanday nuqsonlar chorvachilik mahsulot xavfsizligiga ta'sir ko'rsatishidan qat'i nazar, ayrim kamchiliklar (nuqsonlar)ni bartaraf etish;

g) iste'molchilarga kerakli ma'lumotlarni taqdim etish (mahsulotlarning kelib chiqishi, allergenlarning mavjudligi, fizik ifloslantiruvchi moddalar borligi va boshqalar);

d) muammo yuzaga kelganda mas'ul(lar)ni aniqlash.

50. Tadbirkorlar uchun nafaqat xavfsizlikni, balki optimallashtirish, ya'ni oldindan ma'lum bo'lgan xavfli va sifati past mahsulotni chaqirib olish orqali tejamkorlik ta'minlanadi. Aniqlangan kamchiliklarni tuzatish yoki bunday mahsulotlardan o'z vaqtida qutulish imkoniyatini beradi.

Chunki hayvonning harakat va turgan joyini kuzatish – bu yetkazib berish zanjiri bo'ylab mahsulotlarni bir yoki bir necha mezonlarga muvofiq identifikatsiyalash imkonini beruvchi chora-tadbirlar majmuidir.

(masalan, partiya raqami yoki amal qilish muddati va boshqalar). Bu jarayon mahsulotlarni qaytarish zarur bo'lganda amalda qo'llaniladi.

Nazorat ostidagi tovarning partiya raqamiga ko'ra, ushbu mahsulotni ishlab chiqarishda qanday xom ashyo ishlatilganligi ma'lum bo'ladi. Bu yetkazib berish zanjiridagi tovarlarning kelib chiqishini ular to'g'risida oldingi bosqichlarida qilingan yozuvlardan aniqlanadi. Kuzatuv savdo hamkorlar, kuzatilgan tovarlar oqimlari va ular haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

51. Yetkazib berish zanjirlarida kuzatuvning maqsadlari uchun barcha ishtirokchilar tashqi va ichki kuzatib borishni bajarish kerak. Ichki kuzatuv savdo hamkor kuzatilgan tovarni olgan paytdan boshlanadi. Ushbu tovarga nisbatan bu hamkor quyidagilarni kuzatib borishi va qayd etishi kerak:

a. Tovarning tashqi va ichki kuzatib borish chegarasini kesib o'tish natijasida uni qabul qiluvchi hamkor yoki yetkazib berish zanjiri bo'ylab keyingi hamkorga o'tishini.

b. Kuzatib borishni amalga oshirganda boshqa tomonni jalb etmasdan har bir ichki kuzatish jarayon tovarning kirish va chiqishdagi holatini qayd etib, quyidagi jarayonlardan birini o'z ichiga oladi: – harakat – transformatsiya (bir holdan boshqa holga o'tish yoki o'zgarish) – saqlash – foydalanish – yo'q qilish. Har bir kuzatuv bo'yicha hamkor qabul qilingan tovar haqidagi ma'lumot kirishda uni saqlab qolishi va tovarni yetkazib berish zanjiri bo'ylab keyingi hamkorga uzatilganda chiqishdagi ushbu ma'lumotlarga mos kelishini ta'minlashi shart.

52. Nazorat ostidagi tovarning tashqi kuzatuvini uni bir hamkordan boshqasiga jismoniy o'tkazishdan boshlanadi. Kuzatilayotgan tovarni jo'natuvchi va qabul qiluvchi doimiy o'zaro aloqada bo'ladi va identifikatsiya ma'lumotlarini qayd etadi. Bu tovarning tarixini yoki uning oziq-ovqat zanjirida aylanishini kuzatib borishda ma'lumotlarining samarali oqimini ta'minlaydi. Barcha kuzatib borilgan tovarlar ularga tayinlangan identifikatsiya ma'lumotlarini o'z ichiga oladi va to'g'ri markirovkalanadi. Topilishi va kuzatilishi kerak bo'lgan har qanday tovar identifikatsiya qilinishi kerak.

53. Nazorat ostidagi tovarlarni, shu jumladan hayvonlarni, kuzatib borishi xavfni boshqarish vositasi bo'lib, hayvon va undan olingan

mahsulotlari uchun hech qanday imtiyozlarni bermaydi – u faqat tovarlarning sotilayotgan joylarini aniqlab, hatto tayyor mahsulotlarda ham mumkin bo'lgan xavflardan, iste'molchilarni himoya qiladi.

54. Davlat veterinariya inspektori nazorat ostidagi tovarlarning kuzatib borishi bilan bog'liq zarur ma'lumotlarni, shuningdek tegishli materiallarni va hujjatlarni talab qilish va olish huquqiga ega.

6-bob. Hayvonlarni saqlash

55. Hayvonlar veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalari talablariga muvofiq sharoitlar bor joylarda (binolarda) saqlanadi.

56. Shahar hududida hayvonlarni saqlashda ularning bosh sonlarining chegaralari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilanadi.

57. Qoramollar, qo'y va echkilar, cho'chqalar, otlar, eshaklar va tuyalarni ko'p qavatli turar-joylarda saqlashga yo'l qo'yilmaydi.

58. Aholini hayvonlar va odam uchun umumiy bo'lgan kasalliklardan muhofaza qilish maqsadida identifikatsiya qilinmagan hamda hisobga qo'yilmagan hayvonlarni yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan saqlash va boqish taqiqlanadi.

Ko'chalar, chorrahalar, istirohat bog'lari, avtomobil yo'llari va temir yo'llar hamda ochiq maydonlarda chiqindilar va go'ngni to'plash, saqlash, tashlash va yoqish taqiqlanadi.

59. Hayvonlardan hosil bo'lgan chiqindilar va go'ng veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq saqlanadi, utilitatsiya yoki yo'q qilinadi.

7-bob. Qarovsiz hayvonlarni tutish va saqlash

60. Har qanday nazoratsiz qolgan hayvonning egasi mahalliy davlat hokimiyati organlari hisoblanadi.

61. Qarovsiz hayvonlarni tutish, tashish va saqlash tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalari yoki xokimiyat tomonidan tayinlangan boshqa mutassadi organlar huzuridagi qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish

bo'limlari tomonidan veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Uy hayvonlari majburiy ravishda kastratsiya yoki sterilizatsiya qilinadi ("naslchilik qiymati" ni tashkil etuvchi hayvonlar bundan mustasno), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi uy hayvonlarini majburiy sterilizatsiya qilish yoki kastratsiya qilish talabi qo'llanilmaydigan holatlar ro'yxatini belgilaydi.

62. Yuqumli kasalliklarga chalinganligi gumon qilingan va odamlarga tajovuz qilayotgan hayvonlar to'g'risida hayvon egalari yoki tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalari huzuridagi qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish bo'limlari tomonidan davlat veterinariya xizmatlari ogohlantiriladi.

63. O'lgan hayvonning murdasini tashlab yuborish, uni mustaqil ravishda dafn etishni amalga oshirish taqiqlanadi. It va mushuklarning jasadlari daydi hayvonlarni tutish va o'lgan hayvonlarning jasadlarini utilizatsiya qilish yoki nobud bo'lgan hayvonlarni yig'ish nuqtalariga topshiriladi va tegishli hujjatlar rasmiylashtiriladi.

64. Tuman (shahar) mahaliy davlat hokimiyati organning tegishli struktura qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish, saqlash va boshqa choralarni ko'rishadi.

Izoh. *O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 191-moddasiga ko'ra "Egasiz ashyo moddasiga ko'ra egasi bo'lmagan yoki egasi noma'lum bo'lgan ashyo egasiz ashyo hisoblanadi". Agar bu hol topilma to'g'risidagi, qarovsiz hayvonlar va xazina to'g'risidagi qoidalarda rad etilmagan bo'lsa, egasiz ko'char ashyolarga egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida qo'lga kiritilishi mumkin deb uqtirilgan.*

Va shu kodeksning 195- "Qarovsiz hayvonlar" moddasiga ko'ra qarovsiz yoki adashgan chorva mollarini yoxud boshqa qarovsiz o'y hayvonlari yoki qo'lga o'rgatilgan hayvonlarni tutib olgan shaxs ularni egasiga qaytarishi shart, basharti hayvonlarning egasi yoki uning qaerdaligi noma'lum bo'lsa, tutib olgan paytdan boshlab uch kundan kechiktirmay topilgan hayvonlar to'g'risida ichki ishlar organiga, tegishli davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga

xabar qilishi shart, ular hayvonlarning egasini qidirish choralarini ko'radilar va hokazo.

Muvaffaqiyat uchun uy hayvonlarini kastratsiya yoki sterilizatsiya qilish dasturlarini tasdiqlash kerak bo'ladi. Taxminan, 6 yil ichida bitta it va uning avlodlari 67000 tagacha kuchukcha tug'ishga qodir. Buning yechimi veterinariya korxonalariga (klinika, uchastka va boshqalar) preferensiyalar berish dasturlari, mahalliy veterinarlarning yordami va eng muhimi, ommaviy axborot vositalarining ma'rifat faoliyatidir.

Odamlarga qarovsiz va tashlandiq hayvonlarning hayoti haqidagi og'ir haqiqatni yetkazish hamda kastratsiya yoki sterilizatsiyaning ijobiy tomonlarini ochib berish kerak. Odamlar o'z mas'uliyatini anglamaguncha, muammoni hal qilish imkonsiz bo'ladi. Bunday operatsiyalarni bepul bajarish yoki narxini pasaytirish muhim rol o'ynaydi. Veterinariya klinikalarini subsidiyalash bunday operatsiyalarni yanada qulayroq qilishga yordam beradi.

Hayvonlarni mahalliy hokimiyat organlari hisobidan kastratsiya va sterilizatsiya qilish orqali ularning miqdoriy kamayishiga erishish mumkin. Sterilizatsiya qilinmagan hayvonlarni asrash huquqi faqat bu faoliyat bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega va tegishli soliq to'laydigan shaxslarda qolishi kerak.

8-bob. Hayvon egalarining huquqlari va majburiyatlari

65. Hayvon egalari:

veterinariya xizmatidan hayvonlarning kasallikka chalinishi holati, epizootik vaziyat to'g'risida, shuningdek, hayvonlarda o'tkazilgan maxsus tekshirishlar natijalari, ularga ko'rsatilgan veterinariya xizmati uchun to'lovlar miqdorlari haqida axborot va boshqa ma'lumotlarni olish;

veterinariya xizmati ko'rsatilishi to'g'risida tegishli veterinariya xizmatlari, shuningdek, xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari bilan shartnomalar tuzish;

hayvonlarni, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni, ozuqalarni, ozuqabop qo'shimchalarni, veterinariya dori va texnika vositalarini veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq olish hamda realizatsiya qilish;

davlat organlari va boshqa organlarning qonunga xilof qarorlari, ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki mansabdor shaxsga yoxud bevosita sudga shikoyat qilish huquqlariga ega.

Hayvon egalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

66. Hayvon egalari:

veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etish;

davlat veterinariya xizmatining ko'rsatmalarini bajarish;

o'zlariga tegishli hayvonlar kasalliklarining oldini olishga qaratilgan tashkiliy-xo'jalik va veterinariya tadbirlarini o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan tadbirlar bundan mustasno;

kasal hayvonni davolatish, zarur bo'lgan hollarda tegishli davlat veterinariya inspektorining ko'rsatmasiga ko'ra uning so'yilishini yoki yo'q qilinishini belgilangan tartibda ta'minlash;

hayvonlarning to'satdan nobud bo'lganligi yoki g'ayriodatiy xatti-harakati holatlari to'g'risida tegishli davlat veterinariya xizmatini zudlik bilan xabardor qilish;

hayvonlarni yuqumli kasalliklardan muhofaza etish bo'yicha tegishli karantin tadbirlari va boshqa veterinariya tadbirlari o'tkazilishini, shuningdek, to'liq hajmda davolash-profilaktika tadbirlari o'tkazilishini ta'minlash;

chorvachilik binolarini hamda hayvonlarni saqlash uchun mo'ljallangan boshqa inshootlarni veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq saqlash;

hayvonlar saqlanayotgan va boqilayotgan ob'ektlarda dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish;

hayvonlarni veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga rioya etgan holda realizatsiya qilishni amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi veterinariya qo'mitasi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilmagan veterinariya dori vositalarini va ozuqabop qo'shimchalarni hayvonlarda qo'llamaslik;

so'yiladigan hayvonlarni so'yishga doir veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga rioya etish;

so'yiladigan hayvonlarni faqat ruhsat etilgan so'yish korxonasida so'yish (veterinariya vrachining ruxsati bilan shaxsiy ehtiyoji uchun yoki majburiy so'yish bundan mustasno);

hayvonlarni davlat veterinariya xizmatida ro'yxatdan o'tkazish va identifikatsiya qilish;

hayvonlarning identifikatsiya raqamini saqlovchi atributini va veterinariya pasporti saqlanishini ta'minlash;

hayvonga berilgan identifikatsiya raqamini saqlovchi atributi va veterinariya pasporti uchun belgilangan to'lovlarni amalga oshirishga majburdir.

Hayvonlar egalarining zimmasiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

67. Hayvon egalari hayvonlarni sog'lig'iga va ushbu Nizomga muvofiq saqlanishiga hamda hayvonlar tomonidan odamlarga yetkazilgan har qanday tarzdagi zarar uchun javob beradilar.

9-bob. Yakunlovchi qoidalar

68. Ushbu Nizomga rioya qilinishini nazorat qilish mahalliy davlat hokimiyati organlari, ichki ishlar organlari, davlat veterinariya inspektorlariga va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatli organlarga yuklatiladi.

69. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Izoh. Xayvonlarni majburiy identifikatsiya qilish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- har bir hayvonni kuzatib borish (O'zbekistonda hayvonlarning 90% dan ko'prog'i aholiga xususiy bo'lgani uchun bu o'ta muhim);

- nafaqat hayvonlar, balki chorvachilik xom ashyosi va mahsulotlarni kelib chiqishi hamda kuzatib borishi ularning soxtalastirishini oldini olish uchun sharoit yaratadi;

- oziq-ovqat zanjirining har bir bosqichida oziq-ovqat xavfsizligini nazorat qilish, hayvon tug'ilishdan boshlab, yetishtirish, ozuqalantirish, dori-darmonlar yordamida davolash yoki kasalliklarni oldini olish, hayvonlarni so'yish usullari, xom ashyoni qayta ishlash, tashish shartlari, saqlash, tayyor mahsulotlarni sotishini kuzatib boriladi;

- hayvon identifikatsiya qilinmagan bo'lsa yoki hayvon har qanday infeksiyaning manbai ekanligi aniqlanmagan bo'lsa, veterinarlar tomonidan sotish yoki so'yish uchun ruxsat berilmaydi;

- chorvachilik xom ashyosi va mahsulotlarining kelib chiqishi, hayvonlarga veterinariya xizmatlari ko'rsatilishi, chorvachilik mahsulotlarining ichki va jahon bozorlarida raqobatbardoshligi to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlaydi.

Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ularning hisobini yuritish va kuzatib borishi tartibi to'g'risidagi nizomga 1-ilova

Hayvonlarni hisobga olish va hisobdan chiqarish

SXEMASI

Bos-qich	Sub'ektlar	Chora-tadbirlar	Bajarish muddati
I	Arizachi	Ushbu Nizomning 7-bandiga asosan hayvonlarni identifikatsiya qilish bo'yicha davlat veterinariya xizmati vakiliga og'zaki yoki yozma ravishda arizani taqdim etadi.	Ushbu Nizomdagi 28-bandida ko'rsatilgan vaqt utgach 3 (uch) ish kuni mobaynida
II	Davlat veterinariya xizmatining vakili	Ariza olingandan kundan boshlab uch kun ichida hayvonlar identifikatsiya qilinadi. Hayvonlarni identifikatsiya qilish va hisobga olish ishlari natijalari bo'yicha hayvonning pasporti rasmiylashtiriladi va elektron axborot tizimiga ma'lumotlar kiritiladi.	Hayvonlarga identifikatsiya raqami berilgan kunida
III	Arizachi	Ushbu Nizomning 46- bandiga asosan hayvonni hisobdan chiqarish bo'yicha davlat veterinariya vakiliga ariza taqdim etadi	7 (yetti) kun ichida
IV	Davlat veterinariya xizmatining vakili	Arizachining murojaatiga asosan hayvonni hisobdan chiqaradi. Hayvonni hisobdan chiqargani to'g'risidagi ma'lumotlar elektron axborot tizimiga kiritiladi	1 (bir) kun ichida

Identifikatsiya raqamini saqlovchi quloq birkalari, jetonlar turlari va me'yorlari

Hayvonlar uchun issiq va sovuqqa chidamli elastik polimer materiallardan tayyorlangan quloq birkasi ishlatiladi.

Yrik shoxli mollar uchun quloq birkasining plastmassa turi quyidagi hajmda: eni — 57 mm, balandligi — 77 mm (1-rasm).

Tuyalar uchun: eni — 40 mm, balandligi — 45 mm (2-rasm).

Qo'y va echkilar uchun: eni — 37 mm, uzunligi — 41 mm (3-rasm).

Cho'chqalar uchun tugma ko'rinishidagi birkalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, diametri 25 mm (4-rasm).

1-rasm



2-rasm



3-rasm



4-rasm



Quloq birkalari hayvonlarning qulog'iga birkalarni o'rnatish texnikasiga muvofiq o'rnatiladi.

Uy hayvonlari uchun issiq va sovuqqa chidamli elastik polimer va aluminiy materiallardan tayyorlangan jeton tavsiya etiladi.

Uy hayvonlari uchun diametri 30 mm tugmali jetondan foydalanish maqsadga muvofiq (5-rasm).

5-rasm



**Hayvonlarni identifikatsiya qilish uchun Qoraqalpog‘iston
Respublikasi,
viloyatlar va Toshkent shahar harfli kodlari**

Harfli kodlar	Hududlar nomi
A	Qoraqalpog‘iston Respublikasi
B	Andijon viloyati
C	Buxoro viloyati
D	Jizzax viloyati
E	Qashqadaryo viloyati
F	Navoiy viloyati
G	Namangan viloyati
H	Samarqand viloyati
K	Surxondaryo viloyati
L	Sirdaryo viloyati
M	Toshkent viloyati
N	Farg‘ona viloyati
O	Xorazm viloyati
P	Toshkent shahri

**Hayvonlarni identifikatsiya qilish uchun Qoraqalpog‘iston
Respublikasi,
viloyatlar va Toshkent shahar harfli kodlari**

Harfli kodlar	Hududlar nomi
A	Qoraqalpog‘iston Respublikasi
B	Andijon viloyati
C	Buxoro viloyati
D	Jizzax viloyati
E	Qashqadaryo viloyati
F	Navoiy viloyati
G	Namangan viloyati
H	Samarqand viloyati
K	Surxondaryo viloyati
L	Sirdaryo viloyati
M	Toshkent viloyati
N	Farg‘ona viloyati
O	Xorazm viloyati
P	Toshkent shahri

Hayvonlar turi	Raqamli kod
Qoramollar	1
Qo'y va echkilar	2
Tuyalar	3
Otlar	4
Eshaklar	5
Cho'chqalar	6
Sherik (kompanon) hayvonlar (it, mushuk va boshqa)	7

**Hayvonning identifikatsiya qilinganligi to'g'risida
QAYDNOMA**


T/r	Hayvon egasi		Hayvon to'g'risida ma'lumotlar							Hayvon egasining imzosi	
	F.I.O. (nomi)	Manzili	Iden-tifi-katsi-yalash usuli	Iden-tifi-katsiya raqami	Yoshi (tug'i-lgan sanasi)	Turi	Zoti	Jinsi	Rangj	Laqabi	

_____ (imzo, mohr)

_____ (F. I.Sh.)

«__» _____ 20__ y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI



HAYVONNING PASPORTI

HAYVON EGASIGA BERILADIGAN XUJJAT

(VILOYAT)

(TUMAN, SHAHAR VETERINARIYA BO'LIMI)

M.O'.

Tuman (shahar) veterinariya
bo'limi boshlig'ining imzosi

HAYVON EGASI HAQIDA MA'LUMOTLAR

FAMILIYASI _____

ISMI _____

OTASINING ISMI _____

YURIDIK SHAXSNING TO'LIQ NOMI _____

MANZILI: _____

XAYVON EGASINING PASPORTIGA OID MA'LUMOTLAR

SERIYASI _____

RAQAMI _____

QACHON VA KIM TOMONIDAN BERILGAN

HAYVON HAQIDA MA'LUMOTLAR

HAYVON TURI _____

TUSI _____

JINSI _____

ZOTI _____

YOSHI _____

LAQABI (agar bo'lsa) _____

HAYVON PASPORTI BERILGAN

KIM TOMONIDAN _____

QACHON _____

HAYVONNING PASPORTI

SERIYASI _____

RAQAMI _____

(HAYVONNING PASPORTI RAQAMI OCHGAN XODIMNING LAVOZIMI)

M.O'.

(FAMILIYASI, ISMI, OTASINING ISMI)

(IMZO) _____

**HAYVONNING EGASI O'ZGARGANLIGI HAQIDA
MA'LUMOTLAR**

FAMILIYASI _____

ISMI _____

OTASINING ISMI _____

YURIDIK SHAXSNING TO'LIQ NOMI _____

MANZILI _____

PASPORTIGA OID MA'LUMOTLAR

SERIYASI _____

RAQAMI _____

QACHON VA KIM TOMONIDAN BERILGAN

M.O'.

FAMILIYASI, ISMI, OTASINING ISMI

Imzo _____

**HAYVONNING EGASI O'ZGARGANLIGI HAQIDA
MA'LUMOTLAR**

FAMILIYASI _____

ISMI _____

OTASINING ISMI _____

YURIDIK SHAXSNING TO'LIQ NOMI _____

MANZILI _____

PASPORTIGA OID MA'LUMOTLAR

SERIYASI _____

RAQAMI _____

QACHON VA KIM TOMONIDAN BERILGAN

M.O'.

FAMILIYASI, ISMI, OTASINING ISMI

Imzo _____

**HAYVONNING EGASI O'ZGARGANLIGI HAQIDA
MA'LUMOTLAR**

FAMILIYASI _____

ISMI _____

OTASINING ISMI _____

YURIDIK SHAXSNING TO'LIQ NOMI _____

MANZILI _____

PASPORTIGA OID MA'LUMOTLAR

SERIYASI _____

RAQAMI _____

QACHON VA KIM TOMONIDAN BERILGAN

M.O'.

FAMILIYASI, ISMI, OTASINING ISMI

Imzo _____

**HAYVONNING EGASI O'ZGARGANLIGI HAQIDA
MA'LUMOTLAR**

FAMILIYASI _____

ISMI _____

OTASINING ISMI _____

YURIDIK SHAXSNING TO'LIQ NOMI _____

MANZILI _____

PASPORTIGA OID MA'LUMOTLAR

SERIYASI _____

RAQAMI _____

QACHON VA KIM TOMONIDAN BERILGAN

M.O'.

FAMILIYASI, ISMI, OTASINING ISMI

Imzo _____

SIGIRNI SUN'IY URUG'LANTIRISH VA TUG'ISHINI HISOBGA OLISH

Id. yoki inv. № _____ Laqabi (mavjud bo'lsa) _____

tug'ilgan vaqti (kun, oy, yil) _____

Y., oy	Tug'ilgan buzoqning				Qochirish								Bo'g'ozligini tekshirish natijalari		Kuni	
					rejada		haqiqatda									
	Ku- ni	Ji- nsi	Tirik vazn, kg	Id. №	kuni	Buqa Id. №	kuni	Buqa Id. №	kuni	Buqa Id. №	kuni	Buqa Id. №	Kun	Natijasi	Tug'ish	Sutdan chiqarish

Sigirni bug'ozlik kalendari (o'rtacha 280 kun hisobida)

Qochish-tug'ish vaqti	Qochish-tug'ish vaqti	Qochish-tug'ish vaqti	Qochish-tug'ish vaqti
Yanvar-Oktabr	April-Yanvar	Iyul-Aprel	Oktabr-Iyul
1 - 7	1 - 5	1 - 6	1 - 7
5 - 11	5 - 9	5 - 10	5 - 11
10 - 16	10 - 14	10 - 15	10 - 16
15 - 21	15 - 19	15 - 20	15 - 21
20 - 26	20 - 24	20 - 25	20 - 26
25 - 31	25 - 29	25 - 30	25 - 31
Fevral-Noyabr	May-Fevral	Avgust-May	Noyabr-Avgust
1 - 7	1 - 4	1 - 7	1 - 7
5 - 11	5 - 8	5 - 11	5 - 11
10 - 16	10 - 13	10 - 16	10 - 16
15 - 21	15 - 18	15 - 21	15 - 21
20 - 26	20 - 23	20 - 26	20 - 26
25 - 1 dekabr	25 - 28	25 - 31	25 - 31
Mart-Dekabr	Iyun-Mart	Sentabr-Iyun	Dekabr-Sentabr
1 - 5	1 - 7	1-7	1-6
5 - 9	5 - 11	5-11	5-10
10 - 14	10 - 16	10-16	10-15
15 - 19	15 - 21	15-21	15-20
20 - 24	20 - 26	20-26	20-25
25 - 29	25 - 31	25-1 iyul	25-30

QORAMOLNING SHAJARASI

Laqabi	on.	Mahsuldorligi								ot.	Avlodlarining sifati						
Individual raqami																	
Tug'ilgan sanasi																	
DNHKdagi raqami																	
Zoti		yil	laktatsiya soni	sog'in kunlari	305 kunda sog'ilgan sut, kg	sut tarkibi, %				yil	soni	305 kunda o'rtacha sut, kg	sut tarkibi, %		sut, kg	yog' bo'yicha, %	oqsil bo'yicha, %
Zotdorligi						%	kg	%	kg				oqsil	oqsil			
Tirik vazni, kg			1														
Ekstereri, ball			2														
Yelini, ball			3														
Klassi																	
Toifasi			eng yuq.														
Liniyasi			o'rt														
Oilasi																	

Laqabi	on.on.	yil	Mahsuldorligi				on.ot.	ot.on.	Mahsuldorligi				ot.ot.
Individual raqami			laktatsiyasi	sog'ilgan sut, kg	yog' %	oqsil, %			yil	laktatsiyasi	sog'ilgan sut, kg	yog' %	oqsil, kg
DNHKdagi raqami													
Zoti			eng yuq.						eng yuq.				
Zotdorligi			o'rt						o'rt				
Tirik vazni													
Klassi													

Laqabi	on.on.on	ot.on.on	on.ot.on	ot.ot.on	on.on.ot	ot.on.ot	on.ot.ot	ot.ot.ot
Individual raqami								
DNHKdagi raqami								
Zoti								
Zotdorligi								

**VETERINARIYA MUTAXASSISLARI TOMONIDAN O'TKAZILGAN
PROFILAKTIKA VA DAVOLASH TADBIRLARI HAMDA HAYVONNI
HISOB DAN CHIQRISH ASOSLARI**

Sana	Tadbir nomi	Rasmiy veterinariya vrachning litsenziyasi	Rasmiy veterinariya vrachning F.I.Sh., imzosi

Asalari oilalar (paseka)ni veterinariya-sanitariya pasporti

1. Umumiy qoidalar. Asalari oilalar (paseka)ni hisobga olish va davolash-profilaktika tadbirlarini o'tkazish maqsadida har bir asalari oilalar (paseka)ga veterinariya pasporti rasmiylashtirilib, beriladi

1.1. Veterinariya-sanitariya pasporti (keyingi matnda – pasport) yuridik va jismoniy shaxsning asalari oilalar (paseka)si uchun to'ldiriladi.

1.2. Pasport tuman (shaxar) davlat veterinariya inspektori va asalari oilalar (paseka) egasi tomonidan imzolanadi va tuman (shaxar) davlat veterinariya inspektorining muhri bilan tasdiqlanadi.

1.3. Pasport qat'iy javobgarlik to'g'risidagi hujjati bo'lib, tartib raqamiga ega, tuman (shaxar) davlat veterinariya bo'limida maxsus yuritiladigan jurnalda ro'yxatga olinadi, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

pasport raqami;

asalari oilalar (paseka) egasining F.I.Sh. (yuridik shaxsning to'liq nomi), aniq manzili ko'rsatiladi;

asalari oilalar (paseka)ni ko'rilgan sanasi;

asalari oilalarning soni;

asalari oilalar (paseka) holatini veterinariya-sanitariya baholashi natijasi haqida xulosa;

tavsiya etiladigan davolash va profilaktika chora-tadbirlar (shu jumladan laboratoriya tadqiqotlari);

maxsus belgilar (pasportni bekor qilish sanasi va boshqalar);

axborot qo'llanmasi.

1.4. Pasport davlat tuman (shaxar) veterinariya inspeksiyasining vakili tomonidan asalari oilalar (paseka)ni shaxsan ko'rigini o'tkazgandan so'ng aniq va xatoga yo'l qo'ymay to'ldiriladi.

1.5. Asalari oilalar (paseka) holatini tekshiruv yiliga kamida bir marta (bahor yoki kuzda) amalga oshiriladi.

1.6. Asalarilar va asalari mahsulotlarini sotishda (eksport qilishda), shuningdek belgilangan tartibda asalari oilalar (paseka)ni boshqa joyga ko'chirishda veterinariya kuzatuvchi hujjatlarni rasmiylashtirish uchun hujjat bo'lib xizmat qiladi.

1.7. Pasport asalari oilalar (paseka)ning egasida doimo saqlanadi.

1.8. Pasport 4-bo'limi to'ldirilganda tuman (shaxar) davlat veterinariya inspeksiyasiga taqdim etilgandan so'ng yangisiga almashtiriladi.

1.9. Asalari oilalar (paseka)ning egasi asalari oilalar (paseka) pasportini yiliga kamida bir marta o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarini hamda o'tkazilgan nazorat ishlari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritish uchun tuman (shaxar) davlat veterinariya bo'limiga taqdim etadi.

Tavsiya etiladigan namuna

Asalari oilalar (paseka)ning veterinariya-sanitariya № _____ son pasporti

_____ berilgan

(asalari oilalar (paseka)ning nomi, egasining F.I.Sh.)

shu xaqidaki unga tegishli bo'lgan _____ asalari oilalari (paseka) miqdorida

_____ joylashgan

(joyni nomi, manzili)

Veterinariya xizmatini ko'rsatilishi qo'yidagi xodimga yuklatiladi

(F.I.Sh.)

Berilgan sana " _____ " _____ 20 _____ g.

Tuman (shaxar) davlat veterinariya inspektori

(F.I.Sh., imzosi)

M.J.

Asalari oilalar (paseka)ning egasi

(F.I.Sh., imzosi)

2. Asalari oilalar (paseka)ning veterinariya sanitariya xolati

Qo'yidagilar erkin shaklda tasvirlanadi:

2.1. Asalari qutilari (uli) joylanish oraliqlari va ularning tagliklari, rang berish, raqamlash, uchisholdi platformalari va boshqalar.

2.2. Asalari oilalar (paseka) va uni hududining veterinariya-sanitariya holati, ehtiyotdan olib qo'yilgan (zapas) asalari qutilari (uli), mumkataklar, oxurlar, xolstiklar, isitadigan tagliklar va boshqalar.

2.3. Dezinfeksiya texnika va jihozlari, dezinfeksiyalovchi vositalar, sanitariya-gigiena vositalari (umivalnik, sovun, maxsus kiyim, asalarichi uchun hojatxona xonasi) mavjudligi.

2.4. Asalari oilalari (paseka)ning mustahkamligi, ona asalari va ularni avlodlarining holati, ozuqa zaxiralarining miqdori va sifati.

2.5. Agar joriy yoki o'tgan yil davomida ona asalari olinganligini tasdiqlovchi bo'yicha hujjatlar mavjud bo'lsa, asalari zoti ko'rsatiladi.

2.6. Lavozimi va imzosi _____ F.I.Sh.

3. Asalari oilalar (paseka)da epizootik holat

3.1. Asalari oilalar (paseka)da veterinariya laboratoriyasida belgilangan dastlabki yoki yakuniy tashxis.

3.2. Kasallikning kelib chiqish sanasi va infeksiyaning mumkin bo'lgan manbai.

3.3. Karantin (cheklov)ni qo'yilgan va bekor qilingan sanasi.

3.4. Vakolatli shaxsning lavozimi va imzosi.

_____ F.I.Sh.

t/b №	Kasallik nomi va paydo bo'lgan sana	Zaharlanish manbayi	Karantin yoki cheklov qo'yilgan va bekor qilingan sana
1	2	3	4

4. Laboratoriya tadqiqotlar

4.1. Patologik materialning o'rganish ob'ekti (asalari, uning avlodi, asal, perga, asalari mumi, mum katak, asal bergich o'simliklar va boshqalar) va tadqiqot yoki tashxis natijasi (aniqlagan taqdirda).

4.2. Veterinariya laboratoriyasining nomi, ekspertiza raqami va davolash tadbirlari bo'yicha tavsiyalar (qo'zg'atuvchilar shtammlarning antibiotiklar va sulfanilamid preparatlariga sezgirligini hisobga olgan holda).

4.3. Vakolatli shaxsning lavozimi va imzosi.

_____ F.I.Sh.

t/b №	Qabul qilingan va tadqiqot sanasi	Tadqiqot ob'ekti	Ekspertiza №, tadqiqot natijalari va tavsiya etilgan chora-tadbirlar
1	2	3	4

5. Terapevtik va profilaktik chora-tadbirlar

5.1. Terapevtik va profilaktik muolajalar, shuningdek dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya va dezakarizatsiya tadbirlar asalari oilalar (paseka) egasi tomonidan bajariladi va davlat veterinariya inspeksiya nazorati ostida amalga oshiriladi.

5.2. Vakolatli shaxsning lavozimi va imzosi.

_____ F.I.Sh.

t/b №	O'tkazilgan chora-tadbir nomi va sanasi	Bajarilgan ish hajmi (karraliligi)	Preparatning nomi, dozasi, ma'lum vaqt saqlanishi (ekspozitsiyasi)
1	2	3	4

Chorvachilik xo'jaligining pasporti

1. Umumiy qoidalar.

1.1. Chorvachilik xo'jaligining pasporti (keyingi matnda – pasport) yuridik va jismoniy shaxsning chorvachilik xo'jaligini hisobga olish, kamchiliklarni ochib berish va ularni bartaraf etish maqsadida chorva mollarini va uskunalarini veterinariya me'yorlari va qoidalariga, shuningdek, texnologik me'yorlarga rioya qilishi bo'yicha veterinariya-sanitariya baholash uchun rasmiylashtiriladi.

Ushbu qoidalar baliq va asalarilarni boqish uchun mo'ljallangan chorvachilik ob'ektlariga taalluqli emas.

Izoh. Garchi baliq va asalarilar XEB Kodeksning terminlari bo'yicha hayvonlar guruhiga kirganda ham.

1.2. Veterinariya mutaxassislarining o'zlari yoki komissiya tarkibida hayvonlarning mahsuldorligi pastligi, shartli patogen mikroflora bilan murakkablashgan va ommaviy kasalliklarning kelib chiqish sabablarini aniqlash maqsadida hamda boshqa masalalarni ko'rish uchun barcha turdagi xo'jalik va majmualarni tekshiradilar va pasportni rasmiylashtirilib, beradilar.

1.3. Hayvonlarni saqlash, ko'paytirish, boqish uchun binolar, shu jumladan ferma va komplekslarni veterinariya-sanitariya tekshirishdan keyin veterinariya mutaxassislari tomonidan taqdim etilgan aktlarda quyidagi mikroklimat parametrlarining ob'ektiv ko'rsatkichlari aniqlanishi kerak:

- a) binoning havosini shamollatish (almashtirish);
- b) hayvonlar joylashgan zonada toza havoning taqsimlanishining to'g'riligi va bir xilligini ta'minlash;
- v) ish va navbatchi (kecha-kunduz ishlaydigan) yoritish rejimi;
- g) har bir hayvon boshiga polning kvadrat metr maydoni (m^2);
- d) go'ngni olib tashlash va kanalizatsiya tizimlari;
- e) suv ta'minoti va hayvonlarni sug'orish xususiyatlari;
- j) ozuqa sifati va gigienik ozuqalantirish qoidalariga rioya qilish;
- z) hayvonlarning ozuqalanish old qismi (front) va xili;

k) go'nglarni zararsizlantirish va utilizatsiya qilish;

l) boshqalar.

1.4. Shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda yetishtirilgan chorvachilik xom ashyo va mahsulotlarni chakana savdo qilish uchun shart-sharoitlar yaratilgan maxsus joylar (rastalar)ni davlat veterinariya nazoratini amalga oshirish uchun ushbu rastalarga pasport rasmiylashtirilib, beriladi.

1.5. Pasport tuman (shahar) davlat veterinariya inspektori va chorvachilik xo'jaligi egasi tomonidan imzolanadi va tuman (shahar) davlat veterinariya inspektori muhri bilan tasdiqlanadi.

1.6. Pasport qat'iy javobgarlik to'g'risidagi hujjat bo'lib, tartib raqamiga ega, tuman (shahar) davlat veterinariya bo'limida maxsus yuritiladigan jurnalda ro'yxatga olinadi, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

pasport raqami;

chorvachilik xo'jaligi egasining F.I.Sh. (yuridik shaxsning to'liq nomi), aniq manzili ko'rsatiladi;

chorvachilik xo'jaligi ko'rilgan sanasi;

chorvachilik xo'jaligi holatini veterinariya-sanitariya baholashi natijasi haqida akti;

chorvachilik xo'jaligi binosining qurilish materiallari;

hayvonlar turi, yoshi, jinsi va hokazo ma'lumotlar.

1.7. Pasport davlat veterinariya nazorati xizmatining vakili tomonidan chorvachilik xo'jaligini shaxsan o'zi ko'rigini o'tkazgandan so'ng aniq va xatoga yo'l qo'yamay to'ldiriladi.

1.8. Chorvachilik xo'jaligi holatini tekshiruvchi tuman (shahar) davlat veterinariya inspektorining qarori bilan amalga oshiriladi.

1.9. Pasport chorvachilik xom ashyosi va mahsulotlarini sotishda (eksport qilishda), ya'ni joyi o'zgarganda (tashishda) veterinariya kuzatuvchi hujjatlarni rasmiylashtirish uchun hujjat hisoblanadi.

1.10. Pasport chorvachilik xo'jaligi egasida doimo saqlanadi.

1.11. Chorvachilik xo'jaligining egasi pasportni tuman (shahar) davlat veterinariya inspektoriga taqdim etadi.

2. Chorvachilik xo'jaligining veterinariya sanitariya xolati

2.1. Ushbu talablar maqsadlari uchun quyidagilarni anglatuvchi tushunchalar qo'llaniladi:

2.1.1. **Sanitariya kuni:** 1) turli chorvachilik xo'jalikda – barcha binolarni va xo'jalik maydonini umumiy tozalash vaqti. Oyda yoki haftada bir marta devor, deraza, shift (potolok), pol, yem-xashak oxurlar va boshqa jihozlar kir va changdan tozalanadi. Og'ir ifloslangan taqdirda ular issiq suv bilan yoki yuvish vositalaridan foydalangan holda yuviladi, shundan so'ng devorlar oqilanadi.

2) go'sht kombinatlarida – yuqumli kasalliklar (sil, brusellyoz va boshqalar) bilan kasallangan hayvonlarni so'yish vaqti.

2.1.2. **Mikroiqlim** – havo muhitining fizik-kimyoviy omillari va xonaning yorug'lik rejimi birikmasi bo'lib, bu tushunchaga: havoning harorati va namligi, havoning harakat tezligi va unda zararli gazlar mavjudligi, chang, ionlanish, yoritilganlik, shovqin darajasi kiradi.

2.1.3. **Epizootik vaziyat** – ma'lum vaqt davomida ma'lum bir hududda hayvon infeksiya va invazion kasalliklarning tarqalishi haqida ma'lumotlar to'plami. Epizootik vaziyat turli ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi (epizootik o'choqlar soni, kasallanishning avj olishi, kasallik holatlari), epizootik jarayonning namoyon bo'lish jadalligiga ta'sir etuvchi tabiiy-geografik va xujalik holatlar hisobga olgan holda ifodalanadi.

2.1.4. **Havo harakatchanligi:** me'yorlarga muvofiq o'lchangan yoki qabul qilingan xonaning xizmat ko'rsatish maydoni ichidagi havo harakatining o'rtacha yoki mahalliy tezligi.

2.1.5. **Sanitariya uzilgan joy** – chorvachilikka tegishli bino va inshootlarning tashqi devorlari yoki hayvonlar uchun qafas va to'siqlardan boshqa ob'ektlar orasidagi eng kam masofa.

2.1.6. **Sanitariya zonalari** – ma'muriy, xo'jalik, yem-xashak, qayta ishlash inshootlaridan va tashqaridan hayvonlar joylashtirilgan ishlab chiqarish zonasiga infeksiya kiritilishining oldini olish uchun ob'ektning ajratilgan, to'silgan joylari.

2.1.7. **Sanitariya rejimlari** – chorvachilik korxonasining yopiq turdagi rejim bo'yicha ishlashi uchun o'tkazish tizimi (sanpropusknik).

2.1.8. **Mahsuldor hayvonlar** – kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlarini olish uchun maqsadli foydalaniladigan hayvonlar, asalarilar, baliqlar, suvda yashovchi hayvonlar bundan mustasno.

2.2.1. Begona hayvonlar kirib kelishining oldini olish maqsadida fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo‘jaligi hududi o‘rab (to‘sib) ajratilgan bo‘lishi va toza saqlanishi kerak.

2.2.2. Bo‘rdoqiga boqish uchun ajratilgan joylar har bir turdagi mahsuldor hayvonlarni alohida saqlash uchun o‘ralgan va jihozlangan bo‘lishi kerak.

2.2.3. Fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo‘jaligi hududida shaxsiy gigiena vositalari bilan jihozlangan qo‘llarni yuvish va dezinfeksiya qilish uchun joy jihozlanishi kerak.

2.2.4. Mahsuldor hayvonlarni saqlash uchun binolar go‘ngdan va boshqa ifloslantiruvchi moddalardan muntazam tozalanishi, oxurlar, sug‘orgichlar tegishli talablarga muvofiq yuvilishi va dezinfeksiya qilinishi kerak.

2.2.5. Go‘ng olib tashlanadi va biotermik zararsizlantirish uchun maxsus mo‘ljallangan joylarda saqlanadi.

2.2.6. Mahsuldor hayvonlarni saqlash uchun binolar kemiruvchilar va yovvoyi qushlarning kirib kelishiga yo‘l qo‘ymasdan saqlanishi kerak. Har xil hashorat va chivinlarning mavjudligiga yo‘l qo‘yilmaydi.

2.2.7. Mahsuldor hayvonlarni o‘stirish davrida shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarini yuritish bilan shug‘ullanuvchi fuqarolar mahsuldor hayvonlarning sog‘lig‘ini doimiy nazorat qilib turishlari, ularning xulq-atvori, yem-xashak sarfi, suv sarfini kuzatib turishlari shart.

2.2.8. Shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari bilan shug‘ullanuvchi fuqarolar ozuqadan voz kechishi, tana haroratining ko‘tarilishi, nojo‘ya xatti-harakatlar, shuningdek mahsuldor hayvon vafot etgan hollarda ular yuqumli kasalligidan shubhalanganligi to‘g‘risida tuman (shahar) veterinariya bo‘limini darhol xabardor qilishlari shart.

3. Chorvachilik xo'jaligiga qo'yiladigan veterinariya-sanitariya talablari

3.1. Hayvonlarni saqlash tizimini tanlash hayvonlarning turi va zotiga, ularning ishlab chiqarish maqsadiga, shuningdek iqlim sharoitiga va ozuqa bazasining holatiga (yaylovlar mavjudligi, sug'orish joylari, ozuqalar ta'minoti va saqlash sharoitiga) qarab belgilanadi.

3.2. Chorvachilik xo'jaligining ishlab chiqarish ob'ektlarini qurish vaqtida hayvonlar sog'lig'iga zarar yetkazmaydigan, oson tozalanadigan va dezinfeksiya qilinadigan materiallardan foydalaniladi.

3.3. Go'ngni, ishlab chiqarish, dezinfeksiya to'siqlari, veterinariya-sanitariya o'tkazish punktlari va sanpropuskniklar chiqindilarini yig'ish, olib tashlash, dezinfeksiya qilish (hatto qo'lda yoki moslamalar) uchun tugallanmagan tizimlar mavjud bo'lganda chorvachilik ob'ektlarini ishga tushirish taqiqlanadi.

3.4. Chorvachilik kichik xo'jaliklarda ham chorvadorning mehnatini yengillashtirish va tegishli sanitariya-gigiena sharoitlar yaratish uchun iloji boricha quyidagi tadbirlarni amalga oshirish kerak:

a) ozuqa tayyorlash va tarqatishni mexanizatsiyalash, hayvonlarni sug'orish, sigirlarni sog'ish, qo'y yungini qirqish va hokazo;

b) xayvonlar turar xonalarda sanitariya-gigienik sharoitlarni ta'minlash (mikroiqlim tizimi va ventilyatsiya ishga yaroqli holatda bo'lishi, kanalizatsiya va isitish tizimlari muammosiz ishlashi);

v) veterinariya-sanitariya ko'rigidan o'tkazadigan joy (sanpropusknik) shaxsiy kiyim-kechak, poyabzal va ofis kiyimlari, dush qurilmalari, bet-qo'l yuvgich, sovun, sochiq va dezinfeksiyalovchi eritmalarni saqlash uchun shkaflar bilan jihozlanishi, har bir xodimni ish kiyimlari va poyabzal bilan ta'minlashi kerak.

3.5. Ishga qabul qilingan hayvonlarga qaraydigan ishchilar dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi, so'ngra kamida har chorak bir marta profilaktik tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Xo'jalikda sut sog'uvchilar har oyda bir marta profilaktik ko'rikdan hamda sil va brusellyoz kasalliklariga yiliga 1 yoki 2 marta dispanser ko'rigidan o'tkaziladi. Yuqumli kasalliklar bilan og'rikan shaxslarga ishlashga ruxsat berilmaydi.

3.6. Xavfsizlik choralari. 16 yoshga to'lmagan shaxslarga hayvonlarga qarash taqiqlanadi, erkak chuchqalar, buqalar va ayg'irlarni parvarish qilish uchun esa 18 yoshga to'lmagan ishchilarga ruxsat berilmaydi. Har bir xodim hayvonlarni parvarish qilish va saqlash uchun shaxsiy xavfsizlik qoidalari bilan tanishishi shart.

3.7. Yuqumli kasalliklarni yuqtirilganda gumon qilingan va kasal hayvonlarni parvarish qilishda qat'iy xavfsizlik qoidalariga rioya qilish talab etiladi. Kasal hayvonlar albatta ajratib olinadi. Shaxsiy ehtiyot choralari, zararlangan material bilan muomala qilish va kasal hayvonlarga g'amxo'rlik qilish qoidalari haqida ko'rsatma berilgan shaxslarga ularga parvarish qilishga ruxsat etiladi.

3.8. Sanitariya kunini o'z vaqtida o'tkazish va shu paytda ish kiyimlarni yuvish va dazmollash kerak. Izolyator va davolash xonalarda sanitariya kunining o'ziga xos xususiyatlariga amal qilish shart. Ovqatlanishdan oldin ish kiyimni yechib, ma'lum bir joyda saqlash kerak. Qo'llarni iliq suv va sovun bilan yaxshilab yuvish va toza sochiq bilan artish kerak, hayvonlar turar xonasida ovqatlanish va chekish taqiqlanadi. Ishdan keyin ham qo'llarni yaxshilab yuvib, ish kiyimni uydagi kiyimga o'zgartiriladi.

3.9. O'ta xavfli sharoitlarda (izolyatorlarda jasadlarni ochish va go'ngni tozalash, terilarni olib tashlash, abort qilingan embrionlarni va o'lik tug'ishni tozalash, hayvonlarni majburiy so'yish) yuqumli kasalliklar bilan kasallanishni oldini olish uchun rezina qo'lqoplarda ishlash talab etiladi. Sanitariya kiyimi ustki kiyimni to'liq qoplashi, mahkam bog'lanishi kerak. Ifloslanishiga qarab haftada yoki har kuni 2-3 marta sanitariya kiyimi o'zgartiriladi.

Chorvachilik xo'jaligining pasporti

Xo'jalik _____

yuridik shaxsning nomi va / yoki egasining FISH

Viloyat _____, tuman (shaxar) _____

Inventar № _____

molxona, buzoqxona, parrandaxona, ozuqa sexi va hokazo

Binoning turi _____

balkalar tirab qo'yiladigan, g'isht, yog'och

Qurilgan yili _____

O'lchamlari: kengligi (m) _____, uzunligi (m) _____ m²/boshga _____,

balandligi (m) _____, hajmi (m³) _____, m³/boshga _____

Karkas materiali _____

temir-beton, g'isht, yog'och va boshqalar

devorlari _____

temir-beton, g'isht, yog'och va boshqalar

holati _____

qoniqarli / qoniqarsiz yoki boshqa

Pastki tom _____

izolyatsiya bor yoki yo'q, holati: qoniqarli/qoniqarsiz yoki boshqa

Pollar _____

material. yaxlit, panjarali, holati: qoniqarli/qoniqarsiz yoki boshqa

Saqlanayotgan hayvonlar (parranda)ning turi _____

Hayvonlar yoshi (dan - gacha) _____, miqdori _____

Loyiha bo'yicha sig'imi, bosh _____ haqiqatda, bosh _____

O'ralgan yaylov mavjudligi _____ m², har bir boshga _____

Boqish usuli _____

bog'lanma, bog'lanmasdan, holati: qoniqarli/qoniqarsiz yoki boshqa

Hayvonlarni aylantirish _____

Ozuqa tarqatish va ratsion to'liqligi _____

qo'lda, mobil, transportyor orqali

to'liq ta'minlangan/to'liq emas yoki boshqa

Ozuqa fronti _____, m /boshga _____

Ozuqa sifati _____

ozuqa qiymati, gigiena va texnologiya bo'yicha ishlab chiqarish

Go'ngni olib tashlash _____

transportyor orqali, suv bilan yuvish, qo'l bilan va hokazo

Go'ngni saqlash va zararsizlantirish _____

go'ngni saqlash joylar, kompost qilish

yoki boshqa usul

Jasadlarni tozalash va yo'q qilish usuli _____

go'sht-suyak uni ishlab chiqarish

zavodlariga olib borish yoki biotermik chuqurda, yoki yondirish, yoki boshqa usul

Suv ta'minoti _____

vodoprovod, suv tashib berish, sug'orgich mavjudligi, boshqa manba

Mikroiqlim tizimi: a) isitgich yoki konditsioner _____

manba: elektr yoki boshqa

b) holat _____

ishlaydigan yoki ishlamaydigan

v) havo taqsimoti sxemasi: havo tortish va chiqarish _____

havo turg'unligi mavjudligi: bor yoki yo'q

Ventilyatsiya tizimining holati _____

qoniqarli/qoniqarsiz yoki boshqa

Mikroiqlim holatiga baho berishda laboratoriya tadqiqotlarini o'tkazish

maqsadga muvofiq:

Davr: qish, bahor, yoz, kuz _____ Harorat, °C _____

Nisbiy namlik, % (ob-havo xizmati ma'lumotlari) _____

Havo almashinuvi, 1 boshga m³//soat. _____

Havo harakatchanligi, m / s _____

Karbonat kislota tarkibida, % _____ Ammiak tarkibida, mg / m³ _____

Mikrob bilan ifloslanishi, ming/ m³ _____

Deraza maydoni / m² _____ Yoritilganlik darajasi, luks/ m² _____

Navbatchi yoritish mavjudligi _____

Sanitariya uzulgan joy, zonalar va boshqa himoya turlari _____

Sanitariya tamoyillari: _____

kasallarni izolyatsiya qilish, ishlab chiqarish o'rtasidagi chegaralarga

amal qilish va hayvonlar karantinini saqlash, hammasi band – hammasi bo'sh va boshqalar

Sanitariya inshootlari: to'siq, sanpropusknik, dezto'shama va boshqa _____

mavjudligi va bahosi: qoniqarli / qoniqarsiz yoki boshqa

Tozalash kuni _____

takrorlanishi: bir oyda bir marta, har hafta yoki o'tkazilmaydi

Tozalash, dezinfeksiya _____, oqlash _____

Hayvonlarni yozgi parvarish _____

yozi bilan yaylovga chiqarish, kunlik yaylov va boshqalar

Semizlik holati _____

yaxshi, qoniqarli, qoniqarsiz, ozg'inlik, o'ta semizlik

Epizootik holat _____

xavfli zona, epizootik o'choq, nochor (yaxshi chiqmagan) punkt

Kasallanish, saqlanish, chiqim _____

infeksiya, gelmintoz va boshqa kasalliklar

kasallik o'tkazgandan keyin butlik %, _____

hayvonlar nobud bo'lishi: sabablar, laboratoriya tadqiqotlari № va boshqalar

Mahsuldorlik _____

tirik vazni o'sishi, sut sog'ishi, sertuxumlik va boshqalar

Ballarda xonaning umumiy bahosi _____

Ishni yaxshilash uchun takliflar _____

Imzolar: _____

Sanasi: _____

Eslatma: pasportning barcha grafalari binolarni rejalashtirilgan pasportlash paytida to'ldiriladi. Kasallik sabablari va xolatini ochishda faqat o'sha grafalar to'ldiriladi, ularning ko'rsatkichlari kasalliklar etiologiyasi va hayvonlar xolatining asosi hisoblanadi. Mikroiklim parametrlari tegishli usullar bo'yicha aniqlanadi.

Baliqchilik (baliq ovi hovzasi) xo'jaligining pasporti

1. **Umumiy qoidalar.** Yangi baliqchilik xo'jaligi yaratilganda va uning egasi uni ishga tushirishda maksimal kimyoviy va biologik xavflarni hisobga olishi kerak, baliqlarning sog'lig'i va ulardan olingan mahsulotlarning xavfsizligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan zararli omillarni ishonchli baholash imkonini beruvchi kengaytirilgan ko'rsatkichlar ro'yxatiga ega bo'lishi kerak.

Bularga suv, ozuqa va tuproqdagi o'simlik va hayvonlarni himoya qilish mahsulotlarini (pestitsidlar, antiparazit preparatlar, dori-darmonlar), zaharli metallar, zamburug' toksinlari (mikotoksinlar), suv o'tlari toksinlar (fitotoksinlar), neft mahsulotlari, xavfli mikroorganizmlar va parazitlar kiradi. Barcha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari baliqchilik xo'jaligining pasportiga kiritiladi, natijada rezervuarining xo'jalik faoliyatiga yaroqliligi haqida xulosa qilinadi.

1.1. Baliqchilik (baliq ovi hovzasi) xo'jaligining pasporti (keyingi matnda – pasport) baliq xo'jaligining veterinariya-sanitariya holatini hisobga olish hujjati. Pasport tuman (shahar) bosh davlat veterinariya inspektori tomonidan beriladi.

1.2. Pasport davlat veterinariya xizmatining vakili tomonidan baliqchilik xo'jaligi rahbari (vakili) huzurida shaxsiy tekshirish asosida to'ldiriladi. Kelgusida yiliga kamida 2 marta bajarilgan ishlar haqida rasmiy veterinar tomonidan pasportga qo'shimcha ma'lumotlar kiritiladi.

1.3. Baliqchilik xo'jaligi rahbari pasportga suv havzalari, suv manbalari va unga suv omborlari mumkin bo'lgan ifloslanish ob'ektlari ko'rsatilgan xo'jalikning sxematik rejasini ilova qiladi.

1.4. Baliqchilik xo'jaligi pasportda baliq va boshqa suv organizmlarining joyi o'zgargani (harakati) haqidagi barcha ma'lumotlar aks ettiriladi, shu jumladan baliqlarning turi va yoshi bo'yicha guruhlar, ularni tashiganda kuzatib borish hujjatlari va import qilingan baliq joylashgan suv havzasi.

1.5. Pasportdagi ma'lumotlar baliq, urug'langan ikra va boshqa suv organizmlarini belgilangan tartibda chiqarish va sotish uchun veterinariya

kuzatib borish hujjatlarini (guvohnomalar, sertifikatlar, spravkalar va boshqalar) berish uchun asos bo'ladi.

2. Terminlar.

Baliqni ko'paytiradigan (ekish) materiali – bozorbop mahsulot olish uchun yoki naslli baliqlarni yetishtirish maqsadida baliq havzalarida ko'paytirish uchun mo'ljallangan yosh baliqlar (baliqchalar (malyok), shu yil tug'ilgan baliqchalar, bir yillik zog'orabaliqlar, tovonbaliqlar va boshqa baliqlar).

Biokimyoviy kislorod iste'moli (BKI) – mikroorganizmlar ta'sirida aerob biokimyoviy oksidlanish va o'rganilayotgan suv tarkibidagi beqaror organik birikmalarning parchalanishi uchun sarflanadigan kislorod miqdori. BKS suv havzasining organik moddalar bilan ifloslanish darajasining eng muhim mezonlaridan biridir.

Naslchilik ishi – baliqchilik xo'jaliklarini zarur miqdordagi nasldor baliqlar bilan ta'minlash va naslchilik podalaridan oqilona foydalanishga qaratilgan tashkiliy va biotexnologik tadbirlar majmuasi. Tijorat uchun baliqlarni yetishtirish va sotish sentnerda (s), baliqlarni ko'paytirish (ekish) va naslli materiallar esa donalab o'lchanadi.

Yaroqsiz, lash-lush baliq – baliqchilik va baliq ovlash uchun tijorat va ozuqaviy qiymati yo'q ko'p turlari.

3. Tadqiqotlar.

3.1. Pasport olishning eng muhim bosqichi toksikologik va to'liq gidrokimyoviy tadqiqotlar o'tkazishdan iborat bo'lib, ular suv, tuproq, baliq va uning ozuqalari tekshirishini ta'minlash kerak.

Quyidagi majburiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan tadqiqotlarni o'tkazish zarur:

suv uchun: muayyan rangda bo'lishlik, shaffoflik, muallaq moddalar tarkibi, erigan kislorod, karbonat angidrid, vodorod sulfid, ammiak, permanganat va bixromat oksidlanuvchanligi, umumiy BKI, ammoniy ionlari zichligi, nitrit, nitrat, fosfat va temir konsentratsiyasi, mikroorganizmlarning umumiy soni.

baliq va boshqa suv organizmlari uchun ozuqa: ozuqa tarkibida xom oqsil, yog', biriktiruvchi to'qima, kul, fosfor, lizin, metionin, sistin, vitaminlar, don zaxiralarini zararkunandalar bilan zararlanishini baholash,

zararli aralashmalar (qorakuya) mavjudligi, umumiy zaharlanganligi, salmonella bakteriyalar va patogen esherixiyalar mavjudligi.

3.2. Baliqchilik xo'jaliklarini tekshirish epizootiyaga qarshi rejali chora-tadbirlarning amalga oshirilishini kuzatish uchun amalga oshiriladi, lekin baliq nobud bo'lganda yoki turli kasalliklarga shubha tug'ilganda tashxis qo'yish majburiy bo'ladi.

3.2.1. Baliqchilik xo'jaliklarini rejali tekshirishlar yiliga 2 (ikki) marta o'tkaziladi. Bunday tekshirishlarning maqsadlari epizootik vaziyatni o'rganish va veterinariya-sanitariya va profilaktik tadbirlarini ishlab chiqish hamda ularning bajarilishini nazorat qilishdan iborat. Ular quyidagi ishlarni o'z ichiga oladi:

a) rejalashtirilgan profilaktik, davolash va sog'lomlashtirish choralarining to'g'ri bajarilganini tekshirish;

b) suv havzalari, baliq urchitiladigan sun'iy hovuzlar, ozuqa sexlar va boshqa ishlab chiqarish binolarining sanitariya holatini tahlil qilish;

v) murojaat qilinayotgan laboratoriyalarda diagnostik tadqiqotlarni o'tkazishning uslubiy darajasi va shart-sharoitlarini nazorat qilish;

g) xo'jalikda epizootik holatni va toksikologik vaziyatni aniqlash.

3.2.2. Baliqlar orasida kasallik chiqqanda unga tashxis qo'yish va suv havzalari yoki umuman xo'jalikni sog'lomlashtirish tadbirlarini ishlab chiqish maqsadida majburiy tekshiruv o'tkaziladi. Asosiy e'tibor klinik, patanatomik, gidrokimyoviy va boshqa tadqiqotlar o'tkazish, taxminiy tashxisga qarab, yaxshi chiqmagan suv havzalarni tekshirish. Shuningdek, tashish, saqlash va baliq boqish sharoitlari, ularni yetishtirish uchun baliq-naslchilik va biologik standartlarga rioya qilinishi bo'yicha hujjatlarni tahlil qilish va hokazo.

3.3. Olingan baholash ma'lumotlar asosida aholiga baliq kasalliklar yuqish xavfi darajasiga ko'ra har bir zonani belgilash bilan tegishli hududning rayonlashtirish xaritasi tuziladi.

Baliqchilik (baliq ovi hovzasi) xo'jaligining pasporti

Xo'jalik _____

yuridik shaxsning nomi yoki jismoniy shaxsning FISH, STIR

Viloyat _____, tuman (shahar) _____

Ishga tushgan vaqti (yili, oyi) _____

Xo'jalikning ta'rifi (xususiyatlari):

Xo'jalik turi va suv tizimi bo'yicha qo'shni baliqchilik xo'jaliklari bilan aloqa va boshqa ma'lumotlar _____

Suv ta'minoti manbai _____

daryo, chashma, yog'ingarchilik yoki boshqalar

Xo'jalikda yetishtirilgan baliq turlari _____

Shu jumladan begona turlari _____

Turkum bo'yicha xo'jalik suv havzalari soni va maydoni (ga) _____

Xo'jalikning yillik quvvati _____

tovar baliq yetishtirish (tonna), ikradan chiqqan mayda baliq

va naslchilik material (dona)

baliq ovlash hovzadan olingan baliq (tonna)

Davlat veterinariya nazorati _____ topshirildi

rasmiy veterinariya vrachining FISH

Veterinariya mutaxassisining FISH _____

Pasport to'ldirish sanasi" ____ " _____ 20__ y.

Tuman bosh veterinari inspektori _____

Xo'jalik egasi (boshlig'i) _____

Baliq va boshqa suv organizmlarini oldingi uch yilda xo'jalikka olib kirish to'g'risida ma'lumot

Olib kirilgan sana	Turi, yoshiga qarab guruh	Baliq qayerdan olib kirilgan va qayerga joylashtirildi	Veterinariya kuzatib borish xujjatni berilgan sana va raqami
1	2	3	4

Xo'jalik suv havzalarining sanitariya holati

Sana	Suv havzalarining sanitariya holati ko'rsatkichlari (gullash, ifloslanish, o't bosib ketishi, balchiqlanish, suv hidi va boshqa ma'lumotlar)	Tekshirish o'tkazgan mutaxassisning lavozimi va imzosi
1	2	3

Suv, tuproq, baliq, ozuqalarni toksikologik va to'liq gidrokimyoviy tadqiqotlar

Sana	Tadqiqot ob'ekti	Tadqiqot natijalari	Suv ifloslanishining aniqlangan manbalari	Qanday hujjatlar asosida va kim tomonidan qayd etilgan
1	2	3	4	5

Xo'jalikning epizootik holati va suv ta'minoti manbai, shu jumladan oxirgi 3 yil davomidagi ma'lumotlar

Kasallikning nomi	Qaysi suv havzalarida aniqlangan	Aniqlangan sana	Infeksiya manbai	Karantinni qaysi organ tomonidan qo'yilgan yoki bekor qilingan sanasi	Xulosa bergan mutaxassisning lavozimi va imzosi, sana
1	2	3	4	5	6

Xujalikda o'tkazilgan asosiy profilaktik va davolash tadbirlari

Tadbir o'tkaziladigan sana	Tadbir nomi	Ish ko'lami	Tadbir samaradorligi	Tadbir o'tkazgan mutaxassisning lavozimi va imzosi
1	2	3	4	5

II- bo'lim. Ma'lumotlar bazasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.08.2020 y. PF-6044-son "Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 2-ilovasiga muvofiq 2021 yil 1 yanvardan boshlab veterinariya sertifikatini va veterinariya guvohnomasini birlashtirib, faqat veterinariya sertifikatini berilishini ta'minlash kerak.

Ushbu masalani hal qilish uchun MDHga a'zo davlatlarning veterinariya sohasida hamkorlik bo'yicha hukumatlararo Kengashiga (keyingi matnda – Kengash) murojaat qilish kerak. Chunki MDHga a'zo bo'lgan davlat veterinariya nazorati tomonidan veterinariya nazorati ostidagi tovarlarning barchasiga veterinariya guvohnomalarini berish tartibi to'g'risidagi Nizom 25 yil 1997 aprelda Bishkekda (Qirg'iziston) Kengash tomonidan tasdiqlangan.

Lekin, shu bilan 2016 yil 12 may kunida Brest viloyati, Kosichi qishlog'ida veterinariya sohasidagi hamkorlik bo'yicha Hukumatlararo kengash qarori bilan tasdiqlangan "Chorvachilik tovarlarini xalqaro va davlatlararo tashishda davlat veterinariya nazoratining yagona qoidalari" ga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.08.2020 y. PF-6044-son Farmoni 2-ilovasining shu qismi bajarilish vaqtini uzaytirish yoki bekor qilish mumkin.

Ushbu Qoidalarning 4.5. punkt bo'yicha MDHga a'zo davlatning bosh davlat veterinariya inspektori yoki veterinariya sohasidagi vakolatli organ rahbari (uning o'rinbosari) MDHning davlat veterinariya xizmatlari yoki eksport qiluvchi davlatlarning veterinariya sohasidagi vakolatli organlari rahbarlari bilan veterinariya-sanitariya talablariga muvofiq muayyan (konkret) bir turdagi tovarni ushbu davlatga olib kirishda yoki undan eksport qilishda vetsertifikatlarining namunalarini ishlab chiqishi va rasmiy ravishda tasdiqlagunga qadar rozilik berishi mumkin.

Nazorat ostidagi tovarlarning muvofiqlashtirilgan turlari uchun vetsertifikatlarining kelishilgan va tasdiqlangan shakllari mavjud bo'lsa, ularni eksport qilish va import qilishga faqat ko'rsatilgan hujjatlar bo'yicha ruxsat etiladi. Kelishilgan vetsertifikatlari mavjud bo'lmagan davlatlardan nazorat ostidagi tovarlarni import qilish vetsertifikatlari bo'yicha amalga

oshiriladi, ularning mazmuni MDHga a'zo davlatlarning muayyan (konkret) bir turdagi tovarga bo'lgan talablarini to'liq bajarilishini kafolatlaydi.

Demak, Qo'mita rahbari yoki mutasaddi shaxs ko'rsatilgan Hukumatlararo kengash qaroriga asosan MDHning davlat veterinariya xizmatlari bilan birgalikda veterinariya guvohnoma o'rniga veterinariya sertifikatlarining namunalari ishlab chiqishi kerak bo'ladi.

Tizimda ro'yxatdan o'tgan hayvon haqida to'liq ma'lumot olish uchun identifikatsiya kodini qidirish buyrug'ini kiritish kifoya qiladi. Hamda tug'ilishdan so'yishgacha hayvonda o'tkazilgan turli tadbirlar, shu jumladan so'yish joyida tana go'shti identifikatsiyasi qayd etiladi. Bu hayvonlarning hayot siklining elektron kuzatuvchanligi uchun asos bo'lib, rejalashtirish, tahlil va prognoz qilish nuqtai nazaridan ushbu va boshqa o'zaro bog'liq tizimlarni rivojlantirish uchun asos bo'lib, veterinariya xavfsizligining ko'plab muammolari hal qilinadi.

Vaqt keladi, albatta, barcha chorva mollari hisobga olinadi va tizim ular bilan bo'lgan voqealarni qat'iy nazorat qiladi, elektron va qog'oz pasportlari va reestrlar joriy etiladi. Har bir hayvon hayotidagi har qanday muhim qismi shu tizimda qayd etiladi. Barcha ma'lumotlar so'yish va keyingi ishlov berishdan oldin tekshiriladi. Agar biron bir noaniqlik topilsa, yetkazib beruvchida ularni yo'q qilish uchun bir kun vaqt bo'ladi. Agar ular belgilangan muddat ichida yo'q qilinmasa, hayvon yo'q qilinadi.

Ammo ishning ko'lami juda katta. Axir minglab korxonalar, xususiy fermalar va hayvonlar bilan bog'liq deyarli butun aholi mamlakat uchun yangi jarayonga jalb qilinishi kerak. Ushbu ishni amalga oshirish uchun qishloqda axborot texnologiyalar (IT-texnologii) bilan yaxshi tanish bo'lgan kadrlar kamligini hisobga olgan holda zamonaviy texnologiyalar va ilmiy yangilik zarur.

Hayvonlarni identifikatsiya qilish va ularni yagona ma'lumotlar bazasiga kiritish barcha darajadagi chorvachilik xo'jaliklarida sodir bo'layotgan voqealarni hisobga olish va nazorat qilishning jiddiy mexanizmi bo'ladi, lekin unga mahalliy darajada qiziqmaydiganlar ham bor. Ushbu to'siqlarni bartaraf etish uchun bizga bunday texnologiyalarni joriy etish uchun yagona va sodda, aniq va shaffof algoritmlar kerak.

Ehtimol, ma'lum bir davrda, masalan, 2023 yil yirik va mayda shoxli mollar uchun, otlar uchun – 2024 yilda, ulardan olingan mahsulotlarga

nisbatan zarur ishlarni amalga oshirish uchun tizimni yaratish va uni uchun amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar jadvali kerak. Ya'ni, hayvonot mahsulotlarining "fermadan – dasturxongacha" kuzatilishini ta'minlash mexanizmlari rejali yaratiladi.

Albatta, hayvonning tana go'shti yoki qayta ishlangan go'sht mahsulotlar – qiyma go'sht, kolbasa, yarim tayyor mahsulotlar va boshqalarni belgilash majburiy qo'llanilishini ta'minlaydigan yagona qoidalar va standartlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Qayta ishlovchilar jo'natilgan go'sht mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni saqlash va axborot tizimidan foydalanuvchilarning iltimosiga binoan ularni taqdim etishni ta'minlash uchun axborot tizimlarini standartlashtirish zarur.

Shuni yodda tutish kerakki, hayvonot mahsulotlari, xususan go'sht, kolbasa, sut, qatiq, sariyog', tvorog va boshqalarni kuzatib borish juda qiyin. Ko'pgina mahsulotlar uchun ma'lum bir hayvonning xom ashyosini kuzatib bo'lmaydi. Masalan, sutni qayta ishlash korxonalariga yetkazib berish har bir sigirdan shaxsiy qadoqlash bilan litrda emas, tonnalab amalga oshiriladi. Ammo qaysi sut yetkazib beruvchidan u yoki bu mahsulotni olganligini va shu orqali kasal sigirni aniqlash mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 8.05.2019 yildagi 386 - sonli qaroriga muvofiq go'sht yagona elektron ma'lumotlar bazasida bo'lishi kerak, chunki bu uning veterinariya va sanitariya xavfsizligini kafolatlaydi. Ammo, agar hayvonlarni aniqlash va ulardan olingan mahsulotlarni kuzatish tizimi bo'lmasa, go'shtni va go'sht mahsulotlarining veterinariya-sanitariya xavfsizligini qanday kafolatlash mumkin?

Internetdan olingan ma'lumotlarga ko'ra, ko'pgina mamlakatlarda chorva mollarini birlamchi identifikatsiyalash davlatning moliyaviy ko'magida amalga oshirilgan. Balki, O'zbekistonda tizimni yaratish boshida respublika va mahalliy budjetlardan to'lanishi kerak, ya'ni hayvonlarni birlamchi identifikatsiya qilish va ro'yxatga olish uchun identifikatsiya vositalari hayvon egalariga bepul taqdim etilsa yaxshi natijalargi olib keladi.

Quyida keltirilgan normativ hujjat loyihasi Qo'mitaning ilmiy-texnik Kengashida ko'rib chiqiladi va kerak bo'lgan qo'shimcha va o'zgarishlar kiritiladi.

**Veterinariya sohasida davlat ma'lumotlar bazasini
shakllantirish va undan foydalanish to'g'risida
Nizom loyihasi**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizomda veterinariya sohasida davlat ma'lumotlar bazasini shakllantirish va undan foydalanish tartibini O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 31 dekabrda "Veterinariya to'g'risida" Qonunining 7- moddasiga muvofiq Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi (keyingi matnda Qo'mita) belgilaydi va bajarilishi ustidan nazoratini o'rnatadi.

Shu bilan birga ma'lumotlar bazasiga jismoniy va yuridik shaxslarning kirishi, unga ma'lumot kiritish, undan ma'lumot olish va unda jismoniy va yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish ta'minlanadi.

Ma'lumotlar bazasida quyidagi ma'lumot joylashtiriladi (O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq cheklangan yoki yopiq axborot bundan mustasno:

a) nazorat osti tovarlar (shu jumladan tirik hayvonlar) identifikatsiyasi ta'minlangani;

b) veterinariya kuzatib borish hujjatlarini rasmiylashtirishi va berishi to'g'risida ma'lumot;

v) veterinariya nazorati ostidagi tovarlar O'zbekiston hududiga import, hududidan eksport va O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit qilishi bo'yicha tegishli ma'lumotlar (ro'hsatnomalar, ta'qiqlar va boshqa);

g) veterinariya-sanitariya ekspertizasi, laboratoriya tadqiqotlari va ular uchun namuna olish to'g'risida ma'lumotlar va olingan natijalar;

d) Qo'mita o'z faoliyatining boshqa yo'nalishlarini ta'minlagani to'g'risida ma'lumotlar.

Izoh. Xalqaro savdo o'sib bormoqda, go'sht, sut va go'sht sut mahsulotlari mamlakatlar va qit'alar o'rtasida deyarli erkin harakat qiladi, shu bilan birga har bir inson o'zini har qanday ko'ngilsizlikdan himoyada bo'lishini istaydi.

Ko'plab mamlakatlarda har bir hayvon tug'ilgandan yakuniy mahsulot olguncha barcha ma'lumotlarni to'plash, "fermadan dasturxonigacha" tamoyiliga rioya qiladigan elektron kuzatib borish tizimlar yaratdi. Bundan tashqari, xalqaro raqobat sharoitida tezkor kuzatib borish

mexanizmlari rivojlangan mamlakatlar bozorlariga o'z mahsulotlari bilan kirish imkoniyatini ham beradi.

2. Ushbu Nizomda qo'yidagi asosiy tushunchalar (terminlar) qo'llaniladi:

bir martalik parol (one time password, OTP) – faqat bir marta foydalanuvchi autentifikatsiya sansi uchun amal qiladigan parol (Markaz bazasiga ruxsatsiz kirishning oldini oladi);

identifikatsiya qilingan hayvon – jismoniy va yuridik shaxslarga egalik huquqi asosida qarashli qoramol, qo'y, echki, cho'chqa, ot, eshak, tuya, it va mushuk;

Markazga kirish – ma'lumotlarni yagona bazasiga kiritish, yangilash, ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlar bilan tanishish, uni qayta ishlash, shu jumladan ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lgan ma'lumotlardan nusxa olish, tahlil qilish va boshqa operatsiyalar;

Markazdan ko'chirma – mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat va nodavlat veterinariya mutaxassislar hamda hayvon egalari ma'lumotlar bazasidan belgilangan tartibda o'tkazilgan diagnostika tadqiqotlar natijalari, amalga oshirilgan veterinariya chora-tadbirlar, davolashi to'g'risida va boshqa ma'lumotlar chiqarib olish;

ma'lumot – hayvonning shaxsiy raqami, o'tkazilgan diagnostika tadqiqotlar natijalari, amalga oshirilgan veterinariya chora-tadbirlar, davolash to'g'risida va boshqa ma'lumotlar, shuningdek hayvon egasi haqidagi ma'lumotlar, veterinariya kuzatib borish hujjatlar va boshqalar to'g'risida ma'lumotlar;

veterinariya nazorati ostidagi tovarlarni identifikatsiya qilish va kuzatib borishni yagona ma'lumotlar bazasi (keyingi matnda – Markaz) – bu o'zaro bog'langan diagnostika tadqiqotlar natijalari, davolash, profilaktik chora-tadbirlar, shuningdek hayvon egasi haqida ma'lumotlar, hayvonlarni hisobga olish va hisobdan chiqarish, xayvon va uning mahsulotlarining identifikatsiyasi hamda joyni o'zgartirish (xarakati)ni kuzatib borish to'g'risida ma'lumotlar katta hajmlarni saqlash, o'zgartirish va qayta ishlash uchun mo'ljallangan tuzilma;

operator – hayvonlarni identifikatsiya qilish, ularning harakatlarini kuzatib borishi, shuningdek, chorvachilik mahsulotlari harakatini kuzatish bilan bog'liq barcha turdagi informatsiya vositalarida joylashtirilgan har

qanday shakldagi ma'lumotlar bazasini yurituvchi, saqlovchi va zarur bo'lganda ishlov beruvchi shaxs;

rasmiy veterinariya vrachlari – Qo'mita tomonidan veterinariya sohasida ayrim davlat vakolatlarini topshirilgan xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi, shuningdek idoraviy va ishlab chiqarish veterinariya xizmati veterinariya vrachlari;

server — doimiy Internet va uzluksiz elektr ta'minotiga ulangan va odamning to'g'ridan-to'g'ri ishtirokisiz xizmat ko'rsatish dasturini amalga oshirish uchun aloxida ajratilgan asosiy kompyuter;

Qo'mita – O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi tarkibiga kiradigan Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalari (keyingi matnda hududiy boshqarmalar) va tumanlar (shaharlar) veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlari (keyingi matnda tuman (shahar) bo'limlari);

foydalanuvchi – Markazdan zarur ma'lumotni olish uchun murojaat qilgan va undan foydalanishga ruxsat olgan jismoniy yoki yuridik shaxs, ushbu ruxsat 90 (to'qson) kalendar kundan ortiq faoliyatni amalga oshirmagan foydalanuvchi hisob qaydnomasi avtomatik ravishda bloklanadi;

hayvonlarni hisobga olish – hayvonlarni identifikatsiya qilish va elektron axborot tizimiga hayvon haqidagi ma'lumotlar, shu jumladan, unga berilgan identifikatsiya raqami hamda veterinariya pasporti haqidagi axborotlarni kiritish;

hisob qaydnomasi – Markaz bazasida ro'yxatdan o'tish va ishlash uchun shaxsiy noyob foydalanuvchi nomi (login) va parol mavjud bo'lgan o'zi xabar beradigan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yozuvlar.


3. Ma'lumotlar bazasining ishlashi tegishli davlat elektron axborot tizimi doirasida amalga oshiriladi. Qo'mita faoliyatining barcha turlarini rivojlantirishning sharti – bu qog'oz formatidan elektron boshqarishga o'tishdir. "Markaz" hayvonlarni identifikatsiya qilish ma'lumotlar bazasi asosida veterinariya ma'lumotlar tizimini ishlab chiqish laboratoriyalar, chegara veterinariya punktlari va boshqalar bilan interfeyslar orqali o'zaro aloqada bo'ladi, bu esa umuman O'zbekiston veterinariya tizimi uchun yangi imkoniyatlar beradi.

Markazni shakllantirish va yuritish uchun Qo'mita kamida 2 (ikkita) bir-biridan 5-10 km masofada joylashgan maxsus ajratilgan xonalarda serverlar to'xtovsiz ishlashini ta'minlaydi.

Kompyuter programmasi har bir yozuvning sanasi va vaqtini yozib boradigan, kim va nimani kiritdi, kim va nimani o'zgartirdi hamda o'zgarish sanasi va vaqtini aniqlashini imkoniga ega, ya'ni zarur bo'lgan xavfsizlik choralarini ko'rib, o'zgartirish kiritilgunga qadar versiyani saqlanishini ta'minlaydi. Kompyuter programmasiga ma'lumotlarning ba'zilari tijorat yoki davlat siri bo'lishini inobatga olib, ommaviy ma'lumotlar o'zbek va rus tillarida taqdim etiladi.

Tizimni buzish yoki qalbakilashtirish, noqonuniy kirishni oldini olish uchun tizim kodi faqat Markazning operatorlariga ma'lum bo'ladi. Siyosiy yoki tijoriy manfaatni mo'ljal qilgan kishilar (masalan, korrupsiyaga olib boradigan o'z biznesini rivojlantirish uchun imtiyozlarni tashkil qilish) Qo'mitaning eng yuqori doiralari darajasiga bosim o'tkazishi, xodimlarni boshqarishi va xatto ishga vijdotsiz odamlarni jalb qilishi mumkinligini hisobga olinadi. Shuning uchun, ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan, o'qigan va ishonchli mutaxassislar tizimda ishlashi kerak – axir tizimni tuzatishdan ko'ra qayta tiklash osonroq va ba'zan uni tuzatib bo'lmaydi.

“Markaz” ma'lumotlar bazasi va unga bog'liq bo'lgan informatsion modullar chizmasi.



Barcha modullarni paralel ravishda ishlab chiqish, ular muloqot qilishlari tizimning samaradorligi uchun katta afzallik bo'ladi.

4. Turi bo'yicha identifikatsiya qilingan hayvonlar to'g'risidagi ma'lumotlar xavfsizlik talablariga rioya etilib, Markaz serverida saqlanadi. Markaz ma'lumotlar bazasi quyidagilar uchun mo'ljallangan:

a) barcha turdagi hayvonlarni identifikatsiya qilish va ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish yagona bazasini shakllantirish;

b) mamlakat ichida va eksport-import qilish davomida hayvonlarning harakatini yagona avtomatlashtirilgan boshqarish tizimini shakllantirish;

v) veterinariya jihatidan osoyishtalikka qaratilgan va epizootiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarning o'tkazilganini ishonchliligini ta'minlash;

g) o'rnatilgan tartibda davlat organlarini hamda qiziqqan va manfaatdor shaxslarni Markazdagi hayvonlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash (masalan, chorvachilik mahsulotlari bozorini boshqarish yoki uni prognozini takomillashtirish va boshqalar);

d) naslchilik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni optimallashtirish hamda chorvachilikda zamonaviy texnologik tizimlarni ishlab chiqishni va import qilinganlarni respublika sharoitlariga moslashtirishni tashkil etish;

e) veterinariya sohasida xavflarni boshqarish tizimining shakllanishi va shu yo'nalishda faoliyatini harakatlantirish;

j) xavfga yunaltirilgan usulni qullashi uchun nazorat ob'ektiga tashrif buyurmasdan davlat veterinariya profilaktik nazorati va kontrolini o'tkazish.

5. Markaz ma'lumotlar elektron shaklda saqlanishini va Markaz bazasiga belgilangan tartib bo'yicha ruxsat olib, onlayn kirishi va quyidagi ma'lumotlarni olishini ta'minlaydi:

hayvon kasalliklari, vaksinalar ishlab chiqarish yoki uni import - eksport qilish, barcha turdagi emlashlar, patogen moddalar va jasadlarni o'rganish, hayvonni kuzatib borish uchun uning qulog'iga birka biriktirilgani va hayvon pasporti berilgani, kasalliklarni tekshirish va hayvonlarni so'yish natijalari;

hayvon urg'ochilari sun'iy urug'lantirish hamda nasldor buqalarni tanlash va naslchilik ishlari natijalari bo'yicha hisobotlarni yuritish, tirik hayvonlar va ularning mahsulotlarini eksport qilish uchun shart-sharoitlar to'g'risida, sun'iy urug'lantirish uchun mukofot yoki qo'shimcha haq to'lash, go'sht va sut tahlili bo'yicha hisobotlarni uz ichiga oladigan elektron hayvon naslchilik tizimlarlar o'rnatilgani to'g'risida;

tizim sug'urta operatsiyalarini soddalashtirish, chorvachilikda sug'urta mukofotlarini takrorlashning oldini olish, yo'qolgan va o'g'irlangan hayvonlarni qidirishga yordam berish va tirik hayvonlarni kontrabanda qilishni oldini olish to'g'risida;

tadqiqotlar uchun ilmiy va statistik ma'lumotlarni to'plashini osonlashtirishi bo'yicha, hayvonlarni eksport qilish strategiyasini tayyorlashda aniq hisobotlarni, ya'ni qo'shimcha yozish va aldashni statistikaning darajalari to'g'risida;

identifikatsiya va ro'yxatga olish tizimi nafaqat hayvonlarni, balki ularning mahsulotlarini ham kuzatib borishni imkoniyatlar, xavfsizlikni ta'minlash bilan birga, samarali boshqaruv vosita sifatida;

ushbu informatsion tizimida veterinariya chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi sababli undan emlashlar va boshqa tartiblarni rejalashtirish to'g'risida;

epizootik monitoringni amalga oshirish tubdan o'zgargani, bahsli masalalar hal etilgani, chorvachilik mahsulotlari xalqaro savdosi ham tartibga olingani bo'yicha;

hayvonning tug'ilishidan so'yilishiga (o'lishiga) qadar hamda uning mahsulotlarini kuzatib borishining ta'minlash orqali ushbu mahsulot yuqori sifatli xom ashyolardan va sog'lom regiondan sog'lom hayvonlardan olinganligini isbotlash dalillar bo'yicha.

6. Markaz bazasining faoliyati 2003 yil 11 dekabrda "Axborotlashtirish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq Vazirlar Mahkamasining maxsus vakolatli organi bilan kelishilgan holda tartibga solinadi;

7. Markaz bazasini yuritilishi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1) Markaz bazasiga ushbu Qoidalarning 33-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlarni kiritish;

2) Markaz bazasiga kiritilgan (mavjud) ma'lumotlarni o'rnatilgan tartib bo'yicha yangilash;

3) Markaz bazasida joylashgan ma'lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlov berish.

8. Ushbu Qoidalarning 33-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlarni Markaz bazasiga kiritish va ma'lumotlar bazasiga kiritilgan (mavjud, yangilangan) hodisalarni (hayvon tug'ilishi, mulkiy uzgarishlar, sotib olish, sotish, o'g'irlik sodir bo'lishi, hayvonning so'yilishi yoki o'limi) aniqlash yoki tasdiqlash 1 (bir) ish kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Markaz bazasiga veterinariya tadbirlari (hayvonlarni identifikatsiya qilish, veterinariya-sanitariya choralari, profilaktik emlash va davolash, diagnostik tadqiqotlar va boshqalar) bo'yicha ma'lumotlar bazasiga kiritilgan (mavjud), ma'lumotlarni yangilash veterinariya chora-tadbirlari amalga oshirish kundan boshlab 3 (uch) ish kundan kechiktirilmaydi;

Diagnostik tadqiqotlar natijalari bo'yicha Markaz bazasiga ma'lumotlar kiritish davlat veterinariya yoki har qanday akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyasidan diagnostik tadqiqotlar natijalari olingan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.

9. Ushbu Qoidalarning 33-bandida nazarda tutilgan ma'lumotlar o'zgargan taqdirda, ularning ma'lumotlar bazasiga kiritilishi bunday o'zgarishlar sodir etilgan kundan boshlab 3 (uch) ish kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

10. Markaz bazasida kiritilgan (yangilangan, o'zgartirilgan) ma'lumotlarning to'liqligi va aniqligi uchun mahaliy hokimiyat organlari hamda rayon (shaxar) davlat veterinariya inspektorlari ma'sul, hamda ular:

a) hayvon egalariga, chorvachilik mahsulotlari va xom ashyoni ishlab chiqaruvchilarga Markaz bazasiga kirish pullik bo'lishni ta'minlaydi;

b) hayvonlar reestri va identifikatsiya vositalari reestrini yuritilishi ustidan nazorat qilishadi;

v) identifikatsiya raqamini saqlovchi atributlarni (quloq birkalar, elektron chip va boshqalar) ishlab chiqaruvchilarga foydalanish uchun mo'ljallangan identifikatsion raqamlar ro'yxatini nazorat qilishadi;

g) hayvonlarni identifikatsiya qilish hamda hayvon pasportini rasmiylashtirish va berish uchun ijrochi rasmiy veterinariya vrachlariga haq to'lashini ustidan nazoratini amalga oshiradilar;

d) hayvonlarni identifikatsiya qilish yoki ro'yxatdan o'tkazish uchun shartnoma shaklni ishlab chiqishadi va shuning asosida xizmat ko'rsatishni belgilaydi hamda tashkil etishadi;

e) Markaz bazasini shakllantirish va undan foydalanish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, Qo'mita raisining qarori va buyruqlarni hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni bajarishini ta'minlaydilar.

11. Markaz bazasi bilan ishlashda foydalanuvchi, Markaz bazasi operatori va boshqa mutassadi xodimlar ishlab chiqqan va joylashtirilgan ma'lumotlar bazasi bilan ishlash bo'yicha qo'llaniladigan metodlar majmuiga asoslanadi.

2-bob. Markaz bazasiga kirish huquqiga ega bo'lish

12. Foydalanuvchining ro'yxatga olish (hisob qaydnomasini yaratish) va uni Markaz bazasiga kirish huquqlarini berish tartibi bo'yicha foydalanuvchi hisob qaydnomasini ro'yxatdan o'tkazish va unga Markaz bazasiga kirish huquqini olish uchun ushbu Qoidalarning 1- ilovasida kursatilgan shaklda Qo'mitaga murojaat qiladi.

Shu bilan birga, Markaz bazasiga kirish darajasiga qarab, rasmiy veterinariya vrachi o'z xatida mexnat munosabatlarni tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari, ishdan bo'sh, boshqa ishga o'tish, Markaz bazasida ishlash bilan bog'liq foydalanuvchi funksional vazifalarini kengaytirish yoki kamaytirish, shuningdek, shartnoma bo'yicha tegishli ma'muriy – hududiy birliklari yoki fermer hamda yordamchi xo'jaliklari foydalanuvchining xizmat kursatish bo'yicha taqdim etiladi.

13. Markaz bazasiga kirish uchun shaxsiy noyob loginni va parolni yaratish, o'zgartirish hamda bekor qilish va foydalanuvchi harakatlarini kuzatish jarayonlarini operator amalga oshiradi.

14. Taqdim etilgan arizalar asosida operator ariza olingan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni mobaynida foydalanuvchining elektron pochtaiga Markaz bazaga kirish uchun shaxsiy noyob login va bir

martalik parolni yoki arizani rad etilgani to'g'risida yozma ravishda javobni yuboradi.

Har 30 (o'ttiz) kunda Markaz bazasining paroli avtomatik ravishda o'zgaradi, eski va yangi parollar bir xil bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

15. Ushbu qoidalarning 2- ilovaga muvofiq foydalanuvchiga shaxsiy noyob loginni va parolini berish operator foydalanuvchilarni ro'yxatga olish jurnalida qayd etadi.

16. Markaz bazasida foydalanuvchilar ishlaganda quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

1) bir nechta foydalanuvchilar bir xil shaxsiy noyob logindan foydalanish;

2) foydalanuvchining shaxsiy noyob login va parolini boshqa shaxslarga o'tkazish (berish).

17. Axborot xavfsizligi talablarini ta'minlash uchun Markaz bazasiga kirish ruxsatnomaning amal qilish muddati bir kalendar yili bilan cheklanadi. Bu cheklov hisob qaydnoma yaratishni operator o'rnatadi va doimiy nazorat qiladi.

18. Bloklangan hisob qaydnomani tiklash uchun, shuningdek, parol yoki shaxsiy noyob login yo'qotilgan taqdirda, foydalanuvchi tashkilot rahbarining yoki rasmiy veterinariya vrachining xati va mehnat munosabatlarini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxasini ilova qilgan holda takroriy ariza topshiriladi.

19. Foydalanuvchilar, egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar, ushbu qoidalar talablariga rioya qilishlari shart va Markaz bazasidagi ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega bo'lmagan foydalanuvchilarga ma'lumot taqdim etilmaydi.

20. Markaz bazasiga kirish operator tomonidan Qo'mitaning yozma ravishda ruxsat berganidan keyin amalga oshiriladi. Operator ushbu Qoidalarning 12- bandida ko'rsatilgan hujjatlar bilan foydalanuvchi arizasini 1 (bir) ish kuni ichida Qo'mitaga yuboradi, Qo'mita operatorga 1 (bir) ish kunidan kechiktirmasdan, sabablarini ko'rsatgan holda yozma ravishda tasdiqlash yoki asosli rad etishni yuboradi.

21. Ushbu Qoidalarning 33-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlarni kiritadigan foydalanuvchilar uchun ma'lumotlar bazasiga kirish va ma'lumotlarni yangilash faqat o'z vazifalari, topshirig'i va mehnat

martalik parolni yoki arizani rad etilgani to'g'risida yozma ravishda javobni yuboradi.

Har 30 (o'ttiz) kunda Markaz bazasining paroli avtomatik ravishda o'zgaradi, eski va yangi parollar bir xil bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

15. Ushbu qoidalarining 2- ilovaga muvofiq foydalanuvchiga shaxsiy noyob loginni va parolini berish operator foydalanuvchilarni ro'yxatga olish jurnalida qayd etadi.

16. Markaz bazasida foydalanuvchilar ishlaganda quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

1) bir nechta foydalanuvchilar bir xil shaxsiy noyob logindan foydalanish;

2) foydalanuvchining shaxsiy noyob login va parolini boshqa shaxslarga o'tkazish (berish).

17. Axborot xavfsizligi talablarini ta'minlash uchun Markaz bazasiga kirish ruxsatnomaning amal qilish muddati bir kalendar yili bilan cheklanadi. Bu cheklov hisob qaydnoma yaratishni operator o'rnatadi va doimiy nazorat qiladi.

18. Bloklangan hisob qaydnomani tiklash uchun, shuningdek, parol yoki shaxsiy noyob login yo'qotilgan taqdirda, foydalanuvchi tashkilot rahbarining yoki rasmiy veterinariya vrachining xati va mehnat munosabatlarini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxasini ilova qilgan holda takroriy ariza topshiriladi.

19. Foydalanuvchilar, egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar, ushbu qoidalar talablariga rioya qilishlari shart va Markaz bazasidagi ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega bo'lmagan foydalanuvchilarga ma'lumot taqdim etilmaydi.

20. Markaz bazasiga kirish operator tomonidan Qo'mitaning yozma ravishda ruxsat berganidan keyin amalga oshiriladi. Operator ushbu Qoidalarining 12- bandida ko'rsatilgan hujjatlar bilan foydalanuvchi arizasini 1 (bir) ish kuni ichida Qo'mitaga yuboradi, Qo'mita operatorga 1 (bir) ish kunidan kechiktirmasdan, sabablarini ko'rsatgan holda yozma ravishda tasdiqlash yoki asosli rad etishni yuboradi.

21. Ushbu Qoidalarining 33-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlarni kiritadigan foydalanuvchilar uchun ma'lumotlar bazasiga kirish va ma'lumotlarni yangilash faqat o'z vazifalari, topshirig'i va mehnat

shartnomasiga muvofiq hayvonlarni identifikatsiya qilish, tegishli ma'muriy-hududiy birliklar yoki fermer hamda yordamchi xo'jaliklarida veterinariya tadbirlarini o'tkazish uchun tegishli funksiyaga ega bo'lgan foydalanuvchilarga taqdim etiladi.

22. Foydalanuvchilar o'z vazifasini bajarishda Markaz bazasida mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish va ularni qayta ishlash, ma'lumotlar o'z vaqtida va ishonchli kirish ustidan nazorati, hayvon egalari tomonidan identifikatsiya raqamlaridan foydalanishi, hayvonlar harakatini kuzatib borishi to'liqligi va ma'lumotlar ishonchliligi, ularning iltimosiga kura tegishli davlat organlari, tashkilotlarning barcha foydalanuvchilarga soni cheklanmasdan o'rnatilgan tartibda taqdim etiladi.

23. Markaz bazasiga o'rnatilgan tartibda kirish quyidagi foydalanuvchilarga ruxsat etiladi:

1) jismoniy va yuridik shaxslar;

2) chorvachilik fermalari va majmualari, zavodlar, fabrikalar, dehqon yordamchi va fermer xo'jaliklarida veterinariya qoidalari va normalariga tayangan holda veterinariya chora-tadbirlar va hayvonlar xavfli kasalliklariga qarshi veterinariya chora-tadbirlarni o'tkazayotgan hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 sentabr №748- sonli qaroriga muvofiq ularda identifikatsiya qilishni amalga oshirayotgan veterinariya vrachlar;

3) Qo'mita va uning hududiy bo'linmalari xodimlari;

4) vakolatli davlat organlari va tashkilotlari xodimlari (ichki ishlar organlari, bojxona va chegara xizmatlari ma'lumotlar bazasidan axborotga muhtoj tashkilotlari – ularga yuklatilgan vazifalarini bajarish uchun).

24. Markaz bazasi ochiq va yopiq qismlardan iborat.

Markaz bazasining ochiq qismida quyidagi ma'lumotlar mavjud (login va parolni taqdim etish shart emas):

1) respublika, viloyat, tuman (shahar) va xo'jaliklarda barcha turdagi hayvonlarini ro'yxatga olgan to'g'risida statistikasi;

2) hayvonning individual raqamini ko'rsatish bilan hayvon haqida ma'lumot;

3) foydali ma'lumotlar: normativ-huquqiy hujjatlar, ma'lumotnomalar va boshqalar;

4) Qo'mita va uning hududiy bo'linmalarining kontakt (aloqa) ma'lumotlari.

Markaz bazasining ochiq qismidan ma'lumotlar barcha jismoniy va yuridik shaxslarga cheklovsiz taqdim etiladi (login va parol talab qilinmaydi).

Yopiq qismi – bunda foydalanuvchi logini va paroli bo'lishi shart – ro'yxatga olish yoki undan chiqarish uchun mo'ljallangan, hayvonlar orasida amalga oshirilgan profilaktika veterinariya chora-tadbirlar ro'yxati, shu jumladan diagnostika natijalari, hayvonlarni garovga qo'yilgani to'g'risidagi ro'yxati, ochiq qismi bilan bog'liq yoki bog'liq emas va ruxsat talab qilinadigan boshqa ma'lumotlar.

25. Login va parolga ega bo'lgan rasmiy veterinariya vrachlar uchun Markaz bazasida quyidagi funksiyalar mavjud:

1) xizmat ko'rsatish Markazida mavjud bo'lgan hayvonlar uchun ushbu Qoidalarining 33-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlarni kiritish;

2) xizmat ko'rsatadigan hududda mavjud hayvonlar, dehqon yordamchi yoki fermer xo'jalik to'g'risidagi Markaz bazasiga kiritilgan (mavjud) ma'lumotlarni yangilash;

3) xizmat ko'rsatadigan hududda mavjud bo'lgan hayvonlar, dehqon yoki fermer xo'jalik to'g'risidagi Markaz bazasida joylashgan ma'lumotlarni tahlil qilish va ularga qayta ishlov berish.

Markaz bazasida ushbu Qoidalarining 33-bandida nazarda tutilgan xizmat ko'rsatadigan hududda mavjud bo'lgan hayvonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish va yangilash faqat vakolatli veterinariya vrachi tomonidan amalga oshiriladi.

26. Login va paroli mavjud veterinariya inspektorlari uchun O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida" Qonunining 12-moddasiga muvofiq, barcha turdagi hayvonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni Markaz bazasida ularga yuklatilgan funksiyalarni bajarishda tahlil qilish va qayta ishlash uchun imkoniyatlar mavjud.

27. Login va parolga ega bo'lgan Qo'mita va uning hududiy nazorat (kontrol) bo'limlarining xodimlari uchun Markaz bazasida quyidagi funksiyalar mavjud:

1) barcha turdagi hayvonlar uchun Markaz bazasida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tahlil qilish va ularga ishlov berish;

2) rasmiy veterinar vrachlar tomonidan ma'lumotlar bazasiga o'z vaqtida va ishonchli kiritilishini nazorat qilish;

3) hayvon egalari tomonidan identifikatsiya raqamlarini berish va ulardan foydalanishni, hayvonlar va ulardan olingan mahsulotlari joyi o'zgargani (harakati), Markaz bazasi ma'lumotlarining to'liqligi va ishonchliligi ustidan nazorat qilish;

4) Markaz bazasi ma'lumotlaridan o'z ishida foydalanish, shu jumladan ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va ularni saqlash;

5) Markaz bazasi programmalash vositalarini takomillashtirish;

6) Markaz bazasini boshqarishning tashkiliy-uslubiy tamoyillarini ishlab chiqish va takomillashtirish.

28. Login va parolga ega bo'lgan davlat organlari (ichki ishlar, bojxona va chegara xizmati va hokazo) xodimlari uchun ularga berilgan funksiyani bajarishda Markaz bazasida hayvonlar egalari haqidagi ma'lumotlarni Markaz bazasida joylashgan hayvonlarning individual raqamlari bilan solishtirish funksiyasi mavjud.

29. Markaz bazasida joylashgan maxfiy ma'lumotlarga kirish 2003 yil 11 dekabrda "Axborotlashtirish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunga muvofiq tartibga solinadi.

30. Ma'lumotlarni boshqa axborot tizimlaridan Markaz bazasiga olish yoki aksincha undan o'tkazish 2003 yil 11 dekabrda "Axborotlashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

31. Markaz bazasiga kechayu kunduz kirish ta'minlanadi. Operator ma'lumotlar bazasining ishlashida rejalashtirilgan texnik uzilishlardan foydalanuvchilarni 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay xabardor qiladi, bunday ma'lumotlarni Qo'mita Internet-resursi va Markaz bazasida e'lonni joylashtiradi.

3- bob. Ma'lumotlar bazasini shakllantirish va undan foydalanish tartibi

32. Ma'lumotlar bazasini shakllantirish va undan foydalanish hayvonlarning egasi va identifikatsiya qilingan hayvonlar haqidagi ma'lumotlarni hamda o'zgarishlarni kiritish orqali amalga oshiriladi.

33. Markazning bazasini shakllantirish va undan foydalanish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) hayvonlar egasi to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish (yangilash):
yuridik shaxslar uchun – manzil, yuridik shaxs ro'yxatdan o'tgan manzil, ishlab chiqarish ob'ektini ro'yxatdan o'tkazish sanasi va raqami;
jismoniy shaxslar uchun – familiyasi, ismi, otasining ismi, manzili, STIR;

2) Identifikatsiya qilingan hayvonlar haqidagi ma'lumotlarni kiritish (yangilash):

ma'lumot kiritilgan paytdan boshlab o'zgarmaydigan hayvonning turi, tug'ilgan sanasi, zoti, jinsi, (ushbu ma'lumotlar Markaz bazasida avtomatik ravishda hisoboti olib boriladi);

hayvonning identifikatsiya raqami;

hayvonning laqabi (mavjud bo'lsa);

hayvonning kelib chiqishi haqida ma'lumot (sotib olish, tug'ilish, import qilish, hadya qilish, mulkka egalik qilish va hayvonning kelib chiqishining boshqa holatlari);

hayvonni ro'yxatga olish sanasi;

o'lim haqida ma'lumotlar: o'lim fakti o'rnatilgan sana, o'lim sabablari;

hayvon so'yilishi (realizatsiya uchun, shaxsiy iste'mol uchun, majburiy so'yilish) haqida ma'lumot, so'yishga jo'natilgan sana, so'yish sanasi, so'yish sababi (faqat majburiy so'yilganda), yuridik shaxsni nomi, jismoniy shaxslar uchun – familiyasi, ismi, otasining ismi, STIR, hayvonotga mansub mahsulot ishlab chiqarish, saqlash va sotish bilan shug'ullanuvchi ob'ektlar tartib raqami, hayvon so'yish ixtisoslashtirilgan korxonani nomi yoki boshqa so'yilgan joyi;

hayvonni muomaladan chiqarish va yo'q qilish to'g'risidagi ma'lumotlar: sababi, olib qo'yish va yo'q qilish sanasi, yuridik shaxsning nomi, hayvonotga mansub mahsulot ishlab chiqarish, saqlash va sotish bilan shug'ullanuvchi ob'ektlar tartib raqami, jismoniy shaxslar uchun – familiyasi, ismi, otasining ismi, STIR, hayvonni muomaladan chiqarish va yo'q qilingan joyi;

sotish to'g'risida ma'lumot: hayvonni sotish uchun jo'natilgan sana, sotilishi sanasi, yuridik shaxsning nomi (jismoniy shaxslar uchun –

familiyasi, ismi, otasining ismi, STIR), hayvon sotilgan, hayvonotga mansub mahsulot ishlab chiqarish, saqlash va sotish bilan shug'ullanuvchi ob'ektlar tartib raqami va manzili. Sotishga yuborilgan hayvon Markaz bazasida "sotuvda" deb aks ettiriladi va hayvonni sotilgan holatida ma'lumotlar bazasida hayvonning yangi egalari haqidagi ma'lumotlarni ko'rsatib, "sotilgan" deb aks ettiriladi. Agar hayvon sotilmagan bo'lsa, ma'lumotlar bazasidagi "sotuvda" holati sabablarini ko'rsatgan holda "qayta ro'yxatga olingan" holatiga o'zgaradi;

hayvon yo'qotilgani haqida ma'lumotlar: yo'qotilgan sanasi, yuridik shaxsning nomi (jismoniy shaxslar uchun – familiyasi, ismi, otasining ismi, STIR), hayvonotga mansub mahsulot ishlab chiqarish, saqlash va sotish bilan shug'ullanuvchi ob'ektlar tartib raqami va manzili;

hayvonning identifikatsiya raqami yo'qolishi haqida ma'lumotlar: yo'qolgan sana, yo'qotish sabablari, hayvonning yangi identifikatsiya raqami hayvonning oldingi identifikatsiya raqami bilan bog'liq bo'ladi;

hayvonlarning mulkiy egaligi aniqlanmagan hayvonlarni vaqtincha ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlar (hayvonning egalari aniqlash ilojisi yo'q tashlandiq, qarovsiz hayvonlar);

O'zbekiston Respublikasi 1997 yil 1 martdagi Fuqarolik kodeksining 195-moddaga ("qarovsiz hayvonlar") muvofiq tegishli ma'muriy-hududiy birlikning mahalliy ijro etuvchi organi hayvonlarning mulkiy egaligi belgilangunga qadar vaqtincha ro'yxatdan o'tkazadi;

3) hayvonlar joyini o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish (yangilash):

sana va joyini o'zgarishi uchun sabab (masalan, yozgi yaylovlarga haydab chiqarish yoki joyini o'zgarishi (harakat) uchun boshqa sabablar);

ma'muriy-hududiy birliklar ko'rsatilgan holda hayvon kimdan tasarruf etilganligi yoki kimga yuborilganligi va kelib tushganligi to'g'risidagi ma'lumotlar:

yuridik shaxslar uchun – yuridik shaxs ro'yxatdan o'tgan nomi, hayvonotga mansub mahsulot ishlab chiqarish, saqlash va sotish bilan shug'ullanuvchi ob'ektlar tartib raqami va manzili;

jismoniy shaxslar uchun: familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy yashash manzili va STIR;

hayvonlarni import yoki eksport qilishda – import yoki eksport mamlakat nomi.

Hayvonlarni bir ma'muriy-hududiy birlikdan boshqa ma'muriy-hududiy birlikka joyini o'zgartirishda hayvonlarning harakati haqidagi kuzatib borish hujjatlarini rasmiylashtirilishi bo'yicha axborot tegishli ma'muriy-hududiy birlik foydalanuvchilar tomonidan ma'lumotlar bazasida ushbu qoidalar 5- ilovaga muvofiq kiritiladi;

4) hayvonlar sog'ligi to'g'risida, hayvonlar karantinini o'tkazish, veterinariya-profilaktika, davolash tadbirlari va diagnostik tekshirishlar haqidagi ma'lumotlarni kiritish (yangilash) va ularning natijalari, shu jumladan ularni amalga oshirish sanasi.

Ma'lumotlarni kiritish, ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlarni yangilash ushbu Qoidalarining 8-bandiga muvofiq hayvonning veterinariya tadbirlarini, tug'ilishini, foydalanish huquqini o'tkazish, egalik qilish, sotib olish, sotish, o'g'irlash, so'yish yoki o'limni amalga oshirish jarayonida amalga oshiriladi.

5) veterinariya kontroli (nazorati) ostidagi tovarlarni ishlab chiqilgan hududlarning hayvon yuqumli kasalliklari, shu jumladan, odamlar va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklar bo'yicha epizootik farovonligini tasdiqlash uchun, veterinariya nazorati ostidagi tovarlarni ishlab chiqarish va ularning joylarini o'zgartirish hamda realizatsiya qilish davomida kuzatib borish hujjatlarining shakllari va rasmiylashtirish tartibi alohida ilovaga muvofiq amalga oshiriladi.

34. Markaz bazasidan foydalanuvchini ro'yxatdan chiqarish (bekor qilish) quyidagi asoslar bo'lganda amalga oshiriladi:

foydalanuvchi shaxs haqidagi noto'g'ri ma'lumotlarni arizada taqdim etish, bu fakti uni ro'yxatga olishidan keyin ma'lum bo'lganda;

foydalanuvchi veterinariya kuzatib borish hujjatlarni (keyingi matnda – KBH) Markazda rasmiylashtirish uchun, yoki qaytarilgan KBHni qayta rasmiylashtirish uchun, yoki KBHni bekor qilishi uchun 3 (uch) yil mobaynida biron marta ishlatilmaganda;

foydalanuvchi tashkilot tugatilgan yoki shaxsning faoliyati tugatilganda;

foydalanuvchi shaxs rasmiylashtirilgan KBHda ataylab yolg'on ma'lumotlar kiritilganda;

shu bilan birga, foydalanuvchini ro'yxatdan chiqarish (bekor qilish) ushbu tartibga muvofiq amalga oshiriladigan qayta ro'yxatga olishni rad etish uchun sabab bo'lmaydi;

boshqa asoslar bo'yicha foydalanuvchini ro'yxatdan chiqarish (bekor qilish)ga yo'l qo'yilmaydi.

35. Markaz bazasiga kiritilgan (mavjud) ma'lumotlarning o'zgarishi (to'g'rilash, noto'g'ri kiritish, ma'lumotlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish) Qo'mita va uning hududiy bo'linmalari tomonidan taklif etilgan tuzatishlar ishonchligini aniqlashtirgandan so'ng, operator faqat Qo'mita roziligi bilan amalga oshiradi.

Hayvon to'g'risida Markaz bazasida kiritilgan (mavjud) ma'lumotlarning barchasi hayvon ro'yxatdan chiqib ketgandan keyin (so'yilishi, nobud bo'lishi, uning mahsulotlari ishlatilish yoki yo'q qilinishi va h. k.) 12 (un ikki) oy mobaynida saqlanadi.

36. Agar Markaz bazasiga ushbu qoidalarining 33 bandida ko'rsatilgan ma'lumotlarni kiritish (yangilash) aloqasi uzilishi bo'lsa, rasmiy veterinariya vrachi ma'lumotlarni olinadigan (fleshka, disk) axborot vositalariga, shu jumladan, arxivlash maqsadida ham yuklaydi. Agar aloqa bo'lmasa yoki ushbu Qoidalarining 33-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlarning Markaz bazasiga kirishiga (yangilanishiga) to'sqinlik qiladigan boshqa holatlar bo'lsa, aloqa bor bo'lgan boshqa ma'muriy-hududiy birlikdagi Markaz bazasiga ma'lumot kiritishga ruxsat etiladi.

37. Ushbu qoidalar 3-ilovasidagi shaklga muvofiq yozma ariza ro'yxatga olingan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida hayvon egasining talabiga ko'ra, veterinariya inspektori tomonidan 4-ilovada ko'rsatilgan shaklda Markaz bazasidan hayvonlarni identifikatsiya qilish bo'yicha ko'chirma bir nusxada chiqarilib, arizachiga taqdim etiladi.

4- bob. "Markaz" yagona ma'lumotlar bazasini moliyalashtirish

38. "Markaz" yagona ma'lumotlar bazasi tizimi davlat budjeti va hayvon egalari xizmat ko'rsatishdan tushgan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi.

39. Hayvonning egasi hayvonni identifikatsiya qilish va ushbu qoidalarda ko'rsatilgan boshqa ishlar bilan bog'liq xarajatlarni qoplaydi.

40. Hayvonlarni identifikatsiya qilish va tegishli ish yuritish uchun hayvon egasiga ko'rsatiladigan xizmatlar uchun tariflar miqdori belgilangan tartibda belgilanadi.

41. Ushbu qoidalarga muvofiq identifikatsiya qilinmagan hayvonlar uchun budjet va mahalliy hokimiyat organlari hisobidan subsidiyalar ajratish yoki boshqa xarajatlarni qoplash taqiqlanadi.

Izoh. Veterinariya guvohnomasi kuzatib borishning asosiy elementidir va butun dunyoda kuzatib borish tizimlari unga asoslangan. Veterinariya sertifikatlari zarur bo'lgan mahsulotlarni tashishni nazorat qilish uchun kerak, chunki ularsiz tovarlar mamlakatdan tashqariga yoki hatto boshqa mintaqaga borish imkoniga ega emas.

Mamlakatda har yili ko'p minglab qog'oz sertifikatlari beriladi. Bu katta resurslar va vaqt isrofi, lekin bir vaqtning o'zida u hech qanday mahsulot sifatini kafolatmaydi. Bu hujjatlar yordamida tovarning butun yo'lini daladan dasturxongacha kuzatib borishni jismoniy jihatdan mumkin emas.

Veterinariya sertifikatsiyasi sohasida zudlik bilan bunday yangiliklarga o'tish zarur. O'zgarishlarni amalga oshirish uchun Qo'mita rahbarlarining irodali qarori zarur. Bu qog'oz sertifikatlaridan foydalanishni to'liq bartaraf etadi va butun mamlakat bo'ylab olingan hayvonlar va ulardan olingan mahsulotlarni kuzatib borishning qulay va zamonaviy tizimini joriy etadi.

Shunday qilib, yagona "MARKAZ" elektron bazasi yaratiladi. Faqat vakolatli foydalanuvchilar unga kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bundan tashqari, ular o'zlari haqida batafsil ma'lumot beradi, ularning harakatlari saqlanadi va ularning har biri tomonidan qilingan har qanday o'zgarishlar real vaqtda kuzatilishi mumkin. Shu bilan birga, qog'oz sertifikatlari butunlay yo'qoladi va uning o'rniga progressiv raqamli analoglar ishlatiladi.

Raqamli hujjatlar zanjiri shunday shakllantiriladiki, ularni qalbakilashtirib bo'lmaydi.

Foydalanuvchining hisob qaydnomasini, ya'ni Markaz bazasida ro'yxatdan o'tish va ishlash uchun shaxsiy login va parolni ro'yxatdan o'tkazish va ma'lumotlar tizimiga kirish huquqini olish yoki uni o'zgartirish bo'yicha ariza:

_____ so'rayman
arizada berilgan asoslarni ko'rsatgan holda kirish huquqini berish, bloklash,
foydalanuvchining ma'lumot tizimiga bo'lgan huquqini o'zgartirish

Familiyasi, ismi, otasining ismi, STIR, login _____

IP-manzili

_____ Murojaat etuvchining tegishli ma'muriy - hududiy birliklari yoki fermer xo'jaliklarida
xizmat kursatishi yoki tarkibiy bo'linmasi va lavozimi

_____ Foydalanuvchiga ruxsat etilgan ma'lumotlar tizimidagi axborot bazasining nomi

_____ ma'lumotlar tizimida amalga oshiradigan vazifalari (xatti-harakatlar) nomi

Ma'lumotlarni quyidagi elektron pochtaga yuboring:

_____ (familiyasi, ismi, otasining ismi, rahbar imzosi)

20__ __ yil " __ " _____

Foydalanuvchilarni ro'yxatga olish hamda login va parollar berish jurnali

t/r №	Foydalanuvchining chiqqan xat raqami, sanasi va kirgan xatning raqami, sanasi	Ruxsat etilgan ma'lumotlar tizimidagi axborot bazasining nomi	Foydalanuvchilarni ro'yxatga olish va shaxsiy noyob login va parollarni berish sanasi	Asos(lar)
1	2	3	4	5

Markaz bazasidan hayvonni identifikatsiya qilish bo'yicha ko'chirma olish uchun arizaning namunasi

3- ilova

_____ viloyat, tuman (shahar) davlat veterinariya organining nomi

_____ dan
hayvon egasining familiyasi, ismi, otasining ismi, STIR yoki yuridik shaxs nomi

Ariza (hayvon egasi o'z qo'li bilan to'ldiradi)

Hayvon identifikatsiya sonini ko'rsatib, quyidagi hayvonlar uchun Markaz bazasidan ko'chirma taqdim etishni so'rayman:

_____ (hayvon egasining imzosi)

_____ (sana)

Markaz bazasidan hayvonni identifikatsiya qilish bo'yicha ko'chirmaning
namunasi.

4- ilova

_____ sanada hayvon identifikatsiya Markaz bazasidan _____ sonli ko'chirma

Viloyat nomi _____

Tuman (shahar) nomi _____

Hayvon egasining F.I.Sh, STIR _____

yoki yuridik shaxsni nomi _____

t/r №	Hayvonning identifikatsiya raqami	Ma'lumot nomlari	Ma'lumot	Diagnostik tadbirlar			
				Tadqi- qot turi	Tadqi- qot sanasi	Kasallik nomi	Tadqiqot natijasi
		Hayvon turi					
		Tug'ilgan sana					
		Jinsi					
		Nasl zoti (naslli bo'lsa)					
		Hayvonning shajarasi (kerak bo'lsa)					
		Ro'yxatga olish sanasi va sababi					
		Ro'yxatdan chiqarish sanasi va sababi					
		Import qilinganligi					
		Garovga qo'yilgan bo'lsa					
		Identifika- siya usuli					

Berilgan sana _____

_____ Ko'chirmani bergan xodimning F.I.Sh., lavozimi, imzosi

Veterinariya kuzatib borish hujjatlarini rasmiylashtirish Qoidalari (Loyiha)

1. Ushbu qoidalar davlat veterinariya nazorati ostidagi tovarlarni ishlab chiqilgan hududlarning hayvon yuqumli kasalliklari, shu jumladan, odamlar va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklar bo'yicha epizootik farovonligini tasdiqlash uchun, nazorat ostidagi tovarlarni ishlab chiqarish va ularning joylarini o'zgartirish hamda realizatsiya qilish davomida kuzatib borish hujjatlarining (keyingi matnda – KBH) shakllari va rasmiylashtirish tartibini halqaro talablarga muvofiqlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2017 yil 15 martdagi №139– son qarori bilan tasdiqlangan davlat veterinariya nazorati ostidagi tovarlar ro'yxatiga kiritilgan hudud va hayvon turiga xos, kelib chiqishi hamda nazorat ostidagi tovarlar veterinariya-sanitariya holatini tavsiflovchi, ularning kelib chiqishi hududlarning epizootik farovonligi va nazorat ostidagi tovarlar identifikatsiya qilish imkonini beradigan KBH (veterinariya sertifikatlari, veterinariya guvochnomalari va veterinariya spravkalari) rasmiylashtiriladi.

3. Sertifikatlashtirish qat'iy axloqiy qoidalarga asoslangan bo'lib, ularning eng muhimi veterinar-sertifikatlovchining professional mustaqilligini hurmat va himoya qilish. Shuning uchun veterinar-sertifikatlovchilar quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

1) milliy va xalqaro veterinariya sertifikatlarini rasmiylashtirish uchun Qo'mitaning rasmiy ruxsati;

2) faqat shaxsan to'la isbot bo'lgan narsalarini va faqat mustaqil ravishda boshqa vakolatli shaxs tomonidan tasdiqlangan ma'lumotga ishongandan keyin sertifikatni imzolash;

3) imzolashdan oldin sertifikatning to'g'ri va to'liq to'ldirilganligiga ishonch hosil qilib, sertifikatni imzolash;

4) sertifikat berilganda hayvonlar yoki chorvachilik mahsulotlari bilan savdo bitimiga shaxsiy qiziqish bo'lmaslik va uni amalga oshiruvchi savdo tomonlaridan mustaqil bo'lish.

4. Har bir KBH noyob identifikatsiya raqami bilan ta'minlanadi va quyidagi holatlarda rasmiylashtiriladi:

nazorat ostidagi tovarlar to'pi (partiyasi)ni ishlab chiqarishda (ularni rasmiylashtirish ushbu qoidalarga muvofiq talab qilinmaydigan hollar bundan mustasno);

nazorat ostidagi tovarlar to'pi (partiyasi)ni tashilishi yoki boshqa yo'l bilan joyini o'zgartirishida (ushbu qoidalarga muvofiq ularni rasmiylashtirishi talab etilmaydigan hollar bundan mustasno);

nazorat ostidagi tovarlarga egalik huquqini o'zgarganda (nazorat ostidagi tovarni xaridorga tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy iste'mol uchun berish yoki sotish bundan mustasno).

5. Maqsadlarga erishish uchun ushbu Qoidalar quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

veterinariya guvohnomasi (veterinarnoe svidetelstvo) – MDH a'zosining veterinariya nazorati ostidagi barcha turdagi tovarlar uchun belgilangan namunada hujjat bo'lib, ushbu hujjat hayvon o'ta xavfli va karantin kasalliklari bo'yicha xavfsiz hududdan chiqqanligini, shuningdek, xom ashyo va chorvachilik mahsulotlarining belgilangan tartibda veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tganligini va veterinariya-sanitariya talablariga muvofiqligini tasdiqlaydi;

veterinariya sertifikat – veterinariya nazorati ostidagi tovarlarning kelib chiqishi veterinariya-sanitariya jihatidan xavfsizligini va import-eksport qiluvchi davlatning veterinariya talablariga muvofiq yuqumli hayvonlar kasalliklari bo'yicha davlatning farovonligini tasdiqlovchi belgilangan namunadagi xalqaro hujjat. Veterinariya sertifikat bir varaqdagi hujjat bo'lishi kerak (u aylanma yoki ikkilamchi bo'lishi mumkin).

Mahsulotlarni oxirgi mijozga shaxsiy iste'mol uchun sotish, mahsulotlarning bir korxonada ichida harakatlanishi, hamroh (uy) hayvonlarni tashish va boshqa ba'zi bir holatlarda veterinariya guvohnomalarini rasmiylashtirish va, shuning uchun "Markaz"ga ulanish talab qilinmaydi.

Nazorat ostidagi tovarning ishlab chiqarish partiyasi – ma'lum vaqt ichida ishlab chiqarilgan nazorat ostidagi tovarning har qanday miqdori, partiya yoki seriya raqami, ishlab chiqarish sanasi, nazorat raqami, amal qilish muddati berilgan, sutemizuvchilar yoki suv hayvonlari har qanday soni bir maqsad uchun bir joyda yig'ilgan, yoki inson iste'moli

uchun mo'ljallangan mahsulotlar olish maqsadida, yoki naslchilik uchun mo'ljallangan bir biologik turiga tegishli, bir chorvachilik korxonasi (shaxsiy yordamchi yoki fermer xo'jaliklari)da saqlanadigan, yoki bir joyda joylashgan bo'lib, ular veterinariya talablarga muvofiq ishlab chiqaruvchi tomonidan beriladigan miqdor.

Nazorat ostidagi tovarlar transport partiyasi – ishlab chiqarishni bir partiyasiga tegishli bo'lgan bir xil nazorat ostidagi tovarlar miqdori, bir transport vositasida oluvchining yoki yangi egasining manziliga ko'chirilishi, yoki bir ishlab chiqarish partiyasiga tegishli bo'lgan har qanday hayvon soni bir transport vositasida ko'chirilishi, yoki bir vaqtning o'zida bir poda (suruv)ning bir manzilga ko'chirilishi, bir yoki bir nechta biologik turdagi hayvonlarning har qanday soniga, ulardan inson iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulotlarni olish uchun yetishtiriladigan chorvachilik korxonasi (shaxsiy yordamchi va fermer xo'jaliklari)da saqlangan yoki bir joyda joylashgan, bir vaqtning o'zida bir avtomobilda, yoki bir xil yo'nalish bo'ylab bir vaqtning o'zida tashilishi va belgilangan manzilga olib kelishga mo'ljallangan nazorat ostidagi partiyasi.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2017 yil 15 martdagi №139– son qarori bilan tasdiqlangan davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi har qanday tovarlarni rasmiylashtirishni o'zlarining kompetensiyasiga muvofiq Qo'mitaning vakolatli shaxslari amalga oshiradi.

7. Veterinariya kuzatib borish hujjatlarini rasmiylashtirish va berishi ustidan joylardagi davlat veterinariya inspektorlari nazorat qilishadilar, shu sababli ularni shakllarini tayyorlash va berish qoidalari, sertifikatlovchi veterinariya mutahassislarni attestatsiyasi hamda ularning faoliyati tartibga solish qoidalarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.03.2019-yildagi PF-5696 farmoni 4- punktiga muvofiq Qo'mita raisi tasdiqlaydi.

8. Nazorat osti tovarlar laboratoriya tadqiqotlari, ko'rikdan o'tkazish, veterinariya-sanitariya ekspertiza o'tkazishga muhtoj bo'lmagan taqdirda 1 (bir) ish kuni ichida beriladi, agar ularning o'tkazish uchun ehtiyoji bor bo'lsa laboratoriya tadqiqotlari natijalarini olgandan so'ng, ko'rikni o'tkazib, veterinariya-sanitariya ekspertiza o'tkazgandan so'ng 1 (bir) ish kuni ichida KBH vakolatli shaxs tomonidan rasmiylashtiriladi va beriladi.

Nazorat ostidagi tovarlarni laboratoriya tadqiqotlari, ko'rikdan o'tkazish, veterinariya-sanitariya ekspertiza o'tkazish uchun yuborish to'g'risida qaror qabul qilgan vakolatli shaxs, KBHni rasmiylashtirish uchun ariza bergan shaxsning talabiga ko'ra, qabul qilingan qarorni 1 (bir) kun ichida yozma asoslab berishi shart.

9. KBH O'zbekiston hududida nazorat ostidagi tovarlar ishlab chiqarilganda, ularning joyi o'zgartirilganda yoki ularga nisbatan egalik huquqi boshqaga o'tganda qo'yidagi asoslar bo'yicha rasmiylashtiriladi:

kelib chiqishi yoki jo'natilgan joyning epizootik holati haqida ma'lumotlar mavjudligi;

ushbu mahsulot yoki xom ashyoni veterinariya-sanitariya ekspertizasi o'tkazish natijalari bo'lganda, agar qonunchilik asosida ularni ishlab chiqarish davomida veterinariya-sanitariya ekspertiza belgilangan taqdirda;

Qo'mita tizimidagi hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazlari va veterinariya dori vositalari, ozuqabop qo'shimchalar sifati va muomalasi nazorati bo'yicha Davlat ilmiy markazi (keyingi matnda – Markaz vetlaboratoriyalari) yoki milliy akkreditatsiya tizimida akkreditatsiya qilingan boshqa laboratoriyalarda o'tkazilgan tadqiqotlari, agar bular nazorat ostidagi tovarlarga nisbatan qonun hujjatlarida talab qilinsa;

o'tkazilgan ko'rik to'g'risida ma'lumotlar (faqat tirik hayvonning veterinariya ko'rigi natijalari to'g'risida);

nazorat ostidagi tovarlarni joyini o'zgartirish uchun transport vositasini o'tkazilgan ko'rigi to'g'risida ma'lumotlar;

xom sut, xom qaymoq, xom yog'siz sut (xom obrat)ni qayta ishlash korxonalariga yetkazib beruvchilarning sut fermalari veterinariya-sanitariya farovonligi to'g'risida spravka Qo'mitaning vakolatli shaxs tomonidan eng ko'pi 1 oy muddatga beriladi;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa nazorat usullari.

10. O'zbekiston Respublikasi hududiga eksport qilish uchun mo'ljallangan nazorat ostidagi tovarlar ishlab chiqarilganda, ularning mamlakat hududi ichida joyini o'zgartirish (shu jumladan, tashish) va ularga egalik huquqini boshqa tomonga o'tish to'g'risida KBH qo'yidagi asoslarga tayanib rasmiylashtiriladi:

nazorat ostidagi tovarlarni kelib chiqishi joyning epizootik holati haqida ma'lumot;

veterinariya-sanitariya ekspertizasining natijalari, agar nazorat ostidagi tovarlarga nisbatan bu tekshirishlar O'zbekiston yoki eksport qiluvchi mamlakat qonunchiligida ular talab qilinsa;

Qo'mita tizimidagi Markaz vetlaboratoriyalari yoki milliy akkreditatsiya tizimida akkreditatsiyadan o'tgan boshqa laboratoriyalarda nazorat ostidagi tovarlarni tadqiqotlari o'tkazishni O'zbekiston Respublikasi yoki eksport qiluvchi mamlakatning qonun hujjatlarida talab qilinganda;

tirik hayvonlarni eksport qilishda albatta veterinariya ko'rigi;

xom sut, xom qaymoq, xom yog'siz sut (xom obrat)ni qayta ishlash korxonalariga yetkazib beruvchilarning sut fermalari veterinariya-sanitariya farovonligi to'g'risida sertifikat Qo'mitaning vakolatli shaxs tomonidan eng ko'pi 1 oy muddatga beriladi;

O'zbekiston va eksport qiluvchi mamlakatning milliy qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa nazorat usullari.

11. Nazorat ostidagi tovarlarni eksport qilishda KBH davlat veterinariya inspeksiya yoki uning vakolatli shaxs tomonidan qo'yidagi asoslar bo'lganda rasmiylashtiriladi:

nazorat ostidagi tovarlarni kelib chiqishi joyning epizootik holati haqida ma'lumot;

veterinariya-sanitariya ekspertizaning natijalari, agar nazorat ostidagi tovarlarga nisbatan bu tekshirishlar O'zbekistonda yoki import qiluvchi mamlakat qonunchiligida ular talab qilinsa;

Qo'mita tizimidagi Markaz vetlaboratoriyalari yoki milliy akkreditatsiya tizimida akkreditatsiyadan o'tgan boshqa laboratoriyalarda nazorat ostidagi tovarlarni tadqiqotlari o'tkazishni O'zbekiston Respublikasi yoki import qiluvchi mamlakatning qonun hujjatlarida talab qilinganda;

tirik hayvonlarni import qilishda albatta to'liq veterinariya ko'rigi;

O'zbekiston va import qiluvchi mamlakatning milliy qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa nazorat usullari.

12. Agar KBH elektron shaklda rasmiylashtirilgan bo'lsa, Qo'mitaning veterinariya inspektorlari nazorat ostidagi tovarlarning egasi

(tashuvchi yoki olib boruvchisi)dan KBHni qog'ozli formatda taqdim etishni talab qilishga haqli emas. Shu bilan birga, nazorat ostidagi tovarlar egasi (tashuvchi yoki olib boruvchisi) o'zi tanlagan, yoki nazorat ostidagi tovarlar uchun chiqarilgan elektron KBH raqamini, yoki bu KBHga mos ikki o'lehovli matritalsali shtrix kod (QR-kod)ni taqdim etishi shart.

Elektron shaklida berilgan KBH nazorat ostidagi tovarlar egasi (tashuvchisi yoki olib boruvchisi) quyidagi huquqlarga ega:

nazorat ostidagi tovarlar egasi (tashuvchisi yoki olib boruvchisi) ushbu tartibning 4-bandiga muvofiq KBH rasmiylashtirgan bo'lsa, u mustaqil ravishda KBH shaklini chop etish;

Qo'mitani vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan, himoyalangan blankada rasmiylashtirilgan KBHni olish.

13. KBH elektron shaklda rasmiylashtirilgan bo'lsa bu KBH 3 (uch) yil davomida Markazda saqlanadi, lekin bunda nazorat ostidagi tovarning yaroqlilik muddati eng kami 3 (uch) yildan kam bo'lmasligi kerak.

Qog'oz formatda KBH rasmiylashtirilsa, KBHning to'ldirilgan koreshogi ushbu KBHni bergan vakolatli shaxsda saqlanadi va KBH o'zi nazorat ostidagi tovarni qabul qiluvchi (sotib oluvchi)da saqlanadi (shaxsiy iste'mol uchun nazorat osti tovarlar sotib olish hollari bundan mustasno), nazorat ostidagi tovarlar olinganidan (sotib olinganidan) keyin 3 yil davomida, lekin nazorat ostidagi tovarlar yaroqlilik muddati o'tgunga qadar kam bo'lmasligi kerak.

14. Qog'oz formatda rasmiylashtirilgan KBH ushbu tartibga muvofiq Markazda ro'yxatdan o'tkaziladi.

15. KBHni amal qilish muddati:

nazorat ostidagi tovarlar ishlab chiqarilgan partiyasini rasmiylashtirilgan paytdan boshlab to yaroqlilik muddati tugagunga qadar sotish, iste'mol qilish;

nazorat ostidagi tovarlarni partiyasini rasmiylashtirilishi ularning joyi o'zgargani (ko'chirilishi, tashilishi) boshlagan paytdan to nazorat ostidagi tovarlarning o'zgargani (ko'chirilishi, tashilishi) tugashiga qadar;

nazorat ostidagi tovarlar partiyasiga egalik xuquqini rasmiylashtirilishi boshlangan paytdan to nazorat ostidagi tovarlar egalik huquqini yo'qotishiga qadar;

hayvonlar tashilishida tashish sanasidan 5 kun oldin va hayvonlarni tashish yoki realizatsiya tugagunga qadar.

16. 5 (besh) boshgacha bo'lgan hayvonlarni tashishda laqabi (agar bo'lsa) va nasldor bo'lmagan hayvonlar uchun raqami, shuningdek nasldor hayvonlar uchun jinsi, zoti, yoshi ko'rsatilgan KBH rasmiylashtiriladi va tegishli jadvalda yoki qog'oz formatda KBHning "maxsus belgilari" katakda ko'rsatiladi.

17. Qo'yidagi nazorat ostidagi tovarlar partiyasini ishlab chiqarilganda KBHni rasmiylashtirish talab etilmaydi:

a) partiyasini kelgusida odamlarni umumiy ovqatlantirish korxonasida yoki boshqa har qanday joyda ovqatlanish uchun oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilinganda;

b) chakana savdo korxonalarining nazorat ostidagi tovarlarni qayta ishlash sexlarida, agar qayta ishlanayotgan mahsulotlar pazandalik mahsulotlari yoki ushbu chakana savdo korxonasida oxirgi iste'molchiga sotishga mo'ljallangan tayyor taomlar bo'lsa;

v) nazorat ostidagi tovarlarni realizatsiya uchun mo'ljallanmagan maqsadlar, shu jumladan shaxsiy iste'mol uchun, hayvonlarni saqlash va ozuqalantirish uchun, ov yoki baliq ovlash uchun mo'ljallangan xo'rak, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan yig'ish (masalan, kolleksiyalarni yig'ish va saqlash), yoki nazorat ostidagi tovarlarni egasiga qarashli yer maydonlarida o'g'it (go'ng) sifatida foydalansa.

18. O'zbekiston hududida qo'yidagi holatlarda KBH rasmiylashtirish talab qilinmaydi:

ushbu Qoidalarning 17- bandining "v" kichik bandida ko'rsatilgan maqsadlar uchun ishlab chiqarilgan nazorat ostidagi tovarlarning joyini o'zgartirish (harakati) ishlab chiqaruvchisi tomonidan amalga oshirilsa;

egasini o'zgartirmasdan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan holda amalga oshiriladigan uy, xizmat ko'rsatish, dekorativ hayvonlarni parvarishi, ularning joyi o'zgarishi ko'rgazma tadbirlariga bog'lik bundan istisno;

hayvon egasi yoki uning vakolatli shaxs tomonidan amalga oshiriladigan qishloq xo'jalik hayvonlari o'tlatish, shu jumladan mollarni yozgi yaylovlarga chiqarish, sug'orish, cho'miltirish;

ushbu Qoidalarning 17- bandining "v" kichik bandida ko'rsatilgan maqsadlar uchun nazorat ostidagi tovarlar egasini o'zgarmagan holda sotib olishni amalga oshirilganda;

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga, ichki ishlar vazirligiga, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'shinlariga, jazolarni ijro etish sohasiga tegishli nazorat ostidagi tovarlar KBH oldin rasmiylashtirilgan bo'lganda.

19. Sertifikatlashtirish va KBHni yuritish jarayoni yuqori axloqiy ish sifatida belgilangan, bu ishga oliy ma'lumotli veterinar mas'uliyat bilan yondashish kerak (XEB kodeksining 5.2. bobi). Sertifikatlovchi veterinar KBHdagi ma'lumotlarning to'g'ri va iloji boricha to'liq bo'lishini ta'minlash uchun javobgardir, bundan tashqari, uning bu sohada manfaatlar to'qnashuvi yoki shaxsiy qiziqishi bo'lmasligi kerak.

20. Qog'oz formatdagi KBHlarda noyob identifikatsiya raqami, mutaxassisning imzosi va davlat veterinariya xizmatining muhri bo'lishi kerak. Chop etish matn shriftidan rangi bilan farq qilishi kerak. Sertifikat eksport mamlakat tilida to'ldirish mumkin, lekin bu holda u veterinar uchun tushunarli bo'ladigan tilda takrorlangan bo'lishi kerak.

Sertifikatlashtirish jarayoni mutaxassisning bilimi doirasidan tashqariga chiqmasligi kerak, shuning uchun zarur bo'lgan hollarda hujjatga imzo qo'yishdan oldin talab qilinadigan ekspertizalar, boshqa protseduralar va tadqiqotlar natijalari ilova shaklida beriladi.

21. Sertifikatlarni faqat asl nusxasi qabul qilinganligi uchun veterinariya bo'limi yo'qolgan yoki buzilgan o'rniga yangi sertifikat berishga haqli (unda xato ketishi yoki dastlabki ma'lumot noto'g'ri bo'lishi). Yangi sertifikat asl nusxaning o'rnini bosadigan yozuvga ega bo'lishi kerak, yangi sertifikatda asl nusxaning raqami va berilgan sanasi ko'rsatiladi, bekor qilingan asl nusxasi uni rasmiylashtirgan bo'limga qaytarib beriladi.

Qog'oz formatdagi KBH blankalari va ularning koreshoklarining shakllari qat'iy javobgarlik hujjatlari bo'lib, ular Qo'mita tomonidan belgilangan qator himoya darajalariga ega, shu jumladan: rangi, suv qog'ozdagi belgi, tipografik raqam va boshqalar.

22. Sertifikatlovchi veterinariga quyidagilar ruxsat etiladi:

a) Markazda elektron manzilni ochish;

b) KBHni rasmiylashtirish, yoki bekor qilish, yoki KBHga o'zgartirish kiritish;

v) orqaga qaytarilgan KBHni qayta rasmiylashtirish;

g) Markazdagi ma'lumotlari bilan tanishish uchun kirish;

d) belgilangan kirish huquqlariga muvofiq Markazga ma'lumotlarni kiritish.

23. Nazorat ostidagi tovarlarni elektron sertifikatlashtirish quyidagicha bo'ladi:

1) nazorat ostidagi eksport tovarlarni sertifikatlashtirish davlat veterinariya organi tomonidan bevosita import qiluvchi mamlakatning vakolatli veterinariya organiga yuboriladigan elektron hujjatlar ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin. Buning uchun:

a) sertifikatlovchi veterinar kerakli ma'lumotlarga, shu jumladan laboratoriya tadqiqotlari natijalariga va hayvonlarni identifikatsiya qilingani to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishi shart;

b) elektron sertifikatlarni taqdim etish va qabul qilish hamda elektron ma'lumotlar bilan almashish tizimining barcha xizmat turlarini ishlatish uchun davlat veterinariya organi xalqaro standartlashtirilgan kompyuter dasturlar (programma)lar, elektron axborotlarni o'tkazish hamda vosita va protokollardan foydalanish uchun sharoit yaratilishi kerak;

v) elektron xujjatlarni jo'natishning xavfsizligini ta'minlash uchun sertifikatlarni elektron identifikatsiyasini qilish, kodlash, qo'yilgan imzoni rad etishning mumkin emasligi mexanizmi, parol qo'yish va xavfsizlikni ta'minlash uchun boshqa imkoniyatlardan foydalanishi shart.

2) elektron sertifikatlar turli shakllarga ega bo'lishi mumkin, lekin qog'oz formatdagi sertifikatlar kabi bir xil ma'lumotni o'z ichiga olishi shart.

3) Qo'mita Markaz bazasiga kirish huquqiga ega bo'lmagan shaxslar va tashkilotlardan elektron sertifikatlar va boshqa hujjatlarni himoya qilish tizimlarini yaratadi.

4) sertifikatlovchi veterinar rasman o'zining elektron imzosini himoya qilish uchun mas'ul.

24. Nazorat ostidagi tovarlarga KBH rasmiylashtirish uchun ariza erkin shaklda beriladi va unda quyidagi ma'lumotlarni taqdim etadi:

nazorat ostidagi tovarning nomi, ishlab chiqaruvchining nomi, qadoqlashi (mavjud bo'lsa) va uning miqdori haqida;

KBH rasmiylashtiriladi:

a) ishlab chiqarish partiyasini rasmiylashtirish, mulkchilik xuquqini o'zgarishi, joyni o'zgartirish va x.q.;

b) nazorat ostidagi tovarlarni joyni o'zgarish uchun foydalaniladigan transport vositasining turi va davlat raqami haqida yoki bir nechta transport vositalari yoki transport turlari yordamida harakatlanish haqida;

v) nazorat ostidagi tovarlarni bir nechta transport vositalari yordamida joyi o'zgarishda keyingi transport vositalarining davlat raqamlari haqida (agar ular ma'lum bo'lsa);

g) nazorat ostidagi tovarlarni jo'natish joyi va yetib boradigan joyi haqida;

d) nazorat osti tovarlarni bir nechta transport vositalari yordamida joyi o'zgarishda transport vositalarining almashtirish joylari haqida;

e) xom ashyo sifatida ishlatiladigan nazorat ostidagi tovarlar, bunday nazorat ostidagi tovarlarni joyi o'zgarganda rasmiylashtirilgan KBH raqamlar haqida;

j) agar qonun hujjatlarida talab qilishi belgilangan bo'lsa ishlab chiqarilgan nazorat ostidagi tovarlar veterinariya-sanitariya ekspertiza natijalari haqida;

z) qonun hujjatlarida KBH rasmiylashtirish uchun nazorat ostidagi tovarlar partiyasini ishlab chiqarishda foydalanadigan xom ashyoni o'tkazilgan veterinariya-sanitariya ekspertiza natijalari.

25. KBHni rasmiylashtirish to'g'risidagi ariza Markazning vakolatli shaxslar tomonidan ariza ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab 1 (bir) ish kuni mobaynida ko'rib chiqiladi.

26. Arizani ko'rib chiqish natijalari asosida Markazning vakolatli shaxslar quyidagi qarorlardan birini qabul qiladilar:

laboratoriya tadqiqotlarini, veterinariya-sanitariya ekspertizasini, tirik hayvonlar yoki transport vositalarini ko'rikni o'tkazmasdan KBH berish;

laboratoriya tadqiqotlari, veterinariya-sanitariya ekspertizasi, tirik hayvonlar yoki transport vositalarini ko'rik natijalari asosida KBH berish;

KBH berish to'g'risida arizani rad etish.

KBHni rasmiylashtirish to'g'risidagi qaror barcha aloqa vositalar orqali darhol arizachiga yetkaziladi.

27. KBH berishni rad etish asoslari:

arizachi nazorat ostidagi tovarlar haqida noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlarni taqdim etilgani;

nazorat ostidagi tovarlarning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan talablarga mos kelmasligi;

qayd qilingan transportda tashish yoki transport vositasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan talablarga mos kelmasligi;

ariza yuborilgan shaxsda ushbu nazorat ostidagi tovarga KBH berish huquqi yo'qligi;

nazorat ostidagi tovarlar eksport qilinadigan hududdan eksport qilishga yoki nazorat ostidagi tovarlar import qilinadigan hududga olib kirish uchun cheklovlar mavjudligi;

nazorat ostidagi tovarlarni chiqish yoki bir hududdan belgilangan hududga olib o'tishga taqiq yoki cheklovlar mavjudligi;

agar nazorat ostidagi tovarning veterinariya-sanitariya ekspertizasi qonun hujjatlarga muvofiq amalga oshirilishi lozim bo'lsa-da, lekin uni veterinariya-sanitariya ekspertiza o'tkazgani haqida ma'lumotlar Markaz tizimida mavjud bo'lmasligi;

28. KBH rasmiylashtirish haqida qaror qabul qilayotganda, nazorat ostidagi tovarlarni chiqib ketish joyi, manzili, ularni tashish tartibi, rejalashtirilgan avtomobil tashish rejimi, boradigan joydan nazorat ostidagi tovarlarni tashish bo'yicha mavjud taqiqlar yoki cheklovlar mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar hisobga olinadi.

29. KBH rasmiylashtirilgandan so'ng, unga o'zgarishlar kiritishga ruxsat berilmaydi, faqat nazorat ostidagi tovarlar transport partiyasi egasi (tashuvchisi) o'zgargan yoki o'zgarmagan holda manzilga yetkazilgandan yoki qabul qilingandan keyin 24 soat ichida KBH bekor qilinadi.

KBHni rasmiylashtirishi Markaz unga noyob raqamni bergan vaqtda yakunlanadi.

30. Markazda KBH rasmiylashtirilgandan so'ng, ushbu KBH bo'yicha ma'lumotlar tasvirlanadi, KBH uchun yaratilgan shakl noyob identifikatsiya raqami, ikki o'lchovli matritsa shtrix kodni rasshifrovka

qiladigan standart dasturlar va uning ma'lumotlarni o'qish uchun skaner-apparatlar ko'rsatadi;

KBH A4 qog'ozli formatida chop etish mumkin bo'lgan shaklining to'ldirilgan KBH shakliga mos rangli yoki oq-qora tasvir;

bir nechta KBH qisqacha ma'lumotlarni qog'ozga chop etish mumkin.

31. Berilgan KBHni bekor qilishi zarurligiga olib keladigan tadbir yuzaga kelganda yoki bekor qilish zarurligi fakti aniqlanishi bilan amalga oshiriladi.

32. Nazorat ostidagi tovarlar ishlab chiqarilgan partiyasi uchun KBH quyidagi holatlarda bekor qilinadi:

a) nazorat ostidagi tovarning amal qilish muddati (yaroqlilik muddati) tugagandan keyin;

b) nazorat ostidagi tovarlar ishlab chiqarilgan partiyasi belgilangan talablarga javob bermasligini ishlab chiqaruvchi KBHni rasmiylashtirilgandan keyin aniqlagan bo'lsa;

v) agar KBH rasmiylashtirilgandan so'ng davlat veterinariya nazorati (kontroli) davomida nazorat ostidagi tovar ishlab chiqarilgan partiyasi belgilangan talablarga javob bermasligi aniqlansa.

g) rasmiylashtirilgan KBHda xato, matbaa (tipografiya) xatosi bo'lsa, yoki unga noto'g'ri ma'lumotlar kiritilganda.

33. Nazorat ostidagi tovarlar tashish uchun transport vositasi o'zgartirilganda KBH bekor qilinadi, lekin transport partiyasi uchun bir nechta transport vositalari va transport usullari yordamida harakatlanadigan hollar bundan mustasno.

34. Agar KBH rasmiylashtirilgan bo'lsa, lekin transport vositasi orqali tashish boshlanmagan bo'lsa, nazorat ostidagi tovarlar egasi (tashuvchisi) iltimosiga ko'ra KBH bekor qilinadi.

35. KBH bekor qilingandan so'ng, ushbu KBHni chop etish uchun shakllarda "bekor qilingan" qizil yoki boshqa yorqin rangli ikkita bir birini kesishuvchi diagonal chiziqlar ko'rsatiladi.

36. Qog'oz formatda KBHning hisobga olish uni bergan shaxs tomonidan ma'lumotlarni Markazga kiritish yo'li bilan, rasmiylashtirilgan kundan boshlab 7 kalendar kun ichida amalga oshiriladi.

Hujjatlarda davlat yoki xizmat siriga taalluqli ma'lumotlar bo'lsa KBH faqat qog'oz shaklida rasmiylashtiriladi.

37. KBHning o'zini rasmiylashtirish bepul amalga oshiriladi, haq faqat berilgan blank uchun uning haqiqiy qiymati bo'yicha olinadi. Uni tayyorlash vaqtida ko'rsatilgan veterinariya xizmatlari uchun tuzilgan shartnoma asosida to'lanadigan Qo'mita tomonidan tasdiqlangan preyskurant asosida xaq undiriladi.

38. KBH turiga qarab, pullik xizmatlar ro'yxatiga zarur bo'lgan emlashlar va profilaktika davolash amalga oshirilgan bo'yicha ma'lumotlarni tekshirish, veterinariya-sanitariya ekspertiza (baholash), xavfsizlikka rioya qilinganini tasdiqlash, uning holatini aniqlash uchun hayvon klinik ko'rikdan o'tkazish va hokazo o'z ichiga oladi.

39. So'ralgan KBHni berishni rad etish bo'yicha mahalliy hokimiyat yoki Markaziy ijroiya organiga yoki sudga shikoyat qilinishi mumkin.

40. Qog'oz formatda chiqarilgan KBH turli siyoh bilan to'ldirilgan yoki qo'l yozuvida tuzatishlar bor bo'lsa, noaniq muhr yoki muhr bo'lmasa, imzo, lavozimining to'liq nomi, familiyasi, ismi, barcha zarur ma'lumotlar, shu jumladan sana berilmagan bo'lsa, bu hujjatlar yo'q deb hisoblanadi va ma'muriy javobgarlikka tortilishga olib keladi.

41. Qo'mita xalqaro savdo maqsadlari uchun veterinariya sertifikatlashtirish uchun mas'ul, shuning uchun u qo'yidagilarni bajaradi:

a) sertifikatlovchi veterinarlarning ko'rsatma olishlariga va maxsus tayyorgarlik o'tishlariga ishonch hosil qilish uchun Markaz tizimida elektron KBHni shakllantiradigan barcha xodimlar attestatsiyadan o'tishi kerak;

b) sertifikatlovchi veterinarlarning o'z ishiga halollik va xolislik bilan munosabatini kuzatish;

v) agar KBHning soxtalashtirilganiga jiddiy (ishonarli) shubha tug'lsa, Qo'mita rasmiy tekshirish o'tkazadi, KBHni soxtalashtirish isbotlangan taqdirda qoidabuzarlarni jazolash bo'yicha tegishli choralar ko'riladi.

III-bo'lim. Veterinariya monitoringi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 27 iyuldagi PF-5490-son Farmoniga muvofiq Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat organlari va muassasalari tomonidan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirish tashabbusi bilan chiqishda, ular tomonidan qonunbuzarlik sodir etish xavfini tahlil etish tartibini belgilaydi.

Ushbu qarorda tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirish tashabbusi bilan chiqish tegishli tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan qonunbuzarlik sodir etish xavfi darajasidan kelib chiqib, tekshiruvni tashabbus qilishni nazarda tutuvchi "xavfni tahlil etish" tizimi natijalari asosida 2018 yil 1 - sentabrdan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Veterinariya monitoringi – bu hayvonlarning kasallanishi va sog'ligi, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlar aylanishi davomida hamda O'zbekiston hududining epizootik holati va xavfsizligi to'g'risidagi ma'lumotlarni muntazam yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish.

Mamlakatimiz veterinariya xizmatining xususiyatlaridan biri deyarli barcha veterinariya chora-tadbirlarni va boshqa kasbiy tadbirlarni rejalashtirilib o'tkazish. Bu xususiyat veterinariya xizmatini respublika iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning tizimi bilan birlashtiradi hamda chorvachilik va veterinariya sohasidagi ishlab chiqarish vazifalariga muvofiq veterinariya ishini yaxshilash imkonini beradi. Bu esa milliy iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari qo'shma sa'y-harakatlarini korrektirovka qilish mumkin (masalan, terini qayta ishlash, xavfsiz oziq-ovqatlarni ishlab chiqarish va hokazo).

Ya'ni, kasbiy faoliyatni rejalashtirish – bu veterinariya xizmatini boshqarishning muhim vazifalaridan biri, uni tashkil etishning eng muhim elementidir. Veterinariya tadbirlar rejalari hayvonlar yuqumli kasalliklarini oldini olish va bartaraf etish, moliyaviy resurslar, ish kuchi hamda veterinariya xodimlaridan oqilona foydalanish va foydalanilgan mablag'larning yuqori iqtisodiy samarasini olish bo'yicha rejalashtirilgan

chora-tadbirlarni o'z vaqtida va muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

Veterinariya tadbirlarini rejalashtirish respublika davlat, idoraviy va ishlab chiqarish veterinariya xizmatlari uchun majburiydir. Bu mamlakatda veterinariya ishlarining butun tizimini bir xilligi va universalligiga erishishning yagona yo'li. O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida" gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va mahalliy hokimiyatlarga veterinariya ishini boshqarish va chorvachilikni rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha muayyan vakolatlarni yuklaydi.

Veterinariya tadbirlarining har qanday rejalari so'nggi bir necha yil mobaynida veterinariya statistikasi ma'lumotlarini hisobga olgan holda iqtisodiy maqsadga va rentabellikka asoslangan bo'lishi kerak. Rejalashtirilgan ko'rsatkichlar haqiqiy mutaxassis, logistik va moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishi kerak, aks holda reja o'z vaqtida bajarilmaydi yoki qisman amalga oshiriladi va belgilangan maqsadlarga erishilmaydi.

Veterinariya tadbirlarini rejalashtirish chorvachilik xo'jaliklarining veterinariya-sanitariya va epizootik holatiga bevosita bog'liq. Yaxshi xo'jaliklarning ish rejalarida profilaktika choralari ustunlik qiladi, nochor xo'jaliklarda esa sog'lomlashtirish tadbirlari ustunlik qiladi. Agar xo'jaliklarda yosh hayvonlarning o'limi ko'paysa, nasldorlikning bepushtlik darajasi yuqori bo'lsa, podani ko'paytirishni yaxshilash bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar hamda davolash-profilaktika ishlari ta'minlanadi.

Rejalashtirishda rejalashtiriladigan tadbirlarni amalga oshirish usullarini tanlashni belgilaydigan muayyan chora-tadbirlar uchun mumkin bo'lgan xarajatlar miqdori ham muhimdir. Agar xo'jalikning iqtisodiy imkoniyatlari yetarli miqdorda pul va boshqa vositalarga investitsiyalar kiritish imkonini bersa, bu hollarda xo'jaliklarni, masalan, brusellyoz, sil, leykoz va boshqa kasalligidan sog'lomlashtirish bo'yicha qat'iy choralar ko'rilishi mumkin.

Hozirgi kunda veterinariya xizmatlarining asosiy faoliyati veterinariya monitoringini tashkil etish va o'tkazish hisoblanadi. Uning tarkibiy qismlari haqiqiy holatni kuzatish va tahlil qilish, shuningdek, mamlakat veterinariya xizmatining funksiyalari va vazifalari asosida prognoz qilish. Bu veterinariya ishlarining samaradorligini, epizootik

vaziyatni xolisona baholashning yagona yo'li va epizootik chora-tadbirlarni rejalashtirishdir.

Patogen moddalar turli xil chorvachilik, biologik va boshqa tovarlar, sayyohlik guruhlari, yovvoyi hayvonlar, ko'chmanchi qushlar, kemiruvchilar va boshqalar bilan davlat chegarasidan kirishi va tarqalishi mumkin. Bu borada patogen mikroblar bilan ifloslangan sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlari, sanoat korxonalari, chorvachilik majmualari chiqindilari va shu kabi boshqa ob'ektlar jiddiy xavf tug'dirishi mumkin.

Davlat veterinariya xizmati rahbarligi ostida veterinariya monitoringini doimiy olib borish, qo'shni davlatlar va O'zbekiston iqtisodiy va madaniy hamkorligiga ega bo'lgan mamlakatlardagi epizootik vaziyatni tahlil qilish, yovvoyi fauna va hayvonot dunyosining boshqa vakillari populyatsiyasini kuzatish Qo'mitaga haqiqiy materiallar bilan ta'minlash, uni tahlil qilish, alohida hududlar va mamlakat miqyosida epizootik prognozni amalga oshirish va zarur profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin.

Monitoring dunyodagi epizootik vaziyat haqida muntazam ma'lumot beruvchi xalqaro epizootik byuro (OIE) bilan yaqin hamkorlikni talab qiladi. Bu esa mamlakatning epizootik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni rejalashtirish imkonini beradi. Bu nafaqat muhim ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy ahamiyatga ham ega.

**Davlat veterinariya monitoringini o'tkazish
va uning ma'lumotlaridan foydalanish
Qoidalari loyixasi**

1. Ushbu Qoidalar O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 29 dekabrda "Veterinariya to'g'risida" (ZRU – № 397) Qonuniga muvofiq, shuningdek, xalqaro epizootik byurosining (XEB) yerdagi hayvonlari sog'ligi Kodeksining standartlarini hisobga olgan holda davlat veterinariya monitoringini o'tkazish va uning ma'lumotlaridan foydalanish tartibini amaliyotga joriy qilish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Qoidalar epizootik monitoring, oziq-ovqat xavfsizligi monitoringini va boshqalarni tashkil etish va o'tkazish, ularni amalga oshirishni moliyalashtirish manbalarini belgilaydi va Respublikamiz hududida veterinariya xizmati nazorati ostidagi mahsulotlarni muomalasi sohasida faoliyatni amalga oshiriladigan yuridik va jismoniy shaxslar bajarishi majburiy.

3. Veterinariya monitoringi (bundan buyon matnda – Monitoring) veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi (bundan buyon matnda – Qo'mita) tomonidan amalga oshiriladi. Hayvonlarning yuqumli kasalliklari va ularning qo'zg'atuvchilarining tarqalishi, hayvon mahsulotlari va ozuqa uchun belgilangan xavfsizlik talablariga javob bermaydigan mahsulotlar ishlab chiqarish va aylanishini kuzatish, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni uzluksiz olish, to'plash va tahlil qilish.

Monitoring o'tkazilganda barcha mavjud manbalardan olingan ma'lumotdan foydalanadi.

4. Ushbu Qoidalarda quyidagi atamalar qo'llaniladi (atamalarning ta'riflari XEBning yerdagi hayvonlar sog'ligi Kodeksining 1-jildidan olingan):

Veterinariya farovonligi – hayvonlarning texnologik mahsuldorligini, veterinariya-sanitariya talablariga javob beradigan hayvonlardan oladigan mahsulotlarini qabul qilish, hayvon kasalliklari va hayvonlar orqali odamlarga yuqadigan kasalliklardan aholini muhofaza qilishni ta'minlaydigan hayvonlarning sog'ligi holati.

Infeksiya – odam yoki hayvon organizmiga patogen agentning kirib kelishi va rivojlanishi yoki ko'payishi.

Infestatsiya – hayvonlarning tashqi invaziyasi yoki kolonizatsiyasi yoki klinik belgilarga olib kelishi yoki patogen agentlarning potensial tashuvchilari bo'lishi mumkin bo'lgan atrofdagi joylarini bevosita o'rab turuvchi bo'g'imoyoqlilar.

Ishonchlik – tanlangan nazorat turi ma'lum bir populyatsiyada infeksiya yoki infestatsiya mavjudligini aniqlash ehtimoli. Ishonchlik nazoratning sezgirligini tavsiflaydi. Ishonchlik, boshqa narsalar bilan bir qatorda, infeksiya yoki infestatsiyaning prevalent (ma'lum vaqtda muayyan kasallik holatlari soni) tarqalishiga bog'liq.

Kompartiment – bu bir yoki bir nechta infeksiyalari yoki infestatsiya uchun maxsus veterinariya maqomiga ega bo'lgan, mamlakatda yoki zonada kasalliklarning oldini olish va xalqaro savdo maqsadlarida nazorat qilish, biologik xavfsizlik va kontrol choralari ko'rilgan yagona biologik xavfsizlikni boshqarish tizimi tufayli kasallikka moyil boshqa hayvonlar populyatsiyasidan ajratilgan bir yoki bir nechta hujalik hayvonlarning subpopulyatsiyasi.

Monitoring – qanday bo'lsa ham populyatsiyaning yashash muhitidagi yoki uning sog'lig'idagi o'zgarishlarni aniqlash bo'yicha rejali kuzatuv chora-tadbirlar va tahlil qilishni uzluksiz amalga oshirish.

Nazorat – bu veterinariya-sanitariya ma'lumotlarini yig'ish, umumlashtirish va tahlil qilish bo'yicha tizimli va uzoq muddatli operatsiyalar majmuasi, shu jumladan tegishli chora-tadbirlarni tezkor qabul qilish uchun o'z vaqtida tarqatish.

Nazorat tizimi – hayvon populyatsiyalarining sog'ligi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'playdigan bir yoki bir nechta faoliyat turlaridan iborat nazorat.

Tadqiqot – bu muntazam ravishda ma'lumotlarni to'playdigan va ma'lum vaqt oralig'ida ma'lum bir populyatsiyaning namunalariga qo'llaniladigan kuzatuv tizimining tarkibiy qismlaridan biri.

Xavfni kommunikatsiyasi – xavfni tahlil qilish jarayonida o'zaro ma'lumot va fikr almashish tartibi bo'lib, uning predmeti xavfning o'zi, uning omillari va xulosalari hisoblanadi. Buni jamoatchilik va sanoat operatorlarini uchun xavfni baholash, boshqarish va bu haqda xabardor qilish vazifasi yuklangan mutaxassislar olib boradilar.

Xavfning sifati ta'rifi – epizootik hodisa ehtimoli va oqibatlar ko'lamini hisoblash natijalari sifat kategoriyalarida ifodalangan xavfning ta'rifi: misol uchun, "yuqori", "o'rta", "kuchsiz", "ahamiyatsiz".

Xavf miqdorini aniqlash – natijalari sonli qiymatlarda ifodalanadigan xavfning ta'rifi.

Xavfni boshqarish – xavf darajasini aniqlash, tanlash va uni pasaytirish maqsadida chora-tadbirlarni ko'rish.

Xavfni tahlili – bu xavfni aniqlash, xavfni baholash, xavfni boshqarish va xavf to'g'risida axborot berishni o'z ichiga olgan jarayon.

Epizootologik prognoz – bu ma'lum bir hududdagi yuqumli kasalliklar uchun vaziyatining o'zgarishlarni mumkin bo'lishini ilmiy asoslab oldindan aytishdir. Epizootologik prognozlar qisqa muddatli (mavsumiy), o'rta muddatli (yillik) va uzoq muddatli (ko'p yillik) bo'lishi mumkin.

5. Monitoring quyidagi maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladi:
veterinariya faoliyati, veterinariya faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda ularning bajarilishini baholash;

epizootik vaziyatni o'rganish, karantinni o'rnatish va olib tashlash, himoya (bufer) zonalarini belgilash, boshqa cheklovchi chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilish;

veterinariya tadbirlarining samaradorligi va to'liqligini baholash;

veterinariya dori darmonlarining zahira fondini shakllantirish;

kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlari, shuningdek, bozorlarda sotiladigan o'simlik mahsulotlarini veterinariya jixatidan xavfsizligini, ozuqa va ozuqa qo'shimchalari hamda veterinariya dori-darmonlarining sifatini nazorat qilish;

veterinariya farovonligini ta'minlash uchun boshqa choralarni ko'rish.

Shu bilan birga, quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak:

veterinariya tadbirlarini doimiy Monitoringini amalga oshirish va bu haqda ob'ektiv ma'lumot olish;

veterinariya faoliyatiga va veterinariya farovonligiga ta'sir ko'rsatadigan o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash;

veterinariya faoliyati va veterinariya farovonligiga salbiy tendensiyalar ko'rsatishini oldini olish;

veterinariya faoliyati va veterinariya farovonligining eng muhim jarayonlarini rivojlanishini oldindan aytib berish;

zarur hollarda veterinariya sohasida davlat dasturlarining qabul qilinishi.

6. Quyidagilar Monitoring o'tkazish ob'ektlariga kiradi:

hayvonlar, ularning jinsiy va somatik hujayralari;

hayvonlarning yuqumli kasalliklarini qo'zg'atuvchilar;

kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo, bozorlarda realizatsiya qilinadigan o'simlik oziq-ovqat mahsulotlari, veterinariya dori darmonlari va texnika vositalari, ozuqalar va ozuqa qo'shimchalar, patologik material, biologik chiqindilar, shuningdek suv, havo va tuproq namunalari;

hayvonlarning yuqumli kasalliklarini qo'zg'atuvchilarni yuqtirish omillari bo'lishi mumkin bo'lgan transport vositalari, konteynerlar, idishlar, qadoqlash materiallari;

yuridik va jismoniy shaxslarning veterinariya sohasidagi faoliyati;

davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni yetishtiradigan, tayyorlaydigan, ishlab chiqaradigan, saqlaydigan, qayta ishlaydigan, tashiydigan, realizatsiya qiladigan yoki ulardan foydalanadigan yuridik va jismoniy shaxslarning hududlari hamda ishlab chiqarish binolari;

hayvonlar haydab o'tiladigan yo'llar, yo'nalishlar, util zavodlar, biologik chiqindilarni yoqish pechkalari, biotermik o'ralar, hayvonot qabristonlari, hayvonlar boqiladigan yaylovlarning va sug'oriladigan joylarning hududlari;

veterinariya hisobi va hisoboti bo'yicha hujjatlar;

veterinariya dalolatnomalari, litsenziyalari, ruxsatnomalari, ma'lumotnomalari, guvoohnomalari va sertifikatlari;

davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni ishlab chiqarish, tayyorlash (so'yish), saqlash va qayta ishlashga doir normativ-texnik hujjatlar.

barcha turdagi chorvachilik fermalari, barcha turdagi hayvonlar, shu jumladan parrandalar, baliqlar, asalarilar, bug'imoyoqlilar;

yarim tayyor mahsulotlar, konservalar va kolbasa mahsulotlar, terilar, suyaklar, shoxlar, tuyoqlar, ot sochi, kaniga;

hayvonlarning genetik kasalliklari;

hayvonlarning yuqumli kasalliklariga qarshi immunitetning mavjudligi va uning qizg'inlik darajasi (napryajennost immuniteta);

7. Monitoring usullari:

a) ob'ektni kuzatish, tekshirish, sinovlar o'tkazish;

b) maxsus tadqiqotlar;

v) ob'ektlarni veterinariya va veterinariya-sanitariya ekspertizasi;

g) tegishli hujjatlarni ko'rib chiqish.

a). Kuzatuv – bu Monitoringning eng sodda va keng tarqalgan usuli. Veterinariya inspektorlari hayvonlarni saqlash va boqishning veterinariya-sanitariya qoidalariga, karantin qoidalariga, hayvonlar va kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlarni va xom ashyoni temir yo'l vagonlarga, avtomobillarga yuklash qoidalariga va h.k. rioya etilishini nazorat qiladilar.

Tekshirish va sinovlar o'tkazish – xo'jalik va korxonalarda, ayniqsa kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlarini va xom ashyoni sotib olish, qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilish uchun amalga oshiriladigan veterinariya-sanitariya bo'yicha Monitoringning batafsil usuli. Ular ob'ektlarning veterinariya-sanitariya holatini tekshirish, kerak bo'lganda tegishli tadqiqotlar o'tkazish, veterinariya-sanitariya qoidalariga va belgilangan ishlab chiqarish texnologiyalarga rioya qilishiga, va h.k. tekshiradilar.

b). Kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlardan odamlarga yuqadigan o'ta xavfli kasalliklar bo'yicha farovonligini aniqlash uchun maxsus tadqiqotlar o'tkaziladi (laboratoriya, ilmiy-tadqiqot institutlar, ilmiy markazlar va hakazo joylarda). Yoki hayvonlar iste'mol qiladigan suv va ozuqalarda veterinariya-sanitariya sinovlar o'tkaziladi.

v). Veterinariya-sanitariya ekspertiza go'sht va sut mahsulotlarni ishlab chiqarish korxonalari, bozorlar, do'konlar va boshqa chakana savdo ob'ektlarida amalga oshiriladigan veterinariya nazoratining asosiy usuli. Bu bilan iste'molga yaroqsiz va sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlarini sotilishining oldi olinadi.

g). Hujjatlarni ko'rib chiqish (veterinariya guvohnomalari, sertifikatlar, yo'riqnomalar, xo'jaliklar va korxonalarni tekshirilgani to'g'risida aktlar, hayvonlar jasadlarining yorish hisobotlari va boshqalar) xo'jalik, korxonalar va aholi punktlari farovonligini aniqlashning samarali usuli. Hayvonlarni xarid qilishda, tashishda, hayvonot mahsulotlarini olishda, xo'jaliklar sotib olishda, eksport qilishda, hayvonlarni import qilishda, mahsulotlar, ozuqa va ozuqa qo'shimchalaridan foydalanish uchun tavsiyalar, ko'rsatmalar va boshqalar.

8. Monitoring Qo'mita tomonidan ishlab chiqilgan dasturlarga muvofiq veterinariya inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi. Hududiy Monitoring dasturlari ma'lum bir viloyatdagi epizootik vaziyatni hisobga olgan holda

veterinariya va chorvachilikka ma'sul bo'lgan mutaxassislar bilan birgalikda ishlab chiqiladi. Viloyat inspektorlari tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar asosida tuman (shahar) veterinariya inspektorlari tuman (shahar) uchun Monitoring dasturini ishlab chiqadilar.

Ushbu dasturlar quyidagilarni belgilash kerak:

Monitoring o'tkaziladigan aniq ob'ektlar;

Monitoring o'tkazish usullari ;

Monitoring o'tkazish vaqti: jadvallar, davriylik va boshqalar.

9. Tuman (shahar) da o'tkazilgan Monitoring natijasida olingan ma'lumotlar xulosa va takliflar bilan hisobot shaklida tuziladi va tuman (shahar) veterinariya inspektorlari tomonidan viloyat veterinariya inspektoriga va zarur hollarda viloyat bo'yicha yig'ma hisobotni shakllantirish uchun mahalliy xokimiyatga xulosa va takliflar bilan taqdim etiladi.

Tuman (shahar) da o'tkazilgan Monitoring natijasida olingan ma'lumotlar quyidagi dalillarni o'z ichiga olishi kerak:

hayvonlarning kasallanishi va o'limi to'g'risida;

diagnostik tadqiqotlar, profilaktik, davolash, veterinariya va veterinariya-sanitariya tadbirlari haqida;

hayvonlar sog'ligi holati, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlar va xom ashyo, foydalanilgan ozuqa va ozuqa qo'shimchalarining xavfsizligi va sifatini aniqlash maqsadida laboratoriya tadqiqotlari to'g'risida;

kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlar va xom ashyoini ishlab chiqarish, saqlash va sotish sharoitlari to'g'risida;

tasdiqlangan dasturga muvofiq boshqa ma'lumotlar.

Monitoring ko'rsatkichlari darhol tahlil qilish uchun ularni tezlik kommunikatsiyasini tegishli dasturiy programmaga ega bo'lgan texnik elektron vositalardan foydalanib, belgilangan manzilga yetkazish kerak.

10. Davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslarga o'tkazilgan Monitoring natijasida olingan ma'lumotlarni taqdim etish, shuningdek uni tarqatish veterinariya faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga va axborotlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

11. Monitoring davomida laboratoriya tadqiqotlari (testlari) belgilangan laboratoriya sinovlarini o'tkazadigan budjet tashkilotlarini saqlash uchun

ajratilgan mablag'lar va Monitoring dasturlari doirasida ajratilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi.

12. Muomaladagi veterinariya nazorati ostidagi tovarlar egalaridan Monitoring o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan pul mablag'larini yig'ib olish, shu jumladan namuna (nusxa) olish va ularni laboratoriya tadqiqotlar o'tkazish uchun, yo'l qo'yilmaydi. Shu bilan birga, namunalar (nusxalar) olingan nazorat qilinadigan tovarlar partiyasining aylanishi (oborot) to'xtatilmaydi va ularning harakatiga cheklovlar yoki shartlar qo'yilmaydi.

13. Monitoring Qo'mita raisi tomonidan kelgusi kalendar yil uchun joriy yilning 15 noyabridan kechiktirmay tasdiqlangan Monitoring rejasiga muvofiq amalga oshiriladi. Epizootik vaziyat o'zgarganda yoki boshqa tahdidlarning tarqalishi bilan bog'liq vaziyat yoki mamlakatda yoki biron-bir viloyatda favqulodda vaziyat paydo bo'lsa, rejaga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin, ammo har chorakda bir martadan ko'p emas. Reja Qo'mitaning rasmiy saytida e'lon qilinadi.

14. Monitoring natijalari veterinariya sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilashda, hayvonlarning yuqumli kasalliklarini tarqalish xavfini kamaytirish va yo'qotish chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishda, mamlakat hududlarini regionlashtirish va boshqalarda foydalanish mumkin. Ushbu natijalar Qo'mitaning rasmiy saytida e'lon qilinadi.

15. Epizootik Monitoringning maqsadi – hayvonlarning yuqumli kasalliklarini, shu jumladan odamlar va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklar, yoki hayvonlar tanasida, chorvachilik mahsulotlari va ozuqa, atrof-muhitda patogenlar komponentlarini (antigenlar, nuklein kislotalar, antijismlar – antitelolar va boshqalar) mavjudligini aniqlash.

16. O'zbekiston Respublikasida epizootik Monitoringni tashkil etishda Monitoring davomida to'plangan ma'lumotlarga asoslanib, Qo'mita har yilgi rejani, kasalliklar va qo'zg'atuvchilar ro'yxatini tasdiqlaydi. Monitoringning yillik rejasi joriy yilning 15 noyabriga qadar kelgusi yilning 1- yanvaridan 31- dekabrigha qadar tasdiqlanadi.

Epizootik Monitoring ma'lum hududda hayvonlar kasalliklarini qo'zg'atuvchilarining tarqalish parametrlarini aniqlash va miqdoriy jihatdan aniqlash, hayvonlar yuqumli kasalliklari va ularning qo'zg'atuvchilarini tarqalishiga ko'maklashuvchi va oldini oluvchi sharoitlarni aniqlashga qaratilgan.

17. Epizootik Monitoring natijalari epizootik vaziyatni rivojlantirish, hayvonlarning yuqumli kasalliklari patogenlarining tarqalishini cheklash bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish, xalqaro savdo maqsadlari uchun epizootik holatni aniqlash, yuqumli kasalliklarning tarqalish tahdidi sharoitida iqtisodiy faoliyatni xavfsiz amalga oshirish uchun hayvonlar saqlanishi, ularning so'yilishi, mahsulotlarni qayta ishlash kompartmentlarni (chorvachilik xo'jaliklarining biologik himoya darajasiga ko'ra bo'linishi) prognozini qilishiga asosdir.

18. Epizootik Monitoring va epizootologik prognozlash natijalari yuqumli kasalliklarga qarshi chora-tadbirlarni rejalarini (milliy, hududiy va idoraviy) ishlab chiqishga asos bo'ladi.

19. Epizootik Monitoring diagnostik va klinik tadqiqotlar, veterinariya-sanitariya ekspertizasi, shuningdek, tashqi muhit namunalari, biologik va patologik materiallar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlari namunalarni olish bilan bog'liq bo'lgan maxsus Monitoring dasturlarini amalga oshirish davomida ma'lumotlarni to'plash orqali laboratoriya diagnostikasi va yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchilarini aniqlash imkonini beruvchi boshqa usullar bilan ham olib boriladi.

20. Monitoring jarayonida o'tkaziladigan laboratoriya tadqiqotlari tegishli tadqiqot usullarini amalga oshirish bo'yicha o'z kompetentligini tasdiqlagan hamda veterinariya sertifikatlash va davlat veterinariya nazorati bo'yicha laboratoriya tadqiqotlarining tegishli talablariga javob beradigan, belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalarda amalga oshiriladi.

21. Hayvonlar egasi hamda mahsulot ishlab chiqaruvchi bilan bog'liq bo'lgan xavflarni tahlil qilish, joyi (mamlakat, viloyat) va ularning ishlab chiqarish texnologiyasi, hayvonlar va mahsulotlar turi natijalarini hisobga olgan holda tadqiqot uchun namuna olish tasodifiy prinsip asosida tashkil etiladi.

22. Laboratoriya tekshiruvidan o'tkaziladigan hayvonlar va mahsulotlar uchun tasodifiy namuna olish va xavfni tahlil qilish tamoyillarini hisobga olgan holda tuman (shahar) bosh veterinariya inspektori tomonidan qaysi mahsulot yoki hayvonlarning muayyan partiyasini namuna olish kerakligi ko'rsatiladi.

23. Mamlakatda regionalizatsiyani amalga oshirilayotgan hayvonlarning yuqumli kasalliklariga nisbatan epizootik Monitoring

ma'lumotlari nashr etilishi kerak bo'lgan O'zbekiston Respublikasining regionalizatsiyalashtirish xaritasini tuzishda qo'llaniladi.

24. Regionalizatsiyalanish amalga oshirilmaydigan hayvonlarning yuqumli kasalliklariga nisbatan o'tkazilgan epizootik Monitoring ma'lumotlari xaritalar va jadvalli materiallar shaklida qabul qilinishi bilan darhol chop etiladi.

25. Ma'lumotlarni e'lon qilishda qonunda belgilangan shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga qo'yiladigan talablar hisobga olinadi.

26. Yig'ilgan epizootik Monitoringning ma'lumotlari ularning to'plashi tugaganidan keyin bir hafta ichida Qo'mitaga taqdim etiladi. Viloyatlarda epizootik Monitoring yiliga kamida bir marta amalga oshiriladi.

27. Qo'mita yilda kamida bir marta odamlar va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatiga epizootik Monitoring tahlili natijalarini taqdim etadi.

28. Vaksinatsiya qilingandan keyingi immunitetni Monitoringning maqsadi – hayvonlar yuqumli kasalliklari qo'zg'atuvchilarni aniqlash yoki yuqumli kasalliklarga qarshi immunologik reaksiyalar miqdorini (odatda – o'ziga xos antitelolarni aniqlash) yoki ularning hayotiy faoliyati mahsulotlari (toksinlar va h.k.) aniqlash.

29. Yuqumli kasalliklarga qarshi emlangan hayvonlarda immunitetning mavjudligi va uning qizg'inligi bo'yicha vaksinatsiyadan keyingi (postvaksinal) immunitetni Monitoringini o'tkazish Qo'mita tomonidan tegishli tartib va tasdiqlangan kasalliklar va patogenlarning yillik ro'yxati elektron shaklda tashkil etiladi va yuritiladi.

30. Qo'mita bir kalendar yil muddatga vaksinatsiyadan keyingi immunitetini Monitoring qilish rejasini tuzadi, reja joriy yilning 15 noyabridan kechiktirmay keyingi yilning 1 yanvaridan 31 dekabrigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi va rejani o'zining rasmiy saytida e'lon qiladi.

31. Vaksinatsiyadan keyingi immunitetni Monitoring davomida o'tkaziladigan laboratoriya tekshirishlari tegishli tadqiqot usullarini amalga oshirishda o'z vakolatlarini tasdiqlagan va veterinariya sertifikatlash hamda davlat veterinariya nazorati bo'yicha laboratoriya tadqiqotlarning tegishli talablarga javob beradigan, belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalarda amalga oshiriladi.

32. Tadqiqot uchun namuna olish tasodifiy prinsip asosda tashkil etiladi, lekin hayvonlarning egasi, ularni saqlash joyi va parvarish texnologiyasi, yoshi, turlari, zoti va jinsi, foydalaniladigan vaksinaning turi va uni ishlab chiqaruvchisi bilan bog'liq bo'lgan xavf tahlil qilish natijalarini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

33. Vaksinatsiyadan keyingi immunitet Monitoring ma'lumotlari ma'lum bir hududda, ma'lum bir xonada, ma'lum bir podada, ma'lum bir turdagi vaksinadan foydalanilganda hayvonlarda ishlab chiqaruvchidan, emlashning takrorlanishi va rejimiga bog'liq bo'lgan immunitet qizg'inlik darajasini aniqlash va miqdorini o'lchash uchun tahlil qilinadi.

34. Vaksinatsiyadan keyingi immunitetni Monitoring qilish to'g'risidagi ma'lumotlar kartografik va jadval materiallar shaklida olinib, Qo'mita tomonidan chop etiladigan bo'lishi kerak.

35. Vaksinatsiyadan keyingi immunitet qizg'inlik darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar hayvonlarning egalari, vaksinani ishlab chiqaruvchisi, undan foydalanish tartibi va takrorlanishi, hayvonlarni saqlash va so'yish joyi to'liq ko'rsatilgan holda e'lon qilinishi kerak.

36. Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini Monitoringi maqsadi – hayvonlar organizmida, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlari va ozuqalarda yuqumli bo'lmagan tahdidlarni (toksik va boshqa zararli yoki normaga solingan moddalar, zararli mexanik aralashmalar, shuningdek, odam yoki hayvon kasalliklari qo'zg'atuvchilar bo'lmagan saprofit mikroorganizmlar) hamda kelib chiqishi hayvonlardan bo'lgan ozuqalarni aniqlash.

37. O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligi Monitoringi har yili tahdidlar ro'yxatini Qo'mita tomonidan tasdiqlanadi va tashkil etiladi, ular bo'yicha ma'lumotlar Monitoring davomida yig'iladi.

38. Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini Monitoringini o'tkazishda hayvonlar organizmida, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlarda, ozuqa va ozuqa qo'shimchalarda tahdidlarni aniqlash va ularni miqdorini o'lchash ishlarning o'tkazilishi va natijalari bo'yicha ma'lumotlar yig'iladi.

39. Oziq-ovqat xavfsizligi monitoringi Qo'mita tomonidan keyingi yilning 1 yanvaridan 31 dekabrigacha tasdiqlangan yillik rejasiga muvofiq amalga oshiriladi. Qo'mita rejani avvalgi kalendar yilining 15 noyabridan kechiktirmay e'lon qiladi.

40. Monitoring jarayonida o'tkaziladigan laboratoriya tadqiqotlari tegishli tadqiqot usullarini amalga oshirishda o'z vakolatlarini tasdiqlagan bo'lib, veterinariya sertifikatini va davlat veterinariya nazorati bo'yicha laboratoriya tadqiqotlarining tegishli talablariga javob beradigan hamda belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalarda amalga oshiriladi.

41. Tadqiqot uchun namuna olish hayvonlar va chorvachilik mahsulotlarining egasi, ularni ishlab chiqarish joyi va texnologiyasi, hayvonlar va mahsulotlarning turlari bilan bog'liq xavf tahlilining natijalarini hisobga olgan holda tasodifiy asosda tashkil etiladi.

42. Veterinariya sertifikatini va laboratoriya tekshiruvlari o'tkaziladigan hayvonlar va mahsulotlar uchun mahsulot yoki hayvonlarning muayyan partiyasini namuna olish kerakligi haqidagi ko'rsatma viloyat yoki tuman (shahar) veterinariya inspektori tomonidan tasodifiy namuna olish va xatarlarni tahlil qilish tamoyillarini hisobga olgan holda beriladi.

43. Tuman (shahar) Davlat veterinariya inspektori so'yishga mo'ljallangan hayvonlardan olinadigan so'yish mahsulotlariga (kalla-pocha, ichak-chavoq) nisbatan veterinariya-sanitariya ekspertiza amalga oshirilganda, zardoblar namunalari olishni aniq hayvonlar to'ldirishini belgilaydi.

44. Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi monitoringi to'g'risida ma'lumotlar kartografik va jadvali ko'rinishida olinib, Qo'mita tomonidan e'lon qilinadi.

45. Qo'mita yilda kamida bir marta oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi Monitoringi bo'yicha tahlili natijalarini O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatiga taqdim etadi.

46. Naslchilik xo'jaliklarida ishlarning holati va reproduktiv material olinadigan hayvonlar sog'lig'ini hamda olingan reproduktiv materialni veterinariya-sanitariya holati qoniqligini tasdiqlash uchun Monitoring qilish, shuningdek genetik resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash, naslchilik materialini tizimli ravishda olib kirishini tasdiqlash.

47. Qo'mita nasldor hayvonlar va parrandalar ko'paytirish tashkilotlarida hayvonlar sog'lig'ining tizimli Monitoringni o'tkazish tartibini belgilaydi, ulardan olingan reproduktiv materialning veterinariya-sanitariya holati farovonligini tasdiqlash uchun tegishli ishlar olib boriladi.

48. Naslli hayvonlar va parrandalarni ko'paytirish tashkilotlari tizimli Monitoring natijalari, shu jumladan sun'iy urug'lantirish natijalari yozuvlarini yuritadi va ushbu yozuvlarni Davlat veterinariya inspektorining talabiga binoan taqdim etishi shart.

49. Davlat veterinariya inspektori naslli hayvonlar reproduktiv materiallar orqali yuqishi mumkin hayvon kasalligi bilan kasallangan, deb gumon bo'lsa, reproduktiv materiallar, shu jumladan sperma, urug'langan tuxum va embrionlar, ishlab chiqarishni vaqtinchalik taqiqlash to'g'risida ko'rsatmani berishi shart.

50. Agar nasldor hayvonlar va parrandalarning reproduktiv materiallar orqali yuqadigan kasalliklar bilan kasallanishiga shubha tug'lsa, ularning egasi laboratoriya tadqiqotlari uchun davlat veterinariya laboratoriyasiga ushbu materiallar namunalarini taqdim etishi shart. Hayvon kasalligi bo'lmagan taqdirda 49- badda nazarda tutilgan vaqtinchalik taqiq bekor qilinadi. Hayvonlar kasalligi tasdiqlansa, kasal hayvon va shu kasallik bilan kasallangan boshqa barcha hayvon va qushlar tegishli ko'rsatmalarga muvofiq reproduktiv material ishlab chiqarishdan to'xtatiladi.

51. Qo'mita tomonidan belgilangan tartibda naslchilik hayvon tashkiloti egasi yoki naslli hayvonlar va parrandalar egasining rasmiy talabiga ko'ra, hayvon kasalligi mavjudligini tasdiqlash yoki hayvonda kasalligi shubhasini yo'q qilish uchun hakamlik muhokamasi o'tkazilishi mumkin.

Eslatmalar.

1. Monitoringni tartibga soluvchi yetishmagan me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va huquqbuzarliklar sodir etilgan taqdirda tegishli ma'muriy choralarni ko'rish Qo'mita tomonidan zarurat bo'lganda ko'rsatmalar yoki boshqa shakldagi normalar qabul qilinadi.

2. Chorvachilik mahsulotlarining fermadan tortib to iste'molchiga yetkazib berishga qadar "oziq-ovqat zanjiri" xavfsizligini ta'minlashning asosida javobgarlik ularning egasi (jismoniy yoki yuridik shaxs), shu jumladan chakana savdo bilan shug'ullanuvchilarga ham – ya'ni, oziq-ovqat zanjiri ishtirokchisi zimmasiga yuklanadi. Ushbu bayonot xalqaro standartlar, jumladan, mahsulot xavfsizligini boshqarish tizimi (HACCP) tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

3. Veterinariya hisoboti to'g'risidagi ma'lumotlar asosida Qo'mita yuqumli hayvon kasalliklari bo'yicha maxsus elektron erta ogohlantirish tizimini joriy etishni amalga oshiradi, bu esa davlat organlari, mahalliy hokimliklar va fuqarolarga hayvonlarning yuqumli kasalliklari kelib chiqishi va ularning xavflari haqida ma'lumot beradi.

4. Epizootologik prognoz natijalari epizootiyaga qarshi chora-tadbirlarni rejalashtirish, oqilona tashkil etish va o'z vaqtida amalga oshirishni ilmiy asoslab berish hamda yuqumli kasalliklarning oldini olish uchun eng tejamli usullarni tanlash imkonini beradi. Epizootologik prognoz asosida biologik mahsulotlar (vaksina, zardoblar va h.k.) ishlab chiqarish yoki sotib olish nomenklaturasi va hajmi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Izoh. Davlat veterinariya monitoringini o'tkazishdan oldin tuman veterinariya xizmatlari va laboratoriyalarning holatini tahlil qilish kerak bo'ladi. Monitoring – bu xavfni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar, ular aslida rejalashtirilgan natijalarga olib kelishini ta'minlash uchun nazorat qilinadigan doimiy jarayon. Monitoring nimani va qanday nazorat qilishni tavsiflovchi rejaga muvofiq amalga oshiriladi. Monitoring rejalari quyidagilarni aniqlaydi: namuna olinadigan mahsulot turlari, yig'iladigan namunalar soni, tahlil/testlarning turi va soni, agar ular bajarilishi kerak bo'lsa.

Ammo, monitoring o'tkazish va uning natijasida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish hamda undan foydalanish uchun yetarli moliyaviy resurslar va tegishli tajribaga ega xodimlar zarur. Ushbu potensialni baholash uchun Qo'mita mavjud resurslarni (moliyaviy, kadrlar, texnik va moddiy) va ularni mustahkamlash imkoniyatlarini oldindan bilib olish kerak.

Veterinariya tadbirlari iqtisodiyoti to'g'risida

Biz iqtisodchi emasmiz va institut ta'limi doirasidagi veterinariya tadbirlari iqtisodiyoti haqida bilamiz, shuning uchun ushbu mavzu bo'yicha Internet tarmog'idan ma'lumotlarni qidirdik. Lekin O'zbekiston sharoitida yuqumli va yuqumsiz kasalliklarning oldini olish, ularni davolash va boshqa veterinariya tadbirlari iqtisodiyoti bo'yicha hech qanday ma'lumot topmadik.

Ishlab chiqarilgan go'sht, sut va boshqa mahsulotlar narxining o'n foizi va undan ortig'ini natural mahsulot va iqtisodiy zarar yuqori rivojlangan mamlakatlarda mahsuldor hayvonlar kasalliklari tufayli kelib chiqishin aniqladik. Afsuski, respublikamizda hech kim bunday zarar miqdorini hisoblamagan. Garchi, respublikada o'z sohasini yaxshi biladigan, savodli iqtisodchilar va moliyachilar yetarli den o'ylaymiz.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, yirik va mayda shoxli mollar, ot va parranda hamda boshqa hayvonlarning kasalliklari barcha turdagi xo'jaliklari va komplekslardagi normal ishlab chiqarish jarayonini, uning texnologik ritmini buzishda muhim omil hisoblanadi. Hattoki zarar ko'rgan xususiy xo'jaliklar egalari ham chorvachilikning iqtisodiy ko'rsatkichlarini sinchkovlik bilan hisoblashga o'rganmagan.

Chorvachilik fermasida, uy xo'jaligida paydo bo'lgan har qanday kasallik davolanish bilan tugasa ham natijada u har doim ma'lum yo'qotishlarni, kutilmagan xarajatlarni keltirib chiqaradi. Har qanday kasallik, natijadan qat'i nazar, to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita yo'qotishlar bilan namoyon bo'ladi.

Hayvonlarning o'lishi, ularni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan chiqimi va boshqalar statistik ko'rsatkichlarda har doim ham o'z aksini topavermaydi, garchi bu ko'rsatkichlar iqtisodiy yilda 3-5% ga yetishi mumkin. Shuningdek, kasal va bepusht chorva mollarini boqish, parvarish qilish va davolash xarajatlarini hisobga olish kerak.

Demak, iqtisodiyot, veterinariya resurslaridan oqilona foydalanish asoslari va yo'llarini professional doirasida bilmasdan, hech qanday veterinariya tadbirlarini rejalashtirish va samarali amalga oshirish mumkin emas. Shu bilan birga, faqat veterinariya tadbirlariga pul mablag'lari va boshqa resurslarni sarf qilish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar paydo

bo'lgan yuqumli yoki yuqumsiz hayvon kasalliklari natijalarining oqibatlarini yumshatishga erishishi mumkin.

Shuning uchun veterinariya faoliyatining xilma-xilligidan, veterinariya ishining turli sohalaridan qat'i nazar, veterinariya mutaxassislarining mehnat xarajatlari samaradorligini, hayvonlarning turli kasalliklariga qarshi kurashish uchun ma'lum vositalar va usullardan foydalanish maqsadga muvofiqligini aniqlashga imkon beradigan maxsus, iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimlarini ishlab chiqish kerak.

Hayvonlarning kasalliklari va o'limi, chorvachilik mahsulotlarini yo'qotilishining oldini olishga qaratilgan profilaktika va davolash tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini tavsiflash uchun haqiqiy va oldini olish bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlar, veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini, xarajatlar birligiga iqtisodiy ta'sirni va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarni ishlab chiqish kerak.

Ma'lumki, chorvachilikda iqtisodiy zarar hayvonlarning kasalliklari natijasida yetkazilgan va pul shaklida ifodalangan yo'qotishlarni anglatadi. Ammo hayvonlar kasalliklari turli xil iqtisodiy zararlarga olib keladi: o'lim, majburiy so'yish, hayvonlarni yo'q qilish, hayvonlar mahsuldorligining pasayishi, mahsulot sifatining pasayishi, mahsulotlarni brakka chiqarish va boshqalar.

Masalan, oldi olingan zarar veterinariya tadbirlarining iqtisodiy natijasi bo'lib, veterinariya tadbirlarini tezkor, har tomonlama o'tkazish, ularni amalga oshirishning yangi, zamonaviy usul va vositalaridan foydalanish tufayli ma'lum bir kasallikda mumkin bo'lgan mahsulot yo'qotishlarining oldini olish miqdorini tavsiflaydi.

Veterinariya tadbirlari xarajatlari tashkiliy va profilaktika, veterinariya-sanitariya va zoogigenik, epizootiya va parazitlarga qarshi, davolash va boshqa protseduralarni amalga oshirish uchun ishlatiladigan mehnat va moddiy resurslar qiymatidan iborat.

Moddiy xarajatlarga ishlatiladigan biopreparatlar, dori-darmonlar, dezinfeksiyalovchi vositalar, bog'lash materiallari, asbob-uskunalar, yoqilg'i, elektr energiyasi, yoqilg'i-moylash materiallari, qurilish materiallari, hayvonlarni so'yish joylarini jixozlash, nazorat punktlari, dezto'siqlar va shlagbaum qurish xarajatlari va boshqalar kiradi.

Mehnat xarajatlariga veterinariya vrachlarining va veterinariya boshqa ishchilari va xodimlarining, shuningdek veterinariya tadbirlarini amalga oshirishda ishtirok etadigan yordamchi ishchilarning asosiy va qo'shimcha ish haqi kiradi. Hamda bonuslar sifatida bepul kommunal xizmatlar, maxsus kiyim va poyabzallar, muntazam va qo'shimcha ta'tillar uchun to'lovlar, koeffitsientlari bo'yicha to'lovlar va boshqalar kirishi mumkin.

Yuqumli kasalliklarning oldini olish va ularni bartaraf etishga budjet mablag'lari sarflanadi. Shuning uchun ushbu mablag'lardan oqilona foydalanishni ta'minlash va yuqumli kasalliklarning namoyon bo'lish qonuniyatlarini hisobga olgan holda tejamkor dorilar va epizootiyaga qarshi choralar usullarini topishni ta'minlash kerak.

Zamonaviy sharoitda veterinariya mutaxassisi ko'plab terapevtik va profilaktika tadbirlarini o'tkazishi kerak, shuning uchun ularni amalga oshirishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini asoslash kerak. Buning uchun veterinariya mutaxassislarining mehnat xarajatlari samaradorligini va ma'lum vositalardan foydalanishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini aniqlashga imkon beradigan muayyan formulalar, iqtisodiy ko'rsatkichlarni kiritish bilan veterinariya amaliyotida chora-tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash usullarini joriy etish lozim.

Yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishi va kechishi jarayoni nafaqat emlash bilan yoki yuqumsiz kasalliklar – davolanish sxemasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, balki ko'plab boshqa oldindan aytib bo'lmaydigan omillarga ham bog'liq bo'ladi. Ular ayrim mutatsiyalar, quzgatuvchilar uyushmalari va ayrim patogenlarning turlarini boshqalar tomonidan chiqarib yuborilishi, korxonada sanitariya va gigiyena darajasi, hayvonlarni boqishi, oldingi yillarda kasallanishi va boshqalar.

Ayrim tadbirlarni o'tkazishda veterinariya mutaxassislarining ish haqqini to'lashda qisqa muddatligini (kun, soat) hisobga olinadi. Masalan, hayvonlarni yuqumli kasalliklarga qarshi ommaviy emlash yoki parazitlarga qarshi ishlov berish paytida.

Internetdan olingan ayrim manbalarga ko'ra, xo'jalikning har bir veterinar o'z amaliy faoliyati bilan 15-20 va undan ortiq marta olingan maoshni oqlashi kelib chiqadi. Ushbu hisob-kitoblar ish haqqi va boshqa ish haqqi turlarini oshirishni ilmiy jihatdan asoslash uchun zarurdir, chunki

boshqa har qanday sohada bunday iqtisodiy natijalarga erishish kamdan-kam uchraydi.

Veterinariya faoliyati ob'ektlarining xilma-xilligi, veterinariya ishining turli yo'nalishlari iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi va ularni hisoblash usullarini hisobga olishni talab etadi. Eng ishonchli natijaga erishish uchun ularning hisob-kitoblarini aniq tushunish va yo'naltirish kerak. Davolash va profilaktika choralarining iqtisodiy samaradorligini yanada ishonchli baholash uchun ushbu yo'nalishda chuqur tadqiqotlar o'tkazish kerak.

II-qismga xulosalar

1. Ushbu asarda keltirilgan meyyoriy xujjatlarning loyihalari amaliyotga joriy etish uchun Qo'mitaning ilmiy-texnik kengashlarida mutaxassislar tomonidan ko'rib chiqiladi. Albatta, loyihalarga tegishli o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritiladi, ular esa loyihalarni ma'lum darajada boyitadi. Natijada yangi meyyoriy xujjatlar qabul qilinadi va veterinariya sohasidagi mutaxassislarning faoliyati tartibga solinib, samadorligi oshadi.

2. Hozirgi kunda hayvonlarni identifikatsiya qilish va kuzatib borish ishlarni ijrochilari yanada qat'iyatli, sabot-matonatli bo'lishlari va ishni qisqa vaqt ichida to'la-to'kis amalga oshirish zarurligini tushunishlari kerak. Zero, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, hayvonlarni identifikatsiya qilishni mamlakatda 2 - 2,5 yil ichida amalga oshirish kerak. Chunki, agar ushbu ma'lumot tizimi sust rejimda amalga oshirilsa, hayvonlarning joyi o'zgarishi noma'lum bo'ladi va o'tkazilgan chora-tadbirlarning barchasi, shu jumladan hayvonlarni so'yish va olingan xom ashyoni qayta ishlash bo'yicha kuzatib borishi yo'qoladi.

3. Qo'mitaning eng muhim faoliyati nazorat ostidagi sub'ektlar, ob'ektlar va jarayonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va ulardan foydalanishdir. Ushbu yondashuvlar ma'lumot to'plash uchun zamonaviy vositalar va mexanizmlardan foydalanishni talab qiladi. Ularning barchasi kompyuter texnologiyalari va maxsus programmalar, shuningdek, aloqa va axborotni qayta ishlashning zamonaviy vositalaridan foydalanish bilan bog'liq. Bu esa faoliyatni axborotlashtirishning barcha vositalari sinxron ishlashi uchun yagona integratsiyalashgan axborot muhitini talab qiladi, ma'lumot bir ixtisoslashgan tizimdan ikkinchisiga kechiktirmasdan oqib o'tishi kerak.

4. Veterinariya organlari, veterinariya mutaxassislari, mahalliy hokimiyat organlari, tashkilot va fuqarolar veterinariya nazorati ostidagi tovarlarni identifikatsiya qilish va kuzatib borish jarayonlarida faoliyat sharoitlarini belgilashga harakat qilinadi. Veterinariya va chorvachilik tarmoqlarida islohotlarni amalga oshirishda taklif etilayotgan yechimlar mamlakat aholisini keng ko'lamda xavfsiz va sifatli chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlashda kafolat beradi.

5. Davlat veterinariya xizmati YeOII yoki Yevropa Ittifoqi nazorat xizmatlarining qo'shimcha qismiga aylanmasdan, ularning veterinariya nazoratini umumiy tizimiga qo'shimcha xo'jaligi sifatida kirmasdan, mustaqil birlik sifatida, nafaqat ichki bozorni rivojlantirish, balki chorvachilik tovarlarni tashqi bozorlarga chiqarish tizimini qurishiga qaratilgan bo'lishi kerak.

6. Veterinariya sohasidagi qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish yo'llarini aniqlash va Qo'mita faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonini zudlik bilan boshlash zarur, shu bilan quyidagilar ta'minlanadi:

a) epizootologiya va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida zamonaviy bilimlarni olish, shuningdek, hayvonlarni identifikatsiya qilish, hayvonlar va ulardan olingan mahsulotlarni kuzatib borish bo'yicha maxsus ta'lim olish, axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida veterinar mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni optimallashtirish;

b) aloqa, hisobot va ma'lumotlarni boshqarishni yaxshilash uchun veterinariya ma'lumot tizimini ishlab chiqish;

v) hayvonlarni identifikatsiya va kuzatib borish to'liq funksional tizimini ishlab chiqish va ishlab chiqarishga joriy etish;

g) veterinariya sohasidagi ayrim davlat vakolatlarini topshirish bilan veterinariya nazoratini kuchaytirish;

d) antibiotiklar, biologik preparatlarni va boshqa veterinariya doridarmonlari olib kirish, tarqatish va ulardan foydalanish ustidan nazoratni qaytadan tashkil qilish.

7. Veterinariya faoliyati murakkabligi va xavfni baholash tamoyillaridan kelib chiqqan holda tibbiy faoliyat bilan batamom o'xshashlik asosida litsenziyalash amalga oshirish zarur. Shuningdek, chorvachilik va qayta ishlash korxonalaridagi idoraviy va ishlab chiqarish veterinariya xizmatlari faoliyatini ham litsenziyalanishi shart. Buni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tegishli qaror qabul qilishi kerak.

Eng yuqori xarajatlarga hayvonlarni identifikatsiyalashi va ularning harakatini kuzatib borish milliy tizimini dastlabki joriy etishni moliyalashtirish, shuningdek, "Markaz" veterinariya ma'lumotlar bazasini

shakllantirish kiradi. Biroq, ular Qo'mitaning kelajakdagi barcha faoliyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi va veterinariya tibbiyoti va chorvachilikning boshqa barcha sohalari uni amalga oshirishdan faqat foyda ko'radi.

8. O'zbekistonda hayvonlarning yuqumli, invazion va yuqumsiz kasalliklarida iqtisodiy samaradorlikni hisoblash usullarini zudlik bilan ishlab chiqish zarur. O'lim, begonalashtirish va yo'q qilish, majburiy so'yish, hayvonlarning mahsuldorligi va naslchilik qiymatining pasayishi, tug'ilgan bolani yo'qotish, go'shtni rad etishdan iqtisodiy zararlarni hisoblash uchun hisob-kitoblarda va formulalarda ishlatiladigan atamalarni tavsiflash kerak. Yuqumli kasalliklarni bartaraf etish, ularni oldini olish va davolash bo'yicha veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini alohida hisoblash usullari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Afsuski, tuman (shahar)larda davlat veterinariya nazorati amalga oshirish bo'yicha tahliliy adabiyotlarda juda kam ma'lumot topildi. Shuning uchun xorijiy axborot manbalaridan qisman foydalanildi.

1. XEB (OIE) yerdagi hayvonlar sog'ligi kodeksning I-chi va II-chi jildlari, 2019 yil 28- nashri;

2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2017 yil 8 fevralda 2857-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirining 2017 yil 31 yanvardagi 30-son buyrug'iga ilovasidagi Ro'yxati;

3. O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida" 03.09.1993y. qonuni (yangi tahriri);

4. O'zbekiston Respublikasining 14.12.2000 y. 160-II-son "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni (Yangi tahriri);

5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;

6. Закон РФ "О ветеринарии" от 14 мая 1993 г. с изменениями;

7. O'zbekiston Respublikasining 30.08.1997 y. 483-I-son "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni;

8. O'zbekiston Respublikasining 26.04.1996 y. 221-I-son "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni;

9. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks (109-, 110-, 111- moddalari);

10. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" 419-son Qonuni;

11. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeks (200- modda);

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 28 martdagi PF-5696-son Farmoni;

13. "O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019 yil 28 martdagi PQ-4254-son Qarori;

14. "O'zbekiston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.06.2019 yildagi № 532- qarori;

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2017 yil 15 martdagi №139- son qarori;

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 sentabr №748- sonli qarori;

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 09.10.1997 yildagi 469-son "Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar me'yoriy hujjatlarining qonuniyligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"

18. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining buyrug'i, 28.02.2014 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2565, 53-MH-son buyrug'ining 1-ilovasi "Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"

19. О. Шарипов, Б. Расулов, Идентификация и паспортизация с/х животных. Журнал Зооветеринария №4, Апрель, 2012г;

20. 2003 yil 11 dekabrda "Axborotlashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni;

21. Кузнецов А.Ф., Нашенский Н.С., Шуканов А.А., Белкин Б.П. "Гигиена животных", Москва, Колос, 2001 г.;

22. Д. Балания, контрол микроклимата в животноводческих и птицеводческих помещениях. – Л.: Агропромиздат, 1988. – 144 с.;

23. Информационные системы прослеживания животных и продуктов, подконтрольных ветеринарному надзору: учеб. - метод. пособие для студентов биотехнологического факультета по специальности «Ветеринарная санитария и экспертиза, ветеринарных специалистов, слушателей ФПК и ПК / В. А. Лазовский, В. М. Жаков. – Витебск: ВГАВМ, 2019. - 28с.

24. Практикум по ветеринарно-санитарной экспертизе с основами технологии продуктов животноводства Автор: Макаров В. А., Боровков М. Ф., Ермолаев А. П. и др. Издательство: Агропромиздат Год: 1987

25. Дерпгольс В. Ф. Мир воды — Л.: Недра, 1979г.—254 с.

26. Спесивцева Н. А., Хмелевский Б. Н. Санитария кормов — М.: Колос, 1975г. — 336 с.

27. Журавел, Н.А. Организация ветеринарного дела. — Троицк: ФГБОУ ВО Южно-Уральский ГАУ, 2016 г. – 99 с.

28. Никитин. И.Н. Организация государственного ветеринарного надзора. – Москва: Зоомедлит, 2010. – 263 с.

29. Федеральная служба по ветеринарному и фитосанитарному надзору (Россельхознадзор) [Электронный ресурс]

30. Волков Ю.Г., Добренков В.И. и др. Сотсиология. - М., 2006.

31. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 28.04.2020 yildagi № PQ-4699 qarori. «Raqamli iqtisodiyot va elektron xukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida».

32. Кешелава, А.В., Буданов, В.Г., Румянцев, В.Ю. и др. (2017). Введение в «Сифровую» экономику - ВНИИ Геосистем, - 28 с.
33. Старовыборный И.Х. Практикум по основам ветеринарии /И.Х. Старовыборный.3-е изд., перераб. и доп. Минск: Ураджай, 1999, 204 с.
34. Шморгун А.Б. Перспективы развития организационно-экономического механизма повышения эффективности производства продукции птисеводства – Вестник Ульяновской государственной сельскохозяйственной академии. 2010. №2. С., 103.
35. Кузмина Т.М. Структура рабочего времени государственных ветеринарных инспекторов на мясокомбинатах — Материалы МНК / Казан, 2000. С. -199.
36. Брандорф, А.З. Конференция «Среднерусская порода медоносных пчел в стратегии развития мирового пчеловодства» / А.З. Брандорф, М.М. Ивойлова / Пчеловодство. – 2019. - №6. – С.3-5.
37. Безбородкин Н.С. Организация и экономика ветеринарного дела, - Мозыр: РИФ «Белый ветер», 2000. – 160с.
38. Воскобойник В.Ф. Использование ЭВМ в ветеринарной практике /Ж. Ветеринария. -1990. - №4. -С. 18 - 20.
39. Кахикало В.Г. Мечение сельскохозяйственных животных / -М.: Агропромиздат, 1987. С.30.
40. XEB (OIE) suv hayvonlari veterinariya-sanitariya kodeksi, 12- nashri, 2009 g., rus tilida.
41. www.animal-id.ru
42. Гинзбург А. Г., Иванов А. Д., Организация ветеринарного дела в СССР, 2 изд., М., 1970;
43. Ветеринарноз законодательство, под ред. А. Д. Третьякова, т. 1, М., 1972.
44. O‘zbekiston Respublikasining “Veterinariya to‘g‘risida” 03.09.1993y. qonuni (yangi tahriri);
45. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;
46. Закон РФ “О ветеринарии” от 14 мая 1993 г. с изменениями;
47. O‘zbekiston Respublikasining 30.08.1997 y. 483-I-son "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida"gi Qonuni;
48. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks (109-, 110-, 111- moddalar);
49. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeks (200- modda);
50. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2019 yil 28 martdagi PF-5696-son Farmoni;

51. "O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019 yil 28 martdagi PQ-4254-son Qarori;

52. "O'zbekiston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.06.2019 yildagi № 532- qarori;

53. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan 2018 yil 25 dekabrda guvohnoma №001120 –sonli raqam bilan reestrqa kiritilgan "Polojenie o Gosudarstvennom veterinarnom kontrole i nadzore v Respublike Uzbekistan".

54. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan 2018 yil 6 dekabrda guvohnoma №001182 –sonli raqam bilan reestrqa kiritilgan "Polojenie o delegirovanii otdelnyx gosudarstvennyx polnomochiy v oblasti veterinarii".

55. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan 2021 yil 9 marta guvohnoma №003324 –sonli raqam bilan reestrqa kiritilgan

56. О. Шарипов, Б. Расулов, Идентификация и паспортизация с/х животных. Журнал: Зооветеринария №4, Апрель 2012г;

57. Шарипов О., Рафиков Р., Расулов Б. «Концептуальные вопросы системы развития животноводства: Система кооперации в животноводстве», Ж. "Зооветеринария", Т., 2011., №10, -с. 15-17;

58. Кузнесов А.Ф., Нашенский Н.С., Шуканов А.А., Белкин Б.П. "Гигиена животных", Москва, Колос, 2001 г.;

59. Информационные системы прослеживания животных и продуктов, подконтрольных ветеринарному надзору : учеб. - метод. пособие для студентов биотехнологического факультета по специальности «Ветеринарная санитария и экспертиза, ветеринарных специалистов, слушателей ФПК и ПК / В. А. Лазовский. В. М. Жаков. - Витебск: ВГАВМ, 2019. - 28с.

60. Журавел, Н.А. Организация ветеринарного дела. - Троицк: ФГБОУ ВО Южно-Уральский ГАУ, 2016 г. - 99 с.

61. Никитин, И.Н. Организация государственного ветеринарного надзора. - Москва: Зоомедлит, 2010. - 263 с.

62. Федеральная служба по ветеринарному и фитосанитарному надзору (Росселхознадзор) [Электронный ресурс].

63. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 28.04.2020 yildagi № PQ-4699 qarori. «Raqamli iqtisodiyot va elektron xukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida».

64. Yu. Salimov, I. Rasulova. Probiotiklar va ularning o'ziga xos xususiyatlari / Veterinariya tibbiyoti j. 2018, № 1, S.31-32.

65. Д. Огай, И. Расулова, Б. Мирсаидов. Здоровый кишечник - залог высокой продуктивности / Ўзбекистон паррандачилиги ж. 2017, №3, С.16-18.

66. Д. Огай, И. Расулова, Б. Мирсаидов. Применениэ пробиотического препарата «Колибактерин ветеринарный» / Агробизнесинформ ж. 2018, №12, С. 26-27.

67. Кешелава, А.В., Буданов, В.Г., Румянцев, В.Ю. и др. (2017). Введение в «Сифровую» экономику - ВНИИ Геосистем, - 28 с.

68. Кузмина Т.М. Структура рабочего времени государственных ветеринарных инспекторов на мясокомбинатах - Материалы МНК / Казан, 2000. С. -199.

69. Кахикало В.Г. Мечениэ селскохозяйственных животных // -М.: Агропромиздат, 1987. С.30.

70. Калинин Г.И. Государственный ветеринарный надзор: пробелы в нормативно-правовом регулировании и проблемы при осуществлении / Г.И. Калинин, Л.Е. Калинина // Современное право. - 2009. - № 10. - С. 64-70.

71. Проблема резистентности к антибиотикам возбудителей болезней, общих для человека и животных / А.Н. Панин [и др.] // Ветеринария, зоотехния и биотехнология. 2017. № 5. С.18-24.

72. Шулга Н.Н., Шулга И.С., Плавшак Л.П. Антибиотики в животноводстве - пути решения проблемы // Тенденции развития науки и образования. 2018. № 35-4. С. 52-55.

Burxon Rasulov, Nizam Farmanov

**DAVLAT VETERINARIYA NAZORATINI
TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI**

o'quv qo'llanma

Toshkent : “Fan ziyosi” nashriyoti, 2023. – 276 b.

“Fan ziyosi” nashriyoti MCHJ

Litsenziya № 3918, 18.02.2021.

Manzil: Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30

Nashriyot direktori

Muharrir

Texnik muharrir

I.Xalilov

N.Tojiqulova

L.Fayziyev

Bosishga ruxsat etildi 15 iyul 2023 yil.

Qog'oz bichimi 100x70 ¹/₁₆.

Times New Roman garniturası.

Shartli hisob tabog'i – 17,2. Nashriyot hisob tabog'i – 16,0

Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 08/16

ISBN: 978-9943-9608-6-2

«Delta Print Service» MCHJda chop etildi.

Yangihayot tumani, Binokor MFY, Sohil ko'chasi, 30-uy.



Rasulov Burxon Raimovich 1956-yil Samarqand shahrida tug'ilgan.

1978-yil Samarqand qishloq xo'jalik instituti veterinariya fakultetini veterinariya vrachi mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan.

1988-yili Stavropol qishloq xo'jalik institutida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi, 1 ta ilmiy asar, 3 ta ixtiro patent, 24 ilmiy maqolalar muallifi.

Xozirgi paytda veterinariya qo'mitasi xuzurida Davlat chegarasidagi va transportdagi davlat veterinariya nazorati boshqarmasining yetakchi mutaxassisi lavozimida ishlamoqda.



Farmanov Nizam 1950-yil Samarqand viloyatining Nurota tumanida tug'ilgan.

1978-yil Samarqand qishloq xo'jaligi instituti veterinariya fakultetini, veterinariya vrachi mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan.

1986-yili Moskva Veterinariya akademiyasida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi, 1 ta darslik, 3 ta uslubiy qo'llanma, 76 ta o'quv-uslubiy ishlar, 165 ta maqolalar muallifi. Ixtiro uchun mualliflik guvohnomasiga ega

Hozirgi paytda Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Veterinariya farmatsevtikasi kafedrasi mudiri sifatida ilmiy-pedagogik faoliyatini olib bormoqda.

ISBN - 978-9943-9608-6-2



9 789943 960862